

QIR.
2-39

N.I. SAFAROVA, N.K. KOMILOVA,
I.N. ISLOMOV, N.M. KARAKULOV

JAHON MAMLAKATLARI IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI



981
7-39

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

N.I. SAFAROVA, N.K. KOMILOVA, I.N. ISLOMOV,
N.M. KARAKULOV


JAHON MAMLAKATLARI IQTISODIY
VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI

(O'quv qo'llanma)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Bakalavriat yo'naliishi: 5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi



- 5152 - 2

KBK: 26.8(0)ya73

J 39

UO'K: 911.3:304(100)(075.8)

ISBN 978-9943-7730-2-8

Safarova N.I. va boshq.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi [Matn] : o'quv qo'llanma / N.I. Safarova, N.K. Komilova, I.N. Islomov, N.M. Karakulov. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. – 244 b.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi o'quv qo'llanmasida jahon siyosiy kartasi, hamda uning shakllanish bosqichlari, davlatlar klassifikatsiyasi, jahon tabiiy resurslari, aholisi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, kitobda jahon iqtisodiyoti va uning tarkibiy qismlari hisoblangan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlariga xos xususiyatlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan. Ushbu o'quv qo'llanma ta'limning barcha bosqichi o'quvchilari, talabalari va magistrantlari, shuningdek o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Rajabov F.R. – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrasi mudiri, g.f. b.f.d.

Amanbayeva Z.A. – Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 6-oktyabrdagi 522-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlangan.

© Safarova N.I. va boshq.
© “Mahalla va Oila” nashriyoti, 2022.

SO'Z BOSHI

Ma'lumki, so'nggi yillarda darslik yoki o'quv qo'llanmalar ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan har yili o'rta va oliy ta'lim tizimida ta'lim muassasalarini barcha fanlardan kerakli darsliklar bilan ta'minlash uchun zarur choralar ko'rib borilmoqda. Mazkur nashr qilinayotgan o'quv manbalari sifati talabga, zamonaviy talablariga mos bo'lishi, o'quvchilarda davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan ko'nikma va kompetentsiyalarni shakllantirishga xizmat qilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasining “Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari” deb nomlangan 3-bobida “o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini munta-zam ravishda yangilab borish” masalasiga alohida e'tibor qaratgan edi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangidan yangi tadqiqotlarni taqozo etmoqda. Xususan, mamlakatimizda xorijiy adabiyotlarni o'rganish va ularni respublika oliy ta'lim tizimida joriy qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada “Geografiya” fanida ham salmoqli o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y berdi.

Aytish o'rinniki, geograf mutaxassislar tayyorlashda, ularning bilim va malakalarini oshirishda “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)” o'quv kursi muhim ahamiyat kasb etadi. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)” o'quv qo'llanmasi 5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi bakalavriat yo'nalishi uchun mo'ljallangan. Mazkur o'quv qo'llanmada jahon siyosiy kartasi, hamda uning shakllanish bosqichlari, davlatlar klassifikatsiyasi, jahon tabiiy resurslari, aholisi, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlariga xos xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Ushbu qo'llanmaning yaratilishida asosiy manbaa sifatida Strahler, Alan H., Joseph Holden., N.Castré, A.Rogers, D.Sherman singari mualliflar tomonidan yozilgan shu predmetga taalluqli kitoblardan (Strahler, Alan H. Introducing Physical Geography Wiley. USA, Boston University. 2013. ISBN: 9789-0470-13486-3, 978-0470-41811-6; Joseph Holden. Physical Geography and the Environment. UK, Pearson Education Limited 2005. ISBN: 0-13-121761-5, 978-0-13-121761-4; N.Castré, A.Rogers, D.Sherman. Questioning Geography: Fundamental Debates. USA 2005.) foydalnildi.

Unda jahon siyosiy kartasi, dunyo mamlakatlari klassifikatsiyasi, jahon tabiiy resurslari, jahon aholisi geografiyasi, jahon iqtisodiyoti, jahon sanoat geografiyasi, jahon qishloq xo'jalik geografiyasi, jahon transport geografiyasi, jahon xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi, tashqi iqtisodiy aloqalar, jahon mamlakatlarining regional tahlili, jahoning global muammolari mavzulari atroficha yoritib berilgan, shuningdek, har bir mavzu yuzasidan nazorat savollari va topshiriqlar keltirilgan.

O'quv adabiyotlarini yaratishning yangi avlodlarini yaratish konsepsiysi asosida tayyorlangan. Mavzularning mohiyati, mazmu ni, hajmi izchillik bilan yoritilgan hamda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirilgan. Buni illustratsiyalarga boyligi, karta-sxema va statistik ma'lumotlarni berilganligi bilan ham ifodalash mumkin. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, ushbu fan bo'yicha o'zbek tilida o'quv darsligi va qo'llanmalar kamligi, buning oqibatida mazkur fanga oid manba yaratishda ba'zi qiyinchiliklar mavjudligi tufayli ushbu ishda ham ayrim kamchilik va nuqsonlar bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni mualliflar kutib qoladi.

I. KIRISH. JAHON SIYOSIY KARTASI

Tayanch tushunchalar: *iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, tabiiy karta, siyosiy karta, qit'alar, Dunyo okeani, siyosiy kartaning shakllanish bosqichlari, davlatlar, mamlakatlar, mustamlaka hududlar, demarkatsiya, delimitatsiya, koloniylar, erkin assotsiatsiyalashgan hududlar, dominion.*

1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning geografik fanlar tizimida tutgan o'rni

Mavjud fanlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan geografiya fani shakllanishida ko'p asrlik rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Davrlar davomida fanning tadqiqot ob'ektiga xos asosiy tushunchalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Uning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan iqtisodiy geografiyaning muhim kategoriya va qonuniyatlar asosan o'tgan asrda tadqiq etilgan va fanga kiritilgan.


Ishlab chiqarish tarmoqlari orasida yangi soha – sanoatning paydo bo'lishi jahon iqtisodiyotining shakllanishiga turki bo'lganligi barchamizga ma'lum. Ushbu inqilobiy o'zgarishlar geografik fanlar tizimida ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuv masalalarini o'rganuvchi iqtisodiy geografiyaning yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

"Iqtisodiy geografiya" tushunchasi birinchi marotaba fanga M.Lomonosov tomonidan 1760-yil kiritilgan bo'lsada, ilmiy doirlarda XIX asrning oxirlariga kelibgina keng qo'llanila boshlandi. Mazkur fan turli davlatlar va mintaqalar iqtisodiyotining rivojlani shining hududiy tafovvutlarini o'z tadqiqot predmeti sifatida o'r gana boshladi. Postindustrial ishlab chiqarish munosabatlarining yuzaga kelishi bilan insonlar hayot tarzi tashkil etilishining hududiy shakllari va jarayonlarini o'rganuvchi ijtimoiy geografiya rivojlanishi boshladi.

"Inson-tabiat-xo'jalik-atrof muhit" tizimida yuzaga kelgan muammolarni hamkorlikda o'rganish asosida geografiyaning yuqorida sanab o'tilgan ikki yo'naliishi integratsiyasi yuzaga keldi. Buning natijasida 1970-yillardan boshlab geografiya fanlar tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy geografiya shakllandı. Ushbu yo'naliish fanlari jamiyatni hududiy tashkil qilish jarayoni,

uning ko'rinishlari hamda shakllari bilan bog'liq qonuniyatlarni mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, umumbashariy doiralarda tadqiq qiladi. Shu bilan birga ilmiy adabiyotlarda fan nomlanishida iqtisodiy-ijtimoiy geografiya degan atamaga ham duch kelish mumkin (mazkur darslik nomlanishida ham o'quv reja bilan yagonalikni saqlab qolish maqsadida ushbu nom saqlab qolingan). Xorijiy davlatlarda u "Jamiyat geografiyası" (Rossiya), "Inson geografiyası" (Germaniya) kabi nomlarga ham ega.

Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlarini tasniflashda yagona kelishuv mavjud emas. Turli ilmiy manbaalarda bir qancha tasniflash ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ularni taqqoslash asosida umumiyl holda iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning iqtisodiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ijtimoiy yo'naliishlari mavjudligini ko'rish mumkin. Quyida professor A.Soliev tomonidan taklif qilingan iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi bilan tanishish orqali uning asosiy yo'naliishlari haqidagi fikrga ega bo'lish mumkin.



1-rasm. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlarining tarkibiy tuzilishi.

O'z taraqqiyotida tarix, iqtisodiyot, statistika kabi umumiyl, geologiya, kartografiya, umumiyl yer bilimi kabi geografik fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanayotgan iqtisodiy-ijtimoiy geografiya bir qator tadqiqot usullaridan foydalanadi. V.P.Maksakovskiy tasnifiga ko'ra kuzatish, kartografik, tarixiy, statistik, qiyosiy taqqoslash kabi umumgeografik, geokimyoviy, iqtisodiy rayonlashtirish kabi xususiy geografik usullar fanning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, masofaviy tadqiqotlar, geografik proqnoz, modellashtirish, geoaxborotlash kabi zamonaviy geografik tadqiqot usullarining hozirgi kunda iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlari rivojida ahamiyati ortib bormoqda.

Barcha fanlarda bo'lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy geografiya oldida ham bir qator vazifalar mavjud.

- 1) siyosiy kartaning shakllanish qonuniyatlarni aniqlash;
- 2) tabiiy resurslar hududiy tarqalishi va ulardan iqtisodiyotda foydalanish darajasini tahlil qilish;
- 3) jahon aholisi soni, dinamikasi, tarkibi va hududiy joylashuv xususiyatlarni o'rganish;
- 4) jahon iqtisodiyotiga fan-texnika taraqqiyoti ta'sirini baholash va tadqiq qilish;
- 5) davlatlar va mintaqalarning jahon iqtisodiyotidagi o'rmini baholash va b.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyası fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarkibiga kiruvchi asosiy fanlardan biri bo'lib, u jamiyat rivojlanishining hududiy jihatlari, jahon xo'jaligi, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorligining dunyo mintaqalaridagi xususiyatlarni o'rganadi. Fanning tadqiqot ob'ekti bo'lib, jahon mamlakatlari hisoblanadi. Mamlakatlarning geografik o'rinni, tabiiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy resurs xususiyatlari va ulardan foydalanish, ularning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, ichki iqtisodiy tafovvtlar va ularni kelib chiqish sabablarini o'rganish fanning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 1760-yil M.Lomonosov birinchi marotaba geografiya fanlari tizimida iqtisodiy geografiya yo'naliishini shakllantirish zarurligi haqida o'z fikrlarini bildirib, ularni ilmiy jihatdan asoslab berganiga qaramay, ushbu yo'naliish fan bo'lib shakllanishi uchun deyarli ikki asr vaqt ketdi. 1929-yil Moskva

davlat universitetida N.N.Baranskiy tomonidan birinchi iqtisodiy geografiya kafedrasi tashkil etildi. Oradan besh yil o'tkach, I.A.Vitver rahbarligida mazkur kafedra negizidan chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi kafedrasi ajralib chiqdi va mustaqil faoliyat olib bora boshladi. Ular turli mamlakatlar va mintaqalardagi iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish holati, uning xususiyatlarini turli statistik ma'lumotlar asosida tahlil etib, ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqqanlar va fanning rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar.

Bugungi kunda respublikamizda ushbu fan iqtisodiy geografiyaning boshqa yonalishlariga qaraganda ilmiy tadqiqotlar kam olib borilgan sohasi ekanligi bilan ajralib turadi. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fani aksariyat MDH davlatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham geografiya bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar uchun asosiy fanlardan biri sifatida o'qitiladi. V.P.Maksakovskiy, V.V.Vol'skiy, B.P.Alisov, I.A.Rodionova kabi olimlar tomonidan nashr qilingan darslik va o'quv qo'llanmalar bu kursni o'qitishda asosiy manbaa bo'lib xizmat qilmoqda.

1.2. Jahon siyosiy kartasi va uning shakllanish davrlari

Ma'lumki, karta geografiyaning ikkinchi tili hisoblanadi. Ular o'z xususiyatiga, mazmuniga ko'ra turli ko'rinishga ega bo'ladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari tadqiqotlarda foydalanadigan kartalar tabiiy geografik kartalardan davriy o'zgaruvchanlik xususiyatiga ko'ra farq qiladi. Jahon davlatlari va mamlakatlari asosiy tadqiqot predmeti hisoblangan "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani mavzularini yoritishda siyosiy karta katta ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy karta – davlatlarning joylashgan o'rni, chegaralari va poytaxtlarini ko'rsatib beruvchi karta bo'lib hisoblanadi. U jamiyatdagi siyosiy-geografik o'zgarishlarni: yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, mavjud davlatlarning bir-biri bilan qo'shilishi yoki ajralishi, poytaxt shahar maqomining o'zgarishi kabilarni ko'rsatib beradi.

Aytib o'tilganidek, siyosiy karta o'z xususiyatiga ko'ra o'zgaruvchan xarakterga ega. Jahonda yuz berayotgan har bir muhim voqelik uning sifatiy va miqdoriy o'zgarishlariga sabab bo'lishi

mumkin. Dunyo siyosiy kartasining miqdoriy o'zgarishlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- yangi yerlarning qo'shilishi (qadimda);
- turli urushlar natijasida hududning kengayishi yoki kamyishi;
- davlatlarning bir-biri bilan qo'shilishi yoki bo'linib ketishi;
- davlatlar orasida kelishuvga ko'ra hududlarni bir-birlariga berishi (yoki almashinuvi) ;
- dengiz hududlarida qo'shimcha yerlar barpo qilish (dengizdan quruqlik tortib olish) va b.

Sifatiy o'zgarishlarga esa quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy boshqaruva shakllarining tarixiy almashinuvi;
- davlatning siyosiy mustaqillikka erishuvi;
- davlat boshqaruvi yangi shakllarining yuzaga kelishi;
- davlatlararo ittifоqlar va tashkilotlarning yuzaga kelishi;
- davlatlararo nizoli sabablarni yuzaga keltirayotgan «olovli nuqtalar»ning paydo bo'lishi yoki ularning to'xtatilishi va b.

2011-yildan boshlab Sudan Respublikasining janubida Janubiy Sudan Respublikasining tashkil topganligi jahon siyosiy kartasining miqdoriy, 1991-yil sobiq SSSR davlati faoliyatining yakunlanishi va uning o'rnda keyinchalik MDH tashkiloti tarkibiga kirgan o'ndan ortiq mustaqil davlatlar paydo bo'lishi sifatiy o'zgarishlariga misol bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan siyosiy kartaning miqdoriy va sifatiy o'zgarishlari unda mavjud bo'lgan ob'ektlar soni, ularning hududiy o'lchamlari, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda siyosiy kartada yuzaga kelayotgan har bir ob'ektni o'ziga xos tarzda ko'rsatib o'tilgan o'zgarishlarning "hosilasi" sifatida e'tirof etish mumkin. Shu o'rinda alohida ta'kidlash zarur-ki, siyosiy kartaning sifatini o'zgarishlari o'z navbatida miqdoriy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan: Sharqiy Yevropada sotsialistik tuzumning yemirilishi (sifatiy o'zgarish) natijasida mintaqalari tarkibida yangi davlatlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi (miqdoriy rivojlanish).

Kartada yuz beradigan siyosiy-geografik o'zgarishlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Bular quyidagilar:

– *evolyutson*. Jamiyatning davlatlar rivojiga nisbatan xayriox bo‘lishi, ya’ni olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga nisbatan o‘z fikrini bayon eta olishi. Bunda saylov jarayoni, referendum, jamoa so‘rovnomalari, davlat boshqariluviga taaluqli qonun xujjalariini xalq muhokamasiga qo‘yilishi kabilarni misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

– *inqilobiy*. Davlat boshqariluviga nisbatan keskin norozilik kayfiyatining kuchayishida namoyon bo‘lib, bu holat aholining ma’lum bir guruhi uchun ijobiy o‘zgarishlar olib kelsa, boshqalari uchun u salbiy ta’sirga ega bo‘ladi. Turli davlat to‘ntarishlari, fuqarolar urushlari, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan turli tashkillash-tirilgan yoki tashkillashtirilmagan ko‘rinishdagi aholi qarshiliklari (ish tashlashlar, ichki ishlar organlari vakillari bilan to‘qnashuvlar, namoyishlar va b.)

– *harbiy-siyosiy*. Siyosiy-geografik o‘zgarishlarning bu turi zamnaviy dunyoda ko‘p kuzatilmasa-da, lekin, o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. U hozirgi kunlarda davlatlarning bir-biriga nisbatan harbiy tajovvuzi turli hududlarning to‘liq yoki qisman okkupatsiya qilinishi ((lot. occupatio — egallah, bosib olish) — xalqaro huquqda — urush olib borayotgan tomonning kurolli kuchlarining dushman hududini vaqtincha egallab olishi), hududlar anneksiyasi ((lotincha: annexere — birlashtirish, qo‘shilish) — boshqa bir davlat hududini butunlay yoki qisman egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosati), mintaqaviy qurolli to‘qnashuvlarni qo’llab-quvvatlash, mahalliy urushlarda ishtirot etish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Umuman jahon siyosiy kartasining shakllanishi geografik makon va zamonda yuz beruvchi jamiyat xayoti va iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy-ma’naviy rivojlanishning o‘ziga xos uzoq vaqt davom etgan hosilasi bo‘lib xisoblanadi.

Zamnaviy siyosiy karta shakllanishida o‘z xususiyatlarga ega bo‘lgan to‘rt tarixiy davr katta ahamiyatga ega. Har bir davr bir-biridan insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy jarayonlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bular quyidagilar:

1. Qadimiy davr.
2. O‘rta asrlar davri.

3. Yangi davr.

4. Eng yangi davr.

Siyosiy karta shakllanishining har bir davri uchun bir-biridan farq qiluvchi asosiy xususiyatlari va qonuniyatlar xos bo‘lib, unda o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayonlar miqdori va intensivligi yuz bergan siyosiy vogeliklar, ularda ishtirot etgan kuchlarning faoliyk darajasiga bog‘liq.

Qadimiy davr insoniyat tarixi boshlangandan to‘eramizning V asrlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, yer yuzida ilk insonlarning paydo bo‘lishi davri va holati haqida ko‘plab taxminlar mavjud. Mavzuda aynan kishilik jamiyat taraqqiyoti haqida fikrlarni tahlil qilmagan holda, ilmiy manbalarga tayanib, bundan taxminan eramizdan avvalgi besh ming yilliklar avval ular yerning quruqlik qismida deyarli tarqalib, ilk oykumena¹ hududlari hosil qilganliklari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. (Ilavadagi 1-rasmga qaralsin) Arxeologik qazishmalar ilk ongli insonlar Sharqiy Afrikada hududida 200 ming yilliklar oldin paydo bo‘lganini ko‘rsatadi. 100 ming yilliklar avval ular butun Afrika qit’asi bo‘ylab tarqalgan bo‘lsalar, 70 ming yillar avval Osiyo, 40 ming yillar avval esa Amerika hududlariga migratsiya qilganlar.

Ilk mehnat taqsimotining (dehqonchilik va chorvachilikning sohalarining mustaqil tarmoq sifatida rivojlanishi) yuz berishi bilan qulay tabiiy sharoit, boy tabiiy resurslarga ega bo‘lgan hududlarda eramizdan avvalgi uch ming yillar avval yer yuzining qator mintaqalarida birinchi shaharlar paydo bo‘la boshladi. Ular orasida Ossuriya, Bobil, Qadimgi Misr, Finikiya, Tsinlar imperiyasi, atsteklar, mayyalar, inklar kabi qadimiy davlatlar paydo bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qadimgi davr siyosiy kartalarida asosan Yevropaning markaziyya janubiy, Osiyoning katta qismi hamda Afrikaning shimoliy va shimoli-sharqiy qismlari tasvirlanganligi bilan ajralib turadi (Ilavadagi 1-rasmga qaralsin).

O‘rta asrlar davri eramizning V-XV asrlari oralig‘ini o‘z ichiga oladi. Bu davr feodal davriga xos bo‘lgan ichki va tashqi bozorning shakllanishi va rivojlanishi, qudratli davlatlar tomonidan

¹ **Oykumena** (yunoncha – oyko – yashayman, turaman so‘zidan olingan) – yer yuzasining aholi yashaydigan va ular tomonidan o‘zlashtirilgan qismi.

boshqa hududlarni bo'yosindirish uchun olib borgan kurashlar, dengizorti yurtlarini tadqiq qilishga bo'lgan siyosiy hamda iqtisodiy qiziqishlar bilan ajralib turadi. Vizantiya, Muqaddas Rim imperiyasi, Portugaliya, Ispaniya, Kiev Rusi, Dehli sultonligi, Arab xalifaligi kabi qudratli davlatlar aynan shu davrda gullab-yashnagan. Shu jumladan, professor Q.Abirqulov(2001-yil) fikriga ko'ra, O'rta asrlar dunyo siyosiy kartasida Movaraunnaxning ilk feodal davlatlari (Sug'd, Toxariston, Davon, Choch, Xorazm va boshqalar), IX-XIII asrdagi feodal davlatlar (Qorliqlar, Toxiriylar, Samoniylar, Qoraxoniylar, Xorazm davlatlari va boshqalar), Chig'atoy ulusi (XIII-XIV asr), Amir Temur va Temuriylar davlatlari (XIV asrning oxiri va XV asrning boshi) katta salmoqqa ega bo'lganlar. Bu davlatlar o'zlarining joylashgan o'rni sabab "Buyuk Ipak yo'li" bilan bog'liq qulayliklardan foydalanib, G'arb va Sharq o'rtasidagi o'ziga xos karvon yo'li "ko'prik" rolini o'ynaganlar.

Bu davrda jahon siyosiy kartasida muhim o'rinni egallagan yuqorida nomlari qayd qilingan davlatlarning asosiy qismi hozirgi kundarda mavjud emas. Ma'lum qismi esa o'sha davrga xos nomlanishini hozirda ham saqlab qolgan. Buyuk geografik kashfiyotlar dunyo siyosiy kartasida katta o'zgarishlarning yuz berishiga sababchi bo'ldi.

Shunday qilib, ushbu davr ilk mustamlakachilik harakatlarining boshlanishi, dengiz bo'ylab birinchi marotaba uzoq masofalarga amala oshirilgan sayohatlarning ortishi bilan tavsiflanadi.

Yangi davr, XVI asrdan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bu davrda feodalizm yemirilib, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boradi. Bu esa hayotning barcha sohalarida, shu jumladan dunyo siyosiy kartasida muhim o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keladi.

Yangi davr siyosiy kartasi shakllanishida **Buyuk geografik kashfiyotlar** alohida o'rinni egallaydi. 1492-yilda Xristofor Kolumb tomonidan Yangi Yer – Amerika qit'asiga uyushtirilgan ekspeditsiya natijasida boshlangan Buyuk geografik kashfiyotlar siyosiy kartada bir qator o'zgarishlarning yuz berishiga sababchi bo'ldi. Qit'aning shimoliy qismi asosan Angliya va Fransiya, janubi esa Ispaniya va Portugaliyaning mustamlaka hududlariga aylandi.

1519-1522-yillarda Magellan tomonidan ilk marotaba amalga oshirilgan dunyo bo'ylab sayohati insonlarni yer shari tuzilishi, jahon davlatlari haqidagi ko'plab yangi ma'lumotlar bilan tanishtiridi. 1498-yilda Vasko da Gama tomonidan Afrikani janubdan aylanib o'tish mumkinligi isbotlandi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo siyosiy kartasida kuchli o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. U Yevropa mustamlakachilar bosqichining boshlanishi, dunyo xo'jalik aloqalarining keng rivojlanishi, aholi ko'chish xarakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi. Buyuk geografik kashfiyotlar dunyoning uchta yirik mustamlakachi mamlakatlari - Angliya (Afrikada), Ispaniya (Amerikada), Portugaliya (asosan Osiyoda) imperiyasining paydo bo'lishiga, hamda dunyo bozorining shakllanishiga olib keldi. Dengiz yo'lining rivoji "Buyuk Ipakyo'li"ning inqiroziga olib keldi. (Ilovadagi 2-rasmga qaralsin)

XIX asrning 40-yillari oxiri, 50-yillari boshidan Rossiya imperiyasining Turkiston yerlariga bosqini boshlandi. Rus istilochi qo'shinlari 60-yillardan Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, 70-yillarning boshlaridan esa Xiva xonligi hududlarini bosib oldi va ularni Rossiya imperiyasiga to'la bo'ysintirdi. Turkiston ulkan viloyat, volost, uchastka va oqsoqolliklarga bo'linib boshqarildi.

Mustamlakachilik tizimiga qarshi koloniyalarda milliy ozodlik harakatlari boshlandi. Ayniqsa, Angliya mustamlakachiligiga qarshi kurash Shimoliy Amerikada avj oldi. 1775-1783-yillarda ozodlik uchun olib borilgan urush Angliyaning AQSh mustaqilligini tan olishga majbur etdi. 1776-yilda hozirgi AQSh hududining shimoliy-sharqida joylashgan 13 ta shtat yagona davlatga birlashgan holda o'z mustaqilligini e'lon qildi. AQSh mustaqillikka erishgach u o'z hududini yanada kengaytirish uchun kurash boshladи. 1803-yilda AQSh Fransiyadan G'arbiy Luizianani, 1819-yilda Ispaniyadan Floridani, 1867-yilda esa Rossiyadan Alyaskani sotib oldi. Meksikan Texas (1845-yil), Kaliforniya va Qoyali tog'larning janubi (hozirgi Nyu-Meksika shtati)ni tortib oldi.

Bolqon yarim orolida milliy ozodlik harakati asosida Turkiya imperiyasi tarkibiga kirgan Gretsiya (1821-yil), Chernogoriya (1852-yil), Ruminiya, Serbiya (1878-yil), Bolgariya (1908-yil) davlatlari paydo bo'ldi.

G'arbiy yarim sharda yuz berayotgan milliy ozodlik harakatlari bilan bir vaqtning o'zida sharqiy yarim shar mintaqalarida shiddatli kolonializatsiya jarayoni amalga oshirila boshlandi. Agar 1876-yilda Afrikaning atigi 10 % hududida G'arbiy Yevropa mamlakatlariga qarashli bo'lsa, 1900-yilga kelib bu ko'rsatkich 90,5 foizga yetdi. Afrikadagi mustamlaka hududlar soniga ko'ra Angliya yetakchilik qilgan. U Shimoliy, Sharqiy va Janubiy, qisman G'arbiy Afrikada hukmron mavqega ega bo'ldi va Misr, Sudan, Keniya, Uganda, Somalining bir qismi, Shimoliy va Janubiy Rodeziya, Transviyal va Tunis (Oranjevaya), Bur Respublikasi, Nigeriya, Oltin qirg'oq (Gana), Serra-Leone, Gambiya kabi mamlakatlarni o'ziga bo'y sinadirgan.

Fransiya Jazoir, Senegal, Somali, Gvineya qo'lting'i qirg'oqlarining bir qismi, Tunis, Marokash, Gvineya qo'lting'i qirg'oqlari, Niger, Kongo xavzasasi, Chad ko'li rayoni, Madagaskarni qo'lga kiritdi. U Shimoliy va G'arbiy Afrikada o'zining yirik mustamlaka koloniyasini barpo qildi. Italiya Erityeriya, Somalining bir qismini, Portugaliya Angola va Mozambikni, Ispaniya esa G'arbiy Saxroi Kabir, Ispaniya Gvineyasi (Reomuni), Shimoliy Marokashning bir qismini zabit etdi.

Shu bilan birga jahon siyosiy maydonida o'z o'rniga ega bo'la boshlagan AQSh ham mustamlaka hududlarini barpo eta boshladi. 1898-yildagi Ispan-Amerika urushi natijasida u Ispaniyadan Filippin, Guam orollari va Puerto-Rikoni tortib oldi. Kuba rasman mustaqil deb tan olinishiga qaramay amalda u AQSh ning yarim mustamlakasiga aylangan edi. AQSh o'ziga Gavayi orollarini qo'shib oldi. Samoa orollarni Germaniya bilan bo'lib oldi.

Okeaniya Angliya (Fidji orollari, Salomon orollarining bir qismi), Fransiya (Taiti, Yangi Kaledoniya orollari), Germaniya (Yangi Gvineya orollarining shimoliy-sharqiy qismi, Bismark orollari, Salomon orollarining bir qismi, Marshal orollari) kabi davlatlar tomonidan bo'lib olindi.

Yaponiya o'z koloniyalari sonini ko'paytirish maqsadida 1895-yilda Xitoydan Tayvan orolini tortib oldi, Koreyan bosib oldi. Rus-Yapon urushidan keyin Yaponiya Saxalin orolining janubiy qismida, Kuril orollarida mustahkam o'rashdi.

XX asrning boshida Usmoniy turklar hukmronligiga qarshi olib borilgan milliy ozodlik harakatlari evaziga Albaniya mustaqillikka erishdi. Bolgariya Egey dengiziga chiqishga, Gretsya va Serbiya esa o'z hududlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi.

Shunday qilib, dunyo siyosiy kartasi shakllanishining yangi davrining asosiy mazmuni qudratli davlatlar tomonidan mustamlaka hududlarini bosib olish hamda metropoliya (mustamlakachi) davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabat va nisbatlar belgilab berdi. XX asrning boshida dunyo to'liq bo'lib olindi. 1914-yilda mustamlakachi imperiyalar mustamlakalarining umumiy maydoni 74,9 mln km², (jami quruqlik maydonining 56 %) ulardagi aholi 530 mln. kishiga (dunyo aholisining 35 %) ga yetdi. Angliya mustamlakalari maydoni 33,5 mln.km², Rossiyaniki 17,4 mln. km², Fransiyani 10,6 mln. km², Germaniyaniki 2,9 mln. km², AQSh niki 0,3 mln. km², Yaponiyaniki ham 0,3 mln. km² ni tashkil etdi.

Eng yangi davr, birinchi jahon urushining tugashi va 1917-yil Rossiya Imperiyasida yuz bergen Oktyabr to'ntarishidan boshlab, to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davr uch bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich (1917-1939 y) ning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ushu bosqichda dunyo siyosiy kartasida Sovet davlatining (sotsialistik imperiya) paydo bo'lishi hamda Yevropa va dunyoning boshqa qismlarida muhim hududiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ushbu bosqichda Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalandi, ko'pgina davlatlarning chegaralari o'zgardi. Yangi mustaqil mamlakatlar – Polsha, Finlandiya, Chexoslovakiya, Jugoslaviya (Serbiya, Xorvatiya, Sloveniya qirolliklari) va boshqalar paydo bo'ldi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Yaponiya mustamlakalari ko'paydi va kengaydi. Rossiya imperiyasi hududida bolsheviklar yakka hokimligi ostida Sovet hokimiyyati o'rnatilgandan keyin uning mustamlakasi hisoblanadigan Turkistonda ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi o'rnida yangi tuzilmalarni vujudga keltirish assosida mustamlakachilikni yanada mustahkamlash sho'rolar imperiyasi siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Dastlab Turkiston muxtoriyati (1917-yil noyabr – 1918-yil fevral), Turkiston Avtonom Respublikasining tuzilishi (1918-yil

aprel), Buxoro amirligining tugatilishi (1920-yil avgust) va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920-yil oktyabr) tuzilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920-yil aprel) tuzilishi ushbu siyosatning natijasidir. 1924-yilda Turkiston, Buxoro va Xorazm Sovet Respublikalari o'rnida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi, Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikasi, Tojikiston avtonom Respublikasi (O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibida), Qoraqirg'iz (Qirg'iz viloyati Rossiya Federatsiyasi tarkibida) va Qoraqalpog'iston avtonom viloyati (Qozog'iston avtonom Respublikasi tarkibida) tashkil etildi. Bulardan tashqari, 1919-yilda Afg'oniston, 1923-yilda Nepal ham o'z siyosiy mustaqilligini e'lon qildi.

Gitler Germaniyasi 1938-1939-yilda Avstriyani bosib oldi, Chexoslovakiyani bo'lib tashladi. 1939-yil sentabrida Germaniya Polshaga hujum boshladi va jahon siyosiy kartasida katta o'zgarishlar yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan Ikkinci jahon urushining boshlanishiga olib keldi. Ma'lumki, Urush davomida Germaniya qator Yevropa davlatlarini bosib olish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Shu bilan birga 1941-yilda Yaponiya Janubiy-sharqiy Osiyo va Tinch okeaniga boshqa imperiyalarning mustamlakalarini bosib olish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Ikkinci jahon urushi natijalariga ko'ra Germaniya va Yaponianing mag'lubiyatiга bog'liq holda dunyo siyosiy kartasida muhim o'zgarishlar yuz berdi.

Ikkinci bosqich (1939-1990-yilgacha) Yevropa siyosiy kartasida yuz bergan o'zgarishlardan tashqari, sotsialistik davlatlar hududining kengayishi (Yevropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sotsialistik yo'lga o'tishi), imperializm mustamlakachilik tuzimining yemirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Okeaniyada 100 dan ortiq mustaqil davlatlarning barpo etilishi bilan xarakterlanadi. Mustamlakachilik tizimining barbod bo'lishi, milliy ozodlik harakatining kuchayishi, xalqlarning mustaqillik uchun kurashlari dunyo siyosiy kartasini tubdan o'zgartirib yubordi.

1943-yilda Livan, 1945-yilda Indoneziya, 1946-yilda Suriya, 1947-yilda Hindiston va Pokiston mustaqil davlatlarga aylandilar.

1947-yilda BMT bosh Assambleyasi Falastin hududida ikkita mustaqil Arab va Yahudiy davlatlarini tuzish to'g'risida qaror qabul

qildi. 1948-yilda Isroil davlati tashkil etildi, lekin ko'p sabablarga ko'ra, hozirgacha Falastin arab davlati tuzilmadi. 1949-yilda sobiq Germaniya hududida dastlab GFR (AQSh, Angliya, Fransiya tasarrufidagi zonasida), so'ngra GDR (sobiq Sobiq Ittifoq zonasida) tuzildi. G'arbiy Berlin esa mustaqil siyosiy maqomga ega shaharga aylantirildi.

Ikkinci Jahon urushidan keyingi yillarda dunyo siyosiy kartasida V'etnam (1945), KXDR (1948), Xitoy Xalq Respublikasi (1949), Birma (hozirgi Myanma) (1948y) kabi davlatlar paydo bo'ldi. 60-yillarning birinchi yarmida ingliz mustamlakalari Kipr, Quvayt, Maldiv orollari, 1967-yilda Janubiy Yaman, 1971-yilda Baxreyn, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, shuningdek Bangladesh (Sharqiy Pokiston) mustaqil bo'ldi. 1975-yilda esa Laosda monarxiya tuzumi ag'darilib, Laos Xalq Demokratik Respublikasi e'lon qilindi.

Ikkinci Jahon urushidan keyingi yillarda Afrikaning 90 % ga yaqin hududi va 75 % aholi mustamlaka asoratida edi. Afrikada birinchi bo'lib Shimoliy Arab davlatlari mustaqil bo'ldilar. Liviya (1951yil), Marokash, Tunis va Sudan (1956-yil), Gvineya (1958-yil), mustaqillikga erishdi. 1960-yil BMT tomonidan "Afrika yili" deb e'lon qilinib bu yilda mazkur qit'aning 17 davlati mustaqillikka erishdi. Mustamlakachilikning parchalanishi jarayonini boshqa qit'alarda ham tezlashdi. Yevropada 1964-yilda Mal'ta mustaqil davlat bo'ldi.

Lotin Amerikasi siyosiy kartasida ham muhim siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. 1959-yili Kuba rivojlanishning sotsialistik yo'liga o'tdi. 1962-yilda ingliz mustamlakalari o'rnida mustaqil davlatlar - Trinidad va Tabago, Yamayka, 1966-yilda Gayana va Barbados, 1973-yilda-Bagam orollari kabilar paydo bo'ldi. 1975-yilda Niderlandiya mustamlakasi Surinam mustaqillikka erishdi.

Okeaniya siyosiy kartasida ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. 60-yillarda G'arbiy Samoa va Nauru (BMTning sobiq vasiy hududlari), 70-yillarda Tongo, Fidji, Salomon orollari, Tuvalu, Kiribati, Papua-Yangi Gvineya, 1980-yillarda - Vanuatu mustaqil davlat bo'ldilar.

Ikkinci bosqich 1990-yillardan to'g'irsga qadar davom etayotgan davr hisoblanadi.
TO'G'IRSGA QARADAN DAVOM ETAYOTGAN DAVR HOSIBLANADI
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZİRLİĞİ
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGİKA UNIVERSİTESİ
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FİLİALI

Ushbu davrga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- 1991-yilda sobiq Ittifoqning parchalanishi, uning tarkibidagi barcha ittifoqdosh respublikalarda mustaqil davlatlar tashkil topdi;
- Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) tashkil topdi;
- 1991-yilda Varshava shartnomasi tashkiloti (Xarbiy) va o'zaro yordam iqtisodiy kengashi faoliyati to'xtatildi.
- 1990-yil 3 oktabrdan ikki nemis davlati (GFR va GDR) yagona davlatga birlashdi;
- Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning tarkibida turli muddatlarda Sloveniya, Bosniya va Gertsegovina, Xorvatiya, Serbiya, Makedonia va Chernogoriya kabi mustaqil davlatlarga aylandilar;
- 1990-yil oktyabr oyida ikki arab davlati – Yaman Arab Respublikasi (YaAR) va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi (YaXDR) birlashdi (Yaman Respublikasi, poytaxti – Sana shahri) va b.

Mutaxassislarning fikricha dunyo siyosiy kartasining kelajakda o'zgarishi ko'p millatli mamlakatlarda etnik-milliy jarayonlarning rivoji yo'nalishiga, mamlakatlar va xalqlar o'rtaсидаги iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning xarakteriga bog'liq.

1.3. Jahon siyosiy kartasining asosiy ob'ektlari

Siyosiy kartada tasvirlangan ob'ektlarni o'z xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Davlatlar;
- Tan olinmagan davlatlar;
- Mamlakatlar;
- Koloniylar;
- Erkin assotsiatsiyalar;
- Dominionlar;
- Xalqaro hududlar va akvatoriylar;
- Neytral hududlar;
- Ijara hududlar va b.

Ushbu ob'ektlarning har biri o'z shakllanish va rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, geografik jihatdan jahoning deyarli barcha qit'alarida mavjud. (Ilovadagi 3-rasmga qaralsin)

Davlat – mamlakat miyosida jamiyatni uyuşdırısh masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan

hukmron tuzilma. Davlat jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi. Uning quyidagi asosiy belgilarining mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- ta'sis xujjalaring mavjudligi;
- boshqaruva rejalashtirish;
- bo'yinuvchi tashkilotlarning faoliyati;
- davlat ramzları.

Zamonaviy jahon siyosiy kartasida 240ga yaqin davlatlar, mamlakatlar hamda hududlar mavjud bo'lib, ularning 193 tasi mustaqil davlatlar hisoblanadi. Ushbu davlatlarning har biri siyosiy kartada ifodalangan o'z hududiga ega. (Ilovadagi 4-rasmga qaralsin)

Hudud o'ziga xos tabiiy va inson faoliyati tomonidan davriy ravishda hosil qilingan xususiyatlar va resurslarga ega yer yuzining quruqlik qismi hisoblanadi. Kartada hududlar sarhadlari davlat chegaralari bilan ifodalangan.

Davlat chegarasi esa ma'lum davlat chegaralarini ko'rsatib turadigan chiziqlardan tashkil topadi. Ma'lumki, xalqaro huquq normalariga ko'ra har bir davlat chegarasi daxlsiz hisoblanadi. Davlat chegaralari haqida fikr yuritilganda, davlatlarga tegishli bo'lgan quruqlik hududlaridan tashqari, dengizbo'yи davlatlar uchun ichki suvlar (dengizning bir qismi bo'lib, qirg'oq va boshlang'ich chiziq oralig'iни o'z ichiga oladi), hududiy suvlar (kengligi 12 dengiz mili (22,2 km) bo'lgan, to'lqin qaytish yoki boshlang'ich chiziqlardan boshlanuvchi dengiz qismi), yondosh hudud (hududiy suvlar chegarasidan boshlanuvchi kengligi 12 dengiz mili (22,2 km) bo'lgan dengiz qismi (boshlang'ich chiziqdan hisoblaganda 24 mili) kabi suvli chegaralar hamda fazoviy chegaralarga ham ega (xalqaro kelishuvga ko'ra quruqlik yuzasidan 100-110 kmdan yuqori kosmik kenglik). Jahon siyosiy kartasida davlatlar bilan bir qatorda tan olinmagan davlatlar ham mavjud.

Tanolinmagan davlatlar deb jahon siyosiy kartasining o'z aholisi, egallagan hududi ustidan nazorati, huquq va boshqaruva tizimiga ega bo'lishiga qaramay, BMT a'zolari bo'lgan davlatlar tomonidan tan olinmagan ob'ektlariga aytildi. Tan olinmagan davlatlar dunyoning barcha mintaqalarida mavjud bo'lsa-da, ularning eng ko'pi Osiyo qit'asiga to'g'ri keladi. Mazkur mintaqaning 20

davlati hududida 40 ta tan olinmagan davlat mavjud. Yevropada bunday davlatlar soni 30 tani, Afrikada esa 15 tani tashkil etadi.

Siyosiy kartada o‘z hududini nazorat qiluvchi, qisman tan olingan davlatlar (masalan: Shimoliy Kipr Turk Respublikasi, Janubiy Osetiya Respublikasi) bilan bir qatorda o‘zlari da‘vogarlik qilayotgan hududning bir qismiga ega bo‘lgan tan olinmagan davlatlar (masalan: Xitoy Respublikasi, Falastin Davlati) hamda o‘zlari da‘vogarlik qilayotgan hududga to‘liq egalik qiluvchi tan olinmagan davlatlar (masalan: Va Davlati, Vaziriston Davlati)ni uchratish mumkin.

Mamlakat o‘zining ma’lum miqyosdagi chegaralariga ega bo‘lgan, mustaqil yoki biron davlatga tobe holda mavjud bo‘lgan hudud hisoblanadi. Koloniya, erkin asotsiatsiyalashgan hududlar, dominionlarni uning turli ko‘rinishlari deb ham hisoblash mumkin.

Siyosiy kartaning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ob‘ektlaridan tashqari, unda harbiy harakatlar va harbiy bazalar joylashuvi ta‘qilangan hududlar neytral hududlar (ularga Iraq va Saudiya Arabistoni chegarasidagi ko‘chmanchi qabilalar suv oladigan madaniy yodgorliklarga ega hudud, Antarktida, kosmik fazo, xalqaro kanallar va bo‘g‘ozlar, Shpitsbergen arxipelagi misol bo‘la oladi), turli davlatlarning davlat chegaralaridan tashqarida joylashgan, jahon hamjamiyatining barcha a‘zolari undan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan, ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo‘lgan, hech bir davlat uni o‘zlashtirib olish huquqiga ega bo‘lмаган xalqaro hududlar va akvatoriyalar (Antarktida hududi, ochiq dengizni misol qilish mumkin) va ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv asosida shakllangan ijara hududlar (Kipr Respublikasi hududidagi Akrotiri va Dekeliya shaharlarida joylashgan Buyuk Britaniya harbiy bazalariga o‘xshash turli davlatlar tomonidan geografik o‘rnii qulay va geostrategik ahamiyatga ega hududlarda shakllantirilgan hududlar misol bo‘la oladi) ham mavjud.

Ko‘rinib turibdi-ki, siyosiy kartaning har bir ob‘ekti jahon siyosiy hayotining shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ularda yuz berayotgan jarayonlar kelajakda jahon siyosiy kartasida ko‘plab o‘zgarishlarni amalga oshirishi mumkin.

1.4. Dunyo mintaqalari zamonaviy siyosiy kartasi

Mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish asosida jahon mintaqalari siyosiy kartasining shakllanishi turli ko‘rinishga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Agar Yevropa va Osiyo siyosiy kartasi shakllanishi uzoq tarixiy davrlarni o‘z ichiga olsa, qolgan qit‘alarda bu jarayon asosan Buyuk geografik kashfiyotlar davri bilan bog‘liq. Aynan tarixiy rivojlanish davri davomiyligi mintaqalar siyosiy kartasida joylashgan ob‘ektlarning davlat tuzumi, hududiy-ma’muriy bo‘linish holatlarida turli ko‘rinishlarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Uzoq tarixiy shakllanish bosqichlariga ega bo‘lgan Yevropa va Osiyoda jahonning monarxiya davlat tuzumiga ega davlatlarining asosiy qismi to‘plangan.

Yevropa siyosiy kartasi eramizdan avvalgi XIX-XVIII asrlarda birinchi Krit davlatining paydo bo‘lishi bilan shakllanishni boshlagan. Uning rivojlanishida birinchi va ikkinchi Jahon urushlari katta ta’sir ko‘rsatgan. Hozirda bu mintaqada 43 ta davlat BMTga a‘zo bo‘lgan davlatlar mavjud. Mintqa davlatlari tarkibida jahon siyosiy va iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan Xavfsizlik ken-gashining doimiy a‘zolari hisoblanmish Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlar bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotida jahon umumiy YaMMning (nominal qiymatda) 4,4%dan ortig‘ini beruvchi Germaniya joylashgan. Qit‘a davlatlari BMT tasnifiga ko‘ra Shimoliy, Janubiy, G‘arbiy va Sharqi Yevropa subregionlariga ajratiladi. Tashqi ko‘rinishdan Yevropa siyosiy kartasi to‘liq shakllanib bo‘lgandek tasavvur uyg‘otsa-da, uning hududida Donetsk Xalq Respublikasi (Ukraina hududida), Kosovo Respublikasi (Serbiya hududida), Lugansk Xalq Respublikasi (Ukraina hududida), Pridnestrove Moldovan Respublikasi (Moldova Respublikasi hududida) kabi qisman tan olingan va olinmagan davlatlar, Gernsi (Buyuk Britaniya), Faryer orollari (Daniya), Shpitsbergen (Norvegiya) kabi mustamlaka hududlarning joylashganligi, irlandlar, kataloniyaliklarning o‘z siyosiy mustaqilligini talab qilish holatlari Yevropa siyosiy kartasida turli o‘zgarishlarning yuzaga kelishi mumkinligi dan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi 2500-1500-yillarda Moxenjora va Xarappada ilk davlatchilik ko‘rinishlarining paydo bo‘lishi Osiyo qit‘asi siyosiy kartasini shakllanishiga asos bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik uning

hududida hukmronlik qilgan Mo'g'illar, Amur Temur, Usmoniy turklar imperiyalari kabi davlatchilik ko'rinishlari siyosiy kartada katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Buyuk geografik kashfiyotlar davri qit'ada mustamlakachilik tizimining rivojlanishiga sababchi bo'lgan. Mazkur mintaqada jahon iqtisodiy markazlari orasida katta salmoqqa ega bo'lgan Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasidan iborat bo'lgan Sharqiy Osiyo iqtisodiy markazi, jahonning ko'p millatli davlatlaridan hisoblangan Hindiston, Indoneziya kabi davlatlar joylashgan. Bundan tashqari ona Vatanimiz hisoblanmish O'zbekiston Respublikasi Osiyoning geografik markazida joylashgan davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Qit'a hududi Markaziy, Sharqiy, Janubiy, Janubi-g'arbiy hamda Janubi-sharqiy subregionlarga ajralgan holda, uning hududida 47 ta mustaqil BMTga a'zo bo'lgan davlatlar joylashgan. Yuqorida qayd qilinganidek, mintaqada Abxaziya, Ozod Kashmir, Xitoy Respublikasi kabi katta miqdorda tan olinmagan davlatlar, Hind okeanidagi Britaniya xududlari (Buyuk Britaniya), Kokos orollari (Avstraliya), Rojdestvo oroli (Avstraliya) kabi mustamlaka hududlar joylashgan. Ko'p yillardan buyon davom etib kelayotgan Isroil-Falastin muammosi, Suriyada yuz berayotgan harbiy to'qnashuvlar Osiyon siyosiy jihatdan eng notinch mintaqalardan biriga aylantiradi.

Afrika siyosiy kartasi shakllanishida o'ziga xos hududiy tafovvutlar mavjud. Agar uning shimoliy qismida eramizdan avvalgi 4000 yilliklarning ikkinchi yarmida ilk qadimiy davlatchilik ko'rinishlari yuzaga kelgan bo'lsa, 1415-1460-yillarda Afrikaga portugal ekspeditsiyalarining boshlanishi keyingi davrlarga kelib uning qolgan qismlarda turli Yevropa davlatlarining mustamlaka hududlari ning paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. 1900-yilga kelib Afrikaning Efiopiya va Liberiyanidan tashqari barcha davlatlari Yevropa davlatlari tomonidan bo'lib olindi. O'ziga xos tarixiy jarayonlar qit'a shimolida qolgan qismlariga qaraganda ko'p asrlik tarixga, madaniyat va iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlarning rivojlanishiga sababchi bo'lgan bo'lib, mazkur qadimiy davlatlarning ko'plab qadimiy arxitektura yodgorliklari butunjahon madaniy yodgorliklari tarkibiga kiritilgan (masalan: Misr ehromlari, Aleksandr mayoqi va b.). Ikkinchi Jahon urushidan so'ng Afrikada dekolonizatsiya

jarayoni boshlandi. Sekin-astalik bilan qit'a davlatlari o'z siyosiy mustaqilliklarini qo'lga kirta boshladilar.

Afrika hududi siyosiy jihatdan Shimoliy, G'arbiy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy (tabiiyjihatdan Shimoliy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy o'lkalarga ajratiladi) subregionlarga ajratiladi. Mazkur mintaqalardagi davlatlar mamlakatlar va hududlar soni – 62 ta bo'lib, ulardan 54 tasi mustaqil davlat hisoblanadi. 2011-yil qit'ada jahon siyosiy kartasidagi hozircha eng so'nggi davlat – Janubiy Sudan mustaqil davlat paydo bo'ldi. Reyunon oroli (Fransiya departamenti), Mayotta oroli (Fransiya ma'muriy birligi), Avliyo Yelena oroli (Buyuk Britaniya koloniyasi), Marokash hududidagi Seuta va Melilya shaharlari (Ispaniya) kabi o'zini-o'zi boshqarmaydigan hududlar bilan bir qatorda, maqomi noma'lum bo'lgan G'arbiy Sahroi Kabir ham aynan Afrikada joylashgan. Shu bilan birga bu yerda jahon iqtisodiyotida o'z o'rniغا ega bo'lgan va BRICS tashkiloti a'zosи Janubiy Afrika Respublikasi bilan bir qatorda katta mineral resurs salohiyatiga ega bo'lgan Jazoir, Liviya, Misr, Botswana, Kongo kabi davlatlar ham joylashgan. Ikkinci Jahon urushidan keyin qit'ada chegaralarni aniqlash bo'yicha qisqa muddatlarda o'tkazilgan demarkatsiya (*chevara chiziqlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadbirlar*) va delimitatsiya (*davlatlar o'rtasida chegaralarning o'tkazilishi*) jarayonlarida mahalliy etnik, diniy xususiyatlarning e'tiborga olinmasligi oqibatida davlatlar o'rtasida ko'plab kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ko'plab siyosiy nizo markazlarining paydo bo'lishiga turtki bo'immoqda. Ushbu holatlar Afrika siyosiy kartasi shakllanishi hali beri nihoyasiga yetmasligini ko'rsatadi.

Amerika qit'asi siyosiy kartasi Afrika singari Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida shakllanib boshlagan. Asosan Osiyo mintaqasi aholisi migratsiyasi natijasida 25 ming yil avval Shimoliy, 12-11 ming yil avval esa Janubiy Amerikaning o'zlashtirilishi yuz bergen bo'lib, qit'aning markaziy qismlarida o'z davrining qudratli imperiyalari rivojlangan (masalan: Mayyalar, Atsteklar, Inkler imperiyalari). 1492-yil X.Kolumb sayohati natijasida bu hududlar qisqa muddat davomida turli Yevropa davlatlarining mustamlakalariga aylandi. Bir necha asrlar oldin vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy tomonidan ummon ortidagi yerlar mavjudligi haqidagi

nazariyasi o‘z isbotini topib, mazkur mintaqaga 1507-yilga kelib jahon siyosiy kartasida “Yangi Dunyo” nomi bilan ifodalana boshlandi. 1775-yilda amerika koloniyalarining mustaqillik uchun kurashi 1776-yil mintaqadagi birinchi mustaqil AQSh davlati tashkil topishi bilan nihoyasiga yetdi. Shundan so‘ng Amerikaning turli hududlarida siyosiy mustaqillik uchun kurashlar boshlandi va turli davlat tuzumi, hududiy-ma’muriy boshqaruv shakllariga ega mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi bilan nihoyasiga yetdi.

Qit‘a Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Karib havzasi subregionlariga ajratiladi. Hozirda Amerika hududida BMTga a’zo bo‘lgan 35 ta mustaqil davlatlar mavjud. Ular orasida jahoning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan AQSh, Buyuk Britaniya hamdo’stilgida muhim o‘rin tutadigan Kanada, katta tabiiy va ijtimoiy resurs salohiyatiga ega bo‘lgan Meksika va Braziliya, uzoq davrlar davomida qit‘adadagi “sotsialistik” g‘oyalar targ‘ibotchisi bo‘lgan Kuba kabi davlatlar bilan bir qatorda Antil orollari, Aruba (Niderlandiya), Angliya, Bermud, Kayman, Virgin, Folkland, Janubiy Georgiya va Janubiy Sandvichev orollari, Montserrat, Keyke va Kaykos (Buyuk Britaniya), Virgin, Puerto-Riko (AQSh), Gvadelupa, Frantsuz Gvianasi, Martinika, Sent-Pyer, Mikilion (Fransiya) kabi mustamlaka hududlar ham mavjud. Amerika davlatlari orasida turli hududiy kelishmovchiliklar, o‘zaro siyosiy noroziliklar mavjud bo‘lsa-da, mazkur qit‘a siyosiy kartasini jahon davlatlaridagi holat bilan solishtirilganda nisbatan ijobiy xarakterga ega deb aytish mumkin.

Siyosiy kartada Buyuk geografik kashfiyotlar ta’sirida shakllangan mintaqalarning yana biri Avstraliya va Okeaniya hisoblanadi. Ushbu mintaqaga 1606-yilda golland V. Yanszon tomonidan kashf etilgan. Boshqa mintaqalardan farqli ravishda bu yerda 1788-yil Port-Jekson ko‘rfazida (Sidney) ingliz mahbuslar koloniysi tashkil etilgungacha bo‘lgan davrda biron bir yirik aholi manzilgohlari ham, siyosiy davlatchilik ko‘rinishlari ham mavjudbo‘lmagan.

Mazkur qit‘aning yana bir o‘ziga xos tomoni, uning asosiy quruqlik hududlaridan uzoqda joylashganligi hamda asosan orollar dan tashkil topganligidir. Orol davlatlar hisoblanganligi sababli Avstraliya va Okeaniya davlatlari Avstraliya Ittifoqi, Yangi

Zellandiya, Papua-Yangi Gvineya kabilarni e’tiborga olmaganda maydoni kichik davlatlar sirasiga kiradi.

Qit‘a siyosiy kartasida 14 ta BMT a’zosi hisoblangan mustaqil davlatlar mavjud. Ular orasida Avstraliya Ittifoqi, Yangi Zellandiya kabi rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda Vanuatu, Kiribati, Tuvalu kabi rivojlanishda ortda qolgan davlatlar ham mavjud. Bundan tashqari, bu yerda Amerika Samoasi, Guam, Miduey, Ueyk, Kingmen rifi (AQSh), Pitkern (Buyuk Britaniya), Norfolk, Rojdestvo, Kokos, Ashmor va Karte orollari (Avstraliya), Frantsuz Polineziyasi, Yangi Kaledoniya (Fransiya) kabi mustamlaka hududlar joylashgan. Mintaqaga Avstraliya va Okeaniya subregionlariga ajratiladi. Okeaniya esa o‘z navbatida Mikroneziya, Melaneziya hamda Polineziya kichik mintaqalariga ajratiladi. Uning siyosiy kartasida turli davlat tuzumi va hududiy-ma’muriy bo‘linish shakllariga ega bo‘lgan mustaqil va mustamlaka siyosiy sub’ektlar mavjud bo‘lib, ular orasidagi siyosiy kelishmovchiliklar asosan hududiy xususiyatga egadir.

Dunyoning yuqorida ko‘rib o‘tilgan mintaqalaridan tashqari doimiy aholi istiqomat qilmaydigan, lekin jahoning ko‘plab davlatlari geosiyosiy qiziqishlariga sababchi bo‘lgan Arktika va Antarktida mintaqasi ham mavjud. Antarktida mintaqasi 19 ta yer, Janubiy Orkney, Janubiy Shetland, Balleni va Berkier orollaridan tashkil topgan. Bu hududga egalik qilish huquqini qo‘lga kiritishni istovchi davlatlarning ko‘pligi turli siyosiy nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi e’tiborga olinib, BMT tomonidan 1959-yil 1 dekabrda Vashingtonda Antarktidani demilitarizatsiya qilish, undan faqat tinchlik maqsadlarida foydalanish va yadroviy quollardan holi zona tashkil etish bo‘yicha shartnomma taklif qilindi. O‘scha davrda bu shartnomma 12 davlat o‘rtasida imzolangan bo‘lsa, hozirda 50 ta davlat mazkur shartnomaga qo‘l qo‘ygan. Mazkur hujjat 23 iyun 1961-yildan boshlab kuchga kirgan. Ushbu shartnomma sababli jahon siyosiy kartasida Norvegiya, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Chili, Argentina kabi davlatlar sektorlari mavjud bo‘lib, bu yerdarda shartnomaga birinchilardan bo‘lib qo‘l qo‘ygan AQSh, Rossiya, Yaponiya davlatlarining ilmiy stantsiyalari ham faoliyat olib boradi. Antarktida zaminida qora va rangli metallar rudalari (mis, qo‘rg‘oshin), toshko‘mir, olmos, uran vaboshqa qazilma boyliklar

topilgan. Neft, gaz, grafit, sluda vatog' xrustali kabi foydali qazil-malarning borligidan dalolat beruvchi belgilar aniqlangan. Shu sababli mazkur hududga ko'p davlatlar qiziqish bildiradilar.

Arktika hududida esa AQSh, Rossiya, Kanada, Daniya va Norvegiya sektorlari mavjud.

Yer sharining ikki qutbiy hududlari yuzasidan ko'plab davlatlar o'rtaida nizolar mavjud (masalan: Janubiy Georgiya, Janubiy Sandvich orollari Argentina va Buyuk Britaniya o'rtaisdagi munozarali hudud hisoblanadi). Antarkidaning 60° janubiy kenglikdan keyingi hududlar shartnoma hududi hisoblanmaydi. Shu bois ushbu hududlarda jahon siyosiy kartasida mustaqil davlat sifatida qayd qilinishini istovchi bir qator mikrodavlatlar (masalan: Vestarktika (2001 y), Antarktida Landashiri hamdo'stligi (2001), Flandrensis buyuk gertsogligi (2008 y) ham paydo bo'lmoqdadir (Ilovadagi 3-rasmga qaralsin).

Jahon mintaqalari siyosiy kartasi shakllanishini tahlil qilish asosida ulardag'i davlatlar soni doimiy ravishda o'zgarib borganini ko'rish mumkin (Ilovadagi 4-rasmga qaralsin).

Bu holatga birinchi navbatda turli hududlarda davlat tuzumi va undagi siyosiy mafkuraning o'zgarishi, siyosiy mustaqillik uchun harakatlarning yuzaga kelishi, etnik, diniy nizolar sabab bo'lishi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda jahon siyosiy kartasi doimiy ravishda miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar oqibatida yangilanib turadi degan xulosaga kelish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon tabiiy va siyosiy kartasi bir-biridan qanday jihatlari bilan farq qiladi?
2. Ikki Germaniyaning, ya'ni GFR va GDRning birlashuvi holati jahon siyosiy kartasining qanday o'zgarishiga misol bo'la oladi?
3. Aytingchi, sizning fikringizcha, O'zbekiston Respublikasi siyosiy-ma'muriy kartasi shakllanishida qanday jarayonlar asosiy ahamiyatga ega bo'lgan?
4. Jahon siyosiy kartasida hozirgi kunda qancha davlat mavjud?
5. Maqomi noma'lum davlatlarga misol keltiring?

6. Jahon mintaqalari siyosiy kartasining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

7. Avstraliya va Okeaniya subregionida nechta davlat mavjud?

8. Sobiq Yugoslaviya davlatidan ajlalib chiqqan mamlakatlarni sanab bering.

2. DUNYO DAVLATLARI KLASSIFIKATSIYASI

Tayanch tushunchalar: dunyo davlatlarini turli belgilariga ko'ra klassifikatsiyalash, davlatlarning geografik o'rniغا ko'ra turlari, monarxiya davlatlari, respublikalar, unitar va federativ davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar.

2.1. Dunyo davlatlarini turli belgilariga ko'ra klassifikatsiyalash

Ma'lumki, dunyoning hozirgi siyosiy kartasida 240 dan ortiq davlat, mamlakat va hududlar mavjud. Davlat, mamlakat va hududlar sonining burchalik ko'pligi ularni turli belgilariga ko'ra guruhlashtirishni taqozo etadi. Ilmiy manbaalarda jahon davlatlarini quyidagi belgilariga ko'ra tasniflash keng tarqalgan:

- Geografik belgilariga ko'ra;
- Davlat tuzumiga ko'ra;
- Hududiy-ma'muriy bo'linishiga ko'ra;
- Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasiga ko'ra va b.

Har bir tasniflash turi o'z xususiyatidan kelib chiqib davlatlar, mamlakatlar va hududlarni turli guruhlarga mansub bo'lishiga sababchi bo'ladi. Geografik belgilariga ko'ra tasniflashda miqdoriy ko'rsatkichlar (maydon kattaligi, doimiy aholi soni) ahamiyatlari hisoblanadi. Aynan hudud kattaligi va aholi soniga qarab guruhlashtirish eng ko'p tarqalgan tasniflash ko'rinishi hisoblanadi. Bundan tashqari geografik joylashuv holatiga ko'ra davlatlar, mamlakatlar va hududlarni turli guruhlarga ajratish ham ushbu tasniflash turiga kiradi.

Davlatlar va mamlakatlarni boshqarishda foydalilanildigan davlat tuzumi ko'rinishlariga xos jihatlar asosida ularni guruhlashtirish ikkinchi tasniflash turiga xos jihat bo'lib hisoblanadi. Hududiy-ma'muriy bo'linishiga ko'ra tasniflashda esa davlatlar, mamlakatlar va hududlarga xos ma'muriy birliklar va ularda shakllantirilgan ma'muriy bo'linish holati asos qilib olinadi. Davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlashtirish esa birmuncha murakkab tasniflash ko'rinishi bo'lib, bu jarayonda ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinishini taqazzo etadi. Quyidagi mavzularda har bir tasniflash turi ustida batafsil fikr yuritiladi.

2.2. Jahon davlatlari, mamlakatlari va hududlarini geografik belgilariga ko'ra klassifikatsiyalashtirish

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek tasniflashning ushbu turida davlatlar, mamlakatlar va hududlar maydonining miyosi, doimiy aholi soni hamda joylashgan geografik o'rinni holati asosida guruhlashtirish amalga oshiriladi.

Hududining kattaligiga ko'ra dunyoda har birining maydoni 1 mln km kv.dan ortiq bo'lgan 29 ta davlat mavjud bo'lib, ular orasida birinchi o'ntalik davlatlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Rossiya Federatsiyasi (17,1 mln.km²);
2. Kanada (9,9 mln. km²);
3. Xitoy (9,59mln. km²);
4. AQSh (9,51mln. km²);
5. Braziliya (8,6 mln. km²);
6. Avstraliya (7,7mln. km²);
7. Hindiston (3,2mln. km²);
8. Argentina (2,78mln. km²);
9. Qozog'iston (2,72 mln. km²);
- 10.Jazoir (2,3 mln. km²).

Ushbu davlatlar umumiyligi maydoni jahon quruqlik maydonining deyarli yarmini tashkil qiladi (taxminan 49,3%). Shu bilan birga jahon davlatlari orasida maydoni o'ta kichik bo'lgan mitti davlatlar ham mavjud. Mitti davlatlarning umumiyligi soni 31 tani tashkil etib, Vatikan ular orasida eng kichigi bo'lib hisoblanadi (umumiyligi maydoni 0,44 km²). Maydoni kattaligi jihatidan ona Vatanimiz O'zbekiston jahon davlatlari orasida 56-o'rinni egallaydi. O'zbekiston hududi jahon quruqlik maydonining 0,4%ni tashkil etadi.

Aholi soni bir mln.dan oshiq bo'lgan 158 ta davlat, mamlakat va hududlar mavjud. 2020 yi holatiga ko'ra jahonda aholi soni 100 mln.dan ortiq bo'lgan 14 ta davlatlar mavjud bo'lib, ushbu davlatlar aholisi jahon ko'rsatkichida 63,5%ni tashkil etadi. Aholisi soni bo'yicha peshqadam birinchi o'ntalik davlatlar quyidagilardan iborat (1-jadval):

1-jadval

Aholisi soni bo'yicha peshqadam birinchi o'ntalik davlatlar.

№	Davlat	Aholi soni, mln.k, 2020 y	Dunyo aholisi soniga nisbatan, %	2050-yil
1	Xitoy	1439,3	18,5	1395 (2)
2	Hindiston	1380,0	17,8	1531 (1)
3	AQSh	331,0	4,3	480 (3)
4	Indoneziya	273,5	3,5	294 (5)
5	Pokiston	220,8	2,8	233 (8)
6	Braziliya	212,6	2,7	348 (4)
7	Nigeriya	206,1	2,5	258 (6)
8	Bangladesh	164,7	2,2	255 (7)
9	Rossiya	145,9	2	Efiopiya - 171
10	Meksika	128,9	1,7	Kongo DR - 152
	Vatikan	1000	0,00002	
	Dunyo bo'yicha	7794,8	100	9683

Yaponiya (aholisini 126,4 mln. kishi), Efiopiya (114,9 mln. kishi), Fillipin (109,5 mln. kishi) va Misr (102,3 mln. kishi) ham aholi soni 100 mln.dan oshgan jahon davlatlari qatoriga kiradi. 1-Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratsak, peshqadam guruh davlatlari yaqin kelajakda ketma-ketlikda o'z o'rinalarini o'zgartirsa-da, mazkur ro'yhatda deyarli o'z o'mini saqlab qoladi. Ushbu davlatlar orasida aholi o'rtasida tabiiy o'sishning manfiy ko'rsatkichini qayd qilayotgan Rossiya va Yaponiya o'z o'mini yaqin kelajakda yuqori tabiiy o'sish ta'sirida aholi soni tezlik bilan ortib borayotgan Efiopiya va Kongo Demokratik Respublikalariga bo'shatib beradi. O'zbekiston Respublikasi aholi soniga ko'ra jahon davlatlari orasida 41-o'rinni egallaydi. Yurtimizda jahon aholisining 0,5% istiqomat qiladi.

Aholi soniga ko'ra 15 davlat aholi soni 50 mln.dan 100 mln.gacha bo'lgan, 62 tasi aholi soni 10 mln.dan 50 mln.gacha bo'lgan, 69 tasi esa aholi soni 1 mln.dan 10 mln.gacha bo'lgan guruhga mansub.

Aholi soni 1 mln.dan kam bo'lgan davlatlar soni 42 tani tashkil etadi (2020-yil).

Jahon davlatlari ko'pincha geografik o'rin hususiyatlariga qarab ham guruhlashtiriladi. Unda asosan davatlarning joylashgan o'rinali holati e'tiborga olinadi. Uning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- ✓ dengiz bo'yida joylashgan davlatlar;
- ✓ quruqlik ichkarisida joylashgan davlatlar;
- ✓ orollarda joylashgan davlatlar;
- ✓ yarimorollarda joylashgan davlatlar
- ✓ arxipelaglarda joylashgan davlatlarga bo'linadi.

Dengiz bo'yida joylashgan mamlakatlarga AQSh, Chili, Angola, Fransiya, Bangladesh kabilarni misol qilish mumkin. Dengiz qirg'oqlariga egalik holati turli davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri turli ko'rinishdagi aloqalarni o'rnatish, iqtisodiyotida arzon transport turi hisoblangan dengiz transportidan foydalanish, Dunyo okeani resurslaridan foydalanish kabi imkoniyatlarni beradi.

Orollarda joylashgan davlatlarga Avstraliya Ittifoqi, Yamayka, Shri-Lanka, Islandiya kabi davatlarni misol qilish mumkin. Barcha tomonlari suv bilan o'ralganlik holati mazkur guruh davatlari uchun ham ijobjiy, ham salbiy ahamiyatga egadir.

Yarim orolda joylashgan mamlakatlarga Italiya, Ispaniya, Somali, Norvegiya, Koreya Respublikasi kabi davatlarni misol qilish mumkin. Indoneziya, Yaponiya, Fillipin, Maldiv kabi davlatlar esa arxipelag davlatlar hisoblanadi.

Hududi bevosita dengiz bilan tutash bo'Imagan davlatlar alohida guruhnini tashkil qiladi. Jahonda 42 ta davlat hududi Dunyo okeani bilan bevosita tutashmagan bo'lib, shundan 13 tasi Yevropada, 12 tasi Osiyoda, 15 tasi Afrikada, 2 tasi Janubiy Amerikadir. Boliviya, Chad, Shveysariya, Nepal, Afg'oniston, Turkmaniston kabi davlatlar misol bo'la oladi. Bu mamlakatlarning quruqlik ichkarisida joylashganligi ularning iqtisodiy rivojlanishi, jahon bozoriga chiqishini qiyinlashtiradi.

Ma'lumki, O'zbekiston ham jahonning quruqlik ichkarisida joylashgan davatlarning biri bo'lib, Lixtenshteyn bilan birga Dunyo okeaniga chiqish uchun kamida ikkita davlat hududidan foydalanishga majbur bo'lgan ikki davlatning biridir. Lixtenshteyn dengiz va okeanlar qirg'oqlariga chiqish uchun nisbatan kam masofa

sarflasa, respublikamiz uchun Dunyo okeaniga olib chiqadigan eng qisqa masofa deyarli 1000 kmni tashkil etadi.

Davlatlarning geografik belgilari ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta ahamiyatga egadir. Agar maydon miqyosi foydalilaniladigan tabiiy resurs turlarining miqdoriy holatiga ta'sir ko'rsatsa, aholi mehnat resursi sifatida tahlil qilinadi. Joylashgan o'rinni holati esa yuqorida ko'rsatib o'tilganidek uning iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish imkoniyati bilan bog'liq.

2.3. Davlat tuzumiga ko'ra klassifikatsiyalashtirish

Davlatlar ularni boshqarish holatiga ko'ra monarxiya va respublika ko'rinishlarida bo'ladi. Monarxiya eng qadimiy davlat tuzumi bo'lib hisoblanadi. **Monarxiya** deb davlat boshqaruvi to'liq yoki qisman biron shaxsga (monarxga) tegishli bo'lgan hamda ko'p hollarda boshqaruv avloddan-avlodga o'tuvchi davlat tuzumiga aytildi. Monarxiya davlat shaklining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- umrbod o'z hokimiyatiga egalik qiluvchi davlat boshlig'inинг mavjud bo'lishi (shox, qiro, imperator, sulton, amir va b);
- boshqaruvning vorisiy xususiyatga egaligi (odatlarga yoki qonunlarga muvofiq);
- monarx millat birligini ifodalaydi, tarixiy urf-odatlarga rioya qilinishini ta'minlaydi, davlatni jahon hamjamiyatidagi qiyofasini aks ettiradi va b.

Monarxiyaning konstitutsion va mutloq monarxiya turlari mavjud. Konstitutsion monarxiya o'z navbatida parlamentar ko'rinishiga ega bo'lsa, mutloq monarxiya davlatlarining bir qismi teokratik ko'rinishi ham bor.

Davlatni boshqarishning monarxiya shakli ancha kam tarqalgan. Hozirda jahon davlatlari ichida hammasi bo'lib, 29 ta monarxiya shaklida ega bo'lgan davlatlar bilan birga 10dan ortiq Britaniya hamdo'stligi shaklida boshqariluvchi davlat va mamlakatlar bor. Yevropada o'z monarxlariga ega bo'lgan 12 ta, Osiyoda 13 ta, Afrikada 3 ta, Okeaniyada bir davlat mavjud. Hamdo'stlik davlatlari tarkibiga kiruvchi Buyuk Britaniya monarxini o'z davlat boshlig'i deb tan oluvchi davlatva mamlakatlarning asosiy qismi Karib

havzasi va Okeaniya mintaqalarida joylashgan (masalan: Avstraliya Ittifoqi, Kanada, Beliz, Grenada, Solomon orollari va b.).

Monarxiyalarda imperator, qiro, knyaz, shoh, sulton va boshqalar davlat boshlig'i hisoblanadi. Bunday davlatlar orasida konstitutsion monarxiyalar ko'pchilikni tashkil etadi. Mazkur davlatlarda monarx hokimlik qilsa-da, davlatni idora qilmaydi. Bunday mamlakatlarda monarxiya tuzumi o'ziga xos tarixiy, ba'zan ming yillik an'ana sifatida saqlanadi va "toj-taxt"ning bir vaqlardagi qudratidan darak berib turadi, xolos. Masalan: Buyuk Britaniya dunyodagi eng keksa konstitutsion monarxiya davlatidir. Qirol davlat va sud tizimining boshlig'i, harbiy kuchlar bosh qo'mondoni, ingliz davlat cherkovining dunyoviy boshlig'i, shuningdek Buyuk Britaniya tomonidan boshqariluvchi Hamdo'stlikning ramzi hisoblanadi (bu hamdo'stlikka 50 ga yaqin mamlakat kiradi). Qirol parlament qabul qilgan qonunlarni tasdiqlab imzo qo'yadi.

Yevropa qit'asidagi deyarli barcha monarxiyalar konstitutsion ko'rinishga egadir. Osiyo, Afrikada joylashgan monarxiya davlatlarining katta qismini monarxiya davlat tuzumining mazkur shakli tashkil qiladi.

Mutloq monarxiyada, aksincha, monarx hokimiyati deyarli cheklanmagan. Biroq hozirgi zamon jahon siyosiy xaritasida bunday mamlakatlar kam qolgan. Ma'lumotlar tahlili bunday davlatlar soni Yevropa va Afrikada bittadan (Vatikan va Svazilend), Osiyoda esa 5 ta ekanligini ko'rsatmoqda. Saudiya Arabistoni – mutloq monarxiyadir. Bu yerda qirol qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat vazifasini o'taydi. Ayni vaqtida u bosh vazir, bosh qo'mondon, olyi hakam, shuningdek diniy boshqaruvchi vazifalarni bajaradi. Hukumat asosan qirol sulolasidan tarkib topadi. Mutloq monarxiya davlatlari orasida Saudiya Arabistoni Vatikan va Bruney bilan birga teokratik monarxiya davlati ham bo'lib hisoblanadi.

Boshqarishning respublika shakli ancha keng tarqalgan bo'lib, dunyo mamlakatlarining $\frac{3}{4}$ qismi respublikalardir. **Respublika** – davlat boshqaruv organi vakillari umumxalq saylovi natijasida ma'lum muddatga saylanuvchi davlat tuzumi shakli. Respublikaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- 1) Davlat boshlig'i yagona yoki jamoaviy bo'lishi mumkin;

- 2) Hokimiyat avloddan-avlodga o'tmaydi, balki saylov jarayoni orqali aniqlanadi;
- 3) Davlat boshlig'i qabul qilingan qarorlar bo'yicha javobgardir;
- 4) O'z vakolatidan ma'lum muddat davomida foydalanishi mumkin.

Respublika qadimdan mavjud bo'lgan davlat tuzumi hisoblansada, lekin uning rivojlanish davrlari yangi va eng yangi tarixiy davrlar bilan bog'liq bo'lgan. Agar 1991-yilgacha bo'lgan davrda jahonda 127 ta respublika bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib ular soni 150dan ortib ketgan. Respublikalarda qonun chiqaruvchi hokimiyat aksariyat hollarda, parlament, ijro esa hukumat zimmasiga yuklatilgan. Uning uch ko'rinishi (prezidentlik, parlamentar va aralash) mavjud.

Prezidentlik respublikalariga AQSh, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlarini, jumladan O'zbekistonni misol qilib ko'rsatish mumkin. GFR, Italiya, Hindiston parlamentar, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi dualistik respublikalar bo'lib hisoblanadilar. Shu bilan birga jahon siyosiy kartasida sotsialistik (masalan: XXR, KXDR) va islom (masalan: Eron, Pokiston) respublikalarni uchratish mumkin.

Respublika davlat tuzumini taraqqiyarvar va demokratik tuzum deb baho berish mumkin. Shuning uchun uni asosan Ikkinci Jahon urushidan keyingi davrlarda siyosiy mustaqillikka erishgan ko'plab Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari asosiy boshqaruv shakli sifatida qabul qildilar.

Davlat tuzumlari haqida fikr yuritilganda yuqorida ta'riflari keltirib o'tilgan shakklardan tashqari davlatlar uyushmasi hisoblangan Hamdo'stliklar haqida ham ma'lumot berilishi talab etiladi. Hozirgi jahon siyosiy kartasida uch ko'rinishdagi Hamdo'stlik shakli mavjud. Bular Britaniya Hamdo'stligi, Frantsuz Hamjamiyati va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)dan iborat. Britaniya hamdo'stligi (1947-yilgacha Britaniya millatlar hamdo'stligi) — Buyuk Britaniya va uning sobiq ko'pgina dominionlari hamda mustamlakalaridan iborat birlashmadir Ushbu hamdo'stlikning tashkil topgan davrida (1931-yil) unga Buyuk Britaniya va uning dominionlari – Kanada, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Janubiy Afrika Ittifoqi, Nyufaunlend va Irlandiya a'zo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib uning tarkibida

50ga yaqin davlatlar mayjud. Uning umumiy maydoni 30 mln. km²ni, aholisi esa 1,4 mldr.dan ortiq kishini tashkil qiladi.

Frantsuz Ittifoqi 27 oktabr 1947-yil tashkil topgan bo'lib, uning tarkibiga uning sobiq mustamlaka hududlari kirgan. 1958-yildan boshlab Frantsuz Hamjamiyati deb nomlangan. Uning sobiq mustamlakalaridan bir qismi (masalan: Hindxitoy yarim oroli davlatlari) vaqt o'tishi bilan o'zining siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgan. Qolgan qismlari Fransiya Respublikasining dengizorti departamenti (4 ta) va hududlariga (10 ta) aylangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga 8 dekabr 1991-yil asos solingan bo'lib, o'z faoliyatini 21 dekabr 1991-yildan boshlagan. Uning tashkil topishidan maqsad sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davlatlar hududida integratsion munosabatlarni yo'lga qo'yishdan iborat. Uning tarkibiga 12 ta mustaqil davlat a'zo bo'lib kirgan. O'zbekiston Respublikasi ham mazkur Hamdo'stlik a'zosи hisoblanib, tashkilot faoliyatida doimo ishtirok etib keladi.

Ko'rib o'tilganidek, jahon davlatlari, mamlakat va hududlari o'z boshqaruv tuzumiga egadir. Har bir davlat o'z davlatchilik holatidan kelib chiqqan holda uning biron bir turini o'ziga asosiy tuzum sifatida tanlab olgan.

2.4. Davlatlarni hududiy-ma'muriy boshqariuv shakliga ko'ra klassifikatsiyalashtirish

Hududiy-ma'muriy boshqaruv davlatlarni klassifikatsiyalashirishdagi muhim ko'rinishlardan biri hisoblanadi. Guruhlashtirishning mazkur shakli siyosiy tuzum va davlat boshqaruv tuzumi, aholining milliy tarkib holati, davlat shakllanishining tarixiy-geografik asoslari bilan bevosita bog'liq. Hududiy-ma'muriy boshqaruvning ikki turi – federativ va unitar davlatlarga ajratiladi.

Ta'rifdan ko'rish mumkin-ki, unitar davlatlarda yagona qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat mavjud. Ulardan farqli ravishda federatsiyalar bir qator xususiyatlarga ega:

- federatsiya umumiy maydoni uning alohida sub'ektlari hududlari (AQSh, Meksika, Hindistonda shtat, Shveysariyada kanton, Argentina, Kanadada provintsiya, GFR, Avstriyada yerlar, Rossiya Fedyeratsiyasida respublika, avtonom okrug, o'lka, oblast ko'rinishida) birlashmasidan tashkil topadi;

◎ federatsiya sub'ektlari umumiy konstitutsiyaga asoslangan o'z konstitutsiyalarini qabul qilish huquqiga ega;

◎ har bir federatsiya sub'ekti qonun chiqaruvchi va sud tizimiga egadir.

Jahon siyosiy kartasida Yevropada 6 ta, Osiyo va Afrikada 4 tadan, Amerikada 7 ta, Avstraliya va Okeaniyada esa 2 ta federativ davlat joylashgan. Ulardan ayrimlarida (masalan: Rossiya, Belgiya, Hindiston, Nigeriya) federativ tuzilish milliy-etnik tamoil asosida, boshqalarida esa (masalan: GFR, Avstriya, AQSh) tarixiy- geografik hususiyatlari bilan bog'liq. (2-jadval)

2-jadval

Jahoning federativ hududiy-ma'muriy boshqaruviga ega davlatlari.

Mintaqalar	Davlatlar
Yevropa	Rossiya Federatsiyasi, Avstriya Respublikasi, Belgiya Qirolligi, GFR, Shveytsariya Konfederatsiyasi, Bosniya va Gertsogovina
Osiyo	Hindiston Respublikasi, Malayziya, Myanma Ittifoqi Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi
Afrika	Komor orollari Islom Federativ Respublikasi, Nigeriya Federativ Respublikasi, JAR, Efiopiya Federativ Demokratik Respublikasi
Amerika	AQSh, Kanada, Meksika Qo'shma Shtatlari, Venesuela Bolivar Respublikasi, Braziliya Federativ Respublikasi, Argentina Respublikasi, Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi

Davlatlar hududiy-ma'muriy boshqaruvining yana bir ko'rinishi konfederatsiya hisoblanadi. **Konfederatsiya** mustaqil davlatlarning biron maqsadda ittifoqqa birlashuvida namoyon bo'ladi. Mazkur ittifoqda davlatlar o'z ichki va tashqi siyosatida mustaqilligini saqlab qoladilar. Konfederatsiyalar vaqt o'tishi bilan tarqalib ketishi yoki federatsiyalarga aylanishi mumkin. Unga Shveytsariya Ittifoqi, AQSh misol bo'la oladi.

Demak, jahon siyosiy kartasidagi har bir davlat o'z ichki hududiy-ma'muriy bo'linish holatiga ko'ra turli ko'rinishlarga ega

bo'lishi mumkin. Bu ularning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

2.5. Davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko'ra klassifikatsiyalashtirish

Jahon davlatlari faqat maydonining katta kichikligi va geografik o'mnigagina emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ilmiy manbaalarda mazkur guruhlashtirish ko'rinishini tahlil qilishda turli mezonlar taklif etiladi. Shular orasidan jahon davlatlarini rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlashtirishda quyidagi ko'rsatgichlar asos qilib olinadi:

- ✓ mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot (YaIM) miqdori;

- ✓ yalpi milliy mahsulotda qayta ishlovchi sanoat maxsulotining ulushi;

- ✓ aholining savodxonlik darajasi va turmush darajasi;

- ✓ o'rtacha umr ko'rish darajasi va b.

BMT aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdoriga ko'ra davlatlarni guruhlashtirishda quyidagi mezonga tayanadi:

- o'ta qashshoq davlatlar – yiliga 1500 \$
- qashshoq davlatlar – 1500-3000 \$
- kambag'al davlatlar – 3000-5000 \$
- qoniqarli ta'minlangan davlatlar - 5000-10000 \$
- o'rtacha ta'minlangan davlatlar – 10000-15000 \$
- ta'minlangan davlatlar – 15000-20000 \$
- boy davlatlar - 20000 \$dan ortiq.

Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra 2019-yil aholi jon boshiga YaIM (nominal)ning o'rtacha jahon ko'rsatkichi 11565 AQSh dollari ko'rsatkichini tashkil qilgan. Jahoning 63 ta davlati o'rtacha jahon ko'rsatkichlaridan yuqori ko'rsatkichni qayd qilganlar. Ular orasida Lyuksemburg (114262 AQSh dollari), Shveytsariya (82950 AQSh dollari), Norvegiya (81694 AQSh dollari), Irlandiya (76098 AQSh dollari), Islandiya (74278 AQSh dollari) kabi davlatlar peshqadamlik qilsalar, Markaziy Afrika Respublikasi (430 AQSh dollari), Malavi (351 AQSh dollari), Eritreya (350 AQSh

dollar), Burundi (306 AQSh dollar) va Janubiy Sudan (302 AQSh dollar) jadvalda eng quyi pog'onani egallab turibdilar.

Umumiy YalMDa qayta ishlovchi sanoat ulushining yuqori bo'lishi uning iqtisodiyotida tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonining yaxshi yo'lga qo'yilganidan darak beradi. Ma'lumotlarga ko'ra rivojlangan davlatlar YalMDa undiruvchi sanoat ulushi 10%dan oshmasligi kerakligi aytib o'tiladi.

Aholining savodxonlik va turmush darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ko'rsatib beradi. Aholi hayot tarzi uning moddiy mablag' topish darajasini ifodalab beradi. Ma'lumki, aynan iqtisodi rivojlangan davlatlardagina aholining ta'lim olishi, yaxshi yashashi uchun davlat tomonidan imkoniyatlar yaratib berilgan. Lyuksemburg, Lixtenshteyn, Norvegiya kabi davlatlari savodxonlik darajasiga ko'ra jahonda oldingi o'rinnlarni egallaydi. Statistik ma'lumotlar ularga qarama-qarshi tarzda iqtisodiyoti ancha sust rivojlangan Niger (19,1%), Chad (22,3%), Janubiy Sudan (27%) kabi davlatlar past darajaga egaligini ko'rsatib beradi.

Jahon aholisining turmush darajasiga ko'ra esa Norvegiya, Irlandiya, Shveysariya, Islandiya, Germaniya davlatlari juda yuqori, Trinidad va Tobago, Xitoy, Jazoir, O'zbekiston, Ozarbayjon davlatlari yuqori, Hindiston, Iroq, Marokash, Keniya, Nepal o'rta, Mavritaniya, Nigeriya, Sudan, Efiopiya, MAR kabi davlatlar past daraja ko'rsatkichlarini qayd qiladi.

Mamlakatlarni rivojlanish darajasiga ko'ra BMT tomonidan 3 toifaga bo'lish qabul qilingan:

1. Iqtisodiy jihatidan rivojlangan davlatlar.
2. Iqtisodi o'rta rivojlanishga ega bo'lgan davlatlar.
3. Iqtisodiy jihatidan rivojlanayotgan davlatlar.

BMT iqtisodiy jihatidan rivojlangan mamlakatlarga Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Avstraliya va Okeaniyaning jami 60 ga yaqin davlatlarini kiritgan. Ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajasi, bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan iqtisodiyotga ega ekanligi, iqtisodiyotning ochiqlilik darajasi, YaMM tarmoq tarkibida xizmat ko'rsatish sohalarining katta salmoqqa egaligi, sanoatida fantalab, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanganligi hamda qishloq xo'jaligining mexanizatsiya-

lashganligi (intensiv rivojlanganligi) kabi jihatlar bilan boshqalardan ajralib turadi.

Lomonosov nomidagi MDU geograf olimlari tomonidan taklif etilgan jahon davlatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra guruhshtirishda rivojlangan davlatlar asosiy davlatlar, iqtisodi yuqori rivojlangan G'arbiy Yevropaning kichik davlatlari va "Ko'chirma kapitalizm" davlatlari guruhlariga ajratiladi. Ular orasida albatta jahon iqtisodiyotida katta salohiyatga ega bo'lgan AQSh, Yaponiya, GFR, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiyadan iborat bo'lgan asosiy davlatlar guruhi ajralib turadi. 7,6% jahon quruqlik maydonini, 9,8% aholisini o'zida jam qilgan mazkur olti davlat jahon YaMMning 30%ni tayyorlab berishi ularning haqiqatan ham juda katta iqtisodiy qudratga ega ekanligini namoyon etadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar ichida asosiy davlatlar bilan bir qatorda katta tabiiy resurs salohiyatiga ega bo'lgan yetti kuchli davlatni tashkil etuvchi "Katta yettilik davlatlari" guruhi mavjudligi qayd qilinadi. Shuningdek "Katta sakkizlik davlatlari"(3-jadval) guruhi ham bor edi. Mazkur toifaga 1998-yildan Rossiya ham kiritilingan edi. Hozirda turli iqtisodiy cheklovlari natijasida Rossiya Federatsiyasi "Katta sakkizlik davlatlari" faoliyatida ishtirok etmayapti.

3-jadval

G 7 davlatlari iqtisodiy ko'rsatkichlari (2019-yil).

Davlat nomi	Aholis soni		YAIM	
	mln.kishi	%	mlrd. \$	%
Buyuk Britaniya	66,6	0,85	2830,8	3,2
Germaniya	83,1	1,06	3861,6	4,4
Italiya	60,2	0,77	2001,5	2,3
Kanada	38,5	0,49	1736,4	2,0
AQSH	330,0	4,22	21433,2	24,5
Fransiya	68,9	0,88	2715,8	3,1
Yaponiya	126,0	1,6	5079,9	5,8

Avstriya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Norvegiya, Finlyandiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Lixtenshteyn, Monako, Andorra, San-Marino kabi davlatlar G'arbiy Yevropaning iqtisodi yuqori rivojlangan kichik davlatlari qatoriga kiradi. Bu davlatlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqalaridan farq qiladi:

- bu davlatlar iqtisodiyoti rivojlanish darajasiga ko'ra yuqori darajaga ega, lekin boshqalardan farqli holda ular xalqaro mehnat taqsimotida tor ixtisoslikka egadirlar;
- ular o'zlarini ishlab chiqargan mahsulotlarning asosiy qismini eksportga olib chiqadilar;
- mazkur davlatlar iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish tarmoqlari katta o'rinni egallaydi (bank ishi, turistik faoliyat va b.).

Bu davlatlar guruhida aynijsa BENILYUKS davlatlari hisoblangan Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg davlatlari katta iqtisodiy salohiyatga egadir

Kanada, Avstraliya Ittifoqi, JAR, Isroi davlatlarini "ko'chirma kapitalizm" davlatlariga misol sifatida ko'rsatish mumkin. Bu davlatlar kapitalistik munosabatlar shakllanishi va rivojlanishi Yevropa-lik immigrantlar faoliyati bilan bog'liqligi, ularning Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalari ekanligi, xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularning iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlanganligiga qaramay, iqtisodiyotida agrar-xom-ashyo ixtisoslashuvi katta ahamiyatga egadir.

Iqtisodi o'rta rivojlanishga ega bo'lgan davlatlarning aksariyati Yevropada joylashgan bo'lib, ular orasida o'rta asrlarning boshlanish davrlarida jahonning eng qudratli davlatlari hisoblangan Ispaniya va Portugaliya, 1990-yillarda o'z davlat tuzumida o'zgarish yasagan ko'plab Sharqiy Yevropa davlatlari (masalan: Polsha, Chexiya, Slovakiya) asosiy o'rinni egallaydilar. Ba'zi manbaalarda sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarni ham ushbu guruhga kiritadilar.

Qolgan barcha davlatlar, mamlakatlar va hududlarni BMT tomonidan iqtisodiy jihatidan rivojlanayotgan davlatlar toifasiga kiritiladi. Ular butun yer yuzasi quruqlik maydonining yarmini egallaydi. Aholisi esa dunyo aholisi sonining yarmidan ortig'ini, Xitoyniham qo'shib hisoblaganda 70 % dan ko'pini tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlatlar dunyo siyosiy kartasida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyada katta mintaqani egallaydi.

Bu guruhga kiruvchi davlatlarning aksariyati Yevropa davlatlarning sobiq mustamlakalari bo'lib, siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin ham sobiq metropol davlatlariga iqtisodiy jihatdan qaramligi saqlanib qolgan. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi past darajada rivojlanish, moliyaviy mablag'larning yetarli emasligi, xo'jalik yuritishda yetarli tajribalarning yo'qligi, malakali ishchi kadrlarning yetishmasligi, katta miqdordagi tashqi qarz kabi holatlar mazkur guruh davlatlarining aksariyat qismi uchun xosdir. Rivojlanayotgan davlatlar ham bir necha kichik guruhlarga ajraladilar.

1.Tayanch davlatlariga - Hindiston, Braziliya, Meksika kiradi. Bu mamlakatlar juda katta tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida ko'p sohalarda etakchilardir. Masalan: sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha mazkur davlatlar qolgan barcha rivojlanayotgan davlatlar miqdori darajasida sanoat mahsuloti ishlab chiqaradilar. Iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari ega bo'lsa-da, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosan aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdori bilan ifodalanganligi sababli rivojlanish holatiga ko'ra quyi guruhlardan o'rinni egallaydi. Umumiy YaIM ko'rsatkichi ancha yuqori bo'lishiga qaramay, aholi soni katta miqdorda bo'lgani uchun bu ko'rsatkich past ko'rsatkichni tashkil etadi. Masalan: Hindiston umumiy YaIM ko'rsatkichiga ko'ra jahonda 3-o'rinda turadi (umumiy jahon YaIMning 7,02%ni beradi), lekin ushbu ko'rsatkich aholi jon boshiga taqsimlanganda u 6616 AQSh dollari bilan 123 o'rinning egallaydi. So'nggi yillarda Xitoy ham tayanch davlatlar guruhida o'rganish taklif etilmoqdadir.

2. Yirik anklav kapitalistik rivojlanishga ega davlatlarga Venesuela, Chili, Eron, Iraq davlatlarini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Ma'lumki, "anklav" so'zi boshqa davlatga tegishli bo'lган maydonlar ichida qolgan hududlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur holatda esa bu termin ma'lum ishlab chiqarish sohasiga nisbatan ishlatiladi. Bu davlatlar iqtisodiyotida ma'lum bir ishlab chiqarish tarmog'i yuqori darajada rivojlangan bo'ladi. Masalan: Venesuela, Iraq uchun bu neft sanoati, Chili uchun esa rangli metallurgiya hisoblanadi.

3. Kolumbiya, Peru, Malayziya, Fillipin, Turkiya, Suriya, Misr, Marokash, Tunis va boshqalar tashqi aloqali iqtisodiyotga ixtisos-

lashgan davlatlar bo'lib hisoblanadi. Ular iqtisodiyoti asosan eksport uchun mahsulot ishlab chiqarish orqali rivojlantiriladi.

4. Yangi sanoatlashgan davlatlar – so'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgan rivojlanayotgan davlatlar guruhidan iborat. Ular boshqa rivojlangan davatlarga qaraganda bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori su'ratlari kuzatiladi (yiliga o'rtacha 8 %);
- Qayta ishlovchi sanoat asosiy ishlab chiqarish tarmog'i hisoblanadi;
- Asosan eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot rivojlangan;
- Jahanoning rivojlangan davlatlaridagidan qolishmaydigan o'z iqtisodiyot yo'nalishidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan TMKlarga egaligi;
- Ta'lif sohasiga katta e'tibor beriladi;
- Yuqori darajadagi texnologiyalardan foydalilanadi;
- Arzon ishchi kuchi, ma'lum miqdordagi xomashyo resurslari, bank va sug'urta sohasining rivojlanganligi.

Ushbu guruhning ilk vakillari "Osiyo yo'llbarslari" nomi bilan mashhur bo'lgan Osiyodagi 4ta davlat: Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur hisoblanadi. Bu davlatlar 70-80-yillarda rivojlanayotgan ko'p davatlardan juda o'zib ketdi. XXI asrning boshiga kelib mazkur toifaga Yapon modeli asosida rivojlanayotgan Malayziya va Tailand qo'shildi. Hozirda Indoneziya va Fillipin davlatlari shu taraqqiyot yo'lidan bormoqdalar. Yangi sanoatlashgan davlatlar toifasiga Yevropa kapitali ostida rivojlanayotgan Turkiya, Kipr va Isroil ham kiritildi.

5. Neft eksport qiluvchi davlatlar (OPEK) - Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, BAA, Liviya, Bruney kabi jami 12 ta davlat kiradi. Bu davlatlarda neft sotishdan katta daromad kelganligi bois aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM juda yuqori. Qatar, Bruney, Quvayt, BAA aynan neft sanoati rivojlanishi orqasidan aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM ko'rsatkichiga ko'ra jahon davlatlari orasida birinchi o'ntalikdan o'r'in egallaganlar.

6. Plantatsion xo'jalikka ixtisoslashgan davlatlar guruhiga Kosta-Rika, Nikaragua, Gvatemala, Kuba, Gaiti, Shri-Lanka kabi davlatlar misol bo'la oladi. Ushbu davlatlar iqtisodiyoti plantatsion

xo'jaliklarda turli qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Masalan, Kosta-Rika, Gvatemala uchun banan, Kuba uchun shakarqamish va tamaki, Shri-Lanka uchun choy yetishtirish iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lib hisoblanadi.

7. Bermud va Virgin orollari, Yangi Kaledoniya kabilalar ijarachi kichik va mitti davlatlar guruhiga kiradi. Ular o'z hududlarida turli ofshor zonalar tashkil qilish, arzon bayroqlar davlatiga aylantirish orqali katta daromadga ega bo'ladilar.

8. Past daromadli yirik davlatlar qatoriga Indoneziya, Pokiston, Bangladesh, Nigeriya kabilalar kirib, ular katta maydon, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lsalar-da, lekin rivojlanish darajasi ancha past bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi.

Iqtisodiy jihatidan rivojlanayotgan davlatlar orasida taraqqiyotida orqada qolayotgan davlatlar va mamlakatlar ham mavjud. Bu toifa davlat va mamlakatlari taraqqiyotda sezilarli darajada orqada qolib, ularda feudalizm qoldiqlari saqlanib qolayotgan ko'p tarmoqli ancha qoloq ekstensiv xo'jalik tashkil etadi. BMT tasnifiga ko'ra eng kam rivojlanayotgan 50 ga yaqin davlat va mamlakatlar kiradi. Ularning iqtisodiyoti iste'molga oid mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ishlov beruvchi sanoat deyarli yo'q. Aholining 2/3 qismi savodsiz. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM qiymati ancha past. Quyidagi davlatlar jahanoning taraqqiyotda ortda qolayotgan davlatlari bo'lib hisoblanadilar:

• **Osiyo:** Afg'oniston, Bangladesh, Butan, Yaman, Kambodja, Laos, Maldiv, Myanma, Nepal.

• **Amerika:** Gaiti.

• **Afrika:** Angola, Benin, Burkino-Faso, Burundi, Gambiya, Gvineya, Gvineya-Bisau, Djibuti, Zambiya, Kabo-Verde, Kongo, Komor orollari, Lesoto, Liberiya, Gambiya, Madagaskar, Malavi, Mali, Mozambik, Niger, Ruanda, San-Tome va Prinsipi, Senegal, Samali, Sudan, Serra-Lione, Tanzaniya, Togo, Uganda, MAR, Chad, Ekvatorial Gvineya, Eritreya, Efiopiya.

• **Okeaniya:** Vanuatu, Kiribati, Solomon orollari, Tuvalu, Samoa.

Yuqorida iqtisodiy jihatidan rivojlanayotgan davlatlarning bir qator ko'rinishlarigina tahlil etib o'tildi. Shu bilan birga jahonning qolgan rivojlanayotgan davlatlari boshqa turli kichik guruhlar tarkibiga kiradi.

Mavzu tahlili jahon davlatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra turli guruhlarga mansub ekanligini ko'rsatib beradi. Davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra ajratilgan guruhlar o'zgaruvchan tarkibga egaligi bilan ajralib turadi. Har qanday davlatda o'z iqtisodiyotini rivojlantirish asosida boshqa guruh tarkibiga kirish imkoniyati mavjud.

Nazorat uchun savollar:

1. Mavzu bo'yicha berilgan bilimlarga tayanib quyidagi jadvalni to'ldiring:

4-jadval

Mintaqa-lar	Dengiz chegarasiga ega davlatlar	Quruqlik ichkarisida joylashgan davlatlar	Orol davlat-lar	Yarim orol davlat-lar	Arxipelag davlatlar
Yevropa					
Osiyo					
Amerika					
Afrika					

2. Monarxiya davlatlari shakllari bir-birlaridan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?

3. Federativ davlatlarning asosiy qismi Amerika subregionlari xissasiga to'g'ri keladi. Sizning fikringizcha, bunga qanday omillar sababchi bo'ladi?

4. Osiyo va Afrika qit'alari davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra qiyosiy tavsif bering.

5. O'zbekiston jahoning quruqlik ichkasida joylashgan davlatlaridan biri hisoblanadi. Aytinchi, u Dunyo okeaniga chiqish uchun qanday xalqaro transport loyihibalarida ishtirok etmoqda?

6. Mutloq monarxiya davlatlarga tavsif bering.

7. Rivojlanayotgan davlatlar qanday guruhlarga bo'linadi?

8. Rivojlangan davlatlar qanday guruhlarga bo'linadi?

3. JAHON TABIIY RESURSLARI

Tayanch tushunchalar: tabiiy resurs, mineral resurs, metall rudalar, nometall rudalar, yer resurslari, jahon yer fondi, suv resurslari, suv omborlar, biologik resurslar, o'rmon mintaqalari, Dunyo okeani resurslari, iqlimiylar, rekreatsion resurslar

3.1. Tabiiy resurslar va ularni guruhlashtirish

Jahon davlatlari iqtisodiyotini shakllantirish va kishilik jamiyatni rivoji uchun tabiiy resurslar katta ahamiyatga egadir. Tabiiy resurs deb jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rabi turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalariga aytildi. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanish holati, ularning mavjudlik darajasi, ulardan foydalanish xususiyati jahon iqtisodiyoti rivojiga katta xissa qo'shadi.

Insoniyat rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadi-ki, davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivoji tabiiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi bilan bog'liq emas. Zamонави iqtisodiy munosabatlar davrida davlatlarning intellektual imkoniyatlari va u tomonidan belgilangan taraqqiyot strategiyasi, jahon tashqi iqtisodiy aloqalarida eksport mahsulotlari bilan o'z o'rniga ega bo'lishi oldingi o'ringa chiqib oladi.

Tabiiy resurslar tushunchasi ancha keng ma'nodagi tushuncha hisoblanadi. Sanoat xom ashyosi sifatida ishlataladigan turli ko'rinishdagi tabiiy mahsulotlar (minerallar, yog'och va b), energiya manbaalari (yoqilg'i resurslari, suv va atom energiyasi va b), inson tomonidan bevosita iste'mol qilinadigan mahsulotlar (ichimlik suvi, yovvoyi o'simliklar, qo'ziqorin, baliq mahsulotlari), rekreatsion resurslar (tabiat qo'ynida dam olish) uning turli ko'rinishlari bo'lib hisoblanadi. (Illovadagi 5-rasmga qaralsin)

Tabiiy resurslarning ma'danli (mineral), yer, suv, biologik, rekreatsion, agroiqlimiy, Dunyo okeani resurslari kabi turlari mavjud. Kelib chiqish xususiyatiga ko'ra esa tabiiy resurslarning quyidagi turlari mavjud:

✓ **litosfera resurslari:** foydali qazilmalar, yer va tuproq resurslari.

✓ **gidrosfera resurslari:** muzliklar, quruqlik va Dunyo okeani suvlari, daryolar hamda to'lqinlar qalqishining energetik quvvati.

✓ **atmosfera resurslari:** iqlimiylar va rekreatsion, shamol energiyasi, Quyoshenergiyasi.

✓ **biosfera resurslari:** biologik resurslar.

Shu bilan birga tabiiy resurslar zahiraviylik holatiga ko'ra ham turli ko'rinishlarda bo'ladi; (Ilovadagi 5-rasmga qaralsin).

Tabiiy resurslar zahiraviylik holati haqida fikr yuritilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, har qanday resurs turi ma'lum zahiraga ega (tugamaydigan turlarini hisobga olmaganda). Shuning uchun ulardan tejamkorlik va ehtiyyotkorlik bilan foydalanish zarur.

Mavzuni o'rganib chiqish davomida tabiiy resurslarning har bir turiga batafsil to'xtalib o'tamiz.

3.2. Jahonning metall mineral resurslari

Tabiiy resurslar orasida mineral resurslar jahon davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishida katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Ma'lumotlarga ko'ra yiliga yer qa'ridan taxminan o'nlab milliard tonna mineral xom ashyo va yoqilg'i qazib olinadi. Jahonda barcha mineral resurslar mavjud bo'lgan biron bir davlati mavjud emas. Mavjud davlatlarning 20-25 tasidagina biron mineral resurs turining umumjahon ulushi 5%dan oshadi. Xuddi shunday ulushda bir necha mineral resurs zahiralariga ega bo'lgan o'nta davlat mavjud. Ular orasida AQSh, Rossiya, Xitoy, Avstraliya, Kanada, JAR, Braziliya kabilar mineral resurs turlariga boyligi bilan ajralib turadi.

Mineral resurslar ham o'z navbatida metall va metallmaslik turlariga ajratiladi. Metall mineral resurslarning qora (temir, marganets, xrom, titan, vanadiy), rangli (mis, alyuminiy, qalayi, rux, volfram, molibden, qo'rg'oshin, kobalt, nikel), qimmatbaho (oltin, platina, kumush) va radioaktiv (radiy, uran, toriy) turlari mavjud.

Temir rudasining umumjahon zahirasi 100 mlrd. tonnadan oshadi. Sanoatda ruda tarkibida 16%dan 70%gacha bo'lgan temir rudalari ishlataladi. Temir rудаси qazib olish bo'yicha Avstraliya, Xitoy,

Avstraliya, Braziliya, Hindiston davlatlari yetakchilik qiladi (Ilovadagi 6-rasmga qaralsin).

Jahondagi temir rudasi ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar 5-jadvalda o'z aksini topgan.

5- jadval

Jahondagi temir rudasi ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar (2019-yil).

Nº	Davlat nomi	Qazib chiqarish hajmi (ming t)
1	Xitoy	900,000
2	Avstraliya	420,000
3	Braziliya	370,000
4	Hindiston	260,000
5	Rossiya	100,000
6	Ukraina	72,000
7	JAR	55,000
8	AQSH	49,000
9	Kanada	35,000
10	Eron	33,000
11	Shetsiya	25,000
12	Qozog'iston	22,000
jahonda jami		2,400,000

Rangli metallar turlari orasida alyuminiy va mis rudalari katta sanoat talabiga ega bo'lgan metallar sirasiga kiradi. Alyuminiy nomidagi metall tabiatda mavjud emasligi ko'pchilikka ma'lum. U boksit, alunit, nefelin kabi mineral xom ashyolar tarkibida katta miqdorda uchraydi. Odatda boksit tarkibida 30-60% glinozem (alyuminiy xom ashyosi) mavjud bo'ladi. Umuman jahon boksit zahirasi 55-75 mlrd tonna deb baholanadi. Uning 30% Afrika, 20%dan ortig'i Avstraliya, 20%dan ortig'i Janubiy Amerika va Karib havzasini mintaqasi, 18% Osiyoga to'g'ri keladi. Uni qazib olish bo'yicha Avstraliya, Xitoy, Braziliya, Hindiston, Braziliya kabi davlatlar yetakchilik qiladilar(6-jadval).

Mis og'ir rangli metallardan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday metallar xom ashyolari tarkibida toza mahsulot miqdori o'ta pastligi bilan ajralib turadi (1-2% hattoki ba'zan undan ham kam). Shu bois

mis rudasi bilan bog'liq bo'lgan mis ishlab chiqarish sanoati asosan xom ashyo mayjud hududlarda rivojlantiriladi. Uni qazib chiqarish bo'yicha esa Chili (umumjahon mis rudalarining 25%), Peru, AQSh, XXR, Avstraliya kabi davlatlar oldingi o'rirlarni egallaydilar.

6-jadval

Boksit qazib olish bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari (2019-yil).

Nº	Davlat nomi	Qazib olish hajmi, t.
1	Avstraliya	81 000 000
2	Xitoy	47 000 000
3	Braziliya	32 500 000
4	Gvineya	19 300 000
5	Hindiston	19 000 000
6	Yamayka	9 800 000
7	Qozog'iston	5 500 000
8	Rossiya	5 300 000
9	Surinam	2 700 000
10	Venesuela	2 200 000
jami dunyo bo'yicha		234 000 000

Rangli metallarning boshqa turlarining zahiralari asosan bir necha davlatlardagina mayjudligi bilan ajralib turadi. Ko'p hollarda ularning umumiyligi zahirasining 2/3 va undan ortiq qismi 4-5 davlat hududida to'plangan bo'ladi. Masalan: molibdenning asosiy zahiralari Xitoy, AQSh, Chili; xromniki Qozog'iston, JAR, Hindiston; nikel zahiralari bo'yicha Avstraliya, Braziliya, Yangi Kaledoniya, Rossiya va Kuba; qo'rg'oshin zahiralariga ko'ra Xitoy, Avstraliya, AQSH, Kanada, Peru; ruh zahiralari bo'yicha esa Avstraliya, Xitoy, Peru, Meksika, Qozog'iston kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Qimmatbaho metallar orasida oltin alohida ahamiyatga egadir. U nafaqat qimmatbaho metall turi, balki shu bilan birga jahon iqtisodiyotida asosiy savdo vositasi rolini ham o'ynaydi. Qimmatbaholiligi bois xom ashyo tarkibida 0,00032% sof mahsulot bo'lgan holatda ham ishlab chiqarish uchun samarador hisoblanadi. Tabiatda 30dan ortiq oltinli minerallar ma'lum. Undan tashqari, tarkibida oltin bo'lgan boshqa metallar (mis, nikel, qo'rg'oshin, rux, kumush,

temir, marganets)ning rudalaridan ham oltin olinadi. Xitoy, JAR, AQSh, Avstraliya, Peru oltin qazib olishda yetakchilik qiladilar.

Oltin -noyob metal hisoblanadi. U yer ostida ham, namlikda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydi. Ammo uni izlab topish va to'g' jinslaridan ajratib olish juda ko'p mehnat va mablag'ni hamda yuqori texnologiyalarni talab etadi. Oltin zargarlikdan tashqari elektronika, kompyuter ishlab chiqarishda, kosmik kemalar va jihozlarda, atom reaktorlarida ko'p qo'llaniladi. Masalan bitta atom reaktorining ichki devori 16 kg oltin bilan qoplanadi.

Jami oltinning 50% dan ortig'ini dunyoning 200 ta oltin konlari dan qazib olinadi. Shundan 6 ta konning yillik quvvati 31 tonnadan, 8 ta konning quvvati 25 t, 21 ta konning quvvati 15 tonnadan ortiqni tashkil etadi. Jahondagi yirik oltin konlariga qatoriga Boddington (Avstraliya), Lihir(Papua Yangi Gvineya), Penasquinto(Meksika), Carlin(AQSh), Yanacocha(Peru), Pueblo Viejo(Dominikan Respublikasi), Cortez(AQSh), Goldstrike(AQSh), Grasberg(Indoneziya) va O'zbekistondagi Muruntov koni kiradi.

Radioaktiv rudalar esa uran katta sanoat ahamiyatiga egadir. Katta miqdorda energiyaga ega bo'lgan bu metall radioaktivligi jihatidan nafaqat sanoat ahamiyatiga ega, balki harbiy sanoatda ham unga talab katta. 1 kg uran yoqilganda olinadigan energiya 1 kg yuqori sifatli toshko'mir yonganda beradigan energiyaga qaraganda 3 mln marta ko'proq. Uranning umumjahon zahirasi 5.7 mln. tonnani tashkil qiladi. Yillik o'rtacha qazib olish miqdori esa 40 ming tonnadan ortiq. Uranning asosiy konlari AQSh (Kolorado platosi), Kanada (Ontario va Saskachevan provintsiyalari), Fransiya (Markaziy Fransiya massivi) va JAR (Vitvatyerand)da, Avstraliya va Gabonda ham uranning yirik konlari bor. O'zbekiston hududida uranning ahamiyatga molik zahiralari mavjud.

Uran sanoati xom ashyonini qazib oilsh, uni boyitish, eritish va taylor yoqilg'i holatida ishlab chiqarishlarni o'zida birlashtiradi.

Uran yadro reaktorlarida asosiy yoqilg'i sifatida qo'llanadi. Uran tuzlari fotografiyada, analitik kimyoda, shisha tayyorlashda (shishani sariq-yashil tusli qilishda) va yuqori haroratga chidamli sirlar uchun bo'yagich modda sifatida ishlatiladi.

O'zbekiston jahonda uranga boy davlatlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi ma'lum

motlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasining foydali qazilma boyliklari zaxiralarining Davlat balansi 01.01.2018-yil holati bo'yicha mamlakatimizda 1719 ta konlari mavjud. Shundan radioaktiv metallar (asosan uran) konlari soni 33 tani tashkil qiladi. Mustaqillik yillarda shularning 829 tasi qidirib topildi va ko'pchilik konlardan foydalish yo'lga quyilgan. Mustaqillik yillarda 16 ta radioaktiv metallar konlari topildi. 01.01. 2019-yil holatiga ko'ra 38 ta radioaktiv metal konlari qayd etilgan.

Uranning aniqlangan zahirasi jahonda 5 718 400 tonnani tashkil etadi (7-jadval). Qimmatli yoqilg'i zahirasi bo'yicha jahonning yetakchi davlatlari 8-jadvalda keltirilgan bo'lib, unga ko'ra uran zahirasi eng ko'p bo'lgan davlat Avstraliyadir. Avstraliyada jahon uranining 29% joylashgan. Ikkinchisi o'rinda qo'shni Qozog'iston (jahon uranining 13%) egallaydi. Zahira hajmi jihatidan bu davlatlar dan so'ng Kanada, Rossiya, JAR, Niger, Braziliya, Xitoy, Namibiya kabi mamlakatlar turadi. O'zbekiston zahira ko'rsatkichi bo'yicha dunyoda 11 davlat hisoblanib, uning zaxirasi 131 100 t tashlil qiladi. Bu dunyo uranining 2% tengdir.

7-jadval

Uran zahirasi bo'yicha jahonning etakchi davlatlari.

Davlat nomi	Zahirasi, tonna	Jahondagi ulushi, %
1 Avstraliya	1664100	29
2 Qozog'iston	745300	13
3 Kanada	509800	9
4 Rossiya	507800	9
5 JAR	322400	6
6 Niger	291500	5
7 Braziliya	27680	5
8 Xitoy	272500	5
9 Namibiya	267000	5
10 Mongoliya	141500	2
11 O'zbekiston	131100	2
Jami	5 718 400	100

World Nuclear Association tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra jahonning uran qazib chiqaruvchi eng yirik davlatlari 8-jadvalda o'z ifodasini topgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra 2018-yilda oltin qazib

chiqarish hajmiga ko'ra dunyoda Qozog'iston 21 705 t bilan birinchi o'rinni egallagan. Keyingi o'rinnlarni Kanada (7 001 t), Avstraliya (6 517 t), Namibiya (5 525 t), Niger (2 911 t), Rossiya (2 904) davlatlari o'rinni egallagan. O'zbekiston uran qazib olish bo'yicha jahonda 7 o'rinda turadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'rtacha 2404 t uran qazib olmoqda. Davlatimiz jahon uranining 4,49% beradi. O'zbekistonda uran olinishi oxirgi 10 yil ichida 50 foizga oshdi. 2014-yilda uran qazib olish hajmi xatto 3400 t ga etgan. Yaqin 5 yil ichida yangi uran konlari ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

8-jadval

Uran ishlab chiqarish bo'yicha jahonning etakchi davlatlari (2019)

O'rni	Davlat nomi	Ishlab chiqarish hajmi, tonna	Jahondagi ulushi, %
	Jahonda jami	53,498	100.00%
1	Qozog'iston	21,705	40.57%
2	Kanada	7,001	13.09%
3	Avstraliya	6,517	12.18%
4	Namibia	5,525	10.33%
5	Niger	2,911	5.44%
6	Rossiya	2,904	5.43%
7	O'zbekiston	2,404	4.49%
8	Xitoy	1,885	3.52%
9	Ukraina	1,180	2.21%
10	AQSh	582	1.09%
11	Hindiston	308	0.79%
12	JAR	346	0.65%

Metall mineral resurslar jahon iqtisodiyotida rangli metallurgiya sanoatining rivojlanishiga sababchi bo'ladi.

3.3. Jahonning nometall mineral resurslari

Nometall mineral resurslarning quyidagi turlari mavjud:

- **Energoresurslar:** neft, gaz, ko'mir, slanets, torf
- **Qurilish materiallari:** qum, graviy, loy, bo'r, ohak, marmar
- **Tog'-kimyo xom-ashyosi:** oltingugurt, apatit, fosforit, kaliy va osh tuzlari

• Metallurgiya xom-ashyosi: asbest, kvarts, o'tga chidamli loy

• Qimmatbaho va bezakbop toshlar: olmos, qahrabo, yashma, yoqut, xrustal va b.

Metallmaslar guruhibda energiya manbai hisoblanuvchi ko'mir, gaz, neft katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Hozirgi davrda jahonning hech bir davlati ishlab chiqarish tarmoqlari mazkur mineral resurslarsiz ishlay olmaydilar. Agar ko'mir, neft, gaz xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan energoresurslar hisoblansa, torf, slanets, quruq o'tin mahalliy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

XX asrning boshigacha bo'lgan davrda jahon mamlakatlarining asosiy birlamchi energiya manbai bo'lib quruqotin hisoblangan. Keyinchalik, xo'jalikda ko'mirdan foydalanish salmog'i oshib borgan bo'lsa, FTI davrida neft va gazning ahamiyati ortib ketdi. Ma'lumotlarga ko'ra yoqilg'i turlarining aniqlangan zahiralari 1220 mlrd tonna shartli yoqilg'ini tashkil qiladi. Yillik qazib olinayotgan birlamchi energiya manbaalarining 30% ko'mir, 67% neft va gaz, qolgan qismi esa mahalliy energiya resurslariga to'g'ri keladi. Aniqlangan neft zahiralari 188 mlrd tonna, gazniki 180 trln. m³, ko'mirniki 1 trln. tonnani tashkil qiladi.

Ko'mir toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir turlariga ajratiladi. Foydalanish holatiga ko'ra toshko'mir yuqori quvvatga egaligi bilan ajralib turadi va jahon bozorida qo'ng'ir ko'mirga nisbatan qimmat. Kokslanish xususiyatiga ega bo'lgan toshko'mir asosan qora metallurgiya rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Uning yillik qazib olish hajmi 4 mlrd. tonnani tashkil etib, asosan AQSh, Hindiston, Xitoy, JAR, Rossiya hududidan qazib olinadi (9-jadval). Avstraliya, GFR, Xitoy, AQSh, Rossiya toshko'mirining kokslanuvchi xususiyati yuqori. Qo'ng'ir ko'mir asosan rivojlangan davlatlar hududidan qazib olinadi. Uning zahiralariga ko'ra AQSh, GFR, Avstraliya, Rossiya, Xitoy peshqadam davlatlar bo'lib hisoblanadilar. Qo'ng'ir ko'mirning asosiy qismi (80%) issiqlik elektrostantsiyalarida (IES) elektrenergiysi olish uchun ishlataladi. Aynan IES larda katta miqdorda ishlatalishi sababli energetik quvvati past bo'lighiga qaramay qo'ng'ir ko'mir qazib olish hajmi pasaymayapti.

Neftning umumiyligi zahiralarining deyarli yarmi Yaqin Sharq mintaqasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga Lotin Amerikasi va Afrika davlatlarida ham neftning katta zahiralari to'plangan. Neft

qazib olish bo'yicha Saudiya Arabiston, Rossiya, AQSh, Eron, Xitoy davlatlari peshqadamlik qiladi. Neft qazib olish bo'yicha mintaqalar orasida esa Osiyoning xissasi katta (Illovadagi 7-rasmga qaralsin).

Neft eksportida Saudiya Arabiston, Rossiya, Eron, Nigeriya, BAA asosiy eksportyorlar bo'lib hisoblansa, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Hindiston asosiy importyorlar sanaladi.

Tabiiy gaz zahiralarining salmoqli qismi rivojlanayotgan davlatlar xissasiga to'g'ri keladi. Gaz zahiralarining 40% Yaqin Sharq, 30% Sharqiy Evropa hududida to'plangan. AQSh, Rossiya, Kanada, Eron, Qatar tabiiy gaz qazib olish bo'yicha peshqadam bo'lib hisoblanadilar. Mintaqalar bo'yicha esa yillik qazib olinayotgan gazning 28,2% Osiyo, 26% Shimoliy Amerika, 23,7% MDH, 8,9% Evropa, 6,5% Afrika, 5% Lotin Amerikasi, 1,6% Avstraliya xissasiga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda neft va tabiiy gazga bo'lgan talabning ortishi, bir qator davlatlarda ularning zahiralarining tugab borishi mazkur mineral resurslarning yangi konlarini izlashga majbur qilmoqdadir. Jahonning bir qator davlatlarida mazkur mineral resurslar slanets qatlamlar orasidan qazib olish ishlari amalga oshirilmoqdadir. Slanetsli neft qazib olish bo'yicha Rossiya, AQSh, Xitoy, Argentina, Venesuela, slanetsli gaz qazib olishda esa Xitoy, Argentina, Jazoir, AQSH, Kanada davlatlari peshqadamlik qilmoqda. Mutaxassislar slanetsli gazning umumiyligi zahirasini 206 trln m³, neftnikini esa 345 mlrd barrel (1 barrel ≈ 158,988 litr = 0,158988 m³ ≈ 0,1364 tonna = 136,4 kg) deb baholamoqdalar.

Nometall rudalarning yana bir muhim turi kimyoviy xomashyolar qazib olish hisblanadi. Fosforitlar, tabiiy oltingugurt, kaliy tuzlari mazkur guruh mineral resurslari orasida katta xo'jalik ahamiyatiga egadir. Fosfatlarni qazib olishning muhim markazlari AQSh, Xitoy, Marokash, Rossiya, Qozog'iston (birgalikda yillik umumjahon qazib olishning 75% to'g'ri keladi) bo'lib hisoblanadi. Uni eksport qilish bo'yicha Marokash peshqadam hisoblanadi. Kaliy tuzlarining 75% Kanada, GFR, Belorus va Rossiya tomonidan qazib olinadi.

Qurilish materiallarini qazib olish jahonning deyarli barcha davlatlariga xos soha hisoblanadi. Ular orasida sement xom ashyosi va marmar katta xo'jalik ahamiyatiga egadir.

Qimmatbaho va bezakbop toshlar paydo bo‘lishi bir qancha geologik jarayonlar bilan bog‘liq. Shu bois turli ko‘rinishdagi mazkur mineral resurslarining geografik tarqalishi turlicha (9-jadvalga qaralsin). Bezakbop toshlar zahirasi O‘zbekistonda 85 mln kub metrдан oshadi.

Demak, nometall mineral resurslar ham metallar kabi ishlab chiqarishning ko‘plab sohalarini – yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo, yengil sanoat tarmoqlari hamda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish uchun katta ta’sir ko‘rsatadi.

9-jadval

Jahon davlatlarida qimatbaho va bezakbop toshlarni qazib olish.

Mineral turi	Davlat
Qimmatbaho toshlar	
Olmos	JAR, Angola, Serra-Leone, Kongo, Botsvana, Jazoir
Yoqut	Myanma, Tailand, Shri-Lanka, Gretsya, Laos
Aqiq	Hindiston, Shri-Lanka, Kambodja, Tailand, Myanma
Zumrad	Kolumbiya, Zambiya, Zimbabve, JAR, Mozambik
Marvarid (dur)	Avstraliya, Fors ko‘rfazi davlatlari, Hindiston, Okeaniya
Feruza	Eron, AQSh, Misr, O‘zbekiston, Mongoliya
Bezakbop toshlar	
Kvarts	Madagaskar, Braziliya, JAR, Hindiston, Qozog‘iston
Malaxit	Kongo, Zambiya, Avstraliya, AQSh, Qozog‘iston
Nefrit	Xitoy, Avstraliya, Rossiya, Kanada, Yangi Zelandiya
Yashma	Rossiya, Hindiston, AQSh, Venesuela, Misr, Qozog‘iston

3.4.Jahoning yer va suv resurslari

Yer xo‘jalik jihatdan ikkita muhim vazifani amalga oshiradi. Birinchidan, inson va iqtisodiyot uchun hududiy resurs, ikkinchidan esa ishlab chiqarish vositasi bo‘lib hisoblanadi. Jahon quruqlik maydoni 149 mln km² bo‘lib, uning 95mln. km² inson tomonidan xo‘jalik maqsadlarida foydalanadi. Lomonosov nomidagi MDU profes-

sori V.V.Maksakovskiy tasnifiga ko‘ra jahon yer fondi quyidagi ko‘rinishga ega (10-jadvalga qaralsin).

Qishloq xo‘jaligida foydalanadigan yerkarning asosini haydaladigan yerlar va o‘tloqlar tashkil qiladi. So‘nggi yillarda inson ehtiyojining ortishi bilan o‘tloqlar maydoni haydaladigan yerga aylantirila boshlanmoqdadir. Qo‘sishmcha o‘tloqlar tashkil qilish uchun esa o‘rmon maydonlarining qisqarishi talab etilmoqda. Shunga o‘xshash holatlar jahon yer fondining o‘zgarishi, uning unsurlariga inson ta’siri kuchayishi natijasida esa yerkarning foydalanishdan chiqib ketishi yuz bermoqdadir

10-jadval

Jahon yer fondi (V.V.Maksakovskiy tasnifiga ko‘ra).

Yer fondi turlari	mln.ga	%
Qishloq xo‘jaligi yerlari	4846,1	37,1
Shu jumladan:		
Haydaladigan yerlar	1345,3	10,3
Ko‘p yillik ekin maydonlari	105,5	0,8
O‘tloqlar	3395,3	26
O‘rmonlar	4138	31,7
Boshqa turdagи yerlar	4061,3	31,2
Barchasi	13045,4	100

Haydaladigan yerlar va o‘tloqlarning jahon mintaqalarida tarqalish holati haqida fikr yuritilayotganda hududning relyef xususiyatlari katta ta’sir ko‘rsatadi(Ilovadagi 8-rasmga qaralsin).

Shu bilan birga albatta davlatlarning maydon miqyosi ham ahamiyatga ega. Bu holatning isbotini haydaladigan yerlar hajmiga ko‘ra dunyoning peshqadam davlatlari ro‘yhatiga e’tibor qaratib bilsa ham bo‘ladi:

1. AQSh – 186,5 mln.ga
2. Hindiston – 166,1 mln.ga
3. Rossiya – 130,3 mln.ga
4. Xitoy – 92,5 mln.ga
5. Avstraliya – 47 mln.ga
6. Kanada – 45,4 mln.ga
7. Braziliya – 43,2 mln.ga
8. Qozog‘iston – 34,8 mln.ga

9. Ukraina – 33,3 mln.ga

10. Nigeriya – 30,2 mln.ga

Yer resurslarining tarkibida sug'oriladigan yerlarning ahamiyati kattadir. Hozirgi kunda dunyoning iqlim qurg'oqchil yoki tabiiy namlik etishmaydigan davlatlarida sug'orib dehqonchilik qilish keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlarning hajmi bo'yicha etakchi davlatlar 11-jadvalda keltirilgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra sug'oriladigan yerlarning kattaligiga ko'ra Xitoy jahonda 1-chi o'rinni egallaydi. Keyingi o'rnlarda Hindiston, AQSh, Pokiston, Indoneziya, Meksika kabi davlatlar joy olgan. O'zbekiston ushbu ko'rsatkich bo'yicha 9-o'rinni egallaydi. Xozirgi kunda mamlakatimizda 4,2 mln ga sug'oriladigan yerlar mavjud. Ular mamlakat hududining 9,2% tashkil etsa-da, qishloq xo'jaligidagi yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 98,5 foizi shu yerlarda yetishtiriladi. Sababi sug'oriladigan yerlar boshqa turdag'i yerlarga qaraganda bir necha marta ko'p hosil beradi.

11-jadval

Sug'oriladigan yerlar hajmi bo'yicha jahondagi etakchi davlatlar.

Davlat nomi	Maydoni (mln ga).	Davlat nomi	Maydoni (mln ga).
Xitoy	61,0	Yaponiya	2,5
Hindiston	60,9	Ispaniya	3,41
AQSH	24,74	Italiya	2,67
Pokiston	19,42	Misr	3,65
Rossiya	4,5	Braziliya	4,45
Indoneziya	5,3	Argentina	1,65
Meksika	6,2	Iraq	3,525
O'zbekiston	4,2	Bolgariya	0,588
Ruminiya	1,5	JAR	1,67

Yer resurslarining samaraliholatini saqlab qolish uchun tuproq resurslarining hosildorlik darajasini oshirib borish maqsadida doimiy ravishda zaruriy tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Tuproq resurslari qayta tiklanadigan resurs turlaridan biri bo'lib, yer yuzasining tuproq qobig'idan tashkil topadi. Tuproq resurslarining eng

asosiy xususiyati – uning hosildorligi hisoblanadi. Sayyoramizning $\frac{1}{4}$ qism tuproq resurslari zaruriy issiqlik va namlik yetishmasligidan o'z hosildorligini yo'qtib bormoqda. Ularning yarmi qurg'oqchil hududlarda tarqaganligini e'tiborga olsa, bu muammoni hal qilish birmuncha qiyinligini xis qilish mumkin. Shu bilan birga eroziya jarayoni (suv va shamol ta'sirida) ham tuproq qatlami tarkibiga ta'sir ko'rsatmoqdadir. Bu holat esa cho'llanish jarayonining tezlasheviga sabab bo'lmoqdadir. Shuning uchun mavjud yer resurslari dan foydalanganda unga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish kerak.

Gidrosferaning barcha turdag'i suvlari suv resurslari bo'lib hisoblanadi. Ularga daryo, ko'l, kanallar, suv omborlar, dengizlar va okeanlar, yer osti suvlari, tuproq namligi, tog' va qutbiy muzliklar, atmosferaning suv bug'lari kiradi. Ma'lumki, suv resurslari chuchuk va sho'r (okean) suvlardan iborat bo'ladi.

Chuchuk suv umumiyligi suv resurslarining atigi 2,5%ni tashkil qilib, uning umumiyligi hajmi 28,3 mln km³ni tashkil etadi. Chuchuk suvning deyarli 80% muzliklar, qor qoplami, yer osti suvlari, ko'p yillik muzloq jinslar, yer po'stining chuqur qatlamlarida to'plangan. Sho'r (okean) suvi dunyo suv resurslarining 97,5%ni tashkil etib, asosan yer yuzining 71%ni egallagan okean va dengizlarda jam bo'lgan.

Inson va xo'jalik iste'molida chuchuk suvning ahamiyati beqiyos. U jahon mintaqalari va davlatlari bo'yicha notekis taqsimlangan. Osiyo mintaqasida 13,2 ming km³, Janubiy Amerikada 9,6 ming km³, Shimoliy Amerikada 6,4 ming km³, Yevropada 6,2 ming km³, Afrikada 4 ming km³, Avstraliya va Okeaniyada esa 1,6 ming km³ chuchuk suv resurslari mavjud. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha davlatlar orasida Braziliya, Rossiya va Kanada yetakchilik qiladi. Yetakchi davlatlar ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishiga avvalo bu hududlarda mavjud bo'lgan yirik daryolar va ko'llar hamda iqlimsababchi bo'ladi. Jahon tabiiy kartasini tahlil qilish asosida har bir mintaqaning o'zida mazkur resurs turi notekis taqsimlanganligini ko'rishimiz mumkin. Suv resurslari hajmi boshqa mintaqalarga nisbatan ancha yuqori bo'lgan Osiyoda suvg'a katta ehtiyoj sezuvchi bir qator cho'l va sahro hududlar mavjudligi hammaga ma'lum (masalan: Arabiston yarim oroli, Xitoyning shimoli-g'arbiy va g'arbiy qismlari, Markaziy Osiyo va b.).

Suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish maqsadida jahon davlatlarida qator suv omborlar tashkil qilingan. Arid (quruq) o'lkalarda tashkil qilingan suv omborlar yilning issiq faslida qishloq xo'jaligi uchun zaruriy suvni ta'minlash uchun xizmat qilsa, tog'li hududlarda ular arzon elektr energiya olishda foydalaniladi.

Keniya, Tanzaniya, Uganda oralig'ida joylashgan Viktoriya suv ombori jahondagi eng yirik suv ombor bo'lib hisoblanadi. Uning suv hajmi 204,8 km³ni tashkil qiladi. Keyingi o'rirlarni Bratsk (Rossiya), Kariba (Zambiya, Zimbabve) suv omborlari egallaydi.

Hozirgi kunda suv iste'mol hajmining oshishi, suvning ifloslanshi, undan oqilona foydalanmaslik oqibatida jahon suv resurslarining (ayniqsa, chuchuk suvning) miqdor jihatdan kamayishi hamda ifloslanishi yuz bermoqdadir. Natijada chuchuk suv tanqisligi muammosi yuzaga kelmoqda. Ishlab chiqarish sohalarini kamaytirish, suv omborlari qurish, zamonaviy texnologiyalar yordamida dengiz suvini chuchitish kabi tadbirlar orqali ushbu muammoni nisbatan hal qilish mumkin.

Suv resurslari haqida gap ketganda sho'r suv manbai hisoblangan Dunyo okeani va uning resurslariga ham alohida to'xtalib o'tish kerak. Okeanlar tubi yoki qa'ridan olinadigan tabiiy elementlar, mahsulotlar va energiya turlari Dunyo okeani resurslarini tashkil qiladi. Ular orasida mineral resurslarning iqtisodiy ahamiyati yuqori baholanadi. Mazkur mineral resurslar suv tubidan qattiq (temir-manganets qotishmalari, olmos, platina), suyuq (neft) hamda gazsimon (tabiiy gaz) holida qazib olinadi. Albatta, ular orasida neft va tabiiy gaz qazib olish eng rivojlangan yo'nalish hisoblanadi. Juhoning asosiy neft qazib oluvchi rayonlari quydagilar: Meksika qo'llig'i (57 ta quduq), Shimoliy dengiz (37), Fors ko'rfazi (21), Gvineya qo'llig'i (15). Bering va Oxota dengizlarida yirik neft-gaz konlari faoliyat yuritadi.

Dunyo okeanining energetik resurslariga quydagilar kiradi:

- *Dengiz bosishi quvvati*
- *To'lqinlar quvvati*
- *Shamol quvvati*
- *Oqimlar quvvati va b.*

Dengiz qalqishi katta energetik resurs bo'lib, hozirgi kunda undan Rossiya, Fransiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Argentina, AQSh kabi davlatlarida foydalanilmoqdadir.

Dunyo okeani biologik resurslari baliq, turli dengiz jonivorlari va suvo'tlaridan tashkil topadi. Ular orasida baliq ovlash ayrim davlatlar iqtisodiyoti uchun katta foya keltiradi. Yiliga 110 mln tonnadan ortiq baliq ovlanadi. Okeanlar orasida Tinch, dengizlar orasida Norveg, Bering, Oxota, Yapon dengizlari peshqadamlik qiladi.

Bitmas-tuganmas resurslar manbai hisoblangan Dunyo okeanining so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan ifloslanishi yuz bermoqda. Bunga neftdan, sanoat va qishloq xo'jalik chiqindilaridan hamda radioaktiv ifloslanishlar sababchi bo'lmoqda. Olimlar Dunyo okeanini tozalashda suzuvchi to'siqlar – bonnlar yordamida ifloslangan hududlarni ajratib qo'yish, biologik usullarni(mikroorganizmlar) qo'llash, chiqindilarni yig'ib oladigan maxsus kemalardan foydalanish kabi usullarni taklif qilmoqdalar. Shu bilan birga chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojni qisman qondirishda dengiz suvlarini chuchuklashtirib (Yaponiya, AQSh, Quvayt) foydalanish bo'yicha yirik loyihalor ishlab chiqilgan.

3.4. Juhoning biologik, iqlimiylar va rekreatsion resurslari

Biologik resurslar deb milliy iqtisodiyotda foydalaniladigan o'simlik va hayvonot olamiga aytildi. Ta'rifdan kelib chiqqan holda biologik resurslar ikki turga bo'linadi: o'simliklar va hayvonot olami. Ularning har biri jahon iqtisodiyoti rivojida o'ziga xos ahamiyatga egadir. Lekin, hech bir tur o'rmon resurslaridek iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanmaydi.

Jahon mintaqalarida joylashgan o'rmonlarning umumiy maydoni 5,1 mlrdgani tashkil qiladi. Jahonda ikki o'rmon mintaqasi mavjud bo'lib, shimoliy mintaqasi asosan shimoliy kenglik hudularini (Kanada, Skandinaviya yarim oroli davlatlari, Rossiya va b.) o'z ichiga olib, aksariyat hollarda ignabargli daraxtlar bilan qoplangan. Janubiy mintaqasi esa tropik mintaqada joylashgan o'rmon hudularidan (Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, Braziliya, KDR va b.) iborat. Bu yerda asosan qimmatbaho turdag'i daraxtlar tarqalgan. Ular orasida sandal, temir, qizil daraxt kabi mebelbop navlar bilan bir qatorda tabiiy kauchuk olinuvchi geveyazorlar ham katta maydon-

larni tashkil qiladi. Ular yer yuzasi bo'ylab notejis taqsimlangan. 17-jadvalda jahon o'rmon resurslarining hududiy taqsimlanishi aks etgan.

Mintaqlar	12-jadval					
	O'rmon maydoni		O'rmon bilan qoplangan maydon, mln. ga	O'rmon bilan qopla nish daraja si, %	Daraxt zahirasi	
	Mlrd m ³	%			mln.ga	%
Yevropa	195	3,7	150	27	19	5
Osiyo	660	12,9	500	19	55	14,3
MDH	940	18,4	755	35	84	21,9
Afrika	1140	22,2	545	18	56	14,6
Shimoliy Amerika	750	14,7	455	25	53	13,8
Lotin Amerikasi	1260	24,5	970	48	110	28,6
Avstraliya va Okeaniya	180	3,6	70	9	7	1,8
Butun dunyo	5125	100	3445	27	384	100

Rossiya, Kanada, AQSh kabi davlatlar o'rmon maydonlari hajmiga ko'ra yetakchilik qiladi.

Iqlimi resurslar iqtisodiyotda keng foydalaniladigan, tugamaydigan xususiyatga ega bo'lgan iqlim elementlari hisoblanadi. Ularga quyosh energiyasi, shamol kuchi, yerning ichki energiyasi va boshqalar kiradi. Yer yuzidagi eng kuchli energiya manbai quyosh radiatsiyasidir. Yillik quyosh radiatsiyasi jahon energiya istemolidan 20 ming marta ortiq ($1,56 \cdot 10^{18}$ kVt/s). Atmosferada yuz beradigan energiya qaytarilish jarayoni natijasida yer yuziga 10^{14} kVt yoki 10^5 mlrd kVt-s (0,16 kVt har 1 km² quruqlik va Dunyo okeani yuzasiga) energiya yetib keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra yuqori kengliklarda quyosh energiyasi zichligi 80–130 Vt/m², mo'tadil mintaqada – 130–210, tropik mintaqada cho'llarida – 210–250 Vt/m² ni tashkil qiladi. Bu ma'lumotlar asosida quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyati arid mintaqada (quruq) joylashgan davlatlarda katta imkoniyatlar mavjud degan xulosaga kelish mumkin.

~ 60 ~

Shamol energiyasi tugamaydigan, arzon energiya manbai bo'lib, foydalanilishi natijasida atrof-muhitni ifloslantirmaydi. Asosan mo'tadil kengliklarda bu imkoniyat yuqori. Shu bilan birga doimiy shamollar esuvchi Shimoliy va Boltiq hamda Arktik mintaqaga dengizlari bo'yida esuvchi doimiy shamollardan ham foydalanish mumkin. Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, shamolning yillik foydalanish quvvati 300 mlrd kVt/s ni tashkil qiladi.

Iqlimi resurslar qishloq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish uchun talab etiladigan issiqlik, namlik va yorug'lik aynan ushbu resurs turi orqali hosil qilinadi.

Rekreatsion resurslar (lotinchada recreatio – tiklanish ma'nosini beradi) o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan, tarixiy yoki badiiy ahamiyatga ega, estetik zavq beradigan hamda sog'liqni tiklash xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy va antropogen ob'ektlardan tashkil topgan. Uning tabiiy rekreatsion va antropogen-rekreatsion turlari mavjud (rekreatsion resurs tabiiy resurs sifatida o'rganib chiqilayotganligi sababli tarixiy rekreatsion resurslarga e'tibor qaratilmaydi). Tabiiy rekreatsion resurslar ijobjiy iqlimi holat (ob-havoning deyarli doimiy ravishda bir xilligi, sovuq bo'lмаган kunlar davomiyligi), landshaftlarning o'ziga xosligi, dam olish maskanlari, sihatgohlar, kempinglar va chang'i uchish markazlarining mavjudligi kabilar asosida shakllanadi. Antropogen-rekreatsion resurslar esa insonlarning dam olish va sog'ligini tiklash maqsadida tashkil qilingan dam olish maskanlari, sanatoriylar, kurortlar, kemping va boshqalardan tashkil topadi.

Tabiiy resurslarning har bir turi o'ziga xos bo'lib, iqtisodiyotning moddiy hamda nomoddiy tarmoqlarini rivojlantirishga yordam beradi. Lekin ulardan foydalanishda ehtiyyotkorlik bilan yondashish zarur. Aks holda keng miyosdagi ekologik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotga katta zarar yetkazadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tabiiy resurslar orasida qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun katta ta'sir ko'rsatuvchi turlarini ko'rsating va fikringizni isbotlang.
2. Mineral resurslardan foydalanish natijasida qanday ekologik muammolar paydo bo'ladi?

~ 61 ~

3. Paydo bo'lish holatiga ko'ra litosfera tabiiy resurslariga qanday tabiiy resurslar misol bo'la oladi?
4. Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi tabiiy resurslardan foydalanish holatiga ta'sir ko'rsatadimi?
5. O'zbekiston qanday turdag'i tabiiy resurslarga boy?
6. Rekreatsion resurslarga boy davlatlarni sanab bering.

4. JAHON AHOLISI GEOGRAFIYASI

Tayanch tushunchalar: *aholi, oykumena, tabiiy ko'payish, migratsiya, irq, din, millat, aholining demografik tarkibi, aholining hududiy joylashuvi, urbanizatsiya, shahar, qishloq.*

4.1. Jahon aholisi soni va dinamikasi

Ma'lum joyda, ya'ni yer shari, uning ayrim qismlari: qit'alar, mamlakatlar, shaharlar, rayonlarda istiqomat qilayotgan kishilar guruhi aholi deb ataladi. Aholini geografik jihatdan o'rghanishda aholining quyidagi jihatlariga e'tibor berish kerak:

- **Aholi** – ishlab chiqarish sub'ekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi;
- **Aholi** – ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlarning ma'lum qismini iste'molchisi;
- **Aholi** butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur;
- **Aholi** – tabiiy resurs – xo'jalik tizimining bog'lovchi bo'g'ini bo'lib hisoblanadi.

Har bir tarixiy davrda yer yuzi aholisi ham miqdoriy, ham sifatiy rivojlanishni boshidan kechirgan. Buning natijasi sifatida zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida faoliyat ko'rsata oladigan, o'ziga xos madaniyat va hayot tarziga ega bo'lgan insonlar shakllangan.

Ilmiy manbaalar ma'lumotlariga ko'raeng qadimgi insonlar – *Homo sapiens* – bundan taxminan 50 ming yillar avval Sharqiy Afrika hududida paydo bo'lganlar. Aynan Shimoli-sharqiy, Sharqiy Afrika, Janubiy Yevropa hamda Old Osiyo ilk insonlar paydo bo'lgan va o'zlashtirgan oykumenalar hisoblanadi (*grekcha oikumene, oikeo = yashayman, turaman so 'zidan olingen bo'lib, yer yuzasining aholi yashaydigan va ular tomonidan o'zlashtirilgan qismi hisoblanadi*). Keyinchalik qadimiy insonlarning turli mintaqalarga tomon yuz bergen ilk migratsiyalar natijasida yer sharining turli qismlari aholi tomonidan o'zlashtirilgan. Neolit davrida ilk mehnat taqsimotining yuz berishi oqibatida ishlab chiqarishning ikki shakli – dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'lgan. Aynan dehqonchilik hududlari hisoblangan dengizbo'yлari, daryo vodiylari va tekislik hamda tog'

oldi hududlarida qadimiylar aholi manzilgohlari tarkib topgan. Uzoq davrlar davomida Yevropa, Osiyo va Afrika hududlari aholining asosiy qismi to'plangan mintaqalar bo'lib qoldi. Bu yerlarda insoniyat tarixida katta iz qoldirgan turli imperiyalar, davlatlar gullab yashnadi, davrlar o'tishi bilan inqirozga yuz tutib, uning o'rmini yangi davlatchilik ko'rinishlari egallab keldi.

Buyuk geografik kashfiyotlar aholining yangi topilgan yerbargacha katta miqdorda ko'chib o'tishiga sababchi bo'lgan bo'lib, uning natijasida qit'alar o'rtasida aholi sonining qayta taqsimlanishi yuz berdi. Agar Yevropa aholisi Yangi yerbargacha moliyaviy ahvolini yaxshilash, yangicha hayot tarziga ega bo'lish uchun ko'chib o'tgan bo'lsa, Afrika aholisi majburiy tarzdagi migratsiyasiga qulfurushlar sababchi bo'ldi. Ular tomonidan Braziliyaga 50mln, AQSHga 25mln, Markaziy Amerikaga 18 mln negrlar qul sifatida olib ketildi. Bu davrlarda tibbiy xizmatning rivojlanmaganligi, aholining aksariyati past hayot tarziga ega bo'lganligi sababli aholining tabiiy ko'payishi past darajada edi.

XX asrda yuz bergan ikkinchi Jahon urushi mintaqalardagi aholi soniga yana ta'sir ko'rsatdi. Urushlar aholining katta qismining hayotiga zomin bo'ldi. Bu holat hozirgi kungacha Yevropa aholisining jinsiy tarkibining nomuttanosib holatga ega bo'lishining asosiy sababchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, urushlar katta miqdordagi aholi migratsiyasiga ham sabab bo'lgan. Yevropa, Shimoliy Amerikada ishlab chiqarish tarmoqlarida yangi sohalarning paydo bo'lishi, tibbiy xizmatning rivojlanishi natijasida aholining tabiiy ko'payish darajasi orta bordi.

Ikkinci Jahon urushidan keyingi davrlarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarining siyosiy mustaqillikka erishuvni, ularga BMT tomonidan insonparvarlik yordamlarining berilishi natijasida aholi orasida o'lim darajasi pasaydi. Bu holat aholining sonining tez sur'atlarda o'sishiga sababchi bo'ldi. Natijada 1960-1980-yillarda "demografik portlash" jarayoni yuz berdi.

So'nggi yillarda demograf olimlar "demografik portlash"ga deyarli nihoyasiga yetib borayotgan jarayon sifatida baho berayotgan bo'lsa-da, statistik ma'lumotlar Afrika va Osiyoning bir qator davlatlarida aholining yillik tabiiy ko'payish darajasi hali ham yuqoriligini ta'kidlamoqdalar. Shu bilan birga jahonning rivojlangan

davlatlarida tabiiy ko'payishning manfiy holati – depopulyatsiya jarayoni (*o'lim koeffitsientining tug'ilish koefitsientiga nisbatan yuqoriligi*) yuz bermoqda.

Statistik ma'lumotlar jahonda 7,8 mlrd.dan ortiq aholi istiqomat qilishini ko'rsatmoqda (2020 y). Mutloq yillik tabiiy ko'payish 85-90 mln kishini tashkil qilmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilayotganidek, aholi sonining tez sur'atlар bilan o'sishi XX asrga kelib tezlashtib ketdi. Agar yer yuzining birinchi milliard aholisi dunyoga kelishi uchun qadimiylar paydo bo'lgan davrdan to 1800-yillargacha bo'lgan vaqt oralig'i kerak bo'lgan bo'lsa, keyingi milliard aholi dunyoga kelishi uchun oralig vaqt qisqara bordi. Buni 18-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

13-jadval

Jahon aholisi soni dinamikasi.

	Yillar oralig'i	Yillar
1-milliard	...	1804-yilga kelib
2-milliard	123	1804-1927
3-milliard	33	1927-1960
4-milliard	14	1960-1974
5-milliard	13	1974-1987
6-milliard	12	1987-1999
7-milliard	14	1999-2013
8-milliard	15	2013-2028
9-milliard	26	2028-2054
10-milliard	129	2054-2138

4.2. Aholining tabiiy va mexanik harakati

Aholining tabiiy harakatiga tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish jarayonlarining ifodasi deb baho berish mumkin. Bu jarayonlar aholining to'xtovsiz tiklanib va avlodlarning yangilanib turishini ta'minlaydi.

Jahonda tug'ilishning umumiyligi koeffisienti 20%ga yaqin bo'lGANI holatda, bu ko'rsatkich rivojlanayotgan davlatlarda ancha yuqori. Mazkur davlatlarda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 20-23%oni tashkil qilsa, rivojlangan davlatlarda u 10%ga teng. Mintaqalar orasida eng baland qiymat Markaziy Afrikada (44%) davlatlar orasida

esa Nigerda (48%) kuzatiladi. Shu o'rinda eng past ko'rsatkich yuqoridagi tartibda Janubiy Yevropa (8%) va Monakoga (6%) to'g'ri kelishini aytib o'tish kerak. Respublikamizda ushbu ko'rsatkich 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra 23%ga teng. Jahan davlatlarida tug'ilishning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- Oilada tug'ilayotgan farzandlar sonining kamayib borayotganligi;
- G'arb davlatlarida nikohsiz farzandlar salmog'ining ortayotganligi (masalan: Fransiyada 30%, Daniyada 40% va b);
- Qishloq hududlarida shaharlarga qaraganda tug'ilish darajasining yuqori ekanligi;
- Birinchi farzand dunyoga keltirish yoshining ortib borayotganligi;
- So'nggi yillarda homiladorlikning oldini oluvchi vositalarning paydo bo'lganligi va b.

Tug'ilish jarayoniga iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining milliy va diniy tarkib xususiyatlari, ayollarning savodxonlik va ijtimoiy mehnatda bandlik darajasi, urbanizatsiya jarayoni, belgilangan nikohga kirish yoshi katta ta'sir ko'rsatadi. Aholining milliy va diniy tarkib xususiyatlari tug'ilish darajasining yuqori bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar ta'sirida jahon davlatlarida tug'ilishning turli koeffitsientlari qayd qilinadi.

14-jadval

Jahon mamlakatlarida tug'ilishning umumiyo koeffitsienti (2020 y.).

№	Davlatlar	Tug'ilishning umumiyo koeffitsienti, %
1	Niger	48
2	Mali	46
3	Angola	44
4	Kongo DR	44
5	Chad	43
..224	Monako	6

O'lim darajasi dastavval kishilar hayotining moddiy sharoitiga ovqatlanishiga, mehnat va ro'zg'orning sanitariya-gigiena sharoitiga, sog'lijni saqlash ishlari taraqqiyotiga bog'liq. O'limning yuzaga kelishida genlarda mavjud bo'lgan o'zgarishlar, ya'ni organizmning

kasallik bilan kurashish jarayoni, turli tashqi kuchlar ta'siri katta ta'sir ko'rsatadi. Jahan davlatlarida o'limning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- XX asr boshlariga kelib, hayot darajasining oshishi sababli o'lim su'ratlari pasaydi;
- O'lim jarayoni asosan qariyalarga xos holat bo'la boshladи;
- O'lim holati kelib chiqishida ekzogen sabablar bilan birga endogen va kvazoendogen sabablar ham ta'sir qila boshladи;
- Ayollar va erkaklar o'lim darajasi o'rtasida farq orta bordi va b.

Umuman yuqorida ko'rib o'tilgan sabablariga ko'ra jahon davlatlarida turli ko'rinishdagи o'limning umumiyo koefitsienti qayd qilinadi. Tibbiy xizmat darajasining yuqoriligi, hayot tarzining baland ekanligi rivojlangan davlatlar orasida tug'ilish koeffitsientining past bo'lishiga sababchi bo'ladi. Jahondao'rtacha o'lim koeffitsienti 8%ni tashkil etadi. O'rtacha ko'rsatkichdan past daraja asosan Yevropa davlatlarida kuzatiladi. O'limning umumiyo koefitsienti eng yuqori ko'rsatkichi esa Afrika davlatlariga (8%) xos. Bolgariya jahonda o'lim koeffitsienti eng yuqori bo'lgan davlat bo'lib hisoblanga (16%), Qatarda eng past ko'rsatkich qayd qilinadi (1%).

O'lim darajasining asosiy demografik ko'rsatkichlari orasida bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi, o'rtacha umr ko'rish darajasi ko'rsatkichlari ajralib turadi. Jahan bo'yicha bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi ko'rsatkich 31%ni tashkil qilgan holda, uning eng past ko'rsatkichi Islandiyada (1,7%) qayd qilinadi. Eng yuqori ko'rsatkich esa Markaziy Afrika Respublikasiga xos bo'lib (80%), bunga siyosiy notinchlik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning past darajada rivojlanganli kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Jahan mintaqalari va davlatlarida o'rtacha umr ko'rish darajasi tahlil qilinganda ham aynan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi ko'rsatkich miqdoriga ta'sir ko'rsatishini ko'rish mumkin (15-jadval).

Jahon mintaqalari va davlatlarida o'rtacha umr ko'rish darajasi (2020 y.).

Mintaqalar va davlatlar	O'rtacha umr ko'rish darajasi, yosh		
	umumiy	erkaklar	ayollar
Jahon	73	70	75
Afrika	64	62	65
Jazoir	78	77	78
MAR	53	51	55
Amerika	77	74	80
Kanada	82	80	84
Gaiti	64	62	66
Osiyo	73	71	75
Yaponiya	84	81	87
O'zbekiston	75	72	77
Afg'oniston	65	63	66
Yevropa	79	75	82
Shveytsariya	84	82	85
Ukraina	72	67	77
Avstraliya va Okeaniya	79	77	81
Avstraliya	85	83	86
Tuvalu	65	64	67

Tabiiy o'sish bir yil davomida tug'ilganlar va o'lganlar orasidagi nisbat bo'lib, statistik ma'lumotlarda asosan % (promille) ko'rsatichida taqdim etiladi. O'lim va tug'ilishning o'zaro nisbatini aks ettiradigan mazkur ko'rsatkich ham turli davlat va mintaqalarda bir qator omillar ta'sirida bir-biridan farq qiluvchi miqdorga egadir (Ilavadagi 9-rasmga qaralsin).

Tabiiy o'sishning mintaqaviy tafovvutlari bo'lgani kabi jahon davlatlarida ham turli ko'rsatkichlar qayd qiladi. Jahonning bir qator davlatlarida xatto o'lim ko'rsatkichi tug'ilish ko'rsatkichidan birmuncha yuqori bo'lgan davlatlar ham mavjud. Masalan, Angola, Kongo DR davlatida bu ko'rsatkich 35% qiymatni ko'rsatsa, Bolgariyada tabiiy o'sish -7%oga teng.

So'nggi yillarda jahon demografik jarayonlari shakllanishida aholining mexanik harakati (migratsiya) ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Migratsiya (lotincha so'zdan olingen bo'lib, «migration»-«ko'chish» ma'nosini bildiradi) deb kishilarning yashash, ishlash, o'qish maqsadida ma'muriy chegaralardan o'tgan holda bir manzilgohdan ikkinchi manzilgohga doimiy yoki vaqtinchalik ko'chishiga aytildi. Migratsion harakatlarning yuzaga kelishida iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy, ekologik, harbiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Migratsion jarayonlarda ishtirok etuvchi aholi guruhlari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- *Oilaviy yoki boshqa sabablarga ko'ra doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ko'chib ketgan emmigrantlar.*
- *Migrant-mehnatkashlar.*
- *Nolegal immigrantlar.*
- *Qochoqlar.*
- *Talabalar,stajer-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar.*
- *Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar – turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va hokazolar.*

Migratsiya yo'nalishiga ko'ra tashqi (bir davlatdan ikkinchi davlatga, bir qit'adan ikkinchi qit'aga aholining ko'chishi) va ichki (bir davlatning ichida aholining hududlar bo'ylab ko'chishi) migratsiyaga ajratiladi.

Zamonaviy migratsiya jarayonining yuzaga kelishida iqtisodiy, siyosiy va harbiy omillar katta rolo'yynamoqda. Katta miqdordagi migrantlar oqimi rivojlangan davlatlar tomonga yo'nalmoqdalar. Migrantlar soniga ko'ra jahonda AQSh (46 mln kishi), Rossiya (11,2 mln kishi), GFR (10 mln kishi), Saudiya Arabiston (9,1 mln kishi) yetakchilik qiladi.

Xulosa sifatida, aholining tabiiy va mexanik harakati ko'plab demografik jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab o'tish lozim.

4.3. Jahon aholisining tarkibiy jihatlari

Dunyo aholisining bir qator belgilariga ko'ra guruhlashtirish mumkin. Ko'p hollarda aholini ilmiy adabiyotlarda aholining demografik, irqiy, milliy, diniy va boshqa tarkib xususiyatlari o'rganib chiqiladi.

Aholining *demografik tarkibi* uning yosh va jinsiy tarkib holatlarini tahlil etish orqali o'rjanib chiqiladi. Bu tarkibiy ko'rinishning qay tarzda shakllanishi avvalo, davlatga xos bo'lgan demografik vaziyat (tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari, migratsiya, nikohga kirish va ajralishlar holati) bilan bog'liq. Insonlarni umumiy holda uch yosh guruhiga ajratish odatiy holat hisoblanadi. Bular quyidagilar:

- ✓ Bolalar (0-14 yosh);
- ✓ Kattalar (15-64 yosh);
- ✓ Qariyalar (65 yosh va undan yuqori).

Jahon aholisining yosh tarkibi davrlar o'tishi bilan turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ortishi, urbanizatsiya jarayoni ko'rsatkichlarining o'sib borishi, ayollarning ijtimoiy mehnatda bandligi kabi omillar natijasida asta-sekinlik bilan aholi o'rtasida bolalar salmog'ining kamayishi, shu bilan birga kattalar hamda qariyalar salmog'ining ortishi yuz bermoqda.

Aholi yosh tarkibining mintaqalarga xos xususiyatlari e'tibor qaratilsa, tug'ilish darajasining pastligi sababli Yevropada bolalar salmog'ining qariyalar salmog'idan pastligi (16% bolalar, 65% kattalar va 19% qariyalar), Avstraliya va Okeaniyada esa bu nisbat doirasida yildan-yilga qariyalar salmog'ining ortib borayotganligi (23% bolalar, 65% kattalar va 12% qariyalar), Osiyo (24% bolalar, 65% kattalar va 9% qariyalar) hamda Afrikada (41% bolalar, 66% kattalar va 3% qariyalar) tabiiy ko'payish darajasining yuqoriligi sababli bolalar salmog'ining qariyalar salmog'idan bir necha barobar ortiqligini ko'rish mumkin. Amerika qit'asida ham aynan Lotin Amerikasi mintaqasida (22% bolalar, 67% kattalar va 11% qariyalar) tabiiy ko'payish darajasi birmuncha yuqoriligi sababli bolalar salmog'i qariyalarga qaraganda birmuncha yuqori.

Jahon aholisi yosh tarkibining dinamikasi.

Yillar	Yosh guruhlari salmog'i, %		
	5 yoshgacha	15-65 yosh	65 yoshdan yuqori
1950	34,5	60,4	5,1
1975	36,9	57,4	5,7
1995	31,9	61,6	6,5
2000	31,0	62,2	6,8
2011	27,0	65,0	8,0
2020	26,0	65,0	9,0

Aholining yosh tarkibi davlatlar kesimida o'rjanib chiqilganda bolalar salmog'i eng yuqori davlat Chad (48% bolalar, 50% kattalar va 2% qariyalar) ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga Angola, Somali, Mali kabi davatlarda ham bolalar salmog'i 47-48%ga teng ko'rsatkichni qayd qiladi. Qariyalar salmog'i esa jahoning yuqori darajada rivojlangan davlatlariga xos. Yaponiya (12% bolalar, 59% kattalar va 29% qariyalar) jahondagi qariyalar salmog'i eng yuqori bo'lган davlat hisoblanadi. Monako, GFR, Italiya kabi davatlarda ham qariyalar salmog'i 20%dan ortiq.

Aholining jinsiy tarkibiga e'tibor qaratsak, jahonda ayollar va erkaklar salmog'i deyarli teng bo'lgan, ayollar salmog'i yuqori bo'lgan hamda erkaklar salmog'i yuqori bo'lgan mintaqaga va davlatlarni uchratish mumkin.

Afrika, Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya qit'alarida jinslar salmog'i deyarli bir biriga teng bo'lsa, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida ayollar salmog'i birmuncha ortiq. Osiyo qit'asi davlatlarining aksariyat qismida, ayniqsa, Sharqi, Janubiy va Janubi-G'arbiy Osiyoda erkaklar salmog'i ayollarga qaraganda ancha yuqoriligini ko'rish mumkin. Bunga birinchi navbatda ushbu subregionlarda ayollarning ijtimoiy mavqeining pastligi, erta turmushga chiqish oqibati hamda migrations jarayonlar sababchi bo'ladi. Bu holatni davlatlar misolida tahlil qilib chiqilsa aynan ishlab chiqarishda erkaklar mehnati talab qilinadigan neft eksport qiluvchi arab davlatlarida erkaklar salmog'i yuqoriligini ko'rish mumkin (masalan: Qatar – 67%, Quvayt – 61,4%, BAA – 57,5%). Yevropa davlatlarining katta qismida tabiiy ko'payish darajasining

o'ta pastligi, XX asrning birinchi yarmida ikkita Jahan urushini boshidan kechirganligi boisayollar salmog'i yuqori (masalan: Latviya – 53,7%, Ukraina – 53,5%, Rossiya – 53,1%).

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa, jahon bo'yicha har mingta ayolga 1012-1015 ta erkak to'g'ri kelar ekan (ya'ni erkaklar soni ayollarnikiga qaraganda taxminan 30 mln kishiga ko'proq). Bu holatga Osiyo davlatlari yosh tarkibi shakllanishiga sababchi bo'lgan holatlardan tashqari so'nggi yillargacha Xitoy va Hindistonda olib borilgan demografik siyosat ham sababchi bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi ayollar va erkaklar salmog'i deyarli teng bo'lgan davlatlar hisobiga kiradi (50,1% ayollar va 49,9% erkaklar).

Aholining *irqiy tarkibi* boshqa ijtimoiy tarkib ko'rinishlaridan farqli ravishda biologik kategoriya hisoblanadi. Ya'ni inson organizmining tashqi muhitga nisbatan reaksiyasi asosida insonning tashqi belgilariagi farq ularning turli irqiy ko'rinishlarga mansubligini ko'rsatib beradi. Irqlarni ajratuvchi asosiy fiziologik belgilarni quyidagilardir:

- ✓ tana rangi;
- ✓ soch qoplami xususiyati;
- ✓ kallaning yuz qism tuzilishi;
- ✓ tana qismlari proporsiyasi;
- ✓ kaftlar va tovondagi asosiy chiziqlarning joylashuvi;
- ✓ barmoqlardagi chiziqlar;
- ✓ qon guruhi;
- ✓ tishlar va jag' tuzilishi;
- ✓ tanada mavjud bo'lgan mikroelementlar, oqsillar miqdori va b.

Irqlar paydo bo'lishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Ilmiy adabiyotlarda irqlar bundan 3-4 ming yillar avval shakllanib bo'lganligini ko'rsatib beradi. Afrikaning shimoli-sharqiy, Osiyoning janubi-g'arbiy qismida joylashgan irqlar paydo bo'lishining g'arbiy markazidan negroid va yevropoid irqlari, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyoga to'g'ri keluvchi sharqiy markazdan mongoloid va avstroloid irqlari tarqalgan.

Jahon aholisining asosiy qismi to'rtta asosiy irqqa (katta yevropoid irqi, katta mongoloid irqi, katta negroid irqi va kichik avstroloid irqi), qolgan qismi esa oraliq va aralash irqlarga mansub. Dunyo aholisining irqiy tarkibi quyidagicha: jahon aholisining 42,3

% i yevropoid irqiga, 20 % i mongoloid irqiga, 7 % i negroid irqiga, 0,3 % i avstroloid irqiga, 30,3 % ni aralash va oraliq tiplarga mansub.

Irqlarning mintaqaviy tarqalishiga e'tibor qaratilsa, yevropoid irqi vakillari asosan Yevropa, Amerika, Avstraliya va Okeaniya aholisining asosiy qismini tashkil qilishini ko'rish mumkin. Shu bilan birga Osiyoning Janubiy, Janubi-G'arbiy, Markaziy, Afrikaning shimoliy qismlarida ham asosan yevropoid irqi vakillari istiqomat qiladilar. Mongoloidlar asosan Osiyo va Amerika qit'asida keng tarqalgan bo'lsa, negroid irqi vakillari asosan Afrika hamda Amerika qit'alarini davlatlarida istiqomat qiladilar. Avstroloidlar irqi uzoq vaqt davomida negroid irqining bir ko'rinishi sifatida baholanib kelingan. Lekin, so'nggi yillardagi tadqiqotlar ularning kelib chiqishi negroidlar bilan bog'liq emasligini ko'rsatmoqda. Mazkur irq vakillari asosan Avstraliya va Okeaniya hududlarida tarqalganlar. Asosiy irqlar oraliq'ida paydo bo'lganoraliq irq vakillari ham mavjud. Efiop, dravid, ural, janubiy Sibir, polinez, kuril kabi ko'rinishdagi bu oraliq irqlar vakillari asosan Yevrosiyo materigida istiqomat qiladilar. Jahan aholisi irqiy tarkibida metis, mulat, sambo, malgash ko'rinishlariagi aralash irq vakillari ham mavjud. Aralash va oraliq irq vakillarining Osiyo qit'asi aholisi irqiy tarkibidagi ulushi 39,2%ni tashkil qiladi. Amerika aholisi irqiy tarkibida mazkur irqiy ko'rinish vakillari salmog'i 35%ga teng.

AQSh, JAR kabi davlatlarda mustamlakachilik tizimi oqibatlari sifatida shakllangan irqchilik (inson irqlari orasida jismoniy va aqliy tengsizlik mavjudligini targ'ib qiluvchi qarash) qarashlariga qarshi kurashning kuchayishi oqibatida BMT 1973-yil Irqlar tengligi haqida Konvensiya qabul qilgan. Demak, tashqi tana belgi xususiyatlari qaramay ilmiy jihatdan ham, huquqiy jihatdan ham dunyodagi barcha irq vakillari tengdirlar.

Aholining *milliy tarkibi* davlatlarda tarqalgan etnik birliklar holati va salmog'idan kelib chiqadi. Insonlarning tarixan shakllangan ijtimoiy guruhi sifatida shakllangan etnoslar bir-birlaridan yashash hududi, til asosida shakllangan hayot va madaniyat tarzi, eng asosiysi esa o'zligini anglash xissi mavjudligi bilan ajralib turadilar. Ularning qabila va urug'lar, elat hamda millat ko'rinishlari mavjud.

Etnoslarning qabila va urug' shakli hozirgi kunda asosan Shimoliy Amerika va Yevrosiyoning shimoliy kengliklarida, Okeniya, Afrikaning markaziy hududlarida saqlanib qolgan. Elatlar esa asosan Osiyo va Afrika hududlarida mavjud. Millatlar jahonning barcha davlat, mamalakat va hududlarida tarqalgan.

Jahonda 3-4 mingdan ortiq etnoslar bo'lib, ular orasida millatlar aholisini soni 100 mln.dan ortiq bo'lgan jahonda 12 ta, 50-100 mln bo'lgan 12 ta, 25-50 mln bo'lgan 17 ta millat mavjud. Eng ko'p sonli millatlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi. (17-jadval)

Shu bilan birga jahonda aleutlar, guronliklar, buryatlar kabi kam sonli xalqlar ham mavjud.

Jahon davlatlari milliy tarkib xususiyatiga ko'ra bir millatli (masalan: Yaponiya, Islandiya, Norvegiya), bir millatning boshqaliga nisbatan katta salmoqqa ega bo'lgan (masalan: AQSh, Fransiya, Turkiya), ikki millatli (masalan: Kanada, Belgiya), kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat (masalan: Markaziy Osiyo davlatlari), ko'p millatli (masalan: Hindiston, Indoneziya) davlatlar guruhlariga ajratiladi.

Aholisi soni 100 mln.dan oshgan millatlar.

Nº	Millatlar	Umumiy soni, mln. kishi
1	Xanlar (xitoyliklar)	1 mlrd. 310 mln
2	Hindlar	280 mln.
3	Bengallar	235 mln.
4	Amerikanlar	200 mln.
5	Brazillar	175 mln.
6	Ruslar	150 mln.
7	Yaponlar	130 mln
8	Meksikaliklar	147 mln.
9	Nemislar	140 mln
10	Pandjobliklar	110-120 mln
11	Bixarlar	115 mln.
12	Yavaliklar	105 mln.

Til millatning ko'zgusi hisoblanadi. Lekin yer yuzida mavjud bo'lgan barcha etnoslar o'z ona tillariga ega emaslar. Masalan, AQSh uchun ingлиз, Shveytsariya uchun nemis, italyan, fransuz, Braziliya

uchun portugal tillari davlat tili bo'lib hisoblanadi. Jahonda mavjud bo'lgan tillar 20dan ortiq til oilalariga birikadi. Ular orasida hind-yevropa til oilasi so'zlashuvchilar soniga ko'ra yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, koreys, yapon, bask, ayna, kelt kabi alohida hududlarda shakllangan tillar ham mavjud. So'zlashuvchilar soni 100 mln.dan oshgan 11 ta til mavjud bo'lib, xitoy (1 mlrd 250 mln kishi), ingliz (420 mln kishi), hind (350 mln kishi), ispan (335 mln.kishi), rus (250 mln kishi) tillari ular orasida yetakchilik qiladi.

Aholining diniy tarkibi oliy ilohiy mavjudotga e'tiqod qilishi asosida kelib chiqqan, insonlarning ahloqiy normalarini tartibga soladigan madaniyat shakliga asoslangan holda rivojlangan. Dinlar sodda (primitiv), mahalliy va dunyoviy dinlarga ajraladi. Diniy e'tiqodning eng sodda ko'rinishi bo'lgan primitiv dinlar hozirda asosan qabila va urug'lar orasida saqlanib qolgan. Totemizm, aniemizm, fetishizm kabi ko'rinishlari mayjud. (Ilovadagi 10-rasmga qaralsin)

Mahalliy dinlar (*ma'lum bir yoki bir necha qardosh etnik birliklar orasida tarqalgan diniy ko'rinishlar*) esa asosan bir davlat yoki mintaqaga doirasida tarqalgan. Mahalliy dinlar orasida induizm dini e'tiqodchilar soniga ko'ra peshqadamlik qiladi. Sikxizm, konfutsiylik, iudaizm, sintoizm dinlari ham mahalliy dinlar sirasiga kiradi.

Jahonning bir qancha mintaqalarida tarqalgan, e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra katta salmoqqa ega bo'lgan dunyoviy dinlarning uch turi mavjud. Bular buddizm, xristianlik, islam dinlaridir. E'tiqodchilar soniga ko'ra katoliklik, protestantlik va provoslavlik mazhablariga ajraladigan xristianlik yetakchilik qiladi. Bu din vakillari jahonning barcha mintaqalarida tarqalgan.

Paydo bo'lish davriga ko'ra dunyoviy dinlar orasida eng yoshi hisoblangan islam dini 1 mlrd 200 mln.dan ortiq e'tiqodchilarga egadir. 50 ta davlat uchun davlat dini hisoblangan islam dini asosan Shimoliy Afrika, Janubi-G'arbiy, Markaziy, Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo hududlarida keng tarqalgan. Uning sunniylig va shialik mazhablari mayjud.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda (Xitoy, Yaponiya, Mongoliya va boshqalar) asosiy e'tiqod manbai bo'lgan buddizm dini 700 mln.dan ortiq e'tiqodchilariga egadir Uning maxayana, xanayana,

lamaizm kabi oqimlari bor. Jahon aholisining diniy tarkibi tahlil qilinganida xristianlik, islom, induizm dinlari vakillarining salmog'i yuqoriligini ko'rish mumkin(Ilovadagi 10-rasmga qaralsin).

Aholining milliy va diniy tarkibi nafaqat demografik jarayonlar xususiyatiga, shu bilan birga davlatlarning siyosiy va iqtisodiy hayotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

4.4. Aholining hududiy joylashuvi

Aholining hududiy joylashuvi deb aholining hududlar bo'ylab iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda tarqalishiga aytildi. Unga tabiiy sharoit, tarixiy, demografik omillar hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy sharoit omilini aholining hududiy joylashuvida qadimdan katta ta'sirga ega bo'lgan omil sifatida ko'rib o'tish mumkin. Joyning iqlimi, relyefi, turli tabiiy resurslari hamda tuproq qatlami aholini turli mintaqalar bo'ylab tarqalishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Hozirgi davrda ham u aholi hududiy joylashuvida o'z o'mniga ega. Quruqlik yuzasining 28%ni egallagan 500 m. balandlikgacha bo'lgan hududlarda jami aholining 80%dan ortig'i yashashi haqidagi ma'lumotning o'zi ham yuqoridagi fikrlarning to'g'ri ekanligini isbotlab beradi. Aholi takror barpo bo'lishi tez sur'atlar bilan amalga oshayotgan hududlarda aholi soni ko'p bo'ladi hamda hududlar bo'ylab zinch holda joylashadi. Masalan, Bangladeshda har km²ga 1101 kishi to'g'ri keladi.

Aholining xo'jalik faoliyati uning hududiy joylashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan: dengiz chegarasidan 50 km.gacha bo'lgan hududida jami aholining 29 %, shahar aholisining 40 % yashaydi. 50-200 km.lik hududlarda 24%, 500-1000 km.da 22%, 500-1000 km.da 17%, 1000 km.dan oshgan hududlarda esa atiga 8% aholiistiqomat qiladi.

Hududlarning tarixiy o'zlashtirilish holati, o'tgan davrlarda yuz bergen turli tarixiy jarayonlarning ham aholining hududiy joylashuvida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu holatning isbotini aholi qadimdan yashab kelgan Eski Dunyoda (Yevropa, Osiyo va Afrika) jahon aholisining 85%dan ortig'i, Yangi Dunyoda (Amerika) esa 15 %ga yaqini istiqomat qilishi haqidagi ma'lumot orqali ko'rishimiz mumkin.

Dunyo aholisining o'rtacha zichligi – 1 km²ga 56-57 kishini tashkil qiladi. Eng yuqori zichlik ko'rsatkichi Monakoda qayd qilinadi. Bu yerda 1 km² maydonga 26152 kishi to'g'ri keladi. Eng past zichlik ko'rsatkichi esa Mo'g'ilistonda kuzatilib, aholi zichligi 1 km² maydonda 2-3 kishiga teng.

Davlatlar maydoni qanchalik kichik bo'lsa, ulardagi aholi soniga bo'g'liq ravishda uning zichlik ko'rsatkichi shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, Singapurda aholi zichligi 1 km²ga 8291 kishini tashkil qiladi.

Aholi zichligi ko'rsatkichiga ko'ra dunyo davlatlarining uch guruhi mavjud. Bular 1km²da 56-57 kishigacha bo'lgan past ko'rsatkichli davlatlar (masalan: Liviya, Kanada,Shvetsiya), har 1 km²ga 56-57dan 200 kishigacha bo'lgan o'rta zichlikka ega davlatlar (masalan: Nigeriya, Kuba,Avstriya) hamda 1km²da 200 kishidan ortiq bo'lgan yuqori zichlik mavjud davlatlar (masalan: Mavrikiy, Gaiti, Yaponiya).

Jahon mintaqalari orasida aholi zichligi yuqori bo'lgan Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Jashubi-Sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropa va Shimoiy Amerika mintaqalari mavjud.

Aholi hududiy joylashuvining o'troq, yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi shakllari mavjud. Ular orasida albatta o'troq hayot tarzi jahon davlatlarida turli aholi manzilgohlarining shakllanishiga sababchi bo'lgan. O'troq hayot tarzining guruhiy shakllaridan bo'lgan qishloq va shaharlar aholining asosiy istiqomat manzillari bo'lib hisoblanadi. Turli hisob-kitoblarga ko'ra yer yuzida 85 mingdan ortiq shahar, 3 mln.ga yaqin qishloq aholi manzilgohlari mavjud.

Shahar deb aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqda band bo'lgan aholi manzilgohlariga aytildi. Hozirgi davrda shaharlar har bir davlatning asosiy ishlab chiqarish, boshqaruv, transport markazlariga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Aynan shaharlar aholining madaniy, ma'naviy hordiq olishini ta'minlab beruvchi manzilgohlar ham bo'lib hisoblanadi. Aynan shaharga xos hayot tarzi katta miqdordagi insonlarni o'ziga jalb qiladi va ularni shahar aholi manzilgohlariga ko'chib kelishga undaydi. Oqibatda 1960-yillardan boshlab jahon davlatlarida urbanizatsiya (*lotincha "urbus" – "shahar" – ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli mamlakat yoki rayon hayotida shaharlar rolining oshish jarayoni*,

jumladan, shahar aholisining o'sishi) darajasi tez sur'atlarda o'sib bordi. Agar 1900-yillarda yer yuzi aholisining 13,3% shaharlarda istiqomat qilgan bo'lsa, oradan yuz yil o'tib mazkur ko'rsatkich 47,5%ga yetdi. Dunyo bo'yicha o'rtacha urbanizatsiya darajasi ko'rsatkichi 56%ga teng. Eng yuqori ko'rsatkich (100%) Qatar, Monako, Singapur, Baxrayn, Nauru kabi mitti davlatlarda kuzatiladi. Eng past ko'rsatkich esa Burundi (13%), Niger (16%), Malavi (17%) kabi rivojlanayotgan davlatlarga xos. Mintaqalar orasida esa eng yuqori urbanizatsiya darajasi Amerikaga tegishli (80%). Bu ko'rsatkich Yevropada 75%, Avstraliya va Okeaniyada 68%, Osiyoda 51% hamda Afrikada 43%ni tashkil qiladi.

Mazkur jarayonlar natijasida nafaqt shaharlar soni ortdi, balki, shahar manzilgohlari maydoni ham kengayishi yuz berdi. Millioner shaharlar orasida mega shaharlar (*aholisi 10 mln.dan ortiq bo'lgan shaharlar*) soni ortdi. Shahar hududlari kengayishi aglomeratsiya, megalopolis, suburbanizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq.

Shahar aglomeratsiyalariturli kattalikdagi shaharlarning ma'muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuv hisoblanadi. Mavjud aglomeratsiyalar bir markazli (monotsentrik) va ko'p markazli (politsentrik) bo'lishi mumkin. Tokio-Iokogama (aholisi soni 37,9 mln kishi), Jakarta (34,5 mln kishi), Dehli (29,7 mln kishi), Mumbay (23,3 mln kishi), Manila (23,1 mln kishi), Shanxay (22,1 mln kishi) jahoning eng yirik aglomeratsiyalari hisoblanadi.

Megalopolis(grekcha megalu – "katta", polis – "shahar") deb yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo'shilib ketishiga aytildi. Ularni bir qancha shahar aglomeratsiyalarining yig'indisi deb ham talqin qilish mumkin. Jahonda shakllangan 6 ta megalopolis mavjud. Shundan 3 tasi AQSh hududida, 1 tasi Buyuk Britaniya, 1 tasi Osiyo hududida joylashgan. Megalopolislarning bittasi xalqaro xususiyatga ega bo'lib, Niderlandiya, Germaniya, Belgiya, Fransiya hududlarida shakllangan. Bular quyidagilar:

Shimoliy-shargiy – Bosvash

Aglomeratsiyalar soni – 40 tadir. Eng yirigi - Nyu-York. Umumiy uzunligi – 800 km.

Ko'li bo'yи – Chipits.

Aglomeratsiyalar soni – 35 tadir. Eng yirigi - Chikago. Umumiy uzunligi – 900 km.

Tinchokeanbo'yи – San-San

Aglomeratsiyalar soni – 15 ta. Eng yirigi - Los-Anjeles. Umumiy uzunligi – 800 km.

Ingliz.

Aglomeratsiyalar soni – 30 ta. Eng yirigi - London. Umumiy uzunligi – 400 km.

Reyn.

Aglomeratsiyalar soni – 30 ta. Eng yirigi - Reyn-Rur. Umumiy uzunligi – 500 km.

Yapon – Tokaydo.

Aglomeratsiyalar soni – 20 ta. Eng yirigi - Tokio. Umumiy uzunligi – 700 km.

Hozirgi davrda AQSh va Xitoy hududida 3 tadan, Indoneziya, Braziliya, Argentina davlatlari 1 tadan megalopolislar shakllanmoqda.

Suburbanizatsiya shahar atrofidagi manzilgohlar aholisi sonining shahar aholisi hisobiga ortib ketishi hisoblanadi. Agar yuqorida tahlil qilib o'tilgan urbanistik hududlar ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan hududlarga xos bo'lsa, hozirgi kunlarda suburbanizatsiya asosan rivojlangan davlatlarda namoyon bo'lmoqda. Bu holatning yuz berishiga shahar hududlarida uy-joy kommunal xizmati narxining ancha balanligi, ekologik holatning yomonligi, jinoyatchilik darajasining yuqoriligi kabilar sabab bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda shahar aholisi soni ortishi bilan birga soxta urbanizatsiya holati ham avj olmoqda. Soxta urbanizatsiya deb rivojlanayotgan davlatlarda ko'chib kelgan qishloq aholisi hisobiga shahar aholisi salmog'ining oshib borishiga aytildi. Buning natijasida yirik shaharlar atrofida zaruriy infratuzilma elementlariga ega bo'lмаган manzilgohlar shakllanadi. Bunday manzilgohlar maydoni Braziliya, Hindiston kabi davlatlarda ancha kattadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Nega ibtidoiy jamoa, quldarlik tuzumlarida aholi soni deyarli o'zgarmadi?
2. Oqillar migratsiyasi xususiyati va kelib chiqish sabablarini tushuntirib bering?
3. Aholining yosh va jinsiy tarkibini ilmiy jihatdan tahlil qilish nima uchun kerak?
4. Zamonaviy siyosiy xarita shakllanishida etnik birliklar qanday ta'sirga ega?
5. O'zbekistonda yuz berayotgan urbanizatsiya jarayoni qanday xususiyatlarga ega?
6. Soxta urbanizatsiya nima va u qanday yuzaga keladi?
7. Dunyo aholisining o'rtacha zichligi qanday xisoblanadi?
8. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikka qanday e'tibor berishadi?

5. JAHON IQTISODIYOTI

Tayanch tushunchalar: jahon iqtisodiyoti, yevrotsentrizm, politsentrizm, yalpi milliy mahsulot, xalqaro mehnat taqsimoti, jahon iqtisodiyoti sohalari, agrar tip, industrial tip, postindustrial tip, fan texnika taraqqiyoti, globallashuv, xalqaro iqtisodiy integratsiya.

5.1. Jahon iqtisodiyotining shakllanish xususiyatlari

Jahon iqtisodiyoti o'zaro savdo-sotiq, kreditlar berish, iqtisodiy bitimlar tuzish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar barpo etish, iqtisodiy va texnik axborot ayirboshlash kabi shakllarda iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lgan milliy iqtisodiyotlar majmui hisoblanadi. Jahon xo'jaligi o'zining vujudga kelishi va rivojlanishida uzoq yo'lni bosib o'tgan. Uning paydo bo'lish davri haqida olimlar turli fikrlar bildirildilar. Ayrim tadqiqotchilar uning vujudga kelishini Rim imperiyasi davri bilan bog'lashsa (e.a. II va eramizning I asrlari), boshqa olimlar jahon xo'jaligini faoliyat ko'rsata boshlagan davrni XV-XVI asrlar, ya'ni Buyuk geografik kashfiyotlar davri bilan bog'laydilar. Aynan shu kashfiyotlar qimmatbaho toshlar, metallar, shirinliklar va qullar bilan xalqaro savdoning tez rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ammo bu davrdagi jahon xo'jaligi cheklangan bo'lib, faqat savdogarlarning sarmoyalari ishlaydigan soha bo'lgan edi xalos. Bizning fikrimizcha, jahon xo'jaligi sanoat inqilobidan keyin, kapitalning monopol bosqichiga o'tishi davrida vujudga kelgan (XVII – XX asrning boshi). Bu davrda jahon iqtisodiyoti bir markazlilik holatida bo'lib, u davrni yevrotsentrizm davri deb ham atash mumkin. O'sha davrning eng rivojlangan davlatlari – Angliya, Germaniya, Fransiya kabilar Yevropaning jahon iqtisodiyotida peshqadam mintaqaga aylanishiga katta xissa qo'shganlar.

Keyingi davrlarda yuz bergen siyosiy o'zgarishlar jahonda yangi iqtisodiy markazlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Birinchi Jahon urushidan keyingi davrlarda jahon iqtisodiyotida ikki markazlilik holati (Yevropa, AQSh) yuzaga kelgan bo'lsa, oradan o'ttiz yilga yaqin vaqt o'tgach – ya'ni Ikkinci Jahon urushidan keyingi davrda jahon iqtisodiyotida ikki tizim – jahon kapitalistik va sotsialistik tizimi rivojlandi. Ikkinci jahon urushidan keyingi o'n

yilliklarda jahon xo'jaligini rivojlanish yetakchi tendentsiyalaridan biri, bu ko'plab davlatlarning birin-ketin yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuz tutgan iqtisodiy ochiq tipdagi xo'jalikka o'tishi bilan xarakterlandi. Ikki tizim o'rtaisdagi siyosiy, iqtisodiy raqobat to 1990-yillarning boshigacha davom etdi. 1991-yil dekabr oyida jahondagi eng yirik sotsialistik tuzumga mansub davlat hisoblangan Sobiq Ittifoq o'z faoliyatining tugatganligi e'lon qilingach, jahonning aksariyat davlatlari orasida ochiq tipdagi iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshlandi.

18-jadval

Jahonda YaIM (nominal) hajmi, mlrd.AQSh dollari.

Yil	hajmi
2007	0.0
2008	0.0
2009	0.0
2010	0.0
2011	70160.0
2012	71620.0
2013	73870.0
2014	74160.0
2015	76384.8
2016	75730.0
2017	79450.0
2018	87500.0
2020	83 845.0

Manba - CIA World Factbook

XXI asr o'z miqyosiga ko'ra globaldir, u to'liq ravishda bozor iqtisodiyotining tamoyillari, xalqaro mehnattaqsimotining ob'ektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalmallashuviga asoslanadi. Bu holat esa jahon iqtisodiyotida polisentrik - ko'p markazlilik holatining shakllanishiga olib keldi. Hozirgi kunda G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika kabi yirik markazlar bilan birqatorda MDH, Xitoy, Yaponiya, Osiyoning yangi sanoatlashgan davlatlari, Fors ko'rfazi davlatlari, Hindiston, Braziliya, Meksika kabi iqtisodiy

markazlar ham jahon iqtisodiyotida o'ziga xos o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur markazlar jahon YaMMda salmoqli o'ringa egadir. Jahon YaMM hajmida G'arbiy Yevropaning hissasi 29%, Shimoliy Amerikaniki 26%, Yaponianikiga 10%, Xitoyniki 9%, MDHniki 7%, boshqa davatlarniki 19% ga teng.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi quyidagi jarayonlar tez sur'atlarda amalga osha boshlashiga sababchi bo'ldi:

- ✓ kapitalning erkin harakatlanishi;
- ✓ ish kuchining erkin ko'chishi;
- ✓ ishlab chiqarishning tarmoqlararo kooperatsiyasi;
- ✓ fan texnika yutuqlaridan erkin foydalanish;
- ✓ yagona iqtisodiy makon;
- ✓ yagona pul tizimi;
- ✓ iqtisodiy integratsiyadir.

Xaqiqatan ham so'nggi yillarda jahon davlatlari orasida zaruriy sohalarni rivojlantirish maqsadida qisqa muddatlarda kapital mablag'larning talab qilingan hududlarga kirib borishi amalga oshirilmogdadir. Bundan tashqari, mehnat shartnomalari asosida istak bildiruvchi ishchilarni xorijiy davatlarga yetib borishlari ta'minlanmoqda va h.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga bir qator omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

➤ **Siyosiy omil:** Siyosiy jarayonlar va siyosiy barqarorlik, xalqaro kelishuvlar va harbiy-siyosiy ittifoglarga a'zoligi va b.

➤ **Iqtisodiy omil:** Investitsion iqlim, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va b.

➤ **Tabiiy sharoit omili:** Jahon xom-ashyo bozorlaridagi narx ko'rsatkichlari, energiya manbaalariga egalik va ularning narx ko'rsatkichlari va b.

➤ **Savdo va valyuta kursi:** Davlatlar orasidagi valyutalar to'lov qobiliyati, davlatlarning tashqi savdo xususiyatlari va tarkibi, davlatlardagi savdo siyosatiga b.

➤ **Xalqaro mehnat taqsimoti:** Turli davlatlardagi ishlab chiqarish samaradorligi, mehnatga nisbatan xaq to'lanish holati va b.

Har bir davlat yoki mintaqada iqtisodiyotning rivojlanishi bu yerdagi siyosiy ahvol bilan bog'liq. Siyosiy jihatdan barqaror mintaqalargagina xorijiy investitsiyalar yo'naltiriladi. Qo'shma korhonaga

lar barpo etiladi. Iqtisodiyoti xorijiy hamkorlik uchun “ochiq” bo‘lgan davlatlar katta miqdordagi kapital quyilmalarni o‘ziga jalgish imkoniyatiga egadir. Shu bilan birga zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishi tabiiy resurslar, bиринчи navbatda mineral resurslar bilan bog‘liq. Mineral resurslar orasida birlamchi energiya manbaalari katta ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday boylikka ega bo‘lgan davlatlar jahon iqtisodiyotida yuqori mavqega egad. Bu holatlar xaqiqatan ham yuqorida sanab o‘tilgan omillar ta’sirida jahon iqtisodiyoti tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishini ko‘rsatadi.

5.2. Jahon iqtisodiyoti sohalari

Jahon iqtisodiyoti shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqarish tarmoqlari rivoji bilan bog‘liq. Ma’lumki, jahon iqtisodiyoti uchun XVIII asrgacha bo‘lgan davrda qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq bo‘lib hisoblangan. Shu bilan birga insonlar uchun zaruriy shaxsiy hamda mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik sohalari ham rivojlangan edi.

Angliyada yuz bergan sanoat inqilobi zamonaviy jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadigan tarmoqning rivojlanishi uchun zamin yaratdi. To‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan katta talab paxta tolasi ni yigirish va undan mato to‘qishga asoslangan ilk mashinalarni ixtiro qilinishiga sababchi bo‘ldi. Keyinchalik qog‘ozishlab chiqarish, qand lavlagi asosida shakar olish tarmoqlari uchun mashinalar ishlab chiqarila boshlandi. 1774-1775-yillarda J.Uatt tomonidan bug‘ mashinalarining ixtiro qilinishi turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalarining – zavod va fabrikalarning ishga tushirilishiga yordam berdi. Asta-sekinlik bilan industriyalashuv jarayoni dunyoning barcha hududlariga yoyila boshladi.

1960-yillarga kelib fan texnika inqilobining yuz berishi bilan ishlab chiqarish tarmoqlarida mexanizatsiyalashuv va avtomatlash-tirish jarayonlari boshlanib ketdi. Bu holat o‘z navbatida nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga sababchi bo‘ldi. Natijada jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari katta ahamiyatga ega bo‘la boshladilar (Ilovadagi 11-rasmga qaralsin).

11-rasmdagi chizma tahibili shuni ko‘rsatadi, jahon iqtisodiyotida industriyalashuvgacha bo‘lgan davrda (sanoat inqilobiga cha) haqiqatan ham qishloq xo‘jaligi o‘ta muhim ahamiyatga ega

bo‘lgan. Sanoat tarmoqlarining rivojlana boshlashi bilan iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi ahamiyati pasayib, sanoat asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari yaratuvchisiga aylangan. Fan texnika taraqqiyoti davri-ga kelib esa mavjud sohalar o‘z o‘rnini xizmat ko‘rsatish tarmoq‘iga bo‘shatib bergenlar. Xaqiqatan ham so‘nggi yillarda jahon va alohida davlatlar iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohalarining ulushi ortib bormoqda. Nomoddiy soha tarkibida intelektual xizmatlarning rivojlanishi bilan postindustrial davr rivojlanib bormoqda. Tarmoq sohalari yaratadigan mahsulotlar asosan nomoddiy xarakterga ega bo‘lishi bilan bir qatorda uning ishlab chiqaruvchi va iste’molchisi orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi, ularni saqlash imkoniyatining mavjud emasligi, ularga bo‘lgan talabning o‘zgarib turishi kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Xalqaro savdo tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi kunda ushbu tarmoqning 150 turdagи sohalari mavjud bo‘lib, ular ta’limiy, ishbilarmonlik, moliya, transport xizmatlari kabi ko‘rinishdagи 12 ta sektorda birlashtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining YalMdagi ulushi jahon iqtisodiyotida tarmoq tarkibiga ko‘ra turli tipdagi davlatlarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Hozirda jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga ko‘ra agrar (*iqtisodiyotning tarmoq tarkibida qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq ishlab chiqarish tarmoqlari salmog‘i yuqori bo‘lishi*), industrial (*iqtisodiyotning tarmoq tarkibida sanoat va qurilish sohalari salmog‘ining yuqori bo‘lishi*) va postindustrial (*iqtisodiyotning tarmoq tarkibida xizmat ko‘rsatish (ayniqsa, intelektual soha) tarmoqlari salmog‘ining yuqori bo‘lishi*) tiplarga ajratiladi. Shu bilan birga iqtisodiyotda moddiy soha tarmoqlari bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va sanoat salmog‘iga ko‘ra (ko‘rsatkichlar bir-biriga yaqin miqdorga ega bo‘lgan hollarda) agrar-industrial yoki industrial-agrar davlatlar ham ajratiladi. Senegal agrar, Braziliya industrial, GFR postindustrial, O‘zbekiston industrial-agrar, Kambodja agrar-industrial davlatlarga misol bo‘la oladi.

Turli davlatlarning o‘zlarida mavjud bo‘lgan tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib, yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan tarmoqlarga ixtisoslashuvi natijasida jahon xo‘jaligida xalqaro mehnat taqsimoti yuzaga keladi. **Xalqaro mehnat taqsimoti** deb ayrim davlatlar va mamlakatlar xo‘jaligining ma’lum mahsulot-

larni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va bu mahsulotlarni boshqa davlatlar hamda mamlakatlar bilan ayrboshlashiga aytildi.

U jahon iqtisodiyotining asosini tashkil etib, birinchi navbatda ishlab chiqarilgan moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari mahsulotlari hamda nomoddiy soha xizmat turlari (xalqaro turizm, moliyaviy faoliyat, transport xizmati, ta'lim sohasi va b.) bilan davlatlararo savdo-sotiqlik qilish yoki ayrboshlashdir. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida nafaqat tovar va xizmatlar, balki mablag' va ishchi kuchi migratsiyasi bilan ham ajralib turadi. Davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnni ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy geografik o'rinn xususiyatlari (birinchi navbatda arzon dengiz yo'llariga nisbatan tutgan o'rni), tabiiy resurs bazasi kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi.

Har bir davlat o'z imkoniyatlari natijasida ishlab chiqargan mahsulot yoki xizmatlarini jahon bozoriga olib chiqadilar. Masalan, Yaponiya jahondagi radioelektronika, robottexnikasi, avtomobillar va dengiz kemalari eksporti bo'yicha peshqadam bo'lsa, Saudiya Arabistoni, Liviya, Jazoir, Quvayt kabi davlatlar yoqilg'i xomashyosining asosiy eksportyorlari hisoblanadilar. Peru, Zambiya va Kongo Demokratik Respublikasi mis rudasi va tozalangan misni, Burundi va Uganda esa kofe xomashyosini jahon bozoriga olib chiqadilar. Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi ularning ishlab chiqarish tarmoqlariga ixtisoslashuvi bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, aynan ixtisoslashuv ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rnni ko'rsatib beradi.

5.3. Fan texnika taraqqiyotining jahon iqtisodiyotiga ta'siri

Insoniyat madaniyatining butun rivojlanishi fan-texnika taraqqiyoti (FTT) bilan qattiq bog'langan. Fan-texnika taraqqiyoti jamiyatda fanning ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi asosida ishlab chiqarishda sifatiy rivojlanishga erishish jarayoni bo'lib xisoblanadi. FTT insoniyat ishlab chiqarish kuchlarida tub sifatiy burilish bo'lib, u fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishiga asoslangan. Ushbu jarayon asta-sekin rivojlana borib, keyin insonning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarining benihoya o'sishiga turtki bo'ladi. Hozirgi zamon FTT quyidagi 4 ta asosiy hususiyatga ega:

Birinchidan, ko'p qirrali bo'lib, hamma tarmoqlar, hamma sohalarni mehnat jarayonini, turmush sharoitini, madaniyatini, kishilar ruhiyatini o'zgartiradi. Agar ilgari sanoatda burilishning ramzi deb bug' mashinasi hisoblangan bo'lsa, hozirgi FTT ning ramzi EHM, kosmik kema, samolyot, AES, televizor, telefon, mini kompyuterlar bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, fan-texnika qayta qurishni nihoyatda tezlashtirib yubordi. Bu tezlanish ilmiy kashfiyat bilan uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish o'rtasidagi vaqtning keskin qisqorganida mahsulotlarning juda tez ma'naviy eskirib qolishida va binobarin, muntazam yangilanib turishida o'z ifodasini topdi.

Uchinchidan, insonning ishlab chiqarishdagi o'rning tubdan o'zgarishiga olib keldi. FTT mehnat resurslari malakasi darajasiga talabni keskin oshirdi. Bu holat inson faoliyati barcha sohalarida aqliy mehnat salmog'ini oshirdi, ya'ni mehnatni aqliylashtirish ro'y berdi.

Hozirgi zamon FTT ko'p qirrali bo'lib, yagona murakkab tizimdan iborat. Bu tizimda uning 4 ta tarkibiy qismi bir-biri bilan o'zaro bog'lanib ketgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Fan
2. Texnika va texnologiya
3. Ishlab chiqarish
4. Boshqaruv.

FTT ta'sirida fan sohasidagi o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

- davlat tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari uchun sarflanadigan mablag'larning ko'paytirilishi;
- ta'lim tizimida sifatiy o'zgarishlarning yuz berishiva b.

FTT davrida fan bilimlarning juda murakkab majmuaga aylandi. Fanning ishlab chiqarish bilan aloqalari juda o'sdi, ishlab chiqarish tobra ko'proq fantalab bo'lib bormoqda. Bu holat rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar orasidakatta farqga ega.

Masalan: Butun jahonda bajariladigan ilmiy ishlarning 4/5 qismi Yaponiya, AQSh, GFR kabi 10 ta rivojlangan mamlakatga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlarda YAMMning 2-3 %i fanga sarflanadi. Hamma rivojlanayotgan davlatlarga esa jahondagi fanga qilinadigan harajatning atiga 4-5%i to'g'ri keladi.

Shu bilan birga davlatlar tomonidan fanga e'tibor kuchayishi natijasida ta'lim sohasining rivojlanishi yuz berdi. Ta'limning amaliyot bilan chambarchas bog'lanishi, unda zamonaviy ta'lim vositalari va texnologiyalaridan foydalanish amalgalashirila boshlandi.

Texnika va texnologiyalar sohasida yuz bergan o'zgarishlar:

- Yangi texnologik jarayonlarning joriy etilishi;
- EHM, robotlardan ishlab chiqarishda keng foydalanilishi;
- Kvant texnikasining rivojlanishi (lazerlar);
- Yangi aloqa vositalarining ishlab chiqarilishi;
- Eski usuldagagi texnologiyalarning intensifikatsiyalashuvi va b.

Texnika va texnologiya ilm va kashfiyotni o'zida mujassamlashtiradi. Yangi texnika va texnologiyadan foydalanishdan maqsad ishlab chiqarish samarasini, mehnat unumdorligini oshirishdir. Keyingi yillarda texnika va texnologiyaning asosiy vazifasi bo'lgan mehnatini iqtisod qilish bilan birga resurslarni iqtisod qilish va tabiatni muhofaza etish vazifalari tobora kuchayib bormoqda. Masalan: Buyuk Britaniya va Italiyada po'latni 2/3 qismi temirtersakdan olinadi. Buyuk Britaniya bilan Yaponiyada qog'ozning 1/2 qismi makulaturadan iborat, AQSh va Yaponiyada alyuminiyning katta qismi ikkilamchi alyuminiydan olinadi.

Ishlab chiqarish tarmoqlari FTT natijasida quyidagi o'zgarishlarni boshidan kechiradi:

- Iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining takomillashuvi;
- Fantalab sohalarning ortishi;
- Yangi sintetik materiallarning ishlab chiqarilishi;
- Qishloq xo'jaligi va transportning intensifikatsiyalashuvi;
- Yadro energetikasining rivojlanishi va b.

Ilmiy yangiliklar ishlab chiqarish tarmoqlari tarkibida yangi sohalarning paydo bo'lishiga olib keldi (masalan: kimyo sanoatining polimerlar yo'nalishi). Bundan tashqari, FTT sanoat tarmoqlari orasida yangi va zamonaviy sanoat tarmoqlarining shakllanishiga zamin yaratdi (masalan: mikrobiologiya sanoati). Bu holat ayniqsa, ishlab chiqarishga fantalab sohalarning kirib kelishi bilan yanada keskin tus oldi (masalan: elektronika va elektrotexnika). Tabiatda mavjud bo'lgan, jahon iqtisodiyotida katta talab mavjud bo'lgan

tannarxi qimmat bo'lgan tabiiy xom-ashyo o'rmini bosuvchi sun'iy, orzon mahsulotlar (masalan: sun'iy kauchuk) egallay boshladi.

Boshqaruvga xos o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

- Fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni yo'naltirish;
- Professional menedjerlar tayyorlash.

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi boshqaruv jarayonini qaytarzda shakllantirish va tashkil qilish bilan bog'liq. Chunki, aynan maxsus malakaga ega bo'lgan mutaxassislargina sifatlari mahsulotlar tayyorlab berishlari mumkin. Shu sababli ishga jaib qilinayotgan ishchi va xodimlarning davogar bo'layotgan ish o'rinnariga qanchalik mos ekanliklari avvaldan ish beruvchilar tomonidan aniqlab olinadi. Ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida ish jarayonini tashkil etish mutaxassislik xujjatlariga ega bo'lgan ish boshqaruvchilar — menedjerlarga ishonib topshirilmoqda.


Fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish oralig'ida aloqadorlikni kuchaytirish, fan-texnika yutuqlarini qisqa muddatlarda ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida yirik korxonalar, TMKlar tarmoq bo'limlari qoshida texnopolislardan tashkil qilinmoqdadir. Texnopolislardan (yunoncha techne — san'at, qobiliyat va polis — shahar) maxsus hududiy ishlab chiqarish majmualari bo'lib, unda ilmiy tadqiqot faoliyati, fantalab ishlab chiqarish va mazkur jarayonlarni faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishchi xodimlar tayyorlash jarayonlari hamkorlikda amalgalashiriladi. AQShdagi Silikon vodiysi, Yaponiyaning Tsukuba, Buyuk Britaniyaning Kembridj, Shotlandiyaning Silikon Glen, Koreya Respublikasi Daeduk, Xitoyning Shenjen texnopolislari eng yiriklari hisoblanadi.

5.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiya

Bizga ma'lumki, jahon iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyasi jarayoni globallashuv hisoblanadi. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti jamiyatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Shu jumladan globallashuv jarayonini ham.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonining yuzaga kelishi iqtisodiy integratsiyalarning shakllanishiga sababchi bo'lgan. Ma'lumki, iqtisodiy integratsiya davlatlararo kelishuv siyosati asosida ular o'rtasida o'zaro uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hisoblanadi. Uning maqsadi barcha

ishtirokchi davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishida bir-biriga mos holda ijobjiy yutuqlarga erishish hisoblanadi. Integratsion uyushmalarning mintaqaviy (masalan: Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi), tarmoq (OPEK), xalqaro monopoliyalar (TMK) ko'rnishidagi turlari mavjud. Ular orasida jahon iqtisodiyoti rivojlanishida mintaqaviy uyushmalarning xissasi katta. Turli davlatlarning birgalikda faoliyat ko'rsatishlari uchun iqtisodiy, siyosiy va boshqa turli ko'rnishdagi masalalar turtki bo'lib, ularni hamkorlikda bartaraf etish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish tashkil etilgan va etilayotgan tashkilotlarning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.



**13-rasm. Yevropa
Ittifoqi bosh qarorgohi
(Bryussel shahri)**

Ushbu birlashmaga dastlab Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlari a'zo bo'lgan. 1957-yil mazkur davlatlar Yevropa iqtisodiy hamkorligi va atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati tashkil qilish bo'yicha shartnoma imzolaganlar. 1967-yil yuqorida nomlari qayd qilingan uch tashkilot birlashuvi Yevropa Ittifoqining tashkil topishiga asos bo'ldi. 1973-yil – Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, 1981-yil – Gretsya, 1986-yil Ispaniya, Portugaliya, 1995-yil – Avstriya, Shvetsiya, Finlyandiya, 2004-yil – Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Sloveniya, Litva, Latviya, Estoniya, Kipr, Malta, 2007-yil – Ruminiya, Bolgariya, 2013-yil – Xorvatiya davlatlari mazkur tashkilotga a'zo bo'lganlar.

Ichki chegara chiziqlariga ega bo'lmanan yagona iqtisodiy makonni yaratish, ushbu hududda ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini tenglashtirish maqsadida muomila uchun yagona valyutani joriy etish Yevropa Ittifoqining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda

davlatlar milliy iqtisodiyotida belgilangan yagona narx, ishlab chiqarishga ma'lum kvotalar belgilash, subsidiyalashtirish kabi jarayonlardan tashkil topgan iqtisodiy siyosat olib boriladi. Moliyaviy inqiroz paytida katta zarar ko'rgan bir qator Yevropa Ittifoqi davlatlariga ko'rsatilayotgan yordam miqdori bo'yicha yuzaga kelgan turli kelishmovchiliklar, Buyuk Britaniyaning tashkilot tarkibidan chiqib ketishi (31.01.2020 y), Niderlandiya va Belgiyada ittifoqdan chiqish bo'yicha referendum o'tkazishga tayyorgarlik kabi holatlar jahon davlatlari orasida tashkilot mavqeining pasayishiga sababchi bo'imodqadir.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ASEAN)
Mintaqada tinchlik va birdamlikni saqlash, hamkorlikda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga erishish, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida 1967-yil 8-avgustda Indoneziya, Malayziya, Filipin, Singapur, Tailand davlatlari say'i harakati asosida tashkil etildi. 1984-yil Bruney, 1995-yil Vyetnam, 1997-yil Laos va Myanma, 1999-yil esa Kambodja tashkilotning teng huquqli a'zolariga aylandi.

1997-yildan boshlab Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikalari ham ASEAN davlatlari bilan yaqin hamkorlikda tashkilot faoliyatida ishtirok etmoqdalar. Ushbu tashkilot jahondagi muhim integratsion uyushmalardan biriga aylanib borayotganligi sababli uning faoliyatini AQSh, Rossiya kabi bir qator rivojlangan davlatlar ham kuzatib boradi. Tashkilot davlatlarining aksariyat qismi yangi sanoatlashgan davlatlar bo'lib, ular iqtisodiyoti asosan eksportbop aniq mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shu sababli ASEAN davlatlari iqtisodiyoti rivojlanishi jahon iqtisodiyotidagi narx ko'rsatkichlariga bog'lanib qolishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida har bir iqtisodiy inqiroz tashkilot davlatlarininng asosiy qismiliqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)ga 1991-yil 8-dekabrdan asos solingan bo'lib, o'z faoliyatini sha yilning 21-dekabrida boshlagan. Tashkilotning bosh qarorgohi Belarus poytaxti Minsk shahrida joylashgan. Hamdo'stlik tarkibidagi davlatlar hududida integratsion munosabatlarni yo'lga qo'yish ushbu tashkilotning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Tashkilot nizomiga ko'ra a'zo davlatlar inson huquqlari va erkinligini ta'minlash, davlatlar tashqi

siyosatini nazorat qilish, iqtisodiy hamkorlik, transport va aloqa tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy va migratsion siyosat masalalarini hal etish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalarini hamkorlikda hal qilishlari zarur. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qирг'изистон, Tojikiston, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston Respublikalari tashkilot a'zolari bo'lib hisoblanadilar. Turkmaniston esa assotsiatsiyalashgan davlat maqomiga egadir. Shu bilan birga Mo'g'iliston, Afg'oniston tashkilot kuzatuvchilari sifatida turli darajadagi yig'ilishlarda ishtirok etadi. Turli tabiiy resurslarga boy bo'lgan, katta ijtimoiy, iqtisodiy salohiyatni o'zida birlashtirgan bu tashkilotning yuqori integratsiyalashuvga erishishi a'zo davlatlardagi ichki va tashqi muammolarni qay darajada hal qilinishiga bog'liq.



14-rasm. SHXT tashkiloti a'zolari

2017-yil Hindiston va Pokiston ushbu tashkilotning teng huquqli a'zolariga aylandilar. Shu bilan birga 6 ta muloqot hamkor davlatlar va 2 ta nomzod davlatlar ham ishtirok etadi. A'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni ta'minlash, mintaqada tinchlikni saqlash, xavfsizlik masalalarini o'zaro hamkorlikda hal qilish, terrorizm, separatizm va ekstrimizmga qarshi birlgilikda harakat qilish, qurol-yarog', narkotik vositalar hamda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash, iqtisodiy masalalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantirish kabilalar tashkilotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Hozirgi kunda tashkilot tarkibida jahoning qudratli davlatlaridan uchtasi – Rossiya, Xitoy, Hindistonning faoliyat olib borishi uning jahondagi mavqeini oshib borishiga sababchi bo'lmoqdadir.

~ 92 ~

Mutaxassislar SHXTni jahon integratsion uyushmalari orasida Yevropa Ittifoqi bilan raqobatlasha oladigan imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlamoqdalar.

Tarmoq uyushmalar orasida OPEK tashkiloti katta mavqeiga ega. Neft qazib olishni va a'zo mamlakatlarning neft eksporti siyosatini muvofiqlashtirish hamda a'zo davlatlar manfaatlarini himoya qilish tashkilotning asosiy maqsadi hisoblanadi.



15-rasm. OPEC tashkilotiga a'zo davlatlar

2020-yil ma'lumotlariga ko'ra OPEKka a'zo davlatlar quyidagi jordan iborat: Angola, BAA, Venesuela, Gabon, Jazoir, Iraq, Kongo, Liviya, Nigeriya, Saudiya Arabistoni, Qatar, Quvayt, Eron, Ekvatorial Qvineya. Mazkur davlatlar hududida 1199,7 mlrd barrelneft zahiralari mayjudligi aniqlangan. So'nggi yillarda Fors ko'rfafiga yaqin hududlarda siyosiy ahvolning notinchligi, rivojlanayotgan davlatlarda belgilangandan ko'ra ko'proq neft qazib olinishi kabi holatlar neft narxining tushib ketishiga sababchi bo'lmoqda. Bundan tashqari, tashkilotga a'zo arab davlatlari o'zlariga xos muammolarni mustaqil hal qilish uchun arab neft eksportqiluvchi davlatlar tashkilotini tashkil qilishgan.

Songgi yillarda tashkil topgan tashkilotlardan biri BRICS hisoblanadi. BRICS besh mamlakatdan tashkil topgan (BRICS - Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika). BRICS a'zolari iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan yirik mamlakatlar sifatida ifodalanadi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanganligini, ijobil barqarorligini, ham kuchliligini va tabiiyresurslari ko'pligini ko'rishimiz mumkin: Braziliya - Jahon iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot hajmiga ko'ra dunyoda 9-o'rinda (2019-yil), qishloq xo'jaligi mahsulotlariga boy; Rossiya - Jahon iqtisodiyotida mineral resurslarga boy shu bilan birga yalpi ichki mahsulot bo'yicha 10-12 o'rinda, eng yirik hududga ega va dunyodagi ikki yirik yadroviy


~ 93 ~

kuchlardan biridir; Hindiston - Juhon iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot hajmiga ko'ra dunyoda 5-o'rinda, bir milliarddan ortiq aholisi bor. Intellektual resurslarga ega, aholisi ikki xil tabaqaga bo'lingan boylar va qashshoqlar, atomi bilan katta kuchga ega; Xitoy - Juhon iqtisodiyotida yalpi ichki mahsuloti hajmiga (harid qobilyatiga asosan) ko'ra 1-o'rinda, nominal YaIM hajmiga ko'ra 2-o'rin va iqtisodiyoti rivojlanishiga ko'ra 1-o'rinda, shu bilan birga dunyoda yetakchi eksportchi ("dunyo zavodi") davlat, dunyodagi eng yirik valyuta zaxiralarining ega, dunyodagi eng yirik aholi va atom elektr energiyasiga egadir; Janubiy Afrika Respublikasi - Juhon iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot hajmiga ko'ra va iqtisodiyoti bilan 30-31 o'ringa ega, tabiiy resurslariga ancha boy.

BRICS hududida jahon aholisining 44% (2.9 mlrd. kishi) yashaydi. Unga jahon hududining 25% to'g'ri keladi. Jahonda yaratilgan yalpi YAIM ning 30% (21 trln. AQSh dollar) mazkur guruh mamalakatlari to'g'ri keladi. (19 - jadval)

Shuningdek BRICSning qudratini va jahon iqtisodiyotidagi o'rnini qo'yidagi ma'lumotlar assosida bilish mumkin. Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy jahon bo'g'doyining 40% (260 mln. tonnadan ortiq), cho'chqa go'shtining 50% (50 mln. tonnadan ortiq), tovuq go'shtining 30% dan ortig'ini 350 mln. tonnadan ortiq), 30% mol go'shtini (20 mln. tonna atrofida) beradi. BRICS davlatlarida dunyodagi haydaladigan yerlarning 32% (0.5 mlrd. ga) to'plangan.

BRICS ga a'zo davlatlar kartasi.



16-rasm.

19-jadval

BRICS ga a'zo davlatlarining ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha jahonda tutgan reytingi.

Ko'rsatkichlar	Braziliya	Rossiya	Hindiston	Xitoy	JAR
Maydoni	5	1	7	3	25
Aholisi	5	9	2	1	25
Aholining o'sishi	107	221	93	156	158
Ishchi kuchi soni	5	7	2	1	34
YaIM (nominal)	9	12	5	2	35
YaIM (harid qobilyatiga ko'ra)	8	6	4	1	25
YaIM (nominal) jon boshiga ko'ra	53	56	138	94	71
YaIM harid qobilyatiga ko'ra) jon boshiga ko'ra	71	51	127	93	77
YaIMo'sishi	15	88	4	1	17
Eksport	18	11	16	1	36
Import	20	17	11	2	34
Xorijiy investitsiyalar	11	12	29	5	31
Oltinvalyuta zaxirasi	7	3	6	1	33
Avtomobil ishlab chiqarish	6	19	7	1	24
Temir yo'llar tarmog'i	10	3	4	2	12
Avto yo'llar tarmog'i	4	8	3	2	18

Xalqaro monopolialarning asosiy ko'rinishi bo'lgan transmilliy kompaniyalar ham jahon iqtisodiyotida katta ahamiyatga egadir. O'z tarkibiga bosh boshqaruvchi markaz orqali rivojlanishning umumiyligi strategiyasini ishlab chiqaruvchi va amalga oshiruvchi, ikki yoki undan ortiq mamlakatda xo'jalik birliklariga ega bo'lgan hamda katta miqdorda xorijiy aktivlarga ega xalqaro kompaniya trans milliy kompaniya hisoblanadi.

Trans milliy kompaniyalar rivojlanishi Tamplierlar ordeni faoliyati bilan bog'liq. Ularning 1118-yildan boshlab qarz berish, turli xalqaro moliyaviy amaliyotlar amalga oshirishlari tufayli TMKlar shakllanishiga asos solingen. 1600-yilga kelib Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi birinchi rasmiy TMK sifatida rivojlanishni boshladi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida katta miqdordagi TMKlar ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat olib boradilar. Ularning xarakterli belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- Ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyatining katta qismini bosh shtab-kvartira joylashgan davlat iqtisodiy makoni chegarasidan tashqariga olib chiqish;
- Turli davlatlarda shahobchalar, sho'ba va assotsiatsiyalangan kompaniyalarning katta tarmog'ini shakllantirish;
- Iqtisodiy faoliyatni samarali bashoratlash va rejalashtirish sharoitida tashqi va ichki investitsion oqimlarni boshqarish;
- Kapitallar, ishchi kuchi, axborot ko'chishi (transferi)ning firma ichkarisidagi kanallarining ko'pligi.

Trans milliy kompaniyalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ TMKlar fan texnika taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashi kerak.
- ✓ TMKlar jahon iqtisodiyotining globallashuvini amalga oshirib, uning ishtirokchilarini xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faollandashuvini ta'minlashi shart;
- ✓ Juhon ishlab chiqarishi su'ratlarining ortishiga turtki berishi kerak;
- ✓ Juhon bozorida sog'lom raqobatni yuzaga kelishiga sababchi bo'lishi zarur.

Juhon bo'yicha boy tabiiy resurs manbaalariga, sarmoya va fan-texnika yutuqlarini o'zlashtirish, qulay moliyaviy manbaalarga hamda malakali kadrlarni tanlab olish uchun keng imkoniyatlarga egaligi ushbu turdag'i kompaniyalarga xos bo'lgan imkoniyatlar sanaladi. Shu bilan birga TMKlar faoliyatining salbiy jihatlari ham mavjud. Jumladan, aksariyat hollarda rivojlanayotgan davlatlar mahalliy bozorlarida ularning monopol ko'rinishga ega bo'lishi erkin raqobatga yo'l qo'ymasligiga olib kelmoqda. Turli moliyaviy muammolar natijasida TMKlar korxonalarida yildan-yilga bandlar

salmog'ini rejali tarzda kamaytirilish oqibatida ko'plab davlatlarda ishsizlik darajasi ortib bormoqdadir.

Turli baholash agentliklari tomonidan TMKlar faoliyatini tahlil qilish asosida ularning har yillik reytinglari e'lon qilinadi. Bu ko'rsatkichbo'yicha ko'p yillardan beri AQShning ko'p tarmoqli Wal-Mart Storeskompaniyasi yetakchilikni qo'ldan bermay kelmoqda. Niderlandiya-Buyuk Britaniyaning Royal Dutch Shell, Xitoyning China Petroleum & Chemical Corp. (Sinopec) kompaniyalari birinchi uchlikni egallamoqdalar. Jahon iqtisodiyoti rivojida moliyaviy amaliyotlar yillik miqdoriga ko'ra katta ahamiyatga ega bo'lgan banklar reytingida esa Xitoyning tijoriy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan Industrial & Commercial Bank Of China, asosan qurilish sohasida tijoriy bank xizmatlari taklif etuvchi China Construction Bank hamda qishloq xo'jalik banki hisoblanuvchi Agricultural Bank Of China banklari yetakchilik qilmoqdalar. FORBES GLOBAL 500 reytingi bo'yicha jahoning yetakchi 500 TMKlarining 128 tasi AQShda, 106 tasi Xitoyda, 53 tasi esa Yaponiyada bosh qarorgohlariga ega.

Ko'rinish turibdiki, jahon iqtisodiyoti ko'p asrlik rivojlanish davriga ega. Har bir davr uning tarkibida yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi va davlatlar iqtisodiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishiga olib kelgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Juhon iqtisodiyoti tarmoqlarining hududiy joylashuviga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Juhon iqtisodiyoti tarmoqlarida aholi bandligi qanday ko'rinishga ega?
3. O'zbekiston jahon iqtisodiyotining qaysi tarmoqlaridagi salmog'i sezilarli darajada?
4. Zamonaliv jahon iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari nima?
5. Xalqaro mehnat taqsimoti jahon iqtisodiyotining shakllanishi qanday ahamiyatga ega?
6. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima?
7. Servisning (xizmat) YAIM ulushi yuqori bo'lgan davlatlarni ayting?

6. JAHON SANOAT GEOGRAFIYASI

Tayanch tushunchalar: *sanoat, undiruvchi sanoat, qayta ishlovchi sanoat, tog'-kon sanoati, yoqilg'i-energetika majmuasi metallurgiya majmuasi, mashinasozlik majmui, kimyo sanoati, o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati.*

6.1. Sanoat tarmoqlari, uning hududiy rivojlanish xususiyatlari.

Tog'-kon sanoati va uning sanoat tarmoqlari orasida tutgan o'rni.

Ma'lumki, sanoat jahon, turli mintaqalar va davlatlar iqtisodiyotining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Sanoat o'zi uchun hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi, shuningdek, xom-ashyo, yoqilg'i qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yog'och tayyorlash, sanoatda yoki qishloq xo'jaligida olingan mahsulotlarga ishlov berish va uni qayta ishlash bilan band korxonalar (fabrika, zavod, elektrostantsiya, shaxtalar, konlar va b.) majmuvi hamdir.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohalining tez sur'atlar bilan o'sishi, mehnat resurslarining katta qismi aynan, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida bandligi oshib borayotganligiga qaramay sanoat ko'plab davlatlar uchun asosiy iste'mol va eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlat bo'lib hisoblanmoqda. Tarmoq rivojlanishiga katta miqdordagi kapital quyilmalarning unga tomon yo'naltirilganligi, davlatlar tomonidan ilmiy texnik tadqiqotlar uchun ajratadigan mablag'larning o'sib borishi sabab bo'lmoqda. Sanoatning hududiy tarkibi butun jahon iqtisodiyotining turli hududlarda rivojlanish holatiga sababchi bo'lgan holda, davlatlarda iqtisodiyot asosini – karkasini tashkil qilmoqdadir. Aynan shu sabablar sanoatni iqtisodiy taraqqiyotning "motori" deb atashga sabab bo'ladi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari quyidagilar:

- ✓ Tog'-kon sanoati

- ✓ Yoqilg'i-energetika majmui
- ✓ Metallurgiya majmua
- ✓ Mashinasozlik majmui
- ✓ Kimyo sanoati
- ✓ O'rmon va yog'ochsozlik majmui
- ✓ Qurilish materiallari sanoati
- ✓ Yengil sanoat tarmoqlari
- ✓ Oziq-ovqat sanoati

Yuqorida sanab o'tilgan tarmoqlar o'z navbatida undiruvchi va qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari tarkibiga kiradi.

Undiruvchi sanoat asosan sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo tayyorlab beruvchi sohalardan tashkil topadi. Uning tarkibiga tog'-kon, o'rmon sanoatlari bilan bir qatorda, turli manbaalarda ovchilik, dengiz mahsulotlarini ovlash sohalari ham kiritiladi.

Qayta ishlovchi sanoat tarkibiga kiruvchi 300dan ortiq tarmoqlar va kichik tarmoqlarda ishlab chiqarish va iste'mol uchun zarur bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi. Jahon qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari tarkibida mashinasozlik majmuasi tarmoqlari yetakchilik qiladi. Keyingi o'rnlarni kimyo, oziq-ovqat, yengil, metallurgiya sanoat tarmoqlari egallaydi.

Sanoatni hududiy tashkil etish, o'sha hududda mavjud bo'lgan tabiiy, moddiy va mehnat resurslar bilan qay darajada ta'minlanganligiga, ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllarining rivojlanish darajasiga, sanoat, shaharlar va aloqa yo'llarining tarixan tarkib topgan joylashuviga, hududning iqtisodiy jihatdan o'zlash-tirilganlik darjasini kabi omillarga bog'liq. Shunday omillar borki, ular sanoat korxonalarining joylashishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bular xom-ashyo, yoqilg'i-energetika, suv, ishchi kuchi, transport va iste'mol omillaridir. Bu iqtisodiy geografik mohiyatiga ko'ra, bir-biridan farq qilishiga qaramay, bular bir-biri bilan chambarchas bogliq. Agar xom-ashyo, yoqilgi-energetika, suv omillarini ko'rib chiqsak, uning ko'lami hududda mavjud omillarning zaxiralariga qarab fikr yuritsa, ishchi kuchi va iste'molchi omillari sholining ushbu qismi egallagan hududning katta-kichikligiga qarab aniqlanadi. Transport omili esa yuqorida ko'rsatilgan omillar orasida o'zaro aloqalar uchun xizmat qiladi. Bundan kelib chiqib, shartli ravishda xom-ashyo, yoqilgi-energetika, suv, ishchi kuchi va


iste'molchi omillarini joylashtirish, transport omilini esa masofa omili deb atash mumkin.

Sanoat tarmoqlari tarkibi yuqorida tahlil qilib o'tilgan turli omillardan tashqari, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga ham bog'liq. Rivojlangan davlatlar sanoati asosan mahalliy, ko'p hollarda import xom-ashyo asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti tarkibida sanoat xom-ashyo va birlamchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. So'nggi yillarda rivojlanayotgan davlatlar orasida iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'sayotgan tayanch, yangi sanoatlashgan va neft eksportqiluvchi guruhlar davlatlari sanoati mahsulotlari tarkibida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar hajmi ortib bormoqda.

Jahon sanoatining so'ngi yillardagi rivojlanishi 13 rasmdagi (29-jadval) grafikda ifodalangan. Grafik ma'lumotlariga ko'ra jahonda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati 2008-yilgacha yuqori bo'gan. Lekin bu ko'rsatkich 2009-yilda jahonda iqtisodiy inqirozning kuchayishi bilan pasaydi. Shu yili jahonda sanoat ishlab chiqarish hajmi -2.7% kamayishi kuzatildi. 2010-yildan boshlab sanoat ishlab chiqarish hajmi asta sekinlik bilan oshib bordi. Ayrim yillari, masalan 2012 va 2015-yillari sanoat ishlab chiqarish hajmida turg'unlik holati kuzatildi. 2016-yilda 2.5% ga o'sishga erishildi. 2017-2019-yillarda o'rtacha 3.5-3.8% ga o'sishga erishildi. Lekin 2020-yilda koronovirus pandemiyasi tufayli bu ko'rsatkich keskin tushib ketdi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati albatta mintaqalar bo'yicha xar-xil ko'rsatkichlarda qayd etildi. Xususan jahon iqtisodiy inqirozidan katta zarar ko'rgan AQSh, Yaponiya, YEI davlatlari, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi sezilarli kamayish kuzatilsa, Xitoy, O'zbekiston kabi ayrim rivojlanayotgan davlatlarda sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari saqlanib qoldi.

Jahonda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati, % hisobida



17-rasm.

20-jadval
Jahonda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati, % hisobida.

Yillar	%
2007	5.0
2008	3.2
2009	-2.7
2010	4.6
2011	3.9
2012	0.0
2013	3.5
2014	1.9
2015	0.0
2016	2.5
2017	3.5
2018	3.8

Manba - CIA World Factbook

Sanoat tarmoqlari ichida undiruvchi sanoatning ahamiyati katta. Undiruvchi sanoat bir qator tarmoqlardan tashkil topsada, lekin uning 75% mahsulotini tog'-kon sanoati tayyorlab beradi.

Tog'-kon sanoati mineral resurslarni izlash va qazib olish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar majmui bo'lib, shu bilan birga majmua tarkibiga ularni birlamchi qayta ishlash hamda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari ham kiradi. Tog'-kon sanoati hududiy rivojlanishida bir qator rayonlar ajratilib, ular orasida AQSh, Kanada va Meksika, Yevropa, MDH davlatlari kabi rayonlar o'z o'rniqa egadir. Jahon tog'-kon sanoatida AQSh, Rossiya turli mineral resurslar qazib olishga ixtisoslashgan bo'lsa, Qozog'iston, O'zbekiston asosan 1-2 turdag'i, Chili, BAA kabi davlatlar esa bir turdag'i xom-ashyolarni qazib olishga ixtisoslashgan. Qazib olinadigan mineral xom-ashyolar soni bo'yicha Rossiya (48 turdag'i mineral xom-ashyo qazib olinadi) yetakchilik qilsa, tog'-kon sanoatida qazib olinadigan mineral resurslar salmog'ida ko'mir peshqadam hisoblanadi. Umumiy qazib olinadigan mineral xom ashyoning 23% toshko'mir va qo'ng'ir ko'mirga to'g'ri keladi. Mazkur sanoat asosan rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida katta salmoqqa ega bo'lsada, lekin unda faoliyat ko'rsatuvchi asosiy TMKlar rivojlangan davlatlarga tegishli. BHP Billiton va Rio Tinto (Avstraliya/Buyuk Britaniya), Xstrata (Buyuk Britaniya) tog'-kon sanoatining yirik TMKlar bo'lib hisoblanadi. Mazkur sanoat tarmog'ining ishlab chiqargan mahsulotlari asosan yoqilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo, yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil va oziq-ovqat sanoatlarida qayta ishlanib, haqiqiy iste'molga tayyor mahsulotlarga aylantiriladi.

6.2. Yoqilg'i-energetika majmuining hududiy rivojlanishi

Yoqilg'i-energetika majmui turli energiya olinuvchi resurslarni (ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, yonuvchi slanets va boshqalar) qayta ishlash va undan yoqilg'i hamda moylash mahsulotlari, elektr energiyasi olish va iste'molchilarga etkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar, korxonalar va inshootlar majmuidan tashkil topgan sanoat tarmog'i bo'lib hisoblanadi.

Olovning kashf etilish davridan boshlab, har bir o'tgan tarixiy davrlarda biron turdag'i yoqilg'i-energetika resurslari jamiyat taraqqiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1500-yillarda energiya mahsulotlari iste'molining 70%ni o'tin, 20%ni organik qoldiqlar hamda 10% inson kuchi iborat bo'lgan. 2000-

yillarga kelib esa iste'mol tarkibi neft(38,6%), ko'mir (28,7%), tabiiy gaz (22,1%), yadro energiyasi (6,9%) va gidroenergiyadan (3,7%) tashkil topdi. Shu tarzda davlar davomida jahon yoqilg'i-energetika balansi (muayyan vaqt davomida davlat hududida yoqilg'i va energiyani ishlab chiqarish va sarf qilish oralig'idagi nisbat) o'zgara bordi. Balansdagi keskin o'zgarishlar, ayniqsa, XX asrda yuz berdi. Fan texnika taraqqiyoti natijasida asosiy birlamchi energetik resurslar orasida salmoq jihatdan yetakchi hisoblangan ko'mir o'mini davriy ketma-ketlikda neft, gaz va yadro energiyasi egalladi.

Yoqilg'i-energetika majmui tarmoqlari sanoatning asosiy tarmoqlaridan hisoblanib, uning rivojlanish holati boshqa sanoat tarmoqlari shakllanishida katta ahamiyatga egadir.

Majmuuning asosiy xom-ashyosi hisoblangan neft, tabiiy gaz, qo'ng'ir va toshko'mir, yonuvchi slanets, torf, o'tin, qishloq xo'jaligi chiqindilari, quyosh, shamol, geotermal, gidro hamda atom energiyasi birlamchi energetik resurslar hisoblanadi. Ular bir birlaridan issiqlik berish quvvatiga ko'ra farq qiladilar. 1 kg shartli yoqilg'i (odatda 1 kg toshko'mirga teng) 29,3 MJ (yoki 7000 kkal/kg)ga teng bo'lib, uning issiqlik koeffitsienti 1,0ni tashkil etadi. Neft va gazda bu ko'rsatkich nisbatan yuqori (issiqlik koeffitsienti 1,5) bo'lsa, qo'ng'ir ko'mir, torf, o'tin, yonuvchi slanets kabi yoqilg'i xom-ashyo turlarida ancha pastligi bilan ajralib turadi. Ular orasida uran mazkur koeffitsient bo'yicha yuqori ko'rsatkichga egadir. 1 kg uran yoqilg'isidan 3000 tonna ko'mirdan olinadigan energiyaga teng quvvat hosil bo'ladi.

Jahon xo'jaligida yoqilg'i resurslari qazib olish hajmining o'zgarishi, ba'zi energiya xom ashylari tannarxining ortishi, ularni tashiydigan zamонавий transport vositalarining paydo bo'lishi, yangi energiya manbaalarining o'zlashtirilishi iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqdadir. Unda rivojlangan davlatlar asosiy energiya etkazib beruvchilar, rivojlanayotganlari esa iste'molchilar sifatida ishtirok etmoqdalar.

Yoqilg'i-energetika majmuasining tarmoqlari hisoblangan – neft, ko'mir, gaz va elektroenergetika sanoatlari rivojlanishida tabiiy hamda ijtimoiy omillarning ta'siri katta.

Ko'mir sanoati – yoqilg'i-energetika majmuasi tarmoqlari orasida eng birinchi shakllangan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bu

tarmoq ko‘p mablag‘ va ishchi kuchi talab etuvchisoha hisoblanib, uning mahsulotlaridan (qo‘ng‘ir va toshko‘mir) yoqilg‘i hamda qora metallurgiya va kimyo sanoatlarida foydalaniladi. Ko‘mir sanoatida zamonaviy ish vositalari, ish jarayonida yangi texnologiyalarning qo‘llanilishi uning tez su‘ratlar bilan rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

XX asrning ikkinchi yarmida neft sanoatining rivojlanishi ko‘mir sanoati mahsulotlariga bo‘lgan talabning kamayishiga sababchi bo‘ldi. Iqtisodi rivojlangan G‘arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya xo‘jaligining arzon neftga ixtisoslashuvi bilan mazkur mintaqalarda ko‘mir qazib olish hajmi pasaydi.

1970 va 1980-yillarda yuz bergan neft inqirozi mazkur mahsulot narxining ortishi ko‘mirga bo‘lgan talabning yana ko‘payishiga sababchi bo‘ldi.

Xitoy, AQSh, Rossiya va Hindiston kabi davlatlar jahonda ko‘mir qazib olish bo‘yicha etakchi bo‘lib hisoblanadi. Jahon mintaqalari orasida ko‘mir qazib olish hajmi Osiyo, Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropada yuqori.

Neft sanoati - nafaqat yoqilg‘i-energetika majmui, balki og‘ir sanoat tarmoqlari orasida eng tez rivojlanayotgan soha bo‘lib hisoblanadi. Qazib olinayotgan neftning asosiy qismi yoqilg‘i, qolgan qismi esa neft kimyo sanoati uchun xom ashyo bo‘lib hisoblanadi. Uni birlamchi qayta ishlagandan so‘ng benzin, reaktiv yoqilg‘i, kerosin, dizel yoqilg‘isi va mazut olinadi.

Neft kimyosi sanoati neftni qayta ishlash mahsulotlaridan asosan sun’iy materiallar hamda buyumlar ishlab chiqaradigan tarmoq hisoblanadi. Mazkur sanoat korxonalarida sun’iy kauchuk, asosiy organik sintez materiallari (etilen, propilen, polietilen, benzol, butadien, yuvish vositalari, ba‘zi mineral o‘g‘itlar), rezina buyumlar (avtopokrishkalar, rezina-texnika buyumlari va keng xalq iste’moli mollari), asbest-texnika buyumlari ishlab chiqariladi.

Jahon bozorida yiliga taxminan 1 mlrd.t neft xom ashysi sotiladi. Uning 2/3 qismi OPEK tashkilotiga a‘zo davlatlarda qazib olinadi. Bundan tashqari Rossiya, Buyuk Britaniya, Meksika davlatlari ham yirik neft eksportyorlari hisoblanadi. Yaponiya, AQSh, G‘arbiy Yevropa davlatlari, Xitoy esa asosiy neft sotib oluvchi davlatlar guruhini tashkil etadi.

Gaz sanoati yerdan tabiiy gaz qazib chiqarish, qattiq va suyuq yoqilg‘ilardan sun’iy gaz olish, aholi va sanoat ta’minoti uchun quvurlardan gaz yuborish hamda gazdan kimyoviy mahsulotlar olish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Gazning asosiy turi yer bag‘rining 200-7000 m chuqurlikdagi g‘ovak jinslarida bo‘ladigan yonuvchi tabiiy gazlardan iborat. (Ilavadagi 17-rasmga qaralsin)

Gaz sanoati dastlab XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlarida Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya kabi davlatlarda toshko‘mirdan olingan gazdan shaharni yoritish maqsadida foydalanish yo‘Iga qo‘yliganidan so‘ng shakllandi. XIX asrning ikkinchi yarmida gaz generatorining yaratilishi, neft gazlaridan foydalanish (XX asrning 20-yillarigacha) asosida mazkur tarmoqda ijobjiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Tabiiy gaz yoqilg‘i sifatida boshqa yoqilg‘i turlaridan bir qancha afzalliklarga ega. Boshqa yoqilg‘i turlariga nisbatan tabiiy gazni qazib olish osonligi va arzonligi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning qulayligi, issiqlik berish quvvatining yuqoriligi, transportabelligi, neft va ko‘mirga nisbatan ekologik jihatdan tozaligi kabi holatlar gaz konlarini izlash va ishga tushirish ishlariga katta ahamiyat qaratilishi sababchi bo‘ldi. Natijada, jahon energiya xom ashyo turlari ichida tabiiy gaz qazib olish hajmi oshdi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda gazni suyultirilgan holda jahon bozoriga chiqarila boshlaganligi ham bu sohaga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi (Ilavadagi 12-rasmga qaralsin).

Gaz sanoati tarkibiga kiruvchi gazni qayta ishlash zavodlari asosan tozalangan gaz, oltingugurt, geliy, propan-butan aralashmasi, yengil uglevodorolarning bir necha turi, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg‘isi, turli rusumdagи benzinlar, etan, etilen kabilarni ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, tabiiy gaz yoqilg‘i sifatida uy-joy xo‘jaligida ham ishlatiladi. Gaz kimyo sanoati uchun ham xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi. Undan mineral o‘g‘itlar, polimerlar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, gazning umumiyligi geologik zahirasi 150-170 trillion m³ni tashkil etadi. Gaz qazib olish bo‘yicha Shimoliy Amerika, MDH, Osiyo mintaqalari, Rossiya, AQSh, Kanada kabi davlatlar yetakchi hisoblanadilar.

So'nggi yillarda gaz eksportida suyultirilgan gaz (tashish va saqlash uchun qulay bo'lish maqsadida sun'iy ravishda -160°C haroratgacha sovutilgan tabiiy gaz) bilan savdo qilish katta ahamiyat kasb etmoqda. Buning ta'sirida maxsus gaz tashuvchi tankerlar yordamida gazni qit'alararo eksport qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Juhon davlatlari orasida Qatar (77 mlrd m³), Avstraliya (66 mlrd m³), Malayziya (29,3 mlrd m³) suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qiladi.

Elektr energetika sanoati elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'molchilarga tarqatish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Fan texnika taraqqiyoti natijasida barcha ishlab chiqarish tarmoqlarida bo'lganidek, elektroenergetika sanoatida ham mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi kuzatildi. Birlamchi energiya manbalarining elektr energiyaga aylantirish jarayoni tezlashdi.

Fan texnika taraqqiyotining bevosita ta'sirida natijasida ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi va mexanizatsiyalashuvi, texnologik jarayonlarda elektr energiyasining keng qo'llanilishi hamda barcha tarmoqlarning elektrlashuvi elektr energiyaga bo'lgan talabning ortishiga sababchi bo'ldi. Bundan tashqari, hayot darajasi yaxshilanishi bilan aholi tomonidan elektr energiyani iste'mol qilish darajasi ham ko'paydi.

Elektr energiya asosan uch xil ko'rinishdagi elektro-stantsiyalarda hosil qilinadi. Bular:

- A) issiqlik elektro stantsiyasi – IES;
- B) gidro elektro stantsiyasi – GES;
- C) atom elektro stantsiyasi – AES.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch turdag'i elektro-stantsiyalarda taxminan 99% elektr energiya ishlab beradi (Illovadagi 18-rasmga qaralsin). Alternativ (muqobil) energiya manbaalarining (Quyosh, shamol, suv qalqishi, geyzerlardan olinadigan energiya) salmog'i ancha past.

Issiqlik elektr stantsiyalari elektro energetika sanoatining yetakchi tarmog'i hisoblanib, ko'mir, gaz va neft hamda ularning qoldiqlari asosida issiqlik bug' va elektr energiya ishlab chiqaruvchi tarmoq sanaladi. Pol'sha, JAR, Avstraliya, Xitoy kabi davlatlarida yaratilayotgan energiyaning asosiy qismi ushbu turdag'i elektro stantsiyalarda yaratiladi. Tuoketuo (XXR), Tayjun IES (Tayvan),

Surgut GRES-2 (Rossiya) jahondagi eng yirik IESlar bo'lib hisoblanadi.

Gidro elektr stantsiyalari – suv oqimining energiyasini gidravlik trubinalar yordamida elektr energiyasiga aylantirib beradigan gidrotexnika inshootlari va energetika jihozlari majmuidir. Ular asosan daryolarda tashkil etiladi. GESlar suvi ko'p bo'lgan, tekis oqadigan tog' daryolariga, soylarning toraygan joylariga quriladi. GES turbinalariga keltirilgan suv turbinanining ish g'ildiragini, unga o'matilgan o'qni va o'q bilan biriktirilgan generatori aylantirishi natijasida elektr energiya hosil bo'ladi.

Norvegiya, Paragvay, Namibiya, Tojikiston kabi davlatlarda elektr energiyaning asosiy qismi GESlarda ishlab chiqariladi. Yantszi daryosida barpo etilgan "Uch dara" GESi (98 mlrd kW/s) jahonning eng yirik GESi sifatida qayd qilingan.

Atom elektr stantsiyalarida energiya ishlab chiqarishning texnologik tizimi xususiyatlari ko'ra IESlarga o'xshash bo'lsada, unda foydalilaniladigan energetik xom ashyo turiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bunday turdag'i elektr stantsiyalarda uran muddasi xom ashyo sifatida qo'llaniladi. Issiqlik quvvati yuqori bo'lgan uran (1 kg urandan 3000 tonna toshko'mir ajratadigan energiya ishlab chiqariladi) asosida energiya ishlab chiqaradigan AESlar asosan ijtimoiy-iftisidiy omillar ta'sirida rivojlangan davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmida barpo etila boshladi. Atom energetikasini rivojlanirishga qaratilgan ilk dasturlar 1950-1960-yillarda AQSh, Buyuk Britaniya, sobiq Ittifoq, GFR, Yaponiya kabi davlatlarda ishlab chiqildi. Dunyondagi ilk atom elektr stantsiyasi ham 1954-yilning 27 iyun kuni Rossiyaning Obninsk shahrida ishga tushirilgan edi (quvvati 5 MVt). Xalqaro atom energiyasi agentligining 2021-yil yanvar holatiga ko'ra, bugungi kunda jahonning 31 mamlakatida 443 energetik reaktorga ega bo'lgan 191 ta AES ishlab turibdi. Yadro reaktorlari soni bo'yicha AQSh (99 ta) yetakchilik qilmoqda. Fransiyada 58 ta yadro reaktori bo'lib, ular mamlakatning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojining 72,3 foizini qoplaydi. Shuningdek, Xitoy (36 ta), Rossiya (37 ta), Janubiy Koreya (25 ta) singari davlatlar ham yadro reaktorlari soni bo'yicha yetakchilar qatoridan o'rinn olgan.

2011-yilda tabiiy ofat ta'sirida Fukushima AESi faoliyatining to'xtatilish natijasida hozirgi davrda Kasivadzaki-Kariva (Yaponiya),

Bryus (Kanada) elektrostantsiyalari jahon davlatlarida faoliyat olib borayotgan AESlar orasida eng ko'p energiya ishlab chiqarishi bilan ajralib turadi.

Jahonda hozirgi kunda o'rtacha 28 trln. kVt/soat elektr energiya ishlab chiqarilmoqda. Jahonda elektr energiya ishlab chiqarish hajmiga ko'ra Xitoy birinchi pog'onani egallaydi. U yiliga 7.5 trln. kVt/soat elektr energiya ishlab chiqaradi. Bu jami energiyaning 24% demakdir. Undan keying o'rirlarni AQSh (jami energiyaning 18%), Hindiston, Rossiya va Yaponiya egallaydi (21-jadval).

21-jadval

Jahondagi elektr energiya ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar (2019 y)

Nº	Davlat	Ishlab chiqarish hajmi, mln. kW/s
-	Jahonda jami	28 816 400
1	Xitoy	7 595 140
2	AQSH	4 350 800
-	YI	3 247 300
-	MDH	1 526 179
3	Hindiston	1 400 800
4	Rossiya	1 091 000
5	Yaponiya	999 600
6	Kanada	663 000
7	GFR	648 400
8	Braziliya	581 700
9	Fransiya	553 400

So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida ekologik jihatdan zararsiz energiya oluvchi alternativ manbaalarga nisbatan bo'lgan talab kuchaya bormoqda. Quyosh, shamol, suv qalqishi, geotermal energiya kabilalar shular jumlasidandir.

Alternativ manbaalar asosida ishlovchi elektr stantsiyalarga nisbatan yoqilg'i resurslari bilan ishlovchi turlarining atrof-muhitga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Geotermal energiyadan foydalanish Islandiyada yo'lgaqo'yilgan bo'lsa, AQSh, Rossiyada geyzerlardan, Niderlandiya, Skandinaviya yarim oroli davlatlarida shamoldan, AQSh va Fransiyada esa quyoshdan elektr energiyaolish amalga oshirilmoqda.

6.3. Metallurgiya va mashinasozlik majmualari tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari

Metallurgiya majmui iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib, tarkibidan metall bo'lgan moddalardan metallar ajratib oluvchi va metall qotishmalarga qayta ishlov beruvchi soha hisoblanadi. Mazkur majmua tarmoqlari qadimiylar insonlar miloddan avvalgi VII – VI asrlardan boshlab mis olish sirlarini o'zlashtirgan davrlardan boshlab rivojvana boshlagan. Eramizdan avvalgi II ming yilliklarga kelib mis va qalay qotishmasidan bronza tayyorlash va keyinchalik temirga ishlov berishni o'rganganlar. XIV – XV asrlarga kelib esa temidan qayta ishlov berish jarayoni natijasida olingan cho'yan va po'latdan ishlab chiqarishda foydalana boshlashgan.

Mazkur majmua foydalananidan xom ashyo va ishlab chiqaradigan mahsulotlar xususiyatlariga ko'ra ikkita mustaqil tarmoqqa ajratiladi.

1. *Qora metallurgiya* mashinasozlik va qurilish materiallari majmualari rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan tarmoq hisoblanadi. Uning asosiy mahsulotlari bo'lgan cho'yan, po'lat, prokat va ferroqotishmalardan turli sanoat tarmoqlari hamda qurilish sohasining asosiy mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalilanildi.

Qora metallurgiya tarmog'ida yuz beradigan texnologik jarayonlar quyidagilar: xom ashyon qazib olish, uni boyitish, cho'yan va po'lat quyish, prokat va ferroqotishmalarni ishlab chiqarish. Mahsulotlar ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo temir rudasi hisoblanib, undan tashqari marganets, kokslanuvchi ko'mir va legirlovchi metallar (temir eritmalarining fizik, ximik yoki mexanik xususiyatlarini o'zgartirishda ishlatiladigan metallar. Ularga xrom, nikel, molibden, volfram, titan kabilar misol bo'la oladi.

Qora metallurgiya tarmoqlarida yiliga o'rtacha 1.8 mlrd tonnadan ortiq po'lat quyiladi. Sohada asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy, Yaponiya, Hindiston, AQSh, Rossiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi (22-jadval).

22- jadval

Jahondagi po‘lat ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar

Nº	Davlat nomi	Ishlab chiqarish hajmi (mln. t) 2018-yil	Ishlab chiqarish hajmi (mln. t) 2019-yil
	Jahonda jami	1808.4	1869.9
1	Xitoy	920.0	996.3
2	Hindiston	109.3	111.2
3	Yaponiya	104.3	99.3
4	AQSH	86.6	87.9
5	Rossiya	72.0	71.6
6	Janubiy Koreya	72.5	71.4
7	Germaniya	42.4	39.7
8	Turkiya	37.3	33.7
9	Braziliya	35.4	32.2
10	Iran	24.5	31.9

Jahonda jami 900 mln tonnadan ortiq cho‘yan quyiladi. Sohada asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Ukraina, Braziliya, GFR, AQSh, Fransiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi (23- jadval).

23- jadval

Jahondagi cho‘yan ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar

Nº	Davlat nomi	Ishlab chiqarish hajmi (mln. t) 2018-yil
	Jahonda jami	898, 000
1	Xitoy	543,748
2	Yaponiya	66,943
3	Rossiya	43,945
4	Hindiston	29,646
5	Janubiy Koreya	27,278
6	Ukraina	25,676
7	Braziliya	25,267
8	Germaniya	20,154
9	AQSH	18,936
10	Fransiya	8,105

2. Rangli metallurgiya tarmoq sifatida murakkab ichki tuzilishga egadir. U o‘z tarkibiga rangli metallarni qazib olish va boyitish, turli qotishmalar olish, ikkilamchi xom ashyni qayta ishlash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur tarmoq 70 turga yaqin rangli metallarni qayta ishlasada, ular orasida to‘rttasi tannarxi jihatidan ahamiyatli hisoblanadi (alyuminiy, mis, rux, qo‘rg‘oshin) (Ilovadagi 19-rasmga qaralsin).

Tarmoq qora metallurgiya kabi sanoat inqilobi davrida shakllangan bo‘lib, eski sanoat tarmoqlari sirasiga kiradi. Rangli metallurgiya tarmog‘i korxonalari fizik va kimyoiy xususiyatlariga ko‘ra bir-birlaridan farq qiluvchi turli konstruktiv materiallar ishlab chiqaradilar. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar turli sohalarda qo‘llaniladi. Masalan, alyuminiy mashinasozlik (aviaosozlik, elektrotexnika), qurilish, transport hamda keng iste’mol uchun mo‘ljallangan maishiy buyumlar ishlab chiqarishda qo‘llanilsa, misdan elektroenergetika, mashinasozlik kabi sanoat tarmoqlarida foydalilanildi.

Rangli metallurgiya korxonalarini joylashtirishda ko‘pgina tabiiy va iqtisodiy omillarning ta’siri xususiyatlariga katta ahamiyat qaratiladi. Jalon rangli metallurgiyasi rivojlanishining birinchi bosqichida xom ashyo omili, yengil metallar ishlab chiqarishga talabning ortishi bilan (ikkinch bosqich) energiya omili hal qiluvchi ta’sirga ega bo‘la boshladi. Shu bilan birga transport va iste’molchi omillari ham tarmoqning rivojlanishida o‘z o‘rniga egadir.

Tarmoq korxonalarini hududiy joylashuvidanagi yana bir xususiyat ularning mintaqalar bo‘ylab bir-biridan nisbatan uzoq masofada joylashganligi bo‘lib hisoblanadi. Ko‘p hollarda rangli metalllar xom ashyo holida rivojlanayotgan davlatlar hududida qazib olinsa, ular asosan rivojlangan davlatlar hududida tayyor mahsulotga aylantiriladi.

Katta yettilik davlatlari, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Braziliya, Venesuela kabi davlatlar jahon bo‘yicha rangli metallarni eng ko‘p ishlab chiqaruvchi markazlar hisoblanadi. Jahonda asosiy metallar ishlab chiqarish salmog‘i (% hisobida) ilovadagi 19-rasmda berilgan bo‘lib, unga ko‘ra alyuminiy birinchi o‘rinda turadi. Alyuminiy jami rangli metallarning 54% tashkil etadi.

Jahondagi alyuminiy ishlab chiqaruvchi yirik davlatlar 24-jadvalda o‘z aksini topgan. Jadval ma’lumotiga ko‘ra jahonda

hozirgi kunda yiliga 64 mln. t alyuminiy ishlab chiqarilmoqda. Yengilligi uchun qanotli metall nomi bilan ham mashhur ushbu metallni ishlab chiqarish jihatidan dunyoda Xitoy (36,0 mln. t) birinchi pog'onani egallaydi. Ikkinchisi o'rinni Hindiston (3,7 mln. t) band etadi.

24-jadval

Jahondagi alyuminiy ishlab chiqaruvchi yirik davlatlar, ming t hisobida.

№	Davlat	2012	2016	2019
	Jahon bo'yicha	47 300	57 600	64 000
1	Xitoy	21 500	31 000	36 000
2	Hindiston	1700	2750	3700
3	Rossiya	3950	3580	3600
4	Kanada	2900	3250	2900
5	BAA	1800	2400	2700
6	Avstraliya	1750	1680	1600
7	Baxreyn	900	970	1400
8	Norvegiya	1200	1230	1300
9	AQSh	1950	840	1100
10	Islandiya	825	800	850

Shuni alohida qayd etish kerakki, tozalangan alyuminiyni ishlab chiqarish va iste'mol qilishda AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ajralib turadi.

Rangli metallurgiya majmuasi tarkibida oltin sanoatining ahamiyati kattadir. Jahonning oltin qazib chiqaruvchi eng yirik davlatlari 25-jadvalda o'z ifodasini topgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra 2019-yilda oltin qazib chiqarish hajmiga ko'ra dunyoda Xitoy 383,2 t bilan birinchi o'rinni egallagan. Keyingi o'rnlarni Avstraliya, Rossiya, AQSh, Kanada, Peru, JAR, Meksika, O'zbekiston, Indoneziya davlatlari o'r'in egallagan.

O'zbekiston so'nggi yillarda o'rtacha 100-104 t oltin qazib olmoqda. Bu ko'rsatkich bo'yicha jahonning top o'ntalik guruhiga kiradi.

25-jadval

Jahonning oltin qazib chiqaruvchi eng yirik davlatlari.

Nº	Davlat	Hajmi, t
1	Xitoy	383,2
2	Rossiya	329,5
3	Avstraliya	325,1
4	AQSh	200,2
5	Kanada	182,9
6	Peru	143,3
7	Gana	142,4
8	JAR	118,2
9	Meksika	111,4
10	Braziliya	106,9
11	O'zbekiston	104,0
12	Indoneziya	82,6

26-Jadvalda jahoning 15-ta eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Hozirgi kunda ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra jahonda Kanadaning Barrick Gold kompaniyasi yetakchilik qiladi. Ikkinci o‘rin O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan AQShning Newmont Mining kompaniyasiga tegishlidir. Ulardan keyin JARning uchta yirik kompaniyalari Anglo Gold Ashanti, Gold Fields, Harmony Gold turadi. O‘zbekistondagi eng katta oltin ishlab chiqaruvchi korxonasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati jahonda 6-chi o‘rinda turadi. Bu esa o‘z navbatida davlatimiz jahon oltin sanoatida salmoqli o‘ringa ega ekanligini ko‘rasatadi.

26-jadval

Jahonning 15-ta eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalari.

Nº	Kompaniya nomi	Mamlakat	Ishlab chiqarish hajmi (mln.troits unsiya)
1	Barrick Gold	■ Kanada	8,6
2	Newmont Mining	■ AQSh	5,9
3	AngloGold Ashanti	■ JAR	5,6
4	Gold Fields	■ JAR	4,1
5	Harmony Gold	■ JAR	2,3
6	Navoi KMK	■ O'zbekiston	1,9
7	Freeport McMoRan	■ AQSh	1,7
8	Goldcorp	■ Kanada	1,71
9	China National Gold Group	■ Xitoy	1,6
10	Fujian Zijin Mining	■ Xitoy	1,6
11	Buenaventura	■ Peru	1,5
12	Newcrest Mining	■ Avstraliya	1,5
13	Kinross Gold	■ Kanada	1,4
14	Shandong Gold Group	■ Xitoy	1,3
15	Polyus Zoloto	■ Rossiya	1,2

Jahonda oltinning 53% zargarlik buyumlari ishlab chiqarish uchun foydalaniladi. Sanoatda uning ulushi 19%, investitsiya va jamg'arishga 28% oltin sarflanadi.

Jahonda oltin iste'moli bo'yicha birinchi o'rinni Xitoy 984 t. bilan egallaydi. Garchi Hindiston dunyodagi oltin ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi davlat bo'lmasada, u oltinni ist'emol ya'ni iqtisodiyot sohalarida va aholi tomonidan ishlatalishi bo'yicha jahonda yirik davlat hisoblanadi (27-jadval). Oltin iste'moli bo'yicha uikkinchi o'rinda bo'lib, ushbu davlat iqtisodiyotning turli tarmoqlarda va aholi tomonidan 849 t. nodir va qimmatbaho metall ishlatalarda.

gan. Oltin ist'emoli bo'yicha Xitoy va Hindistondan keying o'rinni AQSh, Germaniya, Shveytsariya, Tailand, Saudiya Arabiston, Rossiya, Turkiya, Eron, Vyetnam hamda Indoneziya egallaydi.

27-jadval

Jahonda oltin iste'moli hajmi, tonna hisobida.

Mamlakat nomi	Hajmi
Xitoy	984
Hindiston	849
AQSh	193
Germaniya	124
Shveytsariya	116,2
Tailand	90
Saudiya Arabiston	85
Rossiya	75,1
Turkiya	72
Eron	71
Vyetnam	63
Indoneziya	59

Qimmatbaho metallar ichida kumushning ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. Jahon bo'yicha yiliga 27 000 tonnadan ortiq kumush ishlab chiqarilmoqda. Uni ishlab chiqarish jihatidan dunyoda Meksika (5 400 t) yetakchidir. Keyingi o'rinnlarda Xitoy, Peru, Avstraliya, Chili, Rossiya, Polsha, Boliviya, AQSh Kanada turadi (28-jadval). O'zbekistonda ham kumush konlari mavjud va kumush ishlab chiqarishda MDH davlatlari ichida oldingi o'rinnlarni egallaydi.

28-jadval

Kumush ishlab chiqarish hajmiga ko'ra yetakchi davlatlar (tonna).

Davlat	2011	2013	2014	2015	2018
1 Meksika	4150	4861	5000	5400	6,120
2 Peru	3419	3674	3778	3800	4,160
3 Xitoy	3700	4100	4060	4100	3,570
4 Rossiya	1200	1428	1334	1500	2,100
5 Polsha	1167	1199	1263	1300	1,470
6 Chili	1291	1219	1594	1600	1,370
7 Boliviya	1214	1287	1344	1300	1,190

8	Avstraliya	1725	1840	1720	1700	1,220
9	Argentina	989	991	998	1000	1,020
10	AQSh	1120	1040	1180	1100	930
	Jahon	23200	25800	26800	27300	26,900

Manba - US Geological Survey

Rangli metallurgiya tarkibida mis sanoatining ahamiyati katta. Ushbu metallni ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Mis ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda Chili davlati birinchi o'rinni egallaydi. Chilida yiliga 5,8 mln. tonna mis ishlab chiqarilmoqda (2018 y). Ikkinchisi o'rinda 2,4 mln. tonna mis bilan Peru egallab turibdi. Xitoy Xalq Respublikasi (1,6 mln. tonna) AQSh (1,2 mln. tonna), Kongo Demokratik Respublikasi (1,2 mln. tonna) kabi davlatlar jahon davlatlari orasida mis ishlab chiqarish hajmi bo'yicha katta salmoqqa ega.

O'zbekiston mis ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda birinchi yigirmatalikka kiradi (taxminan 18-19 o'rin). O'zbekistonda so'nggi yillarda yiliga o'rtacha 100-200 ming tonna mis ishlab chiqarilmoqda. Uning asosiy qismi xorijiy mamlakatlarga eksportga chiqariladi. Mis mamlakatimizda mahalliy xomashyo negizida Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida eritiladi.

29-jadval

Jahonda jami mis ishlab chiqarish hajmi, ming t.

Yillar	Hajmi
2007	18029.0
2008	18498.0
2009	18581.0
2010	19209.0
2011	19698.0
2012	20245.0
2013	20757.0
2014	22927.0
2015	23077.0
2017	19990.0
2019	23900.0

Manba - WBMS World Bureau of Metal Statistics

Ma'lumki, rangli metallurgiya sanoati rivojida qo'rg'oshinning ahamiyati kattadir. Chunki, qo'rg'oshinning ko'plab sanoat tarmoqlarida ishlatilishi sababli unga bolgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Jahonda qo'rg'oshin ishlab chiqarish hajmi 10 mln.tonnadan oshadi(30-jadval).

30-jadval

Jahondagi qo'rg'oshin ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar

Nº	Davlat nomi	Ishlab chiqarish hajmi (ming t) 2018 y.
1	Xitoy	2,400
2	Avstraliya	500
3	AQSh	335
4	Peru	310
5	Meksika	250
6	Rossiya	225
7	Hindiston	135
8	Boliviya	80
9	Shvetsiya	76
10	Turkiya	75
11	Eron	41
12	Qozog'iston	41

Yetakchi davlatlar Xitoy, Avstraliya, AQSh, Peru, Meksika, Rossiya, Hindiston, Boliviya, Shvetsiya, Turkiya, Eron va Qozog'iston hisoblanadi (30-jadval).

31-jadval

Jahonda nikel ishlab chiqarish hajmi, ming t.

Yil	Hajmi
2008	1352.0
2009	1327.0
2010	1433.0
2011	1666.0
2012	1790.0
2013	1985.0
2014	1942.0
2015	1921.0
2019	2400.0

Manba - WBMS World Bureau of Metal Statistic

Mashinasozlik jahon qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari orasida ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi va mazkur tarmoqda band aholi soniga ko'ra oldingi o'rinda turadi. XXI asr boshlariga kelib ushbu majmua korxonalarida umumiylah jahon sanoat mahsulotining 35% yaratilib, unda jami band aholining 27% faoliyat ko'rsatgan. U har bir davlatning ijtimoiy mehnat unumdarligini, fan texnika taraqqiyoti darajasini, xalqning moddiy farovonligi va uning mudofaa qudratini ko'rsatib beruvchi sanoat majmuasi hisolanadi. Mashinasozlik sanoat sifatida dastlab XIX asrda Buyuk Britaniyada, G'arbiy Evropaning ba'zi mamlakatlarida, keyinchalik AQShda tez rivojlanan boshlagan.

Mashinasozlik majmuasi – iqtisodiyot tarmoqlari uchun mehnat qurollari, shuningdek, iste'mol buyumlari va mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchiq'ir sanoat sohalarini majmuidir. Bundan tashqari, mashinasozlik va metallga ishlov berish, metall buyumlar, metall konstruktsiyalar ishlab chiqarish hamda mashina va asbob uskunalarini tuzatish tarmoqlarining tarkibiy qismi ham mazkur majmua tarkubiga kiradi. Uning asosiy vazifasi iqtisodiyotning hamma sohalarini yuqori unum bilan ishlaydigan mashina va asbob uskunalar bilan ta'minlashdan iborat. Majmua metalga ishlov berish sohasi bilan birga o'z tarkibiga 200 dan ortiq ishlab chiqarish tarmoqlari va tarmoqchalarini jamlaydi. Mashinasozlik majmuasi korxonalarining hududiy joylashuvida bir qator omillarning ta'siri mavjud. Ko'pgina tarmoqlarda bo'lgani kabi mehnat resursi omili korxonalar joylashuvida ahamiyatli hisoblanadi. Bu holatning yuzaga kelishida ba'zi tarmoq sohalarining ishchi kuchini ko'p talab etishi, ularning malakaviy xususiyati (ayniqsa asbobsozlik, elektronika, elektrotexnika, aviatsiya, aero-kosmik sohalarda), maxsus ilmiy tadqiqot muassasalari va laboratoriyaning mavjudlik holatlari kabilarta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, fan texnika taraqqiyoti omili ham kuchli ta'sirga ega bo'lib, uning natijasida tarmoq ichida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuvi, samaradorlikning ortishi va ilmiy markazlar bilan integratsiyaning kuchayishga olib keladi.

FTI davrida jahon mashinasozligi fantalab tarmoqlardan biriga aylandi. Natijada, tarmoqning zamonaviy sohalarini tez rivojlanan boshladi. Shu bilan birga transport (infratizimning rivojlanganlik

holati), iste'mol (talab va iste'mol bozori xususiyatlari), xom ashyo (og'ir mashinasozlik korxonalarining qora metallurgiya markazlariga yaqinligi) omillari ta'siri ham mashinasozlik korxonalarining hududiy joylashuvida e'tiborga olinadi.

Jahon mashinasozligida ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatidan kelib chiqib quyidagi tarmoqlar alohida ahamiyatga ega:

1. Stanoksozlik – mashinasozlikning ushbu tarmog'ida metall va yog'ochga qayta ishlov beruvchi stanoklar, avtomatik va yarim avtomatik ishlab chiqarish liniyalari, metallurgiya tarmoqlarida foydalilanadigan turli jihozlar ishlab chiqariladi. Bu turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish darajasi iqtisodi rivojlangan davlatlarda yuqori. Jahon stanoksozligi peshqadamlari bo'lib Yaponiya, GFR, Italiya, Xitoy, Tayvan, AQSh kabilalar hisoblanadi. Mintaqalar ichida G'arbiy Yevropa yetakchilik qiladi.

Sanoat robotlarining deyarli yarmi Yaponiyada ishlab chiqariladi. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha AQSh, GFR, Italiya, Fransiya kabi davlatlar ham sezilarli salmoqqa egadir. Bu sohaning asosiy xususiyati uning asosan ishchi kuchi bahosi nisbatan qimmat bo'lgan rivojlangan davlatlarda rivojlantirilganligidadir.

2. Kemasozlik – transport mashinasozligining eski, lekin shu bilan birga eng muhim sohalaridan biri. Soha mahsulotlari dengiz transportida xalqaro yuklarni tashishda katta ahamiyatga egadir. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar ko'p turda bo'lib, ular orasida yuk tankerlari, yo'lovchi laynerlari, baliq konservalari ishlab chiqaruvchi yirik kemalar, paromlar va dengiz burg'ulash platformalari salmoq jihatdan ajralib turadi. Yiliga 1500 donadan ortiq turli ko'rinishdagi kemalar ishlab chiqariladi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy jahon kemasozligi yetakchilari hisoblanadi. Mintaqalar bo'yicha Osiyo oldingi o'rinda turadi. Ushbu mintaqaga barcha ishlab chiqariladigan kemalarning 80%ni beradi.

3. Avtomobilsozlik – mashinasozlik majmuasining eng muhim tarmog'i hisoblanib, jahon xo'jaligida ta'sir doirasi jihatidan neft sanoatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mazkur tarmoqqa 1886-yil nemis injeneri Karl Bents tomonidan asos solingan.

Avtomobilsozlikda mahsulot ishlab chiqarishda ko'pgina sanoat tarmoqlari mahsulotlaridan foydalilanadi. Masalan, qora va rangli metallurgiyada ishlab chiqarilgan metallar (po'lat, alyuminiy va

boshqalar), kimyo sanoatining mahsuloti hisoblangan tabiiy, sintetik kauchuk, qurilish materiallar sanoatida taylorlangan oyna va boshqalar. Avtomobilsozlik o‘z navbatida boshqa tarmoqlar rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi (masalan, neft sanoati).

Jahonda avtomobil ishlab chiqarish jihatidan yetakchi davlatlar jadvalda keltirilgan. Unga ko‘ra 2019-yilda jahonda yiliga jami 92 146 000 avtomobil ishlab chiqarilgan. 2020-yil pandemiya sababli avtomobil ishlab chiqarish birmuncha kamaydi. Birinchi o‘rinni 2010-yildan beri Xitoy egallaydi. (32-jadval)

32-jadval

Jahonda avtomobil ishlab chiqarish hajmi.

Nº	Davlat nomi	2018-yil	2019-yil	2020-yil
1	Xitoy	27 809	25 751	25 225
2	AQSh	11 298	10 893	8 822
3	Yaponiya	9 730	9 685	8 068
4	GFR	5 120	4 947	3 742
5	Janubiy Koreya	4 029	3 951	3 507
6	Hindiston	5 143	4 524	3 394
7	Meksika	4 101	4 013	3 177
8	Ispaniya	2 820	2 823	2 268
9	Braziliya	2 881	2 945	2 014
10	Rossiya	1 769	1 720	1 435
	Jami jahonda	96 869	92 146	77 622

Jahon avtomobilsozligining hududiy joylashuvida so‘nggi yillarda jadal rivojlanib borayotgan globallashuv jarayoni va TMKlar faoliyati kuchayishi katta ta’sir etmoqdadir.

33-jadval

Jahonda yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar (01.01.2018-yil).

Nº	Ishlab chiqaruvchi	Hajmi, dona	O‘sish, %
1	Volkswagen	960 420	+7,9
2	Renault-Nissan	813 478	+11
3	Toyota	809 741	+8,8
4	General Motors	538 308	+5,9
5	Hyundai-Kia	533 666	+2
6	Ford	433 523	-6

7	Honda	420 012	+11,9
8	Peugeot-Citroen	354 348	+6,8
9	Fiat-Chrysler	342 182	-3,1
10	Suzuki	262 598	+5,5

“General Motors”, “Toyota”, “Ford Motor”, “Volkswagen”, “Daymler-Kraysler” kabi jahoning yirik TMKlari yillik ishlab chiqariladigan avtomobillarning 80%ga yaqinini beradi.

Tarmoq ishlab chiqaradigan mahsulotlarning 70% yengil avtomobilarga, qolgan qismi esa yengil va og‘ir yuk tashuvchi mashinalarga to‘g‘ri keladi. Yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha AQSh, Yaponiya, GFR, Xitoy, Koreya Respublikasi kabi davlatlar katta salmoqqa egadir. Yengil yuk mashinalari AQSh, Xitoy, Kanada, Yaponiya, Meksika, og‘ir yuk mashinalari Yaponiya, Xitoy, AQSh, Hindiston, GFR kabi davlatlarda ko‘p ishlab chiqariladi.

4. Aviaraketa va kosmik sanoati – mashinasozlikning zamonaviy tarmoqlaridan biri bo‘lib, fantalabligi va ko‘p mablag‘ talab etishi bilan ajralib turadi. 20 davlatga qarashli 80 ta firma mazkur tarmoq tarkibida faoliyat olib borib, samolyot va vertolyotsozlik, raketeralar, uchuvchi kosmik apparatlar va ularga dvigatellar ishlab chiqarish, avivtsiya asbob-uskunalarini tayyorlash yo‘nalishlarida mahsulot ishlab chiqaradi. Ko‘p mablag‘ talab etishi sababli ushbu tarmoq asosan iqtisodi yuqori darajada rivojlangan davlatlarda tarkib topgan.

Aviaraketa va kosmik sanoati korxonalari asosan ilmiy-tadqiqot muassasalariga ega bo‘lgan yirik shaharlar va aglomeratsiyalar yaqinida joylashtiriladi. Bundan tashqari, ularning hududiy joylashuvida mahsulotga bo‘lgan talab hamda harbiy-strategik qarashlar ham e’tiborga olinadi. Tarmoq ichida faoliyat olib boruvchi firmalar soni va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar hajmiga ko‘ra AQSh yetakchi hisoblanadi. TMKlar orasida “Boing” (AQSh), “EADS” (Fransiya), “Lokxid-Martin” (AQSh) kabilar oldingi o‘rinlarda turadi. Ishlab chiqariladigan asosiy mahsulot turli ko‘rinishdagi samolyotlar bo‘lib, so‘nggi yillarda ularga bo‘lgan talab ortib bormoqdadir. AQSh, Rossiya, Fransiya kabi davlatlar yo‘lovchi tashuvchi samolyotlar ishlab chiqarishda peshqadam bo‘lsa, harbiy

samolyotlar ishlab chiqarishda AQSh va Rossiyaga tenglasha oladigan davlatlar yo‘q.

5. Elektronika va elektrotexnika – ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tannarxiga ko‘ra avtomobilsozlik bilan tenglasha oladigan mashinasozlik majmuasi tarmog‘i. Alovida tarmoq sifatida XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida shakllangan. O‘sha davrda tarmoq eng ilg‘or va eng fantalab sanoat tarmog‘i sifatida e’tirof etilgan. Keyinchalik uning tarkibida hozirda deyarli mustaqil tarmoqqa aylanib borayotgan elektronika sohasi ham yuzaga keldi.

Elektrotexnika sanoati ishlab chiqariladigan mahsulotlar xususiyatiga ko‘ra ikki sohaga ajraladi. **Birinchisi**, sanoat tarmoqlari uchun mo‘ljallangan qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bunga elektroenergetika sanoati uchun generatorlar, kabellar, transformatorlar, metalluriya sanoati uchun elektrosvarkalar, metall eritish uchun elektr pechlar ishlab chiqarishni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ushbu soha ko‘p metall talab etishi bilan ajralib turadi (mahsulot ishlab chiqarishda ko‘p miqdorda rangli metallar va po‘latdan foydalaniлади).

Ikkinchisi, xo‘jalikda keng foydalaniladigan arzon maishiy iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ular elektrolampa, akkumulyator, batareyka kabiyoritish uchun ishlatiladigan mahsulotlar, muzlatkich, changyutkich, kir yuvish mashinalari, televizorlar kabi maishiy xizmat buyumlari tayyorlab beradi. Birinchi sohadan farqli ravishda keng iste’mol bozoriga ega bo‘lib, mahsulotlar ishlab chiqarishda malakali mutaxassislar talab etilmaydi.

Maishiy elektrotexnika buyumlari ishlab chiqarish XIX asrning oxirlarida radioning kashf etilishi bilan boshlangan bo‘lib, hozirda radiopriyomniklar ishlab chiqarish bo‘yicha Xitoy, Malayziya, Meksika, Yaponiya, AQSh, televizorlar ishlab chiqarish bo‘yicha esa Yaponiya, Malayziya, Koreya Respublikasi, AQSh, Xitoy kabi davlatlar yetakchilik qiladilar.

Elektron sanoat tarkibida axborotni qayta ishlovchi elektron vositalar ishlab chiqarish (EHM) va aloqa vositalari ishlab chiqarish sohalari keng rivojlangan. AQSh, Yaponiya, G‘arbiy Yevropa davlatlari bu tarmoqda asosiy mahsulot tayyorlab beruvchi davlatlar hisoblanadi.

Mashinasozlik majmuasi tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha rivojlanayotgan davlatlar ham o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga qaramay, umumiylashtirishga ega bo‘lishiga qaramay, umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra AQSh, Yaponiya, GFR kabi rivojlangan davlatlar oldingi o‘rinlarda turadi.

6.4. Jahon iqtisodiyotida kimyo sanoatining tutgan o‘rnini

Kimyo sanoati – jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlariidan biri hisoblanadi va mashinasozlik bilan bir qatorda turuvchi zamonaviy industriyaning eng harakatchan tarmoqlaridandir.

Bugungi kunda xalq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlariga kimyo sanoatining ta’siri kuchlidir. Yo‘jalikni kimyo lashtirish – zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan kimyo sanoati mahsulotlaridan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va aholi kundalik hayotida keng foydalilaniladi. Kimyo sanoatida ishlab chiqariladigan tabiiy materiallarning o‘rnini bosuvchi yangicha mahsulotlar ishlab chiqarishga ulkan imkoniyatlar beradi va ko‘plab yangi turdagilari mahsulotlar yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Kimyo sanoati tarkibi quyidagicha shakllanadi:

1. Tog‘-kimyo sanoati, bu tarmoq kimyo sanoati uchun xomashyo hisoblanuvchi apatit, fosforit, oltingugurt, osh tuzi, kaliy va glauber tuzlarini qazib olishni tashkil qiladi.

2. Asosiy kimyo sanoati. Uning tarkibiga:

- a) kislotalar, tuzlar va ishqorlar ishlab chiqarish;
- b) mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish kabilalar kiradi.

3. Organik sintez kimyosi.

4. Polimerlar kimyosi (sun‘iy tolalar, plastmassa va sintetik kauchuk ishlab chiqarish).

5. Polimerlarni qayta ishslash (plastmassa buyumlar, rezina va rezina buyumlar ishlab chiqarish).

6. Nafis kimyo. Uning tarkibiga:

- a) farmasevtika sanoati
- b) parfyumeriya sanoati kabilalar kiradi.

7. Maishiy kimyo (yuvish vositalari, lak va bo‘yoqlar ishlab chiqarish).

Kimyo sanoati tarmoqlari hududiy joylashuvida xom ashyo (kimyo sanoatining barcha tarmoqlari), suv (kimyo sanoatining

barcha tarmoqlari), energiya (neft kimyosi, gaz kimyosi, koks kimyosi, slanets kimyosi) omillarining ahamiyati kattadir.

Jahon kimyo sanoatida to'rt asosiy mintaqasi ajralib turadi: AQSh, Yevropa, Sharqiy Osiyo va MDH. Asosiy kimyo sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlaridan eng muhim o'rinni kislotalar, soda va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish egallaydi.

Oltinugurt kislotasini ishlab chiqarish joylashuvning iste'mol omiliga bog'liq. Jahon bo'yicha oltinugurt kislotasining yalpi ishlab chiqarish hajmi 150 mln tonna bo'lib, eng ko'p ishlab chiqaruvchilar AQSh (40 mln t.), Xitoy (12 mln t.), Rossiya (8,5 mln t.) hisoblanadi. Shuningdek, Yaponiya, Ukraina, Fransiya, Germaniya, Kanada, Ispaniya va Braziliya kabilalar ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadilar.

Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish dunyo bo'yicha yiliga 150 mln tonnani tashkil etadi. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda yuksak rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda katta qishloq xo'jalik potensialiga ega bo'lgan bir qator rivojlanayotgan davlatlar yetakchilik qiladilar. Bunday davlatlarga Xitoy (30 mln t. dan ortiq), AQSh (20 mln t. atrofida), Hindiston (15 mln t atrofida) misol bo'la oladi. Ulardan keyingi o'rinda Kanada, Rossiya, Germaniya, Belorus, Indoneziya, Fransiya, Ukraina, Pokiston va Isroil kabi davlatlar turadi (Illovadagi 20-rasmga qaralsin).

Fosforli o'g'itlar uchun xom-ashyo fosforit va apatitlar hisoblanadi. Fosforit zahiralari va uni qazib olishda Marokash, AQSh, Tunis, Qozog'iston, Xitoy va boshqalar, apatit bo'yicha Rossiya, Braziliya va Vyetnam kabi mamlakatlardan ajralib turadi. Fosforitlardan o'g'it ishlab chiqarish joylashuvning xom-ashyo omiliga ega bo'lsa, apatitlardan o'g'it olish iste'mol omiliga suyanadi (34-jadval).

Azotli o'g'it ishlab chiqarish odatda xom-ashyosi koks gazlaridan olinadigan ammiak bo'lganligi uchun metallurgiya markazlari yoki asosiy neft va gaz konlari atrofiga to'planadi, binobarin bu tarmoq joylashuvning iste'mol omiliga egadir.

Kaliy o'g'iti ishlab chiqarish esa kaliy tuzining yirik zahiralari mavjud bo'lgan mamlakatlarda shakllanadi.

Rivojlangan davlatlar kimyo sanoatining ba'zi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni ekologik xavfli bo'lganligi sababli bunday mahsulotlarni rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlardan hududida

shakllantirganlar. Natijada yirik neft-kimyo komplekslari Afrika, Fors ko'rfazi davlatlarida, Venesuela, Meksika kabi davatlarda bunyod qilingan.

34-jadval

Mineral o'g'it ishlab chiqaruvchi mamlakatlari.

T/r	Azot o'g'iti ishlab chiqarish		Fosfor o'g'iti ishlab chiqarish		Kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish	
	Davlatlar	Ishlab chiqarish (ming t)	Davlatlar	Ishlab chiqarish (ming t)	Davlatlar	Ishlab chiqarish (ming t)
1	XXR	27669	XXR	13,5	Kanada	10,5
2	Hindiston	10053	AQSH	7,9	Rossiya	5,9
3	AQSh	9442	Hindiston	3,9	Belorus	5,0
4	Rossiya	6044	Rossiya	2,6	GFR	3,3
5	Kanada	3836	Braziliya	1,5	XXR	2,2
	Jahon	89500	Jahon	39,2	Jahon	33,5

Nafis kimyo tarmog'i dunyo kimyo sanoati mahsulotlarining 25% ini ishlab chiqaradi va bu tarmoqning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu tarmoq mahsulotlarining salmog'i kam bo'lsada, nihoyatda fantalabdir. Qiyoslab qaraganda nafis kimyo sanoatida ishlab chiqarilgan 1 tonna mahsulotning narxi boshqa kimyoviy mahsulotlarnikidan ancha baland bo'ladi.

75% dan ortiq dori-darmonlar va parfyumeriya mahsulotlari yuksak rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladi, 20% rivojlanayotgan davlatlar hissasiga, 5% dan kamroq'i MDH mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. XX asr oxirida nafis kimyo asosan AQSh, Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlaridan tashkil topgan uchta mintaqada shakllangan edi.

Dori vositalarini ishlab chiqarishning eng katta hajmi AQShga to'g'ri keladi. Farmasevtika sanoatining rivojlanishi bo'yicha Germaniya, Shveysariya, Fransiya, Polsha, Vengriya, Yaponiya, Xitoy va Hindiston ajralib turadi. Jahon bozorini dori vositalari bilan asosiy ta'minlovchilar AQSh va Yevropa davlatlari bo'lsa, asosiy xaridorlar Yaponiya, Rossiya (talabning 2/3 qismi) va rivojlanayotgan davlatlar hisoblanadi.

Parfyumeriya mahsulotlarining eng yirik ishlab chiqaruvchilari Yevropa (ayniqsa Germaniya va Fransiya), AQSh, Yaponiya va Rossiya davlatlaridir.

6.5. O'rmon va yogochni qayta ishlash majmuasi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining hududiy rivojlanishi.

Ma'lumki, o'rmon bir-biriga va o'sish sharoitiga ta'sir etuvchi va geografik landshaft elementini hosil qiluvchi daraxtsimon o'simliklar majmui hisoblanadi. Shu bilan birga u yer o'simlik qoplamining asosiy tiplaridan biri, biosferaning tarkibiy va juda muhim qismi ham bo'lib hisoblanadi. O'rmonlarning iqtisodiyotdagi ahamiyati quidagilardan iborat:

- Qurilishda (asos va bezak sifatida)
- Tog'-kon sanoatida (ustun sifatida)
- Mebelsozlik va kimyo sanoatida
- Sellyuloza, qog'oz va karton ishlab chiqarishda
- Turli qutilar ishlab chiqarishda va b.

O'rmon sanoati esa xo'jalikning eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo'lib, uning tarkibiga yog'och xom-ashyosiga ishlov berish, uni qayta ishlash jarayonida vujudga kelgan chiqindilaridan turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi. O'rmon va yog'ochga qayta ishlov berish majmuasining rivojlanishiga transport, iste'mol, SUV, energiya kabi omillar ta'sir etadi. O'rmon sanoatining asosiy turlariga o'rmon kesish, yog'och tayyorlash, yog'ochga ishlov berish, mebelsozlik, qog'oz-sellyuloza va o'rmon kimyosi kiradi.

O'rmon sanoatining geografiyasi o'rmon resurslarining joylashtushi bilan belgilanadi. O'tgan mavzularda yer yuzasida asosan Shimoliy va Janubiy o'rmon mintaqalari mavjudligi haqida ma'lumotlar berilgan edi. Ma'lumki, Shimoliy o'rmon mintaqasi tayga, aralash va keng bargli o'rmon zonalaridan tashkil topadi, bu zonalar Rossiya, Kanada, AQSh, Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya hududlarida joylashgan. Shimoliy mintaqasi o'rmonlari asosan ignabargli (qarag'ay, qoraqarag'ay, tilyog'och, kadr, pixta) va bargli (qayin, eman, grab, tog'terak) kabi daraxtlardan hosil bo'lgan.

Janubiy o'rmon mintaqasi ekvatoryoni kengliklarida joylashgan, nam ekvatorial, mavsumiy nam va musson o'rmonlari zonalaridan

iborat, bu zonalarda sayyoramizdag'i o'rmonlarning yarmi to'plangan. Shimoliy mintaqadan farqli ravishda bu o'rmonlarda alohida qimmatga ega navli bargli daraxtlar (qizil, sandal, temir) o'sadi. Janubiy mintaqasi butun Amazoniya hududi (Braziliya, Kolumbiya, Venesuela, Peru va b.), Gvineya qo'ltig'i qirg'oqlari va Ekvatorial Afrika (Kongo Demokratik Respublikasi, Kamerun, Gvineya, Liberia, Ekvatorial Gvineya va b.), Janubi-Sharqiy Osiyo (Indoneziya, Malayziya, Tailand, Myanma, Laos, Vyetnam), Papua-Yangi Gvineya va Shimoli-Sharqiy Avstraliya hududlarini egallaydi.

O'rmon va yogochni qayta ishlash majmuasining shimoliy mintaqadagi asosiy qayta ishlash mahsulotlari bo'lib yog'och mahsulotlari, sellyuloza, qog'oz, karton hisoblansa, janubiy mintaqasi uchun esa taxta, o'tin, mebel uchun xom ashyo asosiy qayta ishlash mahsulotlari sifatida qaraladi.

Dunyoda o'rmon resurslari zahiralari bo'yicha ikkala mintaqada deyarli teng. Osiyo mintaqasi o'rmonlar maydoni bo'yicha, Janubiy Amerika ulushi bo'yicha ajralib turadi. Shimoliy mintaqasi mamlakatlari ichida o'rmon zahiralari bilan Rossiya, Kanada, AQSh, Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiya, Janubiy mintaqada Braziliya, Kolumbiya, Peru, Venesuela, G'arbiy, Ekvatorial va Janubi-Sharqiy Afrika mamlakatlari yaxshi ta'minlangan. (35-jadval)

O'rmon va yog'ochga qayta ishlov berish majmuasining turli ko'rinishdagi o'rmon mahsulotlari ishlab chiqaradi. Kesib olingan daraxtlardan tayyorlangan dumaloq xodalardan turli yog'och mahsulotlari, tilingan yog'och materiallardan faner, chiqindilaridan yog'och tolali plitalar, sellyuloza, qog'oz, karton olinsa, o'rmon kimyo sanoatida undan kanifol, skipidar, yem-ozuqa achitqilarini olinadi.

Majmuuning katta iqtisodiy ahamiyatga ega tarmog'i bo'lib sellyuloza-qog'oz sanoati (selluuloza, qog'oz va karton mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmog'i), mebelsozlik hisoblanadi. Mebel ishlab chiqarish sohasi eski sanoat tarmoqlari qatoridan o'rinn olsada, zamonga mos ravishda talabva ehtiyojning o'zgarishi natijasida yildan-yilga takomillashib bormoqdadir. Berilayotgan ma'lumotlarga ko'ra jahoning 60 davlati xalqaro mebel savdosining 92%ni yetkazib beradi.

35-jadval

O'rmon mahsulotlari eksport va importidagi yetakchi davlatlar.

Nº	O'rmon mahsulotlari	Eksport qiluvchi asosiy davlatlar	Import qiluvchi asosiy davlatlar
1	Yumaloq xoda	Rossiya (16%), Yangi Zellandiya (12%), AQSh (9%), Kanada (5%), Avstralija (4%)	Xitoy (37%), GFR (7%), Avstriya (6%), Shvetsiya (6%), Finlandiya (5%)
2	Tilingan taxta	Kanada (23%), Rossiya (18%), Shvetsiya (10%), Finlandiya (6%), GFR (5%)	Xitoy (21%), AQSh (19%), Buyuk Britaniya (5%), Yaponiya (5%), Mi. (5%)
3	Faner	Xitoy (17%), Kanada (9%), GFR (7%), Malayziya (6%), Rossiya (5%)	AQSh (15%), GFR (7%), Yaponiya (5%), Xitoy (4%), Kanada (4%)
4	Qog'oz xom ashyosi	Braziliya (21%), Kanada (17%), AQSh (13%), Chili (8%), Indoneziya (6%)	Xitoy (33%), AQSh (10%), GFR (8%), Italiya (6%), Koreya Resp. (4%)
5	Qog'oz va karton	GFR (12%), AQSh (10%), Finlyandiya (9%), Shvetsiya (9%), Kanada (7%)	GFR (10%), AQSh (9%), Buyuk Britaniya (6%), Italiya (5%), Fransiya 5%

AQSh, Italiya, GFR, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya va Fransiya kabi davlatlar yillik ishlab chiqariladigan mebel mahsulotlarining 50%ga yaqinini ishlab beradi. Rivojlanayotgan davlatlar orasida Xitoyning mebelsozlik sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanmoqdadir. Ya'li mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra Xitoy AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinni egallab turibdi.

Umumiyl ishlab chiqarilgan mebelmahsulotlarining 60%dan ortig'i Yevropa Ittifoqi davlatlariga, 35% Shimoliy Amerika davlatlariga, 40% Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga eksport qilinadi.

O'rmon va yog'ochga qayta ishlov berish majmuasining rivojlanish istiqbollari quyidagilardan iborat:

- uning texnik yangilanish imkoniyatlarining yuqoriligi;
- tarmoq tarkibida o'zgarishlarning yuz berishi;
- yog'ochga ishlov berish hamda sellyuloza-qog'oz sanoatlarda kimyoviy mahsulotlarning ishlatalishi;
- o'rmon resurslarining doimiy yangilanib borishi.

Aytib o'tilgan istiqbol imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun esa quyida sanab o'tilgan muammolarni hal etish talab etiladi:

- Mavjud imkoniyatlarning 20%dan foydalanilmoqda;
- Past sarmoyaviy faollik;
- O'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoatining asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarish miqdorining kamayib borayotganligi;
- Qayta ishlash jarayonida yog'och mahsulotlarining katta qismi chiqindiga chiqarilishi;
- O'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati bilan bog'liq ekologik muammolarning mavjudligi.

Yuqorida ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, o'rmon va yog'ochga qayta ishlov berish majmuasi tarmoqlari hududiy joylasuvi birinchi o'rinda xom ashyo omili bilan bog'liq. Lekin so'nggi yillarda ushbu majmua tarmoqlari iqtisodiy imkoniyatlari yuqori bo'lgan o'rmon resurslariga kambag'al davlatlarda ham rivojlanib bormoqda.

Qurilish materiallari sanoati — uy-joy qurilishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa qurilish sohalari uchun qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoat. Bir qancha tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Sement, asbest-sement shiferi, asbest-sement quvurlari, devor materiallari (g'isht), ohak, gips, deraza oynalari, yumshoq yopma materiallar, tabiiy toshlardan qoplama materiallar, bezak hamda pol uchun sopol (keramik) plitalar, isitgich radiatorlar va konvektorlar, chinni-fayans sanitariya-qurilish buyumlari, linoleum, yig'ma temir-beton konstruktivalar va detallar, noruda qurilish materiallari (maydalangan, chaqilgan tosh, qum, shag'al, qum-shag'al aralash-

masi) va boshqalar mazkur tarmoqning assosiy mahsulotlari hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoati rivojiga birinchi navbatda iste'mol va xom-ashyo omillari katta ta'sir ko'rsatadi. Cement, g'isht, asbestosli sementli va shifer mahsulotlari, o'tga chidamli materiallar, oyna, keramik trubalar, gips, ohak kabi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sohalar xom-ashyo talab, beton, temir-beton mahsulotlar va konstruktsiyalar, yumshoq momiq, yordamchi-texnik vositalar ishlab chiqaruvchi sohalar iste'molchiga yaqin joylashuvchi sohalar bo'lib hisoblanadi.

Sement sanoati qurilish sanoatining asosiy tarmog'i hisoblanadi. Unda portland sement, putstsolan portland sementi, toshqol portland sementi, shifer, asbotsement quvurlar, ganch, gil va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Sement dastlab 1824-yilda Angliyaning janubidagi Portlend shahri yaqinida («portlandsement» nomi shundan olingan) ingliz ixtirochisi J.Aspdin tomonidan ma'lum nisbatlarda qo'shilgan ohak va tuproq aralashmasini kuydirib olingan. XIX asrning 30-yillardan boshlab Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya, Germaniyada sement zavodlari qurila boshladi. XIX asrning 70-yiliga kelib sement jahon qurilish texnikasi rivojlanishining asosiy yo'nalishini belgilab, yigma temir-betonning kashf etilishiga olib keldi. XX asr davomida jahonning rivojlangan mamlakatlarida sement sanoati yuqori sur'atlarda o'sdi va sement ishlab chiqarishning umumiyligi hajmi 4 100 mln. t ni tashkil etdi (2019). 36-jadvaldagi sement ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ro'yxati Amerika sement ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasining ma'lumotlariga asoslangan. Hozirgi kunda quyidagi davlatlar sement ishlab chiqarish bo'yicha jahonning yetakchi davlatlari bo'lib hisoblanadi: "Laferge" (Fransiya), "Holcim Group", "Cemex SA de CV" (Meksika) jahondagi eng yirik sement ishlab chiqaruvchi kompaniyalar hisoblanadi.

Umuman, qurilish materiallari sanoati xom-ashyosi yer yuzining barcha mintaqalarida mavjud. Shu sababli mazkur sanoat tarmog'i jahonning barcha davlatlari iqtisodiyotida o'ziga xos o'ringa egadir. Ushbu sanoat tarmog'i ko'plab turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarsada, ular orasida asosan sement, marmar, bezak sifatida ishlov berishda foydalaniladigan turli mahsulotlar eksportbop hisoblanadi.

36-jadval
Sement ishlab chiqarish bo'yicha jahonning yetakchi davlatlar.

t/r	Davlatlar	Miqdori, mln.t
1	Xitoy	2200,0
2	Hindiston	320,0
3	Vyetnam	95,0
4	AQSH	89,0
5	Misr	76,0
6	Indoneziya	74,0
7	Eron	60,0
8	Rossiya	57,0
9	Braziliya	55,0
10	Koreya Respublikasi	55,0
	Jahon bo'yicha	4100

6.6. Yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni

Yengil va oziq-ovqat sanoati boshqa sanoat tarmoqlaridan asosan nom ashyo sifatida qishloq xo'jalik mahsulotlaridan foydalanishi, mahsulotlar ishlab chiqarishda talab ehtiyojining ahamiyati kattaligi kabi bir qator xususiyatlarga ko'ra farq qiladi.

Yengil sanoat aholini keng iste'mol mahsulotlari (mato, kiyim, poyabzal va boshqalar) bilan ta'minlovchi sanoat tarmog'i hisoblanadi. Uning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- Uning mahsulotlari bevosita insonlar hayot darajasiga ta'sir ko'rsatadi;

- Mehnat talab soha bo'lib, asosan ayollar bandligi yuqoriligi bilan ajralib turadi;

- Yengil sanoat korxonalari nisbatan kichik bo'lib, ko'p energiya va suv talab qilmaydi.

Yengil sanoat tarmog'i tarkibiga:

1. To'qimachilik;
2. Tikuvchilik;
3. Ko'n-poyabzal;
4. Trikotaj buyumlar ishlab chiqarish;
5. Zargarlik;

6. O'yinchoqlar ishlab chiqarish;

7. Mo'ynachilik kabi yo'nalishlar kiradi.

Xom ashyo, iste'mol, mehnat resurslari omillari tarmoq rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yengil sanoatning asosiy xom ashysosi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lgan paxta, jun, ipak, zig'ir, teri kabilar hisoblanadi.

To'qimachilik sanoati. To'qimachilik sanoati ham xom ashyo ham iste'molchi omili ta'sirida rivojlanadi. Uko'p mehnat talab qiluvchi tarmoq bo'lganligi sababli, ayni vaqtida unda rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi ortib bormoqdad. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish kerakki, to'qimachilik sanoatining yuqori bosqichlari bo'lgan gazlamaga ishlov berish, tayyor gazlama ishlab chiqarish sohalari asosan rivojlangan davlatlarga xos sohalar bo'lib hisoblanadi. To'qimachilik sanoatimahsulotlarga bo'lgan talab va urf (moda) sababli tarmoqning dinamiklik xususiyatga egaligi, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, furnitura, ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyalariga bo'lgan talabning o'zgarib turishi, malakali ishchi kuchiga (ijodkorlik qobiliyatiga) talabning ortib borishi kabi jihatlar bilan boshqa tarmoqlardan ajralib turadi.

To'qimachilikda asosan paxta, jun, ipak, zig'ir va kimyoviy (sun'iy) tolalardan mato tayyorlanadi. So'nggi yillarda mazkur sanoat mahsulotlari tarkibida sintetik tolali matolar salmog'i tez sur'atlar bilan ortib bormoqda. Uning sanoat mahsulotlaridagi umumiy xissasi 60%ni tashkil qilmoqda. Taqqoslash uchun bunday mahsulotlar 1950-yillarda matolarning bor-yo'g'i 16%ni tashkil qilgan.

Jahon to'qimachiligidagi beshta mintaqasi shakllangan: Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, MDH, Yevropa va AQSh. Agar Osiyo mintaqalarida paxta va ipak tolali matolar katta salmoqqa ega bo'lsa, Yevropa va Shimoliy Amerikada asosiy o'rinni sintetik tolali va trikotaj matolar egallaydi.

Yiliga 100 mlrd m² miqdorda turli ko'rinishdagi matolar tayyorlanib, mato turlarining barchasini ishlab chiqarish bo'yicha peshqadam davlatlar quyidagilardan iborat:

Paxtamatosi - XXR, Hindiston, AQSh, Yaponiya, Tayvan;

Jun mato - XXR, Italiya, Yaponiya, AQSh, Hindiston;

Ipak mato - AQSh, XXR, Hindiston, Koreya Respublikasi, Yaponiya;

Zig'ir mato - Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Rossiya;

Kimyoviy toladan mato to'qish - AQSh, Hindiston, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tayvan davlatlari yetakchilik qiladi.

Gilamchilik to'qimachilik tarmog'ining alohida yo'nalishidir. Rivojlangan mamlakatlardan gilam to'qish bo'yicha AQSh, Belgiya va Buyuk Britaniya, rivojlanayotgan mamlakatlardan Hindiston, Turkiya, Eron yetakchilik qiladi.

To'qimachilik sanoatining asosiy rayonlari Markaziy Rossiya, Shimoliy Reyn-Vestfaliya va Saksoniya (Germaniya), Markaziy Angliya (Buyuk Britaniya), Parij, Elzas, Lion (Fransiya), Flandriya (Belgiya), Yangi Angliya (AQSh), Shimoliy Italiya, Nagoya, Kioto, Osaka (Yaponiya), Shimoliy Xitoy va Shanxay (Xitoy), Kalkutta, Bombej va Ahmadobod (Hindiston), Quyi Misr (Misr), San-Paulu (Braziliya) kabi hududlarda joylashgan.

Tikuvchilik sanoati. Tikuvchilik sanoati hozirgi kunda yengil sanoatning eng qimmat turdagisi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Unda o'ziga xos "moda egalari" shakllangan bo'lib, ular Parij, London, Berlin va Nyu-York shaharlaridir. Lekin tikuvchiik sohasi sekin-asta rivojlanayotgan mamlakatlariga ko'chib o'tmoqda, bunda arzon ishchi kuchidan foydalanish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar ulushiga jahon tikuvchilik sanoati mahsulotlarining 50% i to'g'ri keladi. Kiyim-kechak eksport qiluvchi davlatlar: XXR, YEI, Turkiya, Meksika, AQSh kabi davlatlar hisoblanadi.

Trikotaj sanoati. Trikotaj ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlarda yaxshi shakllangan. Ayniqsa Italiya, Fransiya va AQSh ajralib turadi. Ayni vaqtida Xitoy va yangi sanoatlashgan mamlakatlar Koreya Respublikasi, Tayvan, Tailand va Singapurda jadal rivojlanmoqda. Trikotaj mahsulotlarning asosiy eksportyori bo'lib XXR, AQSh, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Hindiston kabilar hisoblanadi.

Mo'yna sanoati. Mo'ynaga ishloq berish va undan mahsulotlar ishlab chiqarish tarmog'i - tikuvchilikning muhim va nisbatan murakkab sohasi bo'lib sanaladi. Mo'yna ishlab chiqarish an'anaviy

tarzda Kanada, AQSh, Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Rossiya va Mongoliyada rivojlangan.

Ko'n-poyabzal ishlab chiqarish. Mazkur tarmoqteriga ishlov berish va undan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan poyabzalning yarmi rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli. Ushbu soha Xitoy, Italiya, Hindiston, Ispaniya, AQSh, Fransiya kabi davlatlarda rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoati aholi tomonidan doimiy talab mavjud bo'lgan soha bo'lib, ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan davlatlar hududida mavjud bo'lgan sanoat tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Yer yuzining barcha mintaqalarida tarmoq rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xom ashyoning mavjudligi, tarmoq mahsulotlarining ishlab chiqaruvchilari bilan birga iste'molchilarining ham ko'pligi mazkur tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati o'zi quyidagi tarmoqlarga ajratiladi:

- ✓ Go'sht va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari
- ✓ Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari
- ✓ Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari
- ✓ Un tortish va yem tayyorlash tarmoqlari
- ✓ Baliq konservalari tayyorlash tarmog'i

Go'sht va sutmahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'i asosan go'sht, yog', pishloq, sut va sut mahsulotlari ishlab chiqaradi.

Go'sht sanoati. Go'sht yetishtirish va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish avvalambor Yevropaning rivojlangan mamlakatlari (ayniqsa Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Daniya va Belgiya), Shimoliy Amerika, Avstraliya va Yangi Zelandiya, shuningdek ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlari – Xitoy, Braziliya, Argentina, Urugvay kabilarning xalqaro ixtisosligi hisoblanadi. Yillik go'sht tayyorlash 290 mln. t.ni tashkil etib, uning tarmoq tarkibida cho'chqa go'shti katta salmojni tashkil qiladi (Ilavadagi 21-rasmga qaralsin).

Jahon mintaqalari orasida go'sht ishlab chiqarishda Osiyo (30%) yetakchilik qiladi. Jahon bozorida go'sht mahsulotlarini eksport qilishda yetakchi davlatlar G'arbiy Yevropa mamlakatlari (jahon eksportining 50% ga yaqini), AQSh, Braziliya, Avstraliya kabilar bo'lsa, eng ko'p import qiluvchilar G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Rossiya va Yaponiya hisoblanadi.

Sut sanoati. Sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish Yevropa, AQSh, Rossiya, Belorus, Ukraina, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlarda yaxshi rivojlangan. Sut mahsulotlari ichida fransuz va fin sariyog'i, Finlyandiya va Estoniya qaymog'i, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Shveysariya, Litva pishloqlari va Fransiya, Germaniyada ishlab chiqariladigan yogurtlar juda mashhurdir.

Jahon bozoriga sut mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy mamlakatlар Yevropa (ayniqsa Shimoliy va Markaziy Yevropa mamlakatlari), Avstraliya, Yangi Zelandiya, asosiy import qiluvchi mamlakatlari MDH davlatlari va Xitoydir.

Yog' va pishloq ishlab chiqarish sanoatining asosiy mahsulotlari bo'lib saryog', margarin, pishloq hisoblanadi. Hindiston, AQSh, Pokiston sariyog' ishlab chiqaruvchi, AQSh, Hindiston, GFR margarin ishlab chiqaruvchi, AQSh, Braziliya, Argentina pishloq ishlab chiqaruvchi asosiy davlatlar bo'lib hisoblanadilar.

Soyadan yog' olish bo'yicha AQSh, rapsdan yog' olish bo'yicha Hindiston, zaytundan yog' olish bo'yicha Italiya, kungaboqdan yog' olish bo'yicha esa Rossiya peshqadamlik qiladi.

Choy qadoqlash, qand, non mahsulotlari, konditer mahsulotlari, makaron, spirtli va spirtsiz mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, ozuqa kontsentratlari ishlab chiqarish kabi tarmoqlar iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar bo'lib hisoblanadi.

Qand sanoati. Dunyoda yiliga 130 mln tonnadan ko'p qand xom-ashyosi ishlab chiqariladi, uning 80% i shakarqamish, 20% dan ko'prog'i qand lavlagidan olinadi. Dunyo bo'yicha ikkita qand yetishtiruvchi mintaqaga ajratiladi – bular, dunyoda yetishtiriladigan qandning $\frac{3}{4}$ qismini beruvchi Osiyo va $\frac{1}{4}$ qismini yetishtiruvchi Lotin Amerikasi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda shakarqamish va qandlavlagidan olinadigan qandning ulushi teng bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda 95% qand shakarqamishdan olinadi.

Tozalanmagan shakar ishlab chiqaruvchi eng yirik davlatlar Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh, Avstraliya, Tailand, Fransiya hisoblanadi. Eng ko'p eksport qiluvchi davlatlar Braziliya, Avstraliya, Kuba, Tailand, Gvatemala va G'arbiy Yevropa mamlakatlari (ayniqsa Fransiya, Germaniya, Belgiya) kabilardir.

Spiritiuchimliklar ishlab chiqarish. Uzum yetishtirish va uzumdan olinadigan vino ishlab chiqarish mo'tadil mintaqaning janubiy kengliklarida va subtropik iqlim mintaqasida joylashgan mamlakatlarda shakllangan. An'anaviy vinochilik O'rta Yer dengizi, Qora dengiz va Kaspiy dengizi havzasidagi mamlakatlarda rivojlangan. Uzum vinosini ishlab chiqarish AQSh, Lotin Amerikasi mamlakatlari (ayniqsa Argentina va Chilida), JAR va Avstraliyada jadal rivojlanmoqda.

Jahonda yiliga 260 mln gekalitrga yaqin uzum vinosi ishlab chiqariladi. Vinochilikda Yevropa mintaqasi yetakchilik qiladi, dunyoda ishlab chiqariladigan uzum vinosining $\frac{2}{3}$ qismi ushbu mintaqaga to'g'ri keladi. Eng ko'p vino ishlab chiqaruvchi mamlakatlar Italiya, Fransiya, Ispaniya hisoblanadi. Bu davlatlarga dunyoda yetishtiriladigan vinoning 55% i to'g'ri keladi. Shuningdek, uzum vinosini eng ko'p ishlab chiqaruvchi davlatlar o'nligiga AQSh, Argentina, Germaniya, JAR kabi davlatlar ham kiradi.

Ushbu tarmoqning yana bir yo'nalishi pivo ishlab chiqarish hisoblanadi. AQSH, Xitoy, GFR ushbu soha yetakchilar bo'lib, uning asosiy kompaniyalari G'arbiy va Sharqiy Yevropa, Amerika, Osiyo, Avstraliya davlatlarida joylashgan.

Un tortish va yem tayyorlash tarmog'i un va krupa ishlab chiqarish hamda yem mahsulotlari ishlab chiqarish sohalariga ajratiladi. Bu tarmoq jahonning deyarli barcha davlatlarida rivojlangan. Donchilik sohasining peshqadam davlatlari bu tarmoqda ham oldingi o'rirlarni egallaydilar.

Baliq konservalari tayyorlash tarmog'i baliq va baliq konservalarini tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bu tarmoqning barcha sohalarida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy, Yaponiya, Rossiya, AQSh kabi davlatlar yetakchilik qiladilar.

Demak, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari barcha sanoat mahsulotlari orasida eng katta iste'mol talabi mavjud bo'lgan sanoat tarmoqlari bo'lib hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sanoat inqilobi nima?
2. Sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvida qanday farqlar ko'zga tashlanadi?
3. G'arb davlatlarida qanday sanoat tarmoqlari mahalliy resurslar asosida ishlaydi?
4. FTI sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Rangli metalluriya sanoatining o'ziga xos jihatlari nimada?
6. O'zbekistonda qaysi sanoat tarmoqlari yetakchilik qiladi?
7. Sanoatni rivojlanashi bilan bog'liq ekologik muammolarga baho bering?
8. Yengil sanoatni rivojlantirishda qanday omillar zarur?

7. JAHON QISHLOQ XO'JALIGI

Tayanch tushunchalar: ASM, quvvat beruvchi o'simliklar, birja kofe, baliqchilik, intensiv, ekstensiv, "Yashil inqilob", gen, selektsiya.

7.1. Qishloq xo'jaligining jahon mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlantirishdagi ahamiyati

Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarishning eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo'lib, u ziroatchilik ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va chorvachilikdan iborat. Qishloq xo'jaligi yer shari aholisini turli-xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, sanoat tarmoqlari uchun ham zaruriy xom-ashyo mahsulotlarini yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi inson xo'jalik faoliyatining dastlabki va eng qadimgi shakllaridan biri hisoblanadi. Sanoatdan farqli o'laroq qishloq xo'jaligi bir qancha o'ziga xos jihatlarga ega. Avvalo, u iqlim va tuproq sharoiti, shuningdek relyef xususiyatlari turlichcha bo'lgan hududlarda olib boriladi. Shuningdek, tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining rivojlanishiga, joylashishiga va ixtisoslashuviga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligining mavsumiy tafsifga ega ekanligi ham uning jahoning turli mamlakatlari turlichcha taqsimlanishiga sabab bo'ladi. U dunyoning deyarli barcha hududlarida mavjud bo'lsa-da, biroq ziroatchilik va chorvachilikni rivojlanganlik holati turli mintaqalarda turlichadir. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanishi va joylashuvida avvalo, hududlarning tabiiy sharoiti, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari - avvalo, iqtisodiy geografik o'rni, mehnat resurslari malakasi, xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji singari omillar kuchli ta'sir qiladi. Qishloq xo'jaligining ikki asosiy rivojlanish shakllari (ekstensiv va intensiv) mavjud.

➤ Qishloq xo'jaligining ekstensiv rivojlanish shaklida ko'proq ekin maydonlarini kengaytirish, yangi yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi tarkibiga kiritish, qishloq xo'jalik korxonalarini, fermerxo'jaliklari sonining ortishi, chorva sonini ortishi, yaylov va o'tloqlarni ko'paytirish singari xususiyatlar xos.

➤ Qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanish shaklida esa, qishloq xo'jalik tarmoqlarini majmuaviy holda yuksaltirish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida jihozlash, kimyo lashtirish, melioratsiya ishlarini kengaytirish, ilg'or xorijiy tajribalarga suyangan holda rivojlantirish orqali, mahsulot miqdorini oshirishga erishish tushuniadi. Ma'lumki, XX asr 50-60-yillardan yirik shaharlar atrofida shahar atrofi qishloq xo'jaligi zonalari shakllandı. Shahar atrofi qishloq xo'jaligi shahar aholisini sabzovot, sut va sut mahsulotlari, meva, poliz mahsulotlari bilan ta'minlashga ixtisoslashgan. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hududlarda yerlar bahosining niyatda qimmat bo'lishi qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishni taqozo qiladi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida qishloq xo'jaligi asosan ekstensiv yo'l bilan rivojlandi. Yangi yerlarning vujudga kelishi asosan o'rmonlarning qisqarishi hisobiga shakllandı. Bugungi kunda ham dunyoning ko'plab rivojlanayotgan davlatlarida qishloq xo'jaligi ekstensiv yo'l bilan rivojlanmoqda. Intensiv xo'jalik ko'proq rivojlangan davlatlar uchun xos bo'lib, ularda qishloq xo'jaligida sodir bo'lgan "Yashil inqilob" va u bilan bog'liq tadbirlarga asoslanadi. Bunday davlatlarda ko'proq tovar qishloq xo'jaligi rivojlangan bo'lib, mazkur mintaqalarda qishloq xo'jaligidagi barcha ishlar asosan texnik vositalar orqali amalga oshiriladi. Ziroatchilikda sifatli mineral o'g'itlardan, zararkunandalarga qarshi, chorva mollari kasalliklariga qarshi dori vositalardan foydalilanadi. Intensiv xo'jalikni barpo qilish uchun yerlarni melioratsiya qilish, ya'ni yer holatini yaxshilash ishlarini jumladan zax va botqoqlarni quritish singari amaliy tadbirlarni olib borish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida foydalananligan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari deb ataladi va ular quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: haydaladigan ya'ni sug'oriladigan va lalmikor yerlar; bog'lar va uzumzorlar; pichanzorlar; yaylovlari; o'rmon va butazorlar va b. Jahonda sug'oriladigan yerlar haydaladigan (shudgor qilinadigan) yerlarning 15% (230 mln. ga) ini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Xitoyda 30%, Hindistonda 28%, AQShda 15%, Pokistonda 70% ni tashkil qiladi.

2. Qishloq xo'jaligining asosiy xususiyatlaridan biri uning hududlarning tabiiy iqlim sharoiti bilan chambarchas bog'liq

ekanligidir. Boshqacha aytganda, zaruriy tabiiy iqlim sharoiti mavjud bo‘lsagina muayyan hududlarda bug‘doy, sholi, choy singari mahsulotlarni yetishtirish mumkin bo‘ladi. Aytish joizki, qishloq xo‘jaligi insonning har kunlik kundalik iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Shu bois jahonning deyarli barcha mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘rmonchilik, ovchilik, baliqchilik xo‘jaliklari shakllangan. Hozirgi vaqtida bunday xo‘jalik tarmoqlarida hammasi bo‘lib bir milliarddan ortiq kishi yoki jami iqtisodiy faol aholining 70% dan ko‘prog‘i ish bilan band.

XX asrning 60-yillarida jahon iqtisodiyotida dastlab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda “agrosanoat integratsiya”si jarayoni boshlandi. Agrar so‘zi lotincha “qishloq xo‘jaligi” ma’nosini anglatadi.

Agrosanoat majmuasining shakllanishi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQShda jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. “Agrobiznes” - yuqori foya olish maqsadida qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq tarmoqlarni rivojlantirish, hozirgi zamon boshqaruv usullaridan foydalananish singari jihatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Agrobiznesning yuzaga kelishi 70-yillarning o‘rtalaridan boshlab dastlab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lib, uning shakllari juda xilma-xildir.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining hududiy joylashuvida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy texnika inqilobi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi va ixtisoslashuviga muhim ta’sir ko‘rsatmoqda. Keyingi yillarda FTT natijasida qishloq xo‘jaligi sohasida muhim sifat o‘zgarishi yuz berishiga qaramay uning tabiiy sharoit bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib borishi hamon saqlanib qolmoqda. Tabiiy sharoit ta’siri eng avvalo, yer resurslarini; o‘simpliklarni vegetatsiya davri uchun hayotiy zarur bo‘lgan issiqqlik, nam va yorug‘likning o‘zaro uyg‘unlashuvini; tupoqning tabiiy unumdonorligi va melioratsiya imkoniyatlarini; chorvachilik uchun muhim ozuqa manbai hisoblangan tabiiy o‘tloq va yaylovlarini o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning rivojlanib borayotgan sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining atrof-muhitga ta’siri kuchayib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligida yer resurslari quyidagi tiplarga ajratiladi:

- 1.Qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yerlar;
- 2.Tabiyy o‘tloq va yaylovlar;
- 3.Yaroqsiz kam foydalanadigan yoki mutlaq yaroqsiz yerlar.

Ushbu yuqorida uchchala tip tarkibiga kiruvchi yerlar yer sharining 1/3 qismini tashkil etadi. Dunyoda qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibiga e’tibor qaratsak, XX asrning ikkinchi yarmida jahon qishloq xo‘jaligida muhim hududiy va tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bunda moddiy-texnik uskunalar va tijoratlashtirish darajasini umumiyl o‘sib borishi, globallashuv jarayonining barcha hududlarga sezilarli darajada kirib borishi ko‘zga tashlandi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, yerdan oqilonqa foydalanimmaslik (quriq yelarning ortiqcha ochilishi, sug‘orish ishlardagi nomutanosibliklar, o‘rmonlarning kesilishi, qishloq xo‘jaligida tuproqqa turli kimyoviy moddalarni ortiqcha qo‘llash) tufayli 1,2 milliard hektar maydon degradatsiyaga uchradi va ular ishlab chiqarishdan chiqarildi.

Bugungi kunda barcha o‘simpliklarning 17 foizi degradatsiyaga yuz tutdi va ular eroziya, sho‘rlanish, suvni tozalash, jismoniy va kimyoviy tanazzul ta’siriga uchragan. Har yili 6-12 million hektar yerdan qishloq xo‘jaligida foydalananish kamayib bormoqda, yangi ochilgan yerlar esa faqat 4-5 million hektarni tashkil qiladi. Aytish lozimki, bundan tashqari, yer resurslari tabiiy-iqlim (qurg‘oqchilik), tuproq, gidrologik xususiyatlariga ko‘ra jiddiy cheklolvarga ega ekanligi ma’lum. Bunday noqulay hududlarning eng katta qismi Osiyo, Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikada joylashgan. So‘nggi davrlarda xuddi shunday ko‘rsatkichlar bo‘yicha Yevropa va Shimoliy Amerikadagi vaziyat ancha yaxshilandi. Natijada, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish (umumiyl yer maydonida qishloq xo‘jaligi yerlarining ulushi) hozirgi vaqtida Avstraliya va Okeaniya, Yevropa va Osiyoda eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Eng yirik qishloq xo‘jaligi yerlariga ega bo‘lgan davlatlar orasida Xitoy, Avstraliya, AQSh va Rossiya alohida ajralib turadi.

Umuman olganda, qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibini tabiiy yaylovlar (70,1%), qishloq xo‘jaligi yerlari (27,8%) va ko‘p yillik o‘simpliklar (2,1%) tashkil etadi. Faqat Yevropada yaylovlarning ulushi ekin maydonlariga nisbatan ancha past, jahonning boshqa hududlarida esa yaylovlar hamon katta maydonlarni egallamoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ekin maydonlarini qisqartirish jarayoni yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlarda ham hosildorlik pasaygan. Rivojlarnayotgan mamlakatlarda (jumladan, Braziliya, Indoneziyada) yangi yerlarni o'zlashtirilishi orqali ekin maydonlarining o'sishi kuzatilsada, biroq hosildorlikning kamayib borayotganlik holatlari ko'zga tashlanmoqda.

O'tgan o'n yil ichida barqaror tabiiy o'tloqlar va o'rmonlar tobora kamayib bormoqda. Bugungi kunda keng yaylovlardan bo'yicha Avstraliya, Xitoy, AQSh, shuningdek, Qozog'iston va Argentina davlatlari alohida ajralib turadi.

Madaniy yaylovlarning o'mi, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda o'sib bormoqda. An'anaviy ravishda, ular Yevropada eng keng tarqalgan. Quruq cho'llar, savannalar, yarim cho'llar, tundralar ko'pincha tabiiy ozuqalar yerlari sifatida ishlataladi.

Ko'pincha qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishga ixtisoslashgan mamlakatlar va mintaqalarda aynan shu sohalar bilan bog'liq ravishda chorva mollariga ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar faoliyati keng yo'lga qo'yilgan.

Agar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollarini sonini oshirish hisobiga ko'paysa, bunday qishloq xo'jaligi ekstensiv xo'jalik deyiladi. Buning aksincha, qishloq xo'jaligi mahsulotining hajmi maydon birligida agrotexnika vositalaridan ko'proq foydalanish yoki chorva mollarining ko'proq mahsuldor zotlarini yaratish hisobiga oshsa, bunday qishloq xo'jaligi intensiv xo'jalik deb ataladi.

7.2. Dehqonchilik va uning hududiy tarkibi.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligining bosh tarmog'i bo'lib, uning asosini donli ekinlar yetishtirish tashkil etadi. Jahon bozorida donli ekinlar orasida bug'doy, makkajuxori va sholi muhim ahamiyat kasb etadi. G'alla etishtirishning xom ashyosi va eksporti bir xil emas: jahonning don bozorida asosiy mahsulotlar bug'doy, yemxashak donasi (makkajo'xori) va guruch hisoblanadi.

Bugungi kungacha insoniyat uch turdag'i "non" dan foydalanib kelgan. Bular bug'doy, sholi va makkajo'xori maxsulotlaridan tayyorlangan non hisoblanadi. Ular ekilagan hududlar 720 mln.

gektardan ortiqni tashkil etadi. Bug'doy yer sharining mo'tadil va subtropik kengliklarda yetishtiriladi. Asosiy bug'doy yetishtiruvchi mintaqalar yer sharining bug'doy "belbog'i"ni tashkil etadi (37-jadval).

37-jadval

Jahonning yirik bug'doy yetishtiruvchi mamlakatlari (mln t)*

Mamlakatlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2019 y.
Argentina	10,500	13,930	11,300	19,5
Australiya	25,303	23,743	24,168	17,6
Braziliya	5,300	6,000	5,540	5,6
Kanada	37,530	29,420	27,594	32,3
Xitoy	121,930	126,208	130,190	133,6
Misr	8,250	8,300	8,100	9,0
Yevropa Ittifoqi	144,583	156,912	160,000	165,100
Hindiston	93,506	95,850	86,530	103,6
Eron	14,500	13,000	15,000	16,8
Qozog'iston	13,941	12,996	13,748	11,3
Pokiston	24,211	25,979	25,100	24,4
Rossiya	52,091	59,080	61,044	74,5
Turkiya	18,750	15,250	19,500	19,0
Ukraina	22,278	24,750	27,274	28,4
O'zbekiston	6,800	7,150	7,200	6,093
Boshqalar	57,427	54,354	56,824	58,155
AQSh	58,105	55,147	56,117	52,3
Jahon bo'yicha jami	715,005	728,069	735,229	765,8

*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti

Eng mashhur va qadimgi (Yaqin Sharqdan kelgan) bug'doy - bu mo'tadil kengliklarning "non madaniyati" hozirgi kunga kelib butun dunyoda eng keng tarqalgan. Ekin yerlarining aksariyat qismi non tayyorlash uchun ishlataladigan yumshoq bug'doy navlari bilan band. Qattiq qish hukm surmaydigan joylarda yetishtiriladigan kuzgi bug'doy AQShda jami hosilning 4/5 qismini tashkil etadi.

Makaron ishlab chiqaradigan qattiq bug'doy mintaqasi Janubiy Yevropa, Shimoliy Amerika va MDHda (Qozog'iston) joylashgan.

Bug'doy - ekish va yig'ish bo'yicha dunyodagi donlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. XX asrning ikkinchi yarmida bug'doy yetishtirish geografiyasi sezilarli darajada o'zgardi. Yashil inqilob davrida, mitti bug'doyning yuqori mahsuldor navlari yaratilishi tufayli, jahon markazi yana Osiyoga ko'chdi. Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlarining roli ijtimoiy mojarolar tufayli kamaydi, Shimoliy Amerikaning ulushi va G'arbiy Yevropaning ulushini barqarorlashtirish kuzatildi. Hozirgi kunda dunyo bug'doyining 2/5 qismi Osiyo, 1/5 qismi G'arbiy Yevropa, 1/6 qismi Shimoliy Amerikaga to'g'ri kelmoqda. So'nggi besh yil mobaynida bug'doy yetishtirish hajmi yil sayin ortib bormoqda (37-jadval)

Aytish o'rinniki, bug'doy etishtiradigan asosiy maydonlar 19-asrda barcha qit'alarning cho'l zonasida shakllangan va ular tashqi bozorga yuqori darajada sotilishi va yo'naltirilganligi bilan ajralib turdi. XX asrda deyarli ularning barchasi o'z ixtisoslashuvini saqlab qoldi.

Asosiy bug'doy ishlab chiqaruvchilar - Xitoy, Rossiya, AQSh, Kanada, Hindiston, Avstraliya davlatlari sanaladi (37-jadval). Dunyo bo'ylab bug'doyning deyarli beshdan bir qismi xalqaro bozorga eksport qilinadi. Asosiy eksportchilar Shimoliy (AQSh, Kanada) va Janubiy Amerika (Argentina), Avstraliya va G'arbiy Yevropaning (Fransiya) ayrim mamlakatlarda joylashgan.

Sholi – ekvatorial, tropik va subtropik kengliklarning asosiy oziq-ovqat ekini hisoblanadi. U ko'proq Xitoy, Xindiston, Indoneziya va Yaponiyada yetishtiriladi. Sholi ekilgan maydonlar Markaziy Osiyo, Janubiy Yevropa va Shimoliy Amerikada uchraydi. Ma'lumotlarga ko'ra dastlab guruch Osiyoda, aniqrog'i Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hududida paydo bo'lgan, endilikda esa u barcha qit'alarda tarqalgan. Sholi issiqlik va namlikni, tuproq unumdorligini sifatiga juda ta'sirchanligi bois asosan, tropik va subtropik zonalarda, dengiz sohillaridagi sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi.

Jahonning yirik guruch ishlab chiqaruvchi mamlakatlar(mln t)*.

Mamlakatlar	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Bangladesh	33,820	34,390	34,500	34,500
Braziliya	8,037	8,300	8,465	7,210
Birma	11,715	11,957	12,600	12,160
Kambodja	4,670	4,725	4,700	4,705
Xitoy	143,000	142,530	144,560	145,770
Misr	4,675	4,750	4,530	4,000
Hindiston	105,241	106,646	105,482	104,408
Indoneziya	36,550	36,300	35,560	36,200
Yaponiya	7,907	7,931	7,849	7,670
Janubiy Koreya	4,006	4,230	4,241	4,327
Nepal	3,003	3,361	3,100	3,100
Pokiston	5,536	6,798	6,900	6,800
Filippin	11,428	11,858	11,915	11,000
Tailand	20,200	20,460	18,750	15,800
Vietnam	27,537	28,161	28,166	27,584
Boshqalar	38,857	39,821	40,129	40,882
AQSh	6,348	6,117	7,106	6,133
Jahon bo'yicha jami	472,530	478,335	478,553	472,249

*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

Qadimdan sholi (guruch) Osiyo aholisining asosiy oziq-ovqat maxsuloti hisoblangan, keyinchalik u afrikaliklar, yevropaliklar va amerikaliklar tomonidan foydalanila boshlandi. Aytish lozimki, guruch eksporti bug'doy eksportiga nisbatan ancha past. Asosiy import qiluvchi davlatlar Osiyo (Indoneziya, Filippin, Xitoy, Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari), Lotin Amerikasi (Braziliya, Kuba) va Afrika (Janubiy Afrika mintaqasi) mamlakatlaridir. Asosiy eksportyor davlatlar - Tailand, AQSh hisoblanib, AQSh butun guruch hosilning yarmini eksport qiladi.

Yer yuzining eng qadimiy oziq-ovqat va ozuqa ekinlaridan biri bo‘lgan makkajo‘xori ekiladigan yarlari AQSh, Braziliya, Meksika, Argentina, Xitoy, Hindiston va Avstraliyada keng tarqalgan.

Makkajo‘xori qadimgi davrlarda Shimoliy Amerikalik hindularning asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan, biroq keyinchalik u boshqa qit’alarga nafaqat oziq-ovqat, balki yem-xashak va texnik ekin sifatida ham keng tarqaldi. Keyinchalik G‘arbiy Yevropada bu ekin asrlar davomida ortib borayotgan aholi uchun don va chorva uchun yashil ozuqa uchun yetishtirildi.

Makkajuxorini ishlab chiqarish ko‘proq Shimoliy Amerikada yo‘lga qo‘yilgan, ammo keyingi yillarda mintaqaning bu xususdagi o‘rni ancha kamaygan. Biroq hududda AQShning bu boradagi tutgan o‘rni hamon yuqori. Boshqa yirik ishlab chiqaruvchilar - Xitoy, Braziliya, Meksika, Fransiya. Xitoy, Fransiya, Argentina va Janubiy Afrika, Misr eksport qilmoqda.

Umuman olganda, makkajo‘xori etishtirishning eksporti pastligicha qolmoqda. Asosiy haridorlari sifatida Yaponiya, Koreya Respublikasi, Malayziya, shuningdek Yevropada Buyuk Britaniya, Ispaniya, Belgiya davlatlarini alohida e’tirof etish lozim (39-jadval).

Jo‘xori - turli qit’alarning qurg‘oqchil hududlarida sezilarli darajada maydonlarni egallaydi. XX asrda Afrikada va qisman Osiyoda tarqalgan. Ikkinci jahon urushidan keyin u Amerika Qo‘shma Shtatlarining eng muhim ekiniga aylangan. Oziq-ovqatlar, texnik va yem-xashak o‘simligi sifatida ishlatsada, biroq bugungi kunda yem-xashak ekini sifatida katta ahamiyatga ega.

39-jadval

Jahoning yirik makkajo‘xori yetishtiruvchi mamlakatlari (mln t)*

Mamlakatlari	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Argentina	27,000	26,000	29,750	29,000
Braziliya	81,500	80,000	85,000	67,000
Kanada	13,060	14,194	11,487	13,559
Xitoy	205,614	218,489	215,646	224,632
Efiopiya	6,158	6,492	7,235	5,050
Yevropa Ittifoqi	59,142	64,931	75,734	58,410
Hindiston	22,258	24,259	24,170	22,570
Indoneziya	8,500	9,100	9,000	10,500

Meksika	21,591	22,880	25,480	25,971
Nigeriya	7,630	7,700	7,515	7,000
Filippin	7,261	7,532	7,671	6,970
Rossiya	8,213	11,635	11,325	13,168
Serbiya	3,750	5,900	7,700	6,000
Janubiy Afrika	12,365	14,925	10,629	8,214
Ukraina	20,922	30,900	28,450	23,333
Boshqalar	91,610	94,289	98,151	96,438
AQSh	273,192	351,272	361,091	345,506
Jahon bo‘yicha jami	869,766	990,498	1,016,034	963,321

*Manba: Amerika Qo‘shma Shtatlari Qishloq xo‘jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

Javdar - mintaqaviy ahamiyatga ega oziq-ovqat don ekinlari hisoblanadi. Ushbu ekin qish fasli-mashaqqatli, past haroratlari iqlim hukmron hududlar uchun xos. Aslida javdar Yaqin Sharqdan kelib chiqqan qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik. Endilikda u Markaziy va Sharqiy Yevropada keng yetishtiriladi. Polsha, Germaniya va Belorus ushbu ekin turi bo‘yicha yetakchi o‘rin egallaydi. Mazkur ekin shuningdek, Shimoliy Amerika (Kanada, AQSh) fermer xo‘jaliklari va ayrim Osiyo mamlakatlaridagi (Xitoy, Qozog‘iston) dehqon xo‘jaliklarida yetishtiriladi.

Arpa qadimiy o‘simliklar avlodidan bo‘lib, makkajuxoridan keyingi yem-xashak ekini sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, arpa pivo tayyorlashda, tibbiyotda undan foydalaniladi. Zamonalivay navlari turli ekologik sharoitda asosan uch markazda: O‘rta, Old va Sharqiy Osiyoda yetishtirilgan, keyingi yarim asr mobaynida, mazkur ekin hosili bir necha marotaba oshdi. Bugungi kunda arpa ishlab chiqaruvchi mamlakatlar orasida Kanada, Ukraina, Germaniya, shuningdek AQSh, Fransiya, Ispaniya va Turkiya yetakchilik qiladi.

Dukkakli ekinlar (loviya, soya, no‘xot, yasmiq) ham muhim oziq-ovqat ekinlaridan hisoblanadi.

40-jadval

Jahonning yirik paxta yetishtiruvchi davlatlari (mln t)

Mamlakatlar	2019 y.
Xitoy	23,500
Hindiston	18,550
AQSh	12,955
Braziliya	6,893
Pokiston	4,494
O‘zbekiston	2,694
Turkiya	2,200

Texnika ekinlari esa sanoatning turli tarmoqlarida xom-ashyo sifatida ishlataladi. Ular tolali, moyli, tarkibida shakar mavjud, kauchukli, kraxmalli va quvvat beruvchi turlarga bo‘linadi.

Texnik ekinlar orasida asosiy o‘rinni tola beruvchi ekinlar ya’ni paxta, kanop, jut singari ekinlar tashkil etadi. XX asrning ikkinchi yarmida sun‘iy va sintetik tolaning roli oshganligi munosabati bilan ularning roli birmuncha pasaydi.

Paxta Qadimgi Meksika va Hindistonning asosiy ekin turlaridan edi. Ushbu issiqsevar o‘simlik mo‘tadil mintaqada joylashgan ko‘pgina mamlakatlarda ekiladi.

Paxta tolasini ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar - AQSh, Xitoy, Hindiston, Pokiston va O‘zbekiston hisoblanadi. AQSh paxta eksporti bo‘yicha yetakchi davlat sifatida jami jahon paxta eksportining 1/4 qismini yetkazib beradi. Keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston, Turkmaniston va Avstraliya davlatlari turadi.

41-jadval

Dunyoda yirik paxta iste’mol qiluvchi mamlakatlar(mln t)*

Mamlakatlar	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Xitoy	7,838	7,512	7,403	7,620
Hindiston	4,736	5,062	5,334	5,280
Pokiston	2,341	2,264	2,308	2,243
Bangladesh	1,023	1,154	1,263	1,328
Vietnam	490	697	893	958
AQSh	762	773	778	751

*Manba: Amerika Qo‘shma Shtatlari Qishloq xo‘jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

41-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Xitoy eng ko‘p paxta iste’mol qiluvchi davlatdir. Yuqoridagi jadvali tahlil qiladigan bo‘lsak, bu davlat o‘zi etishtirgan paxtadan ham ko‘proq paxta ishlataladi. Bugungi kunda Bangladesh ham ko‘p miqdorda paxta import qilmoqda.

Moyli ekinlar. Moyli ekinlardan soya ekin maydoni eng ko‘p tarqalgan davlat AQSh, Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlaridir. Kungaboqar Sharqiy Yevropa, AQSh, Xitoy, Argentinada o‘stiriladi. Zaytun ko‘p yetishtiriladigan hudud O‘rta Yer dengizi hisoblanadi.

Soya yer sharida keng tarqalgan qadimiy ekinlardan hisoblanadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, soyaning vatani Osijoning Janubiy-Sharqiy hududlari hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida soya qadimdan oziq-ovqat ekinini sifatida ekib keligan.

42-jadval

Moyli urug‘ yetishtirish jahonda (2016-2017).

№	Nomi	Miqdori(mln tonna)	
		2016	2017
1	Soya	345.97	351.32
2	Raps	68.52	71.28
3	Eryong‘oq	42.28	42.8
4	Kungaboqar	45.36	43.05
5	Paxta urug‘i	38.18	39.13
6	Palma urug‘i	17.02	17.3
7	Kokos urug‘i	5.41	5.41

*Manba: Amerika Qo‘shma Shtatlari Qishloq xo‘jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

Soya Xitoyda bundan 6 ming yillar muqaddam ham ekilgan. Hindiston soyaning Xitoydan keyin keng tarqalgan ikkinchi vatanis hisoblanadi. Soya juda qadimdan Gang daryosi atrofidagi yerlarga ekilgan. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya, Koreya, Vietnam, Indoneziya kabi mamlakatlarda soyaning yovvoyi turlari uchramaydi, demak bu mamlakatlarga madaniylashgan soya savdosoti q natijasida tarqalgan. Keyingi 30 yil ichida soya ekiladigan maydonlar tezlik bilan ko‘payib bormoqda. AQShda birinchi marta soya o‘stirish bo‘yicha Pensilvaniya shtatida 1804-yilda tajribalar

olib borildi. 1909-yilda soya o'simligi 660 gektarga ekilgan bo'lsa, 1983-yilga kelib soya maydonlari 32 mln gektarga yetdi.

Soya hozirgi kunda AQSh dagi ekin maydonlarining 14 foizida yetishtiriladi. Hozirgi kunda AQSh da 100 dan ortiq soya navi ekilmoqda. Bu navlar ichida mahsuldarligi yuqori, jumladan, tarkibida 55 foiz oqsil saqlaydiganlari ham bor. Seleksionerlar qurg'oq chilikka chidamli, turli tuproq sharoitlarida o'sa oladigan, gerbitsid va pestitsidlarga moslashgan, tezpishar va kimyoviy tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori bo'lgan navlar yaratish sohasida ishlamoqda. Keyingi paytda yaratilgan navlar o'zlarining kasalliklarga chidamliligi, yo'qotib qo'ymasligi hamda gektaridan o'rtacha 35-40 sentner hosil berishi bilan avvalgi navlardan ustun turadi. AQSh hozirgi kunda jahon bozorida ishlab chiqilayotgan soya kunjarasining 95 foizini yetishtiradi. Chorvachilik rivojlangan sari soya kunjarasi va boshqa mahsulotlariga talab oshib bormoqda.

Yeryong'oqning vatani - Janubiy Amerikadir. Avval Fillipin orollariga, keyinchalik Yaponiya, Xitoy, Hindistonga keltirilgan. Yevropaga o'n oltinchi asrda Xitoydan keltirilgan, shuning uchun ham uni Xitoy yong'og'i deb atashgan.

43-jadval

2017-yilda jahonda yeryong'oq yetishtirish (eksport va import)

Ekport bo'yicha yetakchi davlatlar	Ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlar	Import bo'yich yetakchi davlatlar			
Xitoy	1000.00	Xitoy	17500.00	YEI	920.00
Hindiston	500.00	Hindiston	6500.00	Xitoy	350.00
AQSh	403.00	AQSh	3281.00	Indoneziya	310.00
Senegal	370.00	Nigeriya	3000.00	Vyetnam	250.00
Sudan	281.00	Senegal	1400.00	Meksika	230.00
Nigeriya	253.00	Sudan	1400.00	Rossiya	195.00
Tanzaniya	90.00	Myanma	1375.00	Kanada	172.00
Indoneziya	75.00	Argentina	1160.00	Yaponiya	115.00
Myanma	75.00	Indoneziya	1100.00	Filippin	105.000
Zambiya	72.00	Tanzaniya	800.00	Tailand	100.00

*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

~ 150 ~

Dunyo bo'yicha ekin maydoni 21,78 mln. ga ni tashkil etadi. Asosiy ekin maydonlari Indoneziya, Hindiston va Xitoyda joylashgan. Bizning mamlakatimizda 19 asrning boshlarida ekila boshlangan. O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'zbekistonda kam ekiladi va uning ekin maydoni 5-6 ming gektarni tashkil etadi. Hosildorligi 15-18 ts/ga. Sug'orib ekiladigan yerlarda 35-40 s /ga ni tashkil etadi.

Maxsar. Maxsar qimmatli moyli o'simlik hisoblanib, urug'ida 17-37 foiz yog' bo'ladi. Sifati bo'yicha kungaboqarga o'xshaydi. Oziq-ovqat va texnik maqsadlar uchun ishlatiladi. Maxsarning yog'i lak, bo'yoq ishlab chiqarish sanoatida ko'plab ishlatiladi. Maxsarning kunjarasi chorva-mollari uchun yem-xashak hisoblanadi. Maxsar pichanini tuyalar va mayda mollar xush ko'rib iste'mol qiladilar. Maxsarning vatani Afg'oniston. Hindistonda, Birlashgan Arab Amirligida, Eron, Markaziy va Janubiy Amerikada qadimdan ekib kelinadi. O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikistonda bahorikor yerlarda ekiladi.

Kunjut. Moyli o'simliklar ichida kunjut yog'ining miqdori bo'yicha ajralib turadi. Uning tarkibida eng ko'p 48-63 foiz yog', 16-17 foiz azotsiz moddalar, 16-19 foiz oqsil bo'ladi. U oziq-ovqat, qandolat, konserva sanoatida, tibbiyotda keng ishlatiladi. Kunjut moyi yuqori sifatli o'simlik moyi hisoblanadi va qandolat sanoatida, konserva, margarintayyorlashda hamda tabobatda ishlatiladi. Qobig'idan tozalangan va urug'i maydalangan kunjutdan yuqori navli xolva tayyorlanadi (taxin xolva). Kunjarasi esa chorvachilikda yuqori sifatli ozuqa hisoblanadi. Vatani Afrika. Markaziy Osiyoga Hindistondan keltirilgan. Dunyo bo'yicha 6,73 mln.ga yerga kunjut ekiladi.

Kartoshka - Janubiy Amerika mintaqasi uchun xos ildiz tiganakli o'simlik bo'lib, asosan mo'tadil iqlim mintaqalari uchun xos. Ma'lumotlarga ko'ra kartoshka aholining kam ta'minlangan qatlami uchun ko'proq xos bo'lgan qishloq xo'jalik ekini bo'lib, O'arbiy Yevropa davlatlarida mazkur ekin turi yem-xashak va texnik ekin sifatida qaraladi². 90-yillar boshlarida kartoshka yetishtiruvchi asosiy davlatlar qatoriga Rossiya, Polsha va Xitoy kirar edi.

² В.Н. Максаковский Географическая картина мира. Книга I. Общая характеристика мира. М.: Дрофа, 2008. — 1010c

Biroq keyinchalik mazkur davlatlar joylashuvida o'zgarishlar yuzaga keldi va Xitoy birinchi o'ringa chiqdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan kartoshka miqdoriga ko'ra Belorus va Polsha jahonda yetakchi o'rnlarni egallaydi. Yetakchi eksporterlar G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari sanaladi.

Qand lavlagi shakar olishda, shuningdek, yem-xashak ekini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy mintaqalari Yevropa va MDH davlatlari bo'lib, bugungi kunda ham asosiy rayonlar Sharqiy va G'arbiy Yevropa hisoblanadi.

Jahonda qand lavlagi yetishtirishda yetakchi davlatlar Ukraina va Rossiya hisoblangan. Biroq keyingi yillarda ushbu ko'rsatkichlar Ukrainada biroz kamaydi.

Shakarqamish - ko'p yillik o'simlik bo'lib, subtropik va tropik zonalarda yetishtiriluvchi, asli Janubiy Osiyo mintaqasi uchun xos bo'lgan ekin turi hisoblanadi. Shakarqamish plantatsiyalari Osiyo va Janubiy Amerika hududida joylashgan. Jahonda ishlab chiqariladigan shakar mahsulotining 3/5 qismi shakarqamish hissasiga to'g'ri keladi. XX asr o'talarida shakarqamish yetishtirishda yetakchilik qiluvchi asosiy mintaqalar Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari, uzoq yillar davomida jahon bo'yicha uni yetishtiruvchi asosiy davlatlar Hindiston, Kuba, Braziliya bo'lib qoldi, biroq so'nggi davrlarda Kubada mazkur ko'rsatkichlar birmuncha pasaygan.

Tamaki – Janubiy Amerika mo'tadil mintaqasining issiqsevar o'simligi bo'lib, bugungi kunda jahoning barcha hududlarida tarqalgan. Tamakichilikka ixtisoslashgan sanoat korxonalari va xalqaro savdoda jahoning ko'plab nufuzli kompaniyalari yetakchilik qiladi. Jumladan, «Filip Morris» (AQSh) jahoning yetakchi xalqaro kompaniyalaridan biri bo'lib, yetakchi "o'nlik" kompaniyalaridan biridir. Tamaki yetishtirish Osiyo qit'asida ham yaxshi rivojlangan bo'lib, jami dunyo hosilining 3/5 qismini beradi.

Tamaki ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar tarkibida Xitoy (2/5) AQSh, Braziliya, Hindiston, Turkiya singari davlatlar bo'lib, jami hosilning 3/5 qismini beradi. Tamakining eng muhim eksport qiluvchi davlat - AQSh hisoblanadi.

Tabiiy kauchuk ishlab chiqarish. Tabiiy kauchuk ishlab chiqarishda - Tailand, Indoneziya va Malayziya yetakchilik qiladi. Uning 9/10 qismi Osiyo, qolgan qismi Afrika va Janubiy Amerika

davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur soha qishloq xo'jaligida yangi soha bo'lib, uning rivoji XXI asrda yanada avj oldi.

Sabzavotchilik. Jahon bo'yicha sabzavot maxsulotlarining 67 foiz Osiyo qit'asi hissasiga, qolgan 14 foiz - Yevropa, 9 foiz - Shimoliy Amerika va 7 foizi - Afrika hissasiga to'g'ri keladi. Asosiy ishlab chiqaruvchi davlatlar orasida Xitoy (39 foiz jahon hosilini), Hindiston (9 foiz), AQSh (7 foiz), shuningdek, Turkiya, Italiya, Ispaniya va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi.

Bog'dorchilik. Qishloq xo'jaligidagi salmog'i yuqori bo'lmasada bog'lar jahoning ko'plab mintaqalarida keng yoyilgan. Mo'tadil mintaqalarda bog'dorchilikda olma (mahsulot hajmiga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi), nok, olcha, o'rik, shaftoli, olxo'ri, shuningdek uzum subtropik va tropik iqlimli mintaqalarda citrus mevalar jumladan, banan, ananas, kivi yetishtirishmuhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqalar bo'yicha tahlil qilinganda bog'larning katta qismi Osiyo qit'asi hissasiga to'g'ri keladi va jami yetishtirilayotgan hosilning 40 foizi ushbu mintaqqa hissasiga to'g'ri keladi. Meva yetishtiruvchi yetakchi davlatlar - Xitoy (12 foiz), Hindiston (10 foiz), Braziliya (8 foiz), AQSh (7,5 foiz) va Italiya sanaladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yer yuzida 7,7 mln ga ga yaqin hudud uzumzorlar bilan band. Asosiy uzum yetishtiruvchi rayon G'arbiy Yevropa mintaqasi bo'lib, jami hosilning deyarli yarmi uning hissasiga to'g'ri keladi. Masalan O'rta yer dengizi sohillarida dunyodagi eng yirik uzum yetishtiruvchi mintaqalar joylashgan bo'lib, ular aynan bu borada yetakchilik qiluvchi mamlakatlar jumladan, Italiya, Fransiya va Ispaniya singari vino ishlab chiqrishga ixtisoslashgan davlatlarga tegishli. Hozirgi kunda uzum yetishtiruvchi asosiy davlatlar quyidagilar: Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSh v.b. (44-jadval)

Sitrus mevalar (apelsin, mandarin, limon, greypfrut) yetishtirish asosan subtropik mintaqalar uchun xos bo'lib, bunda bir yillik hosil 100 mln t, shu jumladan apelsin yetishtirish 64 mln t. ni tashkil etadi. Apelsin yetishtiruvchi asosiy mintaqalar Janubiy (Braziliya) va Shimoliy Amerika (AQSh), shuningdek G'arbiy Yevropa (Ispaniya, Italiya) hududlari hisoblanadi. Greypfrut yetishtiruvchi asosiy davlat - AQSh bo'lsa, mandarin yetishtiruvchi asosiy davlatlar Yaponiya, Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi sanaladi.

Uzumzorlar maydoni bo'yicha yetakchi davlatlar.

No	Davlat nomi	Umumiyl maydoni, ming ga	Umumiyl yer maydoniga nisbatan % hisobida
1	Ispaniya	1082	2,165 %
2	Fransiya	825	1,51 %
3	Italiya	798	2,714 %
4	Turkiya	505	0,655 %
5	Xitoy	490	0,052 %
6	AQSh	404	0,144 %
7	Eron	300	0,183 %
8	Portugaliya	243	2,642 %
9	Argentina	228	0,083 %
10	Ruminiya	204	0,885 %
11	Chili	200	0,267 %
12	Australiya	170	0,022 %
13	Moldova	148	4,434,%
14	JAR	130	0,106 %

Banan – tropik Osiyoning issiqsevar o'simliklaridan biri bo'lib, uni yetishtiruvchi asosiy rayonlar: Osiyo (jami dunyo mahsulotining 2/5), Janubiy Amerika (1/4), shuningdek, Shimoliy Amerika (Markaziy Amerika bilan birqalikda) va Afrika. Banan yetishtiruvchi asosiy davlatlar-Hindiston, Braziliya, Ekvador, Filippin va Meksika.

Quvvat beruvchi o'simliklarga kofe, kakao, va choy kiradi. Ushbu ekinlar tropik va subtropik mintaqalarda yetishtiriladi. Juhon savdosida eksport hajmi va tannarxi bo'yicha birinchi o'rinda kofe, undan keyingi o'rnlarda kakao va choy turadi.

Kofe - tropik bo'ta o'simlik bo'lib, kelib chiqishi hozirgi Efiopiya hududi bilan bog'liq. Aslida Afrika qit'asiga tegishli ushbu o'simlik keyinchalik Lotin Amerikasining eng muhim madaniy o'simligiga aylangan. Bugungi kunda uni yetishtiruvchi asosiy mintaqalarda Janubiy va Markaziy Amerika yetakchi o'rinn egallaydi. Bunda eng oldingi o'rnlarni Braziliya (1/5) va Kolumbiya egallaydi. Shuningdek yetakchi hosil Indoneziya, Meksika, Vyetnam, Gvatemala va Keniya uchun xos. Kofe yuqori eksportbob mahsulot

sifatida ko'pchilikka ma'lum. Yetakchi eksporter davlatlar - Braziliya, Kolumbiya, Meksika, Indoneziya, Uganda, Gvatemala va Hindiston hisoblanadi. Asosiy import qiluvchi davlatlar – AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlaridir.

Kakao - kelib chiqishi Janubiy Amerika materigi uchun xos bo'lib, asosan, oziq-ovqat sanoatida, shokolad ishlab chiqarishda, shuningdek, kosmetikada foydalaniladi. Kakao plantatsiyalari XX asrning boshlarida Janubiy va Markaziy Amerikadan keltirilgan urug' va ko'chatlar hisobiga shakllandi. Shu asrning 70-yillarda jahon bo'yicha uning jami hosili kamaygan bo'lsada, biroq bu davrda mazkur mahsulotni yetishtirishda Osiyo qit'asining o'rni juda tez ko'tarildi.

Kakao yetishtirishda yetakchi mamlakat hamon Kot-d-Ivuar (jami hosilning 1/4), keyingi o'rnlarni Braziliya, Gana, Indoneziya va Malayziya egallaydi. So'nggi o'n yillikda Nigeriyaning o'rni ancha pasaygan. Kakao donalarining eksportbobligi juda yuqori bo'lib asosiy yetishtiruvchilar – yetakchi eksport qiluvchilar hamdir. Uni import qiluvchi yetakchi davlatlar: AQSh va G'arbiy Yevropa hisoblanadi.

Choy - subtropik va tropik zonalarning muhim madaniy o'simligi bo'lib, uning kelib chiqishi Janubiy-G'arbiy Xitoy hududi bilan bog'liq. So'nggi yarim asr davomida uni ishlab chiqarish 4 marta ortdi, unga ajratilgan yerlar 50% ga kengaydi. Eng muhim hisildorlik sezilarli tarzda o'sdi. (45-jadval)

45-jadval

Jahonda choy yetishtirish hajmi, mln.tonna.

No	Davlatlar	2016	2019
1	Xitoy	2.4	2.8
2	Hindiston	1.3	1.4
3	Keniya	0.5	0.46
4	Shri-Lanka	0.35	0.30
5	Turkiya	0.2	0.2
6	Vyetnam	0.25	0.27
Jahon bo'yicha		5.95	6.5

Manba: *Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

Uzoq yillar mobaynida choy qadoqlashda yetakchilik qiluvchi davlatlar sifatida: Xitoy (jahon mahsulotining 1/3 qismi), ikkinchi o'rinda Hindiston, uchinchi o'rinda Keniya, to'rtinchi o'rinda Shri-Lanka e'tirof etilmogda. Asosiy iste'molchilar Yevropa davlatlari (Buyuk Britaniya) va Shimoliy Amerika.

Gulchilik - Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa uchun xos tarmoq bo'lib, uzoq yillar mobaynida Yevropaning ko'pgina davlatlarida aholining anchagina qismi gulchilik bilan shug'ullangan, jumladan, niderlandlar (lola), bolgarlar (atirgul), fransuzlar(lavanda) va boshqa Osiyo davlatlari orasida Turkiya va Hindiston o'z gulchiligi bilan nom qozongan. Keyingi yillarda gulchilikning geografiyasini yanada kengayib bormoqda. Bunda Lotin Amerikasidagi Braziliya, Kolumbiya va Ekvador singari davlatlarning ulushi yuqori. Jumladan, Ekvadorning jahon gul bozoriga mahsulot yetkazib berish ulushi 9 foizni tashkil etadi. Ushbu davlatda eksport qilish uchun 60 ga yaqin gullar yetishtiriladi. Gullar asosan AQSh, Italiya, Kanada, Germaniya, Rossiya singari davlatlarga eksport qilinadi.

(Ilavadagi 22-rasmga qaralsin).

Kolumbiya gullarni eksport qilishda global bozor ulushining 15 foizini egallaydi. Mamlakatda kakao yetishtirishning (1991-yildan so'ng) kamayishi gulchilik rivojlanishiga turki bo'ldi.

Gollandiyaning global gul bozoridagi ulushi 52 foizni tashkil etadi. Mamlakat uzoq yillar mobaynida Yevropa gul bozorida asosiy o'rinni egallab kelmoqda. Uning hududida jahoning eng yirik gul bozori (Alsmeri shahri) ham joylashgan. Gulchilik 1970-yildan buyon mamlakatda rivojlanib kelmoqda.

So'nggi yillarda Kolumbiyaning "Global xrizantema" kompaniyasining asosiy faoliyat turlaridan biri gul va gul maxsulotlarini konteynerlarda tashish bilan bog'liq.(Ilavadagi 23-rasmga qaralsin).

7.3. Chorvachilik va uning hududiy tarkibi.

Chorvachilik - jahon qishloq xo'jaligida muhim o'rinni egallaydi. Mazkur tarmoqqa jami jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining 1/5 qismi to'g'ri keladi. Chorvachilik mahsulotining, shuningdek eksport hajmining asosiy qismi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Xonaki uy hayvonlari tarkibiga qoramollar, qo'y, echki, ot, tuyachilik, cho'chqachilik, lamalar va xachirlar, turli-tuman

qushlar, shuningdek, asalarilarni ham kiritish mumkin. Chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri ipakchilik va mo'ynachilik bo'lib, bunda (tulki, norka, sabol, shinshila, ondatra) turli mo'ynali hayvonlardan mo'yna olish ko'zda tutiladi.

Chorvachilikning muhim tarmoqlari qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, echkichilik va parrandachilik hisoblanadi. Ularning go'shti, suti, terisi, juni, tuxumi jahon bozorining eng sara mahsulotlari sanaladi. Ayniqsa ular orasida qoramolchilik muhim o'rinni egallasada, biroq uning salmog'i so'nggi yillarda biroz pasaygan. Shunday bo'lsada mahsulot hajmiga ko'ra qoramol va qo'y go'shti hamon yetakchi o'rinni egallasada, cho'chqa va parranda go'shtiga talab bugungi kunda birmuncha ortgan.

Qoramolchilik. Hozirgi kunda Osiy mamlakatlari jahon bo'yicha yetishtiriladigan go'shtning 2/5, sutning 1/6 qismini yetkazib beradi. Yirik sut ishlab chiqaruvchi mintaqasi sifatida G'arbiy Yevropa muhim o'rinni egallaydi (jahon bo'yicha jami mahsulotning 1/4, go'shtning 1/6 qismi to'g'ri keladi). Uchinchi o'rinda Shimoliy Amerika mintaqasi egallaydi va jami sut va go'shtning 1/5qismini uning hissasiga to'g'ri keladi.

Sut ishlab chiqarishda ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh, sobiq Ittifoq va Hindiston yetakchilik qilgan bo'lsada, 90-yillarda ular o'z o'rnini Germaniya, Daniya, Fransiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniyaga bo'shatib berdi. Sharqiy Yevropa davlatlari orasida esa Polsha va Ukraina, Janubiy Amerikada Braziliya mazkur soha yetakchilari hisoblanadi.

Sut ishlab chiqarishda zamonaviy mexanizatsiyalashgan texnologiyalarni joriy etilishi bilan ishlab chiqarishda birmuncha yuqori ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi. Bu xususda yirik kompaniya va konsernlar faoliyati shakllandi. Jumladan, bu borada Shveysariyaning mashhur «Nestle» kompaniyasini misol keltirish mumkin.

46-jadval

Yirik shohli qoramollar soni bo'yicha yetakchi davlatlar.

Nº	Davlat nomi	Soni
1	Braziliya	218 225 177
2	Hindiston	185 987 136
3	AQSh	91 918 000
4	Xitoy	84 374 700
5	Efiopiya	59 486 667
6	Argentina	52 636 778
7	Pokiston	42 800 000
8	Meksika	33 918 906
9	Sudan	30 559 650
10	Tanzaniya	27 015 712

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan go'sht mahsuloti hajmiga ko'ra yetakchilik qiluvchi davlatlar quyidagilar: AQSh, Fransiya, Kanada, shuningdek, sut mahsuloti hajmiga ko'ra esa: Niderlandiya, Belorus, Fransiya yetakchilik qiladi.

Cho'chqachilik. Jahonda yetakchi mamlakat sifatida Xitoy muhim o'rinni egallaydi va 47 % cho'chqachilik mazkur davlatda jamlangan. Shuningdek, AQSh, Rossiya, Lotin Amerikasida joylashgan Braziliya, Meksika, Yevropaning Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Polsha singari davlatlari ushbu soha bo'yicha yetakchilik qiladi.

Qo'ychilik. Jahan bo'yicha qo'ychilik rivojlangan hududlar: O'zbekistan, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston, Ukraina, JAR. Oxirgi 50 yil mobaynida Avstraliya qo'ychilik bo'yicha yetakchi o'rinda turmoqda va bunda u jahonda yetishtiriladigan junning 1/4 qismi uning hissasiga to'g'ri keladi. Yangi Zellandiya ikkinchi o'rinda, keyingi o'rinda Xitoy turadi. Shuningdek Lotin Amerikasi davlatlaridan Argentina, Urugvay, Yevropa davlatlari orasida Buyuk Britaniya, Ispaniya, Osiyo davlatlaridan Qozog'iston, Turkiya, Pokiston, Eron yetakchi o'rinni egallayli. 47-jadval

Echkichilik rivojlanayotgan davlatlarda ayniqsa Osiyo va Afrika qit'asi davlatlarida yaxshi rivojlangan. Echkilar soni jahonda 700 mln boshni tashkil etadi. Ularning katta qismi Xitoy va

Hindiston hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Afrika davlatlari orasida Somali, Sudan, Efiopiya, Nigeriya, Osiyo da joylashgan Bangladesh, Pokiston, Eron singari davlatlarda ularning salmog'i yuqori. Deyarli barcha davlatlarda echkichilikda ularning junlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa angor echkilari yetishtirish ko'pchilik davlatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Rivojlangan davlatlar orasida AQSh, rivojlanayotgan davlatlarda Turkiya angor echkilari yetishtirish bo'yicha oldingi o'rinni egallaydi.

Parrandachilik. Ushbu soha XX asrning ikkinchi yarmida jadal rivojlandi. Dastavval, mazkur soha bo'yicha yetakchi davlatlar sifatida AQSh va Fransiya oldingi o'rirlarni egallagan.

47-jadval

Qo'yalar soni bo'yicha yetakchi davlatlar.

Nº	Davlat nomi	Soni
1	Xitoy	162 062 500
2	Avstraliya	67 543 092
3	Hindiston	63 016 181
4	Eron	42 501 987
5	Nigeriya	42 091 042
6	Sudan	40 552 860
7	Buyuk Britaniya	33 943 000
8	Turkiya	31 507 934
9	Efiopiya	30 697 942
10	Pakistan	29 800 000
11	Jazoir	28 135 986
12	Mug'iliston	27 856 603
13	Yangi Zelandiya	27 583 673
14	JAR	23 287 247
15	Rossiya	22 713 048

Parrandalar (tovuq) soniga ko'ra Osiyo, Yevropa, Shimoliy Amerika davlatlari yetakchilik qiladi. Bugungi kunda ularning hajmiga ko'ra Xitoy (3,1 mlrd), AQSh, Braziliya, Indoneziya singari davlatlar yetakchi o'rinni egallaydi.

Baliqchilik. Bu tarmoqda jahon bo'yicha taxminan 130-140 mln. kishi band bo'lib, yillik daromad o'n milliard dollardan ortiqroqni tashkil etadi. Jahon flotida 50 mln tonna baliq tashiladi. Jahonning

asosiy baliq ovlanadigan mintaqalarida ovlanadigan baliq miqdori tahlil qilinsa, ularni quyidagicha taqsimlash mumkin: Osiyo - 50%, Lotin Amerikasi - 19, Yevropa - 13, Afrika - 7, Shimoliy Amerika - 6, MDH- 4 va Avstraliya Okeaniya bilan birga - 1%ni tashkil etadi.³

Nazorat uchun savollar:

1. ASM nima?
2. Qand lavlagi qaysi davlatlarda yaxshi rivojlangan?
3. Shakarqamishqaysi davlatlarda yaxshi rivojlangan?
4. Baliqchilikda jahon bo'yicha taxminan qancha mln. kishi band?
5. Parrandalar (tovuq) soniga ko'ra qaysi davlatlar yetakchi?
6. Markaziy Osiyoda qaysi davlatlarda qoraqo'lchilik rivojlangan?
7. Juhon bo'yicha qorako'lchilik rivojlangan hududlar qaysilar?
8. Sut ishlab chiqarishdaqaysi davlatlar yetakchi?
9. Pishloq ishlab chiqarishdaqaysi davlatlar yetakchi?
10. Avstraliya qancha qo'y va echkilar bor?
11. Tabiiy kauchuk ishlab chiqarish qaysi mintaqalarda rivojlangan?
12. Kofe ishlab chiqarish qaysi mintaqalarda rivojlangan?
13. FAO qanday tashkilot?
14. Dunyoda yirik paxta iste'mol qiluvchi mamlakatlar qaysilar?
15. Dunyoda yirik paxta eksport qiluvchi mamlakatlar qaysilar?
16. Dunyoda yirik doneksportqiluvchi mamlakatlar qaysilar?

³В. П. Максаковский Географическая картина мира. Книга I. Общая характеристика мира. М.: Дрофа, 2008. — 1010с

8. JAHON TRANSPORT GEOGRAFIYASI

Tayanch tusunchalar: Transport, aloqa, xalqaro va ichki transport yo'llari, jahon transport tizimi, logistika markazlari, poezdlar, tankerlar, port shaharlar.

8.1. Transport tizimining xalq xo'jaligida tutgan o'rni

Transport (transport so'zi lotincha "transport" so'zi - tashimoq, tashiyman ma'nolarini anglatadi) ijtimoiy moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida, yuklarni va yo'lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltish, mamlakatlararo, mamlakat ichidagi ayrboshlash va aloqani taminlaydi. Transport - geografik mehnat taqsimotida muhim o'rIN egallovchi, sanoat va qishloq xo'jaligini bog'lovchi, uchinchi asosiy tarmoqdir. Transport tizimini yuqori darajada rivojlanishi - ishlab chiqarish taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Iqtisodiyotni transportsiz rivojlanirish mumkin emas. Transport sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini, jahonning turli hududlari o'rtasidagi mahsulot almashishni, uning tashqi savdosini ta'minlaydi. Yangi hududlarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Hozigi zamon shaharlari rivojini ham transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transportning mudofaa ahamiyati ham juda kattadir.

Mamlakatlar o'rtasida tashqi savdoning o'sishi dengiz kemachi-lining rivojlanishiga turtki berdi. Avtotransport XIX asrning oxirida paydo bo'ldi, XX asrning yigirmanchi yillarda qisqa masofaga yuk va yo'lovchilar tashishni amalga oshirib, temir yo'l va daryo transporti bilan raqobat qila boshladi. Fuqaro havo transporti XX asrning ikkinchi choragida vujudga keldi.

XX asrda jahon transporti tizimi juda tez rivojlandi. Rivojlangan mamlakatlar transport tizimlarining barcha transport turlari (AQSh, Kanada) yoki ayrim transport turlari (G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya)ning yuksak darajada rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

Transport iqtisodiyotga xizmat qilish bilan birga, ko'p miqdorda elektr energiya, yoqilg'i, metall, yog'och talab etadi. Transport majmuasi quruqlik (temir yo'l, avtomobil transporti), suv (dengiz va daryo), havo, elektron (elektr uzatish liniyalari), quvur transport-

lariga bo'linadi.

Transportning ishi haqida uning yuk aylanmasiga qarab fikr yuritish mumkin. Yuk aylanmasi tonna-kilometr hisobida o'chanadi. Yuk aylanmasi ma'lum vaqtida ma'lum masofaga tashilgan yuk miqdoridir.

Jahon transport tizimi yuk va yo'lovchi tashishda muhim o'rinnegalovchi xizmat ko'rsatish sohasining muhim tarmog'i. Uning tizimiga yana quyidagi ob'ektlarni kiritish mumkin.

- kanallar, temir yo'l va avtomobil yo'llari, suv quvurlari infratuzilmasi;
- aeroportlar, daryo va dengiz portlari, avtobus va temir yo'l stansiyalari terminallari.

Jahon transport tizimi - transport vositalari va kompaniyalari, shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi aloqa yo'llari majmuasinini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda transport tarmog'ida qariyib 100 mln ga yaqin kishi band bo'lib, yo'llarning umumiyligi 35 million kilometrga yaqin (dengiz yo'llarini hisobga olmaganda). Har yili 1 trillion kishidan ortiq yo'lovchilar va 100 milliard tonnadan ziyod yuklar tashiladi.

Jahon transport tizimining muhim ko'rsatkichlaridan biri – bu xabarlar zichligi ya'ni qalinligidir. Uning o'chovi aholiga xizmat qiluvchi hududlar maydonining ko'lami, umumiyligi yuk hajmi kabi ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

Har bir transport turining o'ziga xos ishlash mezonlari mavjud. Bunda:⁴

- yuk hajmi. Bu ko'rsatkich tashiladigan yukning hajmi va uni qanday transport turi orqali tashish o'rinni ekaligini anglatadi.

- yuk aylanmasi. Yuk aylanmasining o'chov birligi - tonna-kilometr (quruqlik transporti uchun) yoki tonna-mil (havo aloqalarida);

- transport turlari va yuk tashilish jarayoniga munosabat
- yo'lovchi aylanmasi
- transport sig'imi
- yuk oqimi

Jahon transport tizimlarini tahlil etishda avvalo quyidagi omillarga asosiy e'tiborni qaratish zarur:

⁴Максаковский В.П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. В 2-х частях. Ч.2., М.: Гуманит. издат. Центр ВЛАДОС, 2009. 525 с., с. 349

- mamlakat yoki mintaqaning transport salohiyati;
- transport rivojlanishining iqtisodiy mezoni;
- Mamlakatlar yoki alohida mintaqalarda transport turlariga munosabatning turlicha ekanligi. Jumladan sanoatlashgan davlatlarda transportning barcha turlaridan o'z o'rnida unumli foydalaniadi. Ayniqsa, bugungi kunning eng zamonaviy transport turi hisoblangan elektron transportning o'rni niroyatda katta. Transport infratuzilmasi yuksak rivojlangan ayrim ilg'or davlatlarda (Yaponiya, AQSh, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya) bu hol yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Aynan jahon ichki transportida tashiladigan yuk aylanmasining 85 (uzoq masofaga qatnovchi dengiz transportisiz) foizi ana shu davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek G'arbiy Yevropa davlatlarida yuk aylanmasining 25 foizi temir yo'l transportiga, 40 foizi avtomobil, 35 foizi ichki suv transporti orqali amalga oshiriladi.

Rivojlangan davlatlarda jahon avtomobil parklarining 4/5, Xalqaro yuk aylanmasining $\frac{3}{4}$ qismini o'zida mujassamlashtirgan, portlarning 2/3 qismi to'plangan. Rivojlangan davlatlarda yuk aylanmasi tarkibida avtomobiltransporti 40 foiz, temir yo'l 25foiz, boshqa transport turlariga 35 foizi⁵ boshqa transport turlariga to'g'ri keladi.

8.2. Quriqlik transporti va uning turlari

Xalqaro temir yo'l transporti. Birinchi temir yo'l transporti 1830-yilda Angliyada Liverpul - Manchester yo'nalishida, xuddi shu yili AQShning Charlston va Ogasta shaharlarda temir yo'l qurilgan. 1833-yilda Fransiyada, 1835-yilda Germaniya va Belgiyada qurilgan. Rossiyada esa Peterburg – Sarskoe Selo (26 km) hududlarini tutashtiruvchi temir yo'l 1837-yilda qurib ishga tushirilgan.

Temir yo'l transporti - bugungi kunda ayniqsa yuk tashishda juda muhim transport turi sifatida o'rinni egallaydi. 50 foizga yaqin jahon temir yo'llarining uzunligi 10 mamlakat hissasiga to'g'ri keladi. Bular: AQSh, Rossiya, Hindiston, Kanada, Xitoy va b.

⁵Максаковский В.П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. В 2-х частях. Ч.2., М.: Гуманит. издат. Центр ВЛАДОС, 2009. 525 с., с. 352

Temir yo'llar zichligi bo'yicha G'arbiy Yevropa jahonda yetakchi o'rinni egallaydi⁶.

Ayniqsa temir yo'llarning elektrlashganlik holati bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni temir yo'l transportining rivojlanganlik darajasini ularning elektrlashtirilgan va yangi texnika (havo yostig'i, magnit va elektrodinamika) vositalaridan foydalana olish imkoniyatlari ham belgilaydi. G'arbiy Yevropa, Yaponiya, AQSh da temir yo'llar FTTning so'nggi yutuqlari asosida qurilgan. Fransiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya singari davlatlarda poyezdlar tezligi juda yuqori. Hindiston, ayrim Afrika mamlakatlarida esa haligacha paravozlar xizmatidan foydalanib kelinadi.

48-jadval

Jahon temir yo'llar uzunligi bo'yicha yetakchi davlatlar.

Nº	Davlat	Uzunligi km hisobida
1	AQSh	149 407
2	Xitoy	146 300
3	Rossiya	85 600
4	Hindiston	67 956
5	Kanada	64 000
6	Germaniya	40 625
7	Argentina	36 966
8	Avstraliya	33 168
9	Braziliya	29 817
10	Fransiya	29 273
	Jami jahonda	1 370 782

Temir yo'l transporti quruqlikda yuk tashish hajmiga ko'ra eng yirik tarmoqdir. Bunda uning salmog'i rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, yuqoridir. Hozirgi vaqtida jahon temir yo'llarning umumiy uzunligi 1,3 mln.km.ni tashkil qiladi. Ammo temir yo'llar jahon mamlakatlarining bor-yo'g'i 140 tasida mavjud bo'lib, yo'llar umumiy uzunligining deyarli yarmi AQSh, Rossiya, Hindiston, Kanada, Xitoy, Germaniya, Argentina, Avstraliya, Fransiya, Braziliya singari davlatlar to'g'ri keladi.

⁶ В.П. Максаковский Географическая картина мира. Книга I. Общая характеристика мира. М.: Дрофа, 2008. — 1010с, с. 663

Jahon avtomobil transporti – transport tarmoqlari orasida eng samarali tadrijiy o'sib borayotgan tarmoqdir. XX asrboshlaridan paydo bo'lgan bu transport hozirgi paytda jahonning barcha mamlakatlarida eng ommaviy harakat vositasi bo'lib qoldi. Uning muhim jihat-yuklarni manzilning o'ziga "eshikdan eshikka"cha yetkazib berishdir. Shahar ichkarisida va shahar atrofida yo'lovchi tashishda yetakchi o'rinni egallaydi. Avtomobil yo'llarining uzunligi bo'yicha AQSh, Rossiya, Hindiston, zichligi bo'yicha Yevropa qit'asi va Yaponiya yetakchilik qiladi (49-jadval).

49-jadval

Jahon avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi.

Nº	Davlat nomi	Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi, km	Avtomagistrallar uzunligi, km
1	AQSh	7 149 946	77960
2	Hindiston	5 903 293	1642
3	Xitoy	5 012 500	149600
4	Braziliya	1 751 868	11018
5	Rossiya	1 553 663	1680
6	Yaponiya	1 279 652	9429
7	Fransiya	1 090 222	11882
8	Kanada	1 042 300	6350
9	Avstraliya	873 573	3132
10	JAR	750 014	1927

AQSh va Kanadada temir yo'l va avtomobil transportida yuk tashish deyarli tenglashdi. Sharqiy Yevropa va MDH davlatlarida yuk tashishda ilgarigidek temir yo'l transporti yetakchilik qilsada, biroq avtomobil transportining ahamiyati ham tobora ortib bormoqda.

Avtomobil yo'llari uzunligi hozir 24,5 mln. km.ni tashkil qiladi. Uning ½ qismidan ko'prog'i AQSh, shuningdek Hindiston, Yaponiya, Xitoy va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. Jahonda 1 mld. dan ziyod turli avtomabillar bo'lib, ularning 4/5 qismi rivojlangan mamlakati hissasiga to'g'ri keladi. Birgina AQSh da dunyo avtomobillarining 30 foizi dan ortiqroq qismi harakat qilmoqda.

Jahon quvur transporti – neft va tabiiy gazga bo'lgan talabning ortishi va ulardan foydalanishning ortishi bilan juda tez

rivojlanmoqda. Bugungi kunda jahon bo'yicha neft quvurlarining uzunligi 400 ming km.(magistral gaz quvurlarining uzunligi undan ham ortiqroq bo'lib, 900 ming km ni tashkil qiladi.) Quvurlar orqali mahsulot tashish tannarxi temir yo'ldagiga nisbatan ancha past bo'lib, ular mahsulotni mutazam holatda yetkazishi bilan birga atrof-muhitni kam ifloslantirishi bilan ham ajralib turadi⁷. Quvur transportitarixi ham xuddi neft va tabiiy gaz sanoati singari XIX asrning o'rtalarida vujudga keldi. Dastlabki neft quvurining uzunligi 6 km bo'lib, 1865-yilda AQShda qurilgan. Shundan o'n yil o'tib sanoat markazlaridan biri bo'lgan Pensilvaniya shtati markazi Pitssburgda uzunligi 100 kmli neft quvuri ishga tushirilgan. Shuningdek, Lotin Amerikasida birinchi neft quvuri faqatgina 1926-yilda Kolumbiyada, Osiyo qit'asida (Eronda)1934-yilda, Yevropada (Fransiya) 1948-yilda, Rossiyada esa Boku va Batumi shaharlarini bog'lovchi neft quvurlari 1907-yilda ishga tushirilgan edi. Tabiiy gaz quvurlari esa ikkinchi jahon urushidan so'ng yo'lga qo'yildi.

Shimoliy Amerikada quvurlar asosan mintaqaning sharqiy qismida joylashgan neft va gaz qazib chiqaruvchi markazlarda qurilgan. G'arbiy Yevropada dengiz portlari va sanoat markazlari yaqinida qurilgan.

Rossiyaning Yevropa qismida ayniqsa G'arbiy Sibir va Volgabo'yи hududida neft va gaz quvurlari ancha zinch joylashgan. «Do'stlik» neft quvurining uzunligi 5,5 ming km, Urengoy-G'arbiy Yevropa gaz quvurining uzunligi 4,5 ming km⁸.

Umuman olganda quvur transporti ayniqsa jahonning neft va tabiiy gaz ko'p miqdorda qazib chiqariladiganva ularni iste'mol qiladigan mamlakatlarda rivojlangan. Jahon neft va gaz quvurlarining umumiy uzunligi yildan-yilga oshib bormoqda. Asosiy neft quvurlari tarmog'i neft qazib chiqaruvchi va uni iste'mol qiluvchi yirik davlatlar (AQSh, Sobiq Ittifoq mamlakatlari, Kanada, Xitoy va boshqalar)da, eksport qiluvchi (Saudiya Arabiston, Iroq, Eron, Jozoir, Liviya, Meksika, Venesuela) va iste'mol qiluvchi (Fransiya) mamlakatlarida mavjud. Asosiy gaz quvurlari tizimi esa deyarli

⁷В.П. Максаковский Географическая картина мира. Книга I. Общая характеристика мира. М.: Дрофа, 2008. — 1010с, с. 675

⁸Харламова Ю.А. Мировая транспортная система: Учебное пособие. -М.: МИИТ, 2014. - 125 с.

faqat rivojlangan mamlakatlarda tashkil topgan. Ular AQSh, MDH mamlakatlari, Germaniya, Kanada, Niderlandiya va boshqa davlatlar.

8.3. Suv, havo transporti va boshqa transport turlari

Jahon suv transporti. Transport turlari orasida eng arzon transport turi dengiz transporti hisoblanadi. U davlatlararo yuk tashish hajmida 75 foiz mahsulot aynan dengiz transporti orqali tashiladi. Yuk hajmi bo'yicha Atlantika okeani yetakchi o'rinni egallaydi.

Suv transporti dengiz va daryo transporti tarmoqlarini o'zida birlashtiradi. Dengiz transporti jahon transport tizimida alohida o'rinni tutadi. Bu tarmoq avvalo bir-birlaridan alohida va uzoqda joylashgan materik va qit'alarni bog'lab turuvchi, xalqaro mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi vosita sifatida ahamiyatli. Shuningdek, asosan dengiz transporti minglab tonna yukni uzoq masofalarga tashish imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun boshqa transport tarmoqlariga nisbatan xizmat tannarxi arzonga tushadi. Har yili barcha xalqaro yuklarning o'rtacha 3/5 qismi dengiz transportida tashilmoqda.

Asosiy dengiz yo'llari turli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va ularni iste'mol qiluvchi davlatlar o'rtasida tashkil qilingan. Odatda, Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyo, Avstraliyadan turli sanoat va qishloq xo'jalik xom-ashyolari, asosan Yevropa, Yaponiya, Shimoliy Amerika mamlakatlariga, ulardan esa aholi va xalq xo'jaligi uchun turli iste'mol mahsulotlari dunyoning barcha iste'molchi hududlariga yetkazib beriladi.

Jahon dengiz transporti rivojlanishi va geografiyasida dengiz bo'g'izlari va xalqaro kanallarning ham ahamiyati katta. Aynan ular jahon degiz yo'llarining eng serqatnov chorrahalarini hisoblanadi.

Dengiz bo'g'izlari orasida eng yirigi La-Mansh bo'g'izidir. U orqali bir kecha-kunduzda 500 gacha kema o'tadi. Keyingi o'rinnlarda turuvchi bo'g'izlar: Eresun (Zond) - 175 ta, Gibraltar - 200 ta, Xormuz - 100 ta, Malakka - 80 ta, Bosfor - 40 tagacha kema o'tkazadi.

Iehki suv (daryo va ko'l) transport tarmoqlari bajaradigan ish hajmiga ko'ra ancha kichik tarmoqlardandir. Daryo va ko'l transport yo'llari uzunligiga ko'ra jahonda Rossiya, Xitoy, AQSh, Braziliya davlatlari oldinda turadi. Ammo mavjud imkoniyatlardan foydalanish

davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shu sababli, hozirgi vaqtida ichki suv yo‘llari orqali yuk tashishda AQSh, Rossiya, Kanada davlatlari yetakchilik qilmoqda.

Ichki suv transportidan foydalanishda jahoning yirik daryolarining ahamiyati kattadir. Bunday daryolar qatoriga Amazonka, Missisipi, Dunay, Volga, Yanszi, Kongo va boshqalar kiradi. YuNKTAD ma‘lumotlariga ko‘ra, xalqaro savdo floti orqali 850mln t.ga yaqin yuklar tashiladi. Jahonflotida konteyner tashuvchi kemalar soni 3 mingga yaqin.

Jahoning eng yirik portlariga (yuk hajmiga ko‘ra) quyidagilar kiradi: Rotterdam (Niderlandiya), Singapur, Shanxay (Xitoy), Nagoya, Tokio-Iokogama (Yaponiya), YangiOrlean, Nyu-York, Filadelfiya, San-Fransisko (AQSh), Antverpen (Belgiya), Gavr, Marsel (Fransiya), Londonva boshqalar.

Daryo transportiga daryo, ko‘l, kanallar va boshqa suv yo‘llari kiradi. Jahoning yirik kema qatnovi yo‘lga qo‘yilgan kanal va daryo transportiga quyidagilar kiradi:

Qirg‘oqbo‘yi kanali (AQSh), Buyuk kanal (Xitoy), Volgo-Kama suv yo‘li (Rossiya), Yevropadagi Reyn — Mayn — Dunay suv yo‘li va h. Eng yirik daryo va ko‘l flotiga ega davlat AQSh hisoblanadi. Ichki suv transportida yuk tashish hajmiga ko‘ra Xitoy, Rossiya, Germaniya va Kanada yetakchi o‘rin egallaydi. Jahon havo transporti. Havo transporti barcha transport tarmoqlari orasida alohida xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Boshqa transport tarmoqlaridan uning ustunligi yuk va yo‘lovchilarni uzoq masofalarga juda qisqa vaqt davomida yetkazib qo‘yishdir. Shu sababli ham uning ahamiyati doimo oshib bormoqda. Jahon bo‘yicha yo‘lovchilar tashish hajmi so‘nggi 40 yil ichida 60 baravarga yaqin o‘sdi. Havo transportida tashilayotgan yuk va yo‘lovchilarning 45 foizi ichki va 55 foizi xalqaro aloqalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Xalqaro aloqalar so‘nggi davrlarda, ayniqsa, Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlari o‘rtasida faol kechmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra Atlantika okeani ustida bir vaqtning o‘zida yuzdan ortiq havo laynerlari har ikki tomona qarab harakatda bo‘ladi.

Havo transporti eng yosh va harakatdagi transport bo‘lib, qit’alararo yo‘lovchilar tashishda eng oldingi o‘rinda turadi. Yirik havo parklari AQShda to‘plangan, shuningdek Fransiya, Avstraliya,

Germaniya bu borada yetakchilik qiladi. Xalqaro havo aloqalarida mingdan ortiq aeroportlar ishtirok etadi (shundan, 400 ga yaqini Yevropa qit’asi hissasiga to‘g‘ri keladi).

Jahonning yirik aeroportlari quyidagilar:

- AQSh da - Chikago, Dallas, Los-Andjeles, Atlanta, Nyu-York (Kennedi), San-Fransisko;
- Buyuk Britaniyada - London (Xitrou);
- Yaponiyada - Tokio;
- Germaniyada – Frankfurt Mayn;
- Fransiyada - Parij va b.(50- jadval)

50-jadval

Jahonning yirik aeroportlari

Nº	Aeroport nomi	Joyleshgan shahari	Joyleshgan davlat	Yo‘lovchilar soni
1	Atlanta Xartsfild Jekson	Atlanta	AQSh	101 000 000
2	Pekin poytaxt aeroporti	Pekin	Xitoy	90 000 000
3	Dubay xalqaro aeroporti	Dubay	BAA	78 000 000
4	O‘Xara aeroporti	Chikago	AQSh	77 000 000
5	Tokio xalqaro aeroporti	Tokio	Yaponiya	75 000 000
6	Xitrou aeroporti	London	Buyuk Britaniya	74 900 000

Nazorat savollari:

1. Aytingchi, zamonaviy transport vositalari qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
2. So‘nggi yillarda dengiz transporti bilan bog‘liq qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
3. Zamonaviy transport vositalari orasida elektron transportning tutgan o‘rniga baho bering.
4. Xalqaro yuklarni tashishda qaysi transport turidan keng foydalilanadi?

5. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda zamonaviy transport vositalari orasida qaysi turlari tez su'ratlar bilan rivojlandi?
6. Dengiz transporti boshqa transport tarmoqlaridan qanday xususiyatlariga ko'ra farq qiladi?
7. Dengiz savdo floti tonnaji haqida nimalarni bilasiz?
8. Daryo suv transporti rivojlanishining mintaqaviy tafovvtulariga baho bering.
9. O'zbekiston dengiz portlariga chiqish imkoniyatini beruvchi qanday xalqaro transport loyihamalarida ishtirok etmoqda?
- 10.“Running g'arbiy darvozasi” deb qaysi portga aytildi?
11. Jahon xo'jaligidattransportningroli qanday?
12. Transport moddiy ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridan nimasi bilan farq qiladi?
13. Jahonda yuk va yo'lovchi tashishda transportning qaysi turi yetakchilik qiladi?
14. Temir yo'llarning zichligi jahoning qaysi hududida yuqori?
15. Logistika markazlari qanday vazifalarni bajaradi?
16. Jahondagi eng yirik aeroportlar qaysilar?

9.JAHON XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI GEOGRAFIYASI

Tayanch tusunchalar: Xizmat ko'rsatish, nomoddiy ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish, turizm xizmati, moliya xizmati, innovatsiya xizmati, internet xizmati, xalqaro savdo.

9.1. Xizmat ko'satish sohasining iqtisodiyotdagi o'rni.

Xizmat sohasi so'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari orasida eng istiqbolli tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilayotganligi barchamizga ma'lum. U hozirgi kunda ko'plab davlatlar milliy iqtisodiyotining asosiy tarmog'i sifatida YAMMning katta qismini yaratib, jahon mehnat ressulalarining deyarli 2/3 qismining bandligini ta'minlab bermoqda. Aholiga xizmat ko'rsatish so'ngi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari orasida eng istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoxda. Shu sababli hozirgi kunda rivojlangan hamda taraqqiy etayotgan davlatlar milliy iqtisodiyotida nomoddiy ishlab chiqatishning mazkur yo'nalish sohalari tezlik bilan rivojlanib bormoqda.

U jahon iqtisodiyoti tarmoqlari orasida aholiga xizmatlar taklif etish va ishlab chiqarish maqsadida shakllantirilgan faoliyat turlari hamda xo'jalik tarmoqlarning jamlanmasi sifatida ajralib turadi. Uning asosiy mahsuloti bo'lgan xizmatlar aynan uni yaratuvchi qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib taklif etiladi. Ma'naviy yoki moddiy xususiyatga ega bo'lgan tijoriy savdo ob'ektlaridan biri bo'lgan xizmatlar bahosi uni taklif etilayotgan vaqt xususiyatlari hamda imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jahon mintaqalari va davlatlarida rivojlanishi taxlil qilinganda bir-biridan farq qiluvchi hududiy tafovvtular ko'zga tashlanadi. Rivojlangan davlatlar xizmat ko'rsatish tarmoqlari ular tomonidan yaratilgan YaMMning katta qismini bersa, bu holat aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda moddiy soha tarmoqlari ulushi yuqori bo'ladi. Masalan, Yaponiyada bu ko'rsatish 76%ga yaqin miqdorni tashkil etsa, Tanzaniyada 46%lik ko'rinish qayd etiladi. Bunday qarama-qarishi holatlar bir qator omillar ta'sirida yuzaga keladi. Bular quyidagilar:

- ✓ *Tabiiy sharoit omili*
- ✓ *Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darjasи*
- ✓ *Hududning iqtisodiy o'zlashtirilganlik darjasи*
- ✓ *Milliy hamda diniy omillar*
- ✓ *Demografik omil;*
- ✓ *Transport tarmoqlari bilan ta'minlanish holati va b.*

Har bir hududga xos tabiiy sharoit uning geografik o'rni, rel'efi, iqlimi tabiiy resurslari asosida shakllanishi barchamizga ma'lum. Ular ko'plab xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy joylashuvida katta ahamiyatga ega. Uy-joy kommunal xizmati, tibbiy xizmat, turizm, xatto-ki umumiyligi ovqatlanish va savdo xizmatlari rivoji bevosita ushbu omil ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ushbu omil soha tarmoqlari taraqqiyotida katta ijobiy ahamiyatga egaligi bilan bir qatorda yechimi qo'shimcha moddiy mablag' talab qiluvchi masalalarini ham yuzaga keltiradi. SHimoliy kengliklarga xos iqlim ko'rsatkichlari bu yerlarda uy-joy communal xizmati tomonidan markazlashgan xolda ko'rsatiladigan isitish mavsumini uzoq vaqt davom etishiga sabab bo'lsa, tabiiy sharoiti noqulay xududlarda yuzaga keluvchi mahalliy xususiyatga ega kasalliklarning mavjudligi tibbiy xizmat faoliyatida kasbiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Ilmiy manbaalarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot har qanday ishlab chiqarish tarmoqlari rivojida katta ta'sirga ega bo'lgan omil sifatida tadqiq qilinadi. Uning xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy joylashuvi va rivojlanishida ham ahamiyati katta. Iqtisodiyu yuqori darajada taraqqiy etgan davlatlarda ushbu soha tarmoqlarining barcha turlari mavjud bo'lib, ularda ko'rsatiladigan xizmatlar sifati yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, xizmat bahosi unga bo'lgan miqdoriy va sifatiy talab asosida yuzaga keladi. Aholi orasida daromad miqdori yuqori bo'lgan ushbu davlatlarda xizmatlarga bo'lgan talab asosida uchlamchi sektor tarmoqlarining rivoji tez sur'atlar bilan amalga oshadi. Shu bilan birga ularda fan-texnika taraqqiyotiga katta mablag' sarflanish evaziga mazkur sohaning fantalab tarmoqlari ham tez sur'atlar bilan rivojlanib etmoqda. Axborot texnologiyalari, marketing, konsalting sohalariga bo'lgan talabning kuchayishi jahon iqtisodiyotida to'rtlamchi sektorning shakllanishiga sababchi bo'ldi. Hozirgi kunda bu sohada faolit olib boruvchi kompaniyalarning jahonning eng yirik

TMK orasida yetakchi o'rirlarga ega bo'layotganligi (masalan, AQShning Wal-Mart Stores, Amazon kompaniyalari bunga misol bo'la oladi) haqiqatan ham davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy joylashuvi hamda taraqqiyotida muhim o'rni borligini ko'rsatadi.

Xududning iqtisodiy o'zlashtirilganlik darjasи ham xizmat ko'rsatish tarmoqlari joylashuvi uchun katta ta'sirga ega. Qadimdan o'zlashtirilgan hududlarda katta miqdorda aholining to'planishi, ishlab chiqarishning barcha ko'rinishlari mavjud bo'lishi natijasida ko'plab ijtimoiy, madaniy xarakterga ega nomoddiy soha tarmoqlari rivojlanadi. Ayniqsa, tarixi uzoq taraqqiyot davrlariga borib taqaladigan aholi manzilgohlari – shaharlarda uning ko'plab ko'rinishlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga iqtisodiy o'zlashtirish holatiga ko'ra turli davlatlarda yuzaga kelgan hududiy tafovut natijasida shahar va qishloqlar orasida farq sezilarli darajada bo'ladi. Bu holat ushbu aholi manzilgohlarida xizmatlarga nisbatan turli talablarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, ularning geografik o'rni bilan bog'liq holda markaziy va pereferik hududlar xizmat ko'rsatish tarmoqlari tarkibi ham bir-biridan ajralib turadi. Shunday qilib hududlarning o'zlashtirilganlik darjasи hamda ushbu mintaqalarda aholi hududiy joylashuvining murakkab tizimlari yuzaga kelgan rayonlarda xizmatlar sohasi yaratadigan mahsulotlarning hajmi va ko'p turli bo'lishiga olib keladi. 1960-yillarda respublikamizning cho'l hududlari o'zlashtirilishi natijasida shakllangan aholi manzilgohlarida birinchilardan bo'lib umumiyligi ovqatlanish, savdo, tibbiy xizmat kabi nomoddiy tarmoqlar faoliyati tashkil qilinganligi ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

Milliy va diniy omil ham mazkur tarmoqlar joylashuvida o'z o'miga ega bo'lib, unda turli etnoslarga xos an'ana va urf-odatlar, diniy aqidalar hamda qarashlar turli davlat va mintaqalarda ma'lum xizmat turlariga nisbatan talabning turlicha shakllanishiga sababchi bo'ladi. Ushbu omillar turizm rivojiga katta ta'sir ko'rsatsa, umumiyligi ovqatlanish, savdo, madaniy-ma'rifiy xizmatlar ko'rsatishda ba'zi chekllovlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, Hindistonda asosiy diniy e'tiqod yo'nalishi bo'lgan induizm xos qarashlardan kelib chiqib ko'plab umumiyligi ovqatlanish muassasalarida mijozlarga qoramol go'shti ishlatilgan taomlar taklif etilmaydi.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishi va uning muassasalari hududiy joylashuvida demografik omil o'z ta'sir kuchiga ega. Har qanday xizmat turi talab darajasiga bog'liq holda rivojlanganligi sababli mintaqalar va davlatlarda yuz berayotgan demografik jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu omil tarmoqning barcha sohalari rivojida ahamiyatlidir. Asosan iste'molchilar miqdori, uning moddiy imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlarda soha tarmoqlarning katta qismini rivojlantiradi.

Barchamizga ma'lumki, transport o'z xususiyatiga ko'ra ham moddiy, ham nomoddiy tarmoqlar tarkibidan o'rinn oladi. Tashilayotgan mahsulot tannarxida transport xarajatlarining aks etishi uning moddiy tarmoqlarga bog'liqligini, uning aholini tashishi orqali esa xizmat ko'rsatish faoliyatini o'zida jamlaganligini ko'rish mumkin. Transport yo'llari esa o'z o'rniда ularning chekka aholi manzilgoxlariga ham kirib borishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida tavsif berib o'tilgan nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi omillar bilan birga mintaqaga va davlatlarga xos iqtisodiy siyosat, ijtimoiy o'zgarishlar, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan integratsion aloqalarning kuchayishi kabi omillar ham xizmatlar sohasining rivojida katta rol o'ynaydi. Turli taraqqiy etgan davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot modellarida bu sohaga e'tibor kattaligi tufayli respublikamiz rahbariyati tomonidan ushbu tarmoqlarini rivojlantirishga ustivor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Uning ikki turi bor:

1. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalari:

- Uy-joy kommunal xo'jaligi
- Qurilish
- Elektr ta'minoti
- Gaz ta'minoti
- Issiqlik ta'minoti
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya
- Transport xizmatlari va transportga texnik xizmat ko'rsatish
- Aloqa va telekommunikatsiya
- Raqamli va maishiy texnika buyumlarinita'mirlash
- Savdo
- Umumi ovqatlanish

- Maishiy
- Sug'urta va b.

2. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi sohalari:

- Ijara xizmati
- Tibbiy xizmat
- Ta'limiy xizmatlar
- Axborot xizmatlari
- Yuridik xizmatlar
- Moliyaviy xizmatlar
- Tarjimonlar xizmati
- Mehmonxonalar xizmati
- Qo'riqlash xizmati
- Turistik xizmatlar
- Ko'ngilochar va dam olish xizmatlari

Xizmat ko'rsatish sohalari esa aholiga xizmatlar taklif etish va ishlab chiqarish maqsadida shakllantirilgan faoliyat turlari hamda xo'jalik tarmoqlarining jamlanmasi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari aholi takror barpo bo'lish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, mintaqalar bo'ylab ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlanishda ijobiy ahamiyatga ega.

Yo'naliishiga ko'ra xizmatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Umumxo'jalik xizmatlari — bozor iqtisodiyotida an'anaviy bo'lgan savdo, transport, aloqa, kommunal xizmatlar (energetik, gaz, issiqlik va suv ta'minoti, kanalizatsiya, axlat yig'ishtirish), bino va qurilmalarni ta'mirlash, texnik vositalarni ijara berish va ta'mirlash.

Shaxsiy xizmatlar — uchlamchi sektorda eng tez rivojlanayotgan xizmatlar: umumi ovqatlanish, ko'ngilochar va dam olish, mehmonxona xizmatlari (otellar, kempinglar), maishiy xizmatlar (sartarosh, kir yuvish).

Ishbilarmonlik xizmatlari — bank va moliya-kredit faoliyati, marketing va reklama, muhandislik, boshqaruv va maslahat, axborot, xodimlarni tanlash va ishga joylashtirish, qo'riqlash. Bu xizmatlar ishlab chiqaruvchilar faoliyati samaradorligini ta'minlab beradi.

Ijtimoiy xizmatlar (asosan davlat tomonidan moliyalashdiriladi) — ta'lim, sog'liqni saqlash, maktabgacha tarbiya, ijtimoiy

ta'minot maskanlari (bolalar, keksalar va nogironlar uylari), madaniy maskanlar (kutubxona, muzey, ko'rgazmalar), yuridikxizmatlar.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega mintaqalar quyidagi o'rnlarni egallaydi:

1.G'arbiy Yevropa

2. Osiyo

3. Shimoliy Amerika

4. Avstraliya, Sharqiy Yevropa

5. Lotin Amerikasi, Afrika

YaMM tarkibida xizmat ko'rsatish sohalari ulushi bo'yicha rivojlangan davlatlar peshqadam hisoblanib, quyidagi davlatlar bu borada peshqadamlit qiladilar:

51-jadval

YaMM tarkibida xizmat ko'rsatish sohalari ulushi.

Nº	Davlat	Xizmat ko'rsatish sohalari ulushi, %
1	Monako	95,1
2	Lyuksemburg	86,0
3	Jibuti	81,9
4	Palau	81,8
5	Malta	80,6
6	Sent-Lusiya	80,0
7	AQSH	79,6
8	Kipr	78,3
9	Barbados	78,0
10	Fidji	77,6

Xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishining o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

➤ Bu sohalarning turli davlatlar iqtisodiyotidagi ulushining oshib borishi.

➤ Xalqaro savdo hajmining mintaqaviy kengayishi. Hozirgi kunda uning asosiy ko'rinishlari bo'lib, eksportva import, transport va sayyohlik xizmatlari, bank, sug'urta, axborot, ta'limiy, tibbiy va boshqa xizmat turlari rivojlanib bormoqda. Xizmatlar eksporti hajm jihatdan mahsulot eksportini ortda qoldirmoqda.

9.2. Turizm- Xizmat ko'satish sohasining asosiy tarmoqlari.

O'zbekiston Respublikasi «Turizm haqidagi» qonuniga muvofiq turizm bu - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sogolomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga junab ketishi (sayohat qilishi);

Turizm tovar singari xizmatlar shaklida amalga oshiriladi. Turizm xizmati umuman xizmatlar kabi insонning samarasida aks etuvchi ma'lum iste'mol qiymatining xarakatiga aytildi. Bunda xizmatlar narsa sifatida, ya'ni tovar yordamida yoki jonli mehnati amalga oshirish jarayonida ko'rinishi mumkin. Ushbu xizmatlarni ishlab chiqarish xizmatlarining ikki turiga bo'linadi: moddiy (ishlab chiqarilgan) narsa orqali va nomoddiy (ishlab chiqarilmagan).

Tur – ma'lum marshrutda, ma'lum muddatda taqdim etiladigan turli xizmatlar (joylashtirish, ovqatlanish, transport xizmati, maishiy, turistik, ekskursiya va boshqa xizmatlar) to'plamidir.

Turistik maqsadlar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarni yig'indisi **turmahsulot** deb ataladi. Turmahsulot qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

- ma'lum maqsadlarga yo'naltirilganligi bo'yicha birlashtirilgan turlar (tanishuv, sog'lomlashtirish va h.k.);
- Turli ko'rinishidagi turistik-ekskursiyasi xizmatlari (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmatlari va h.k.);
- turistlarga mo'ljallangan suvenir tovarlari (kartalar, sopol idishlar, mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari va h.k.).

Turizmni mamlakatga import qilish yoki mamlakatdan eksport qilish ham mumkin.

Boshqa hududlardagi turistlar xarajati turistlarni qabul qiluvchi mazkur hudud iqtisodiyotiga qo'shgan hissasidan tashkil topadi. Masalan, Yaponiyadan kelgan turistlar sayohat qila turib, o'z mablag'larini O'zbekistonda qoldiradilar. Shu tarzda mamlakatga turistik maqsadlarga kelayotgan muhohirlarni xarajatlari O'zbekiston uchun turistik eksportni tashkil etadi. Mazkur davlatdan keta turib turistlar orttirilgan taasurotlarga ham ega bo'ladilar.

Shunday qilib, **turistik eksport** – bu mazkur davlatga turistlar mablag'ini kiritish bilan bir vaqtida kuzatiladigan turistik tasavvurlarni mamlakatdan olib ketilishi hisoblanadi.

Turistik import – bu mazkur davlatdan turistlar mablag'ini olib chiqish bilan bir vaqtida kuzatiladigan turistik ta'surotlarni mamlakatga olib kirishdir.

Agar O'zbekisondan turistlar Yaponiyaga sayohat qilsalar, bu O'zbekiston iqtisodiyoti uchun turimport hisoblanadi. Yapon turistlarini O'zbekistonda sarflangan mablag'lari yapon iqtisodiyoti uchun turimport hisoblanadi.

Turistik eksportda pul oqimlari yo'nalishi turistlar oqimi yo'nalishi bilan mos tushadi, agar tovarlar eksport qilinsa mazkur oqimlar aksincha yo'naltiriladi.

Bozor iqtisodiyoti uchun nafaqat alohida sohalarning rivojlanishi, balki sohalararo komplekslar diversifikatsiyasining amal qilishi ham muhimdir. Chunki, turizmda ham iste'mol predmetlari (oziq-ovqat), ham xizmatlar (mehmonxonaga joylashтиrish) ishlab chiqariladi, shu sababli qo'yidagicha xulosa qilish mumkin:

Turizm – bu ishlab chiqarish va noishlab chiqarish funksiyalariiga ega bo'lgan va turistik industriyadan tashkil topgan diversifikatsiyalangan tarmoqlararo ijtimoiy maishiy infratuzilma kompleksidir.

Turizm sohasida ro'y berayotgan xo'jalik jarayonlari ishlab chiqarish - xizmat ko'rsatish jarayoni bo'lib hisoblanadi.

Turistik industriya – bu mehmonxonalar va boshqa joylashish vositalari to'plami, transport vositalari, umumiy ovqatlanish korxonalari, ko'ngilochar vositalar, tanishuv, ish bilan bog'liq, sog'lom-lashtirish va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan ob'ektlar, turoperatorlik va turagentlik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar hamda, sayohat xizmatlari va gid-tarjimonlik xizmatlarini ko'rsa-

tuvchi muassasalar yig'indisidir. Turizm industriyasining to'la tasnifi 52-jadvalda ko'rsatilgan.

52-jadval

Turizm sohasining tasniflanishi.

Nº	Tasniflanadigan belgilari	Turizm turlari
1	Geografik printsip bo'yicha	1.1 Ichki 1.2 Halqaro
2	Turistik oqimlar yo'nalishi bo'yicha	2. 1 Kiruvchi 2. 2 Chiquvchi
3	Maqsadlar bo'yicha	3. 1 Rekreatsion 3. 2 Sog'lomlashtiruvchi dam olish 3. 3 Bilimini oshiradigan dam olish 3. 4 Malakaviy ish turizmi 3. 5 Ilmiy turizm 3. 6 Sport turizmi 3. 7 Shop-turlar 3. 8 Sarguzashtli 3. 9 Ziyorat (haj) safari 3. 10 Qo'msash 3. 11 Ekoturizm 3. 12 Ekzotik
4	Moliyalashtirish manbai bo'yicha	4.1 Sotsial turizm 4.2 Tijoriy turizm
5	Harakatlanish usuli bo'yicha	5.1 Yayov 5.2 Aviatransport 5.3 Dengiz transporti 5.4 Daryo transporti 5.5 Avtoturizm 5.6 Temir yo'l transporti 5.7 Velosiped transporti 5.8 Ulovlarda 5.9 Aralash
6	Joylashuv vositalari bo'yicha	6.1 Mehmonxonalar 6.2 Pansionatlar 6.3 Kempinglar 6.4 Palatkalar va h.k.

7	Ishtirok etuvchilar soni bo'yicha	7.1 Individual 7.2 Oilaviy 7.3 Guruhlar bo'lib
8	Tashkiliy shakllari bo'yicha	8.1 Tashkil qilingan 8.2 Tashkil qilinmagan

Turizm iqtisodiyoti – turizm sohasida ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash va turistik faoliyat natijalarini iste'mol qilish jarayonida hosil bo'ladigan munosabatlар tizimidan tashkil topadi.

Turistik firma iqtisodiyoti – bu turistik mahsulotni realizatsiya qilish va turli boshqa xizmat turlarini ko'rsatish natijasida olingan daromad (foyda) va nomoddiy aktivlar ishlab chiqarish omillari yig'indisidan iborat.

Turistik firma daromadlari va aktivlarining qiymat bahosi uni rivojlanish ko'lami va darajasini ifodalaydi. Uni rivojlanishi ko'lami bir tomonidan realizatsiya qilingan turmahsulot sifati va miqdori bilan, ikkinchi tomonidan esa realizatsiya qilingan turmahsulothajmi va uni realizatsiya qilishdan olingan foyda o'rtaсидagi optimal nisbatni topish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Turizm va sayohatlar bo'yicha BMT konferentsiyasida xalqaro turizm bo'yicha xarajat va daromadlarini hisoblash metodikasi qabul qilindi, hamda ishlab chiqildi.

Xalqaro valyuta fondi tavsiyalariga muvafiq "Turizm" to'lov balansi aktiviga qo'yidagi daromadlar kiradi:

- Ichki va chetga chiquvchi turistlarga tovarlar hamda turistik xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlari;
- Turistik korxonalar uchun jihozlar va turistik ehtiyoj tovarlarini eksport qilishdan tushgan tushum;
- Boshqa xizmatlarni sotishdan tushgan tushum (kadrlarni tayyorlash, chet el sheriklariga mamlakat mutaxassislarini taqdim etayotgan xizmatlar);
- Tashrif buyuriladigan mamlakatda chiquvchi turistlarga ichki va xalqaro transport bilan ko'rsatiladigan transport xarajatlari;
- Mahalliy turizm industriyasida chet el kapitali investitsiyasi;
- Turizmni rivojlantirish uchun boshqa mamlakatlarga taqdim etiladigan (kapitalni qoplash va foizlari) predmetlardan keladigan tushum;


To'lov balansining passiv qismiga qo'yidagi xarajatlar kiradi:

- Turistlar tashrif buyurgan davlatda turistik tovar va xizmatlarni xarid qilishiga ketgan xarajatlar;
- Davlatdan chiquvchi turistlar uchun zaruriy bo'lgan import tovarlariga jumladan, bevosita va bilvosita importlarga ketgan xarajatlar;
- Boshqa xizmatlarni xarid qilishga ketgan xarajatlar (chet elda kadrlar tayyorlash, turizm sohasida band bo'lgan chet el ishchi va mutaxassislarini mehnatiga haq to'lash);
- Chet el transport kompaniyalari tashrif buyuruvchi turistlarni tashishiga ketgan xarajatlar;
- Turizmni boshqa davlatlarda rivojlantirish uchun chet elda investitsiyalarga ketgan xarajatlar;
- Mahalliy turizmni rivojlantirishga sarflangan uzoq muddatli kreditlarga ketgan xarajatlar (kapitalni qoplash va foizlar).

Turistik firma daromadlari va aktivlarini qiymat bahosi uni rivojlanish ko'lami va darajasini tavsiflaydi.

Xalqaro turistik tashkilot ma'lumotiga ko'ra, 2019-yilda jahonda turizmdan jami 1 466 mlrd.dollar daromad olingan. Daromad olish bo'yicha AQSh yetakchi o'rinni egalladi (24-rasm). Bu sohadan AQSh yiliga 210 mlrd.dollar daromad oladi. Ikkinci o'rinni Ispaniya 65 mlrd.dollar bilan egallagan bo'lsa, Tailand (50 mlrd.dollar) uchunchi, Xitoy (52 mlrd.dollar) to'rtinchi va niyoyat beshinchisi pog'onani Fransiya (46 mlrd.dollar) band etdi.

Jahonda turizmdan daromad olish bo'yicha yetakchi davlatlar.



24-rasm.

Xalqaro turistik tashkilot ma'lumotiga ko'ra jahonda 2019-yilda jami 1 466 million turist qayd etilgan. Turistlar soni jihatidan Yevropa mintaqasi yetakchi hisoblanadi. Yevropaga 746 million turist tashrif buyurgan. Bu jahondagi jami turistlar sonining 50% tashkil etadi. Ikkinchisi o'rinni 360 million turist bilan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (25%) band etgan. Uchunchi pog'onani Amerika (219 mln., 16%), to'rtinchi o'rinni Afrika (70 mln., 5%) mintaqasi egallagan. So'nggi pog'onada Yaqin Sharq mintaqasi turadi. Bu mintaqaga yiliga o'rtacha 70 mln. turist (4%) kelib ketadi (llovdagi 25-rasmga qaralsin).

Turistlar sonini mamlakatlar kesimida tahlil qilsak (53-jadval), jahonda eng ko'p turist Fransiyada qayd etilgan. Fransiyaga ushbu yili 82,6 mln. sayyoh kelgan. Ikkinchisi o'rinni AQSh (75,6 mln.) band etgan. Keyingi o'rnlarni Ispaniya, Xitoy, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika, Tailand, Malayziya egalladi.

53-jadval

Turistlar soni bo'yicha jahoning yetakchi mamlakatlari.

Nº	Davlat nomi	XTT ajratgan mintaqasi nomi	Xalqaro turistlar soni, mln k
1	Fransiya	Yevropa	82.6
2	AQSH	Shimoliy Amerika	75.6
3	Ispaniya	Yevropa	75.6
4	Xitoy	Osiyo	59.3
5	Italiya	Yevropa	52.4
6	Buyuk Britaniya	Yevropa	35.8
7	Germaniya	Yevropa	35.6
8	Meksika	Shimoliy Amerika	35.0
9	Tailand	Osiyo	32.6
10	Malayziya	Osiyo	26.8

Turistlar sonini shaharlar kesimida tahlil qilsak (54-jadval), jahonda 2016-yilda eng ko'p turist Gonkong shahrida qayd etilgan. Gonkong shahriga ushbu yili 25,58 mln. sayyoh kelgan. Ikkinchisi o'rinni Osiyoning yana bir shahari Singapur (22,45 mln.) band etgan. Keyingi o'rnlarni Bangkok, London, Parij, Makao, Nyu-York, Shencheng, Kuala Lumpur va Antalya egalladi.

54-jadval

Turistlar soni bo'yicha jahoning yetakchi shaharlari.

Nº	Shahar nomi	Davlat nomi	Xalqaro turistlar soni, mln k
1	Gongkong	XXR (Gongkong)	25.58
2	Singapur	Singapur	22.45
3	Bangkok	Tailand	17.46
4	London	Buyuk Britaniya	16.78
5	Parij	Fransiya	15.20
6	Makao	XXR (Makao)	14.26
7	Nyu York	AQSH	11.85
8	Shencheng	Xitoy	11.70
9	Kuala Lumpur	Malayziya	11.18
10	Antalya	Turkiya	11.12

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish tarmoqlari qanday salmoqqa ega?
2. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
3. Talab darajasiga ko'ra nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini qanday guruhlarga ajratish mumkin?
4. Jahon xizmat ko'rsatish tarmoqlari orasida ta'lim xizmatlari ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
5. Turizm xizmatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga nimalar sabab bo'ladi?
6. Moliya xizmati rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi.
7. YAIM hajmida qaysi davlatlarda servisning ulushi katta?
8. O'zbekistonda qaysi xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlangan?
9. WTO nima?
10. Transport xizmatlarini taklif qilishda nimalarni hisobga olish lozim?
11. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi sohalarga misol keltiring?

12. Jahonning qaysi davlatlarida xizmat ko'rsatish tarmoqlari juda yaxshi rivojlangan?

13. Bank-moliya xizmati qaysi davlatlarida xizmat ko'rsatish tarmoqlari juda yaxshi rivojlangan?

14. Xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari qanday soliqlarni to'laydi?

15. Sug'urta xizmati nima?

16. Aydit xizmati nima?

10. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Tayanch tusunchalar: Import, eksport, TSA, xizmat ko'rsatish, moddly ishlab chiqarish, turizm xizmati, moliya xizmati, JST, valyuta, birjalar, bojxonalar, xalqaro savdo.

10.1. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy xususiyatlari

Har bir davlat o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalar olib borishi talab qilinadi. Xalqaro (tashqi) iqtisodiy aloqalar sifatida quyidagi holatlar o'rganiladi:

- Mahsulot va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- kapitalning xalqaro harakati;
- Xalqaro valyuta va moliya-kredit munosabatlari;
- Ishchi kuchining xalqaro harakati;
- Ishlab chiqarishda xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyaning rivojlanganligi;
- Xalqaro ilmiy texnik taraqqiyot;
- Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar aloqalari.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy ko'rinishlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy ko'rinishlari.

XALQARO SAVDO

XALQARO MOLIYA-KREDIT
MUNOSABATLARI

ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK

ISHLAB CHIQARISHDA XALQARO
HAMKORLIK

XALQARO TURIZM

26-rasm

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy va eng rivojlangan ko'rinishlaridan biri tashqi (xalqaro) savdo hisoblanadi. Xalqaro aloqalarning eng qadimiyligi ko'rinishi bo'lib, davlat chegaralaridan

tashqariga xom ashyo, mahsulotlarva xizmatlarni olib chiqilishi holati xalqaro savdo sifatida tushuniladi.

Dunyoda mavjud bo‘lgan har qanday mamlakat uchun tashqi savdoning roli kattadir. Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog‘lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo‘q”.

Xalqaro savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo‘ladigan turli davatlarni tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarning bir shakli bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni namoyon qiladi.

Mamlakatlar iqtisodiyotida ITI ta’siri ostida ro‘y berayotgan tuzilmaviy o‘zgarishlar (sanoat ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi) milliy xo‘jaliklarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa xalqaro savdoni faollashuviga imkon yaratmoqda. Xalqaro savdo ishlab chiqarishga nisbatan tezroq o‘smoqda. Tashqi savdo aylanmasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10%ga ko‘paygan holda jahon savdosini 16%ga o‘smoqda.

“Tashqi savdo” deganda bir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan haq to‘lanadigan olib kirishi, ya’ni, import va haq to‘lanadigan olib chiqish, ya’ni, eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarning haq to‘lanadigan tovar aylanmasi yig‘indisi xalqaro savdo deb ataladi. Xalqaro savdo tushunchasi torroq ma’noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, sanoati rivojlangan davatlarda tovar aylanmasining yig‘indisi, rivojlanayotgan davatlarda tovar aylanmasining yig‘indisi va x.k.

Jahonning barcha davatlari oldida tashqi savdo bo‘yicha milliy siyosat muammosi yotib, 200-yillar mobaynida bu mavzuda qizg‘in tortishuvlari bo‘lib turibdi.

Eksport va import tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ko‘rsatichlari bo‘lib hisoblanadi. Eksport deb (lotincha *exporto* so‘zidan olingan) mahsulot va xizmatlarni ma’lum davlat hududidan olib chiqishiga aytildi. Eksportning asosiy turlari qo‘yidagilar:

- Mahsulot eksporti – moddiy xususiyatga ega mahsulotlarni chetga chiqarish;

- Xizmatlar eksporti – xorijiy xamkorlar uchun ishlab chiqarish yoki iste’mol xususiyatiga ega xizmatlar ko‘rsatish;

- Kapital eksporti – xorijda o‘z ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish maqsadida kapital quyilma kiritish.

Import (lotincha *importoso‘zidan olingen*) deganda davlat hududiga intelektual faoliyat natijasida hosil bo‘lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar olib kirish tushuniladi. Import turlari quyidagilardan iborat:

- ✓ Sanoat va iste’mol mahsulotlarini import qilish.
- ✓ Oraliq xom ashyo va xizmatlar importi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning tayanch yo‘nalishlaridan biri – xalqaro savdodir. Qadimdan ijtimoiy hayotda muhim rol oynab kelayotgan xalqaro savdo FTI davrida yangi yuksalish bosqichiga kirdi. Xalqaro savdoning muhim xususiyatlardan biri – unda tovarlar tarkibi, salmog‘i va yo‘nalishlarining doimo o‘zgarib borishidir. Bunga albatta iqtisodiy inqirozlarning, davlatlar tashqi siyosatining va boshqa omillarning ta’siri kattadir.

55-jadval

Xalqaro savdodagi tovar mahsulotlari tarkibi (foiz hisobida).

Mahsulot turlari	1960 y.	2016 y.
1 Xomashyo va yarimfabrikat mahsulotlar	15	9
2 Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik xomashyolari	10	11
3 Yoqilg‘i mahsulotlari	30	19
4 Iste’molga tayyor mahsulotlar	45	61
Jami	100	100

55-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jahon bozorida, xatto oziq-ovqat mahsulotlarini hisoblamaganda ham, aholi va ishlab chiqarish shiyoyjlari uchun tayyor zaruriy mahsulotlar hissasi tez o‘sib borgan.

Xalqaro savdoning muhim talablaridan biri ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatiga e’tiborning kattaligidir. Jahon andozalariga mos va odil raqobatni hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan tovarlarga ayovsiz raqobatlarga bardosh bera olishi mumkin.

56-jadval

**Tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha yetakchi davlatlar.
(2016 y.)**

№	Davlat, mintaqा	Hajmi, mlrd. AQSh dolları
	Jahon	35800
	Yevropa Ittifoqi	4703
1	AQSh	3676
2	Xitoy	3488
3	Germaniya	2270
4	Yaponiya	1271
5	Fransiya	1030
6	Gonkong (XXR)	997
7	Buyuk Britaniya	993
8	Koreya Respublikasi	914
9	Niderlandiya	836
10	Kanada	821
11	Italiya	808
12	Meksika	732
13	Hindiston	674
14	Singapur	624
15	Tayvan (XXR)	563
16	BAA	562
17	Ispaniya	554
18	Shveytsariya	544
19	Belgiya	502
20	Rossiya	424

Boshqacha aytganda, jahondagi mashhur "Samsung", "LG", "Sony", "Adidas", "Coca-Cola", "Boing", "IBM", "Microsoft" kabi firma va kompaniyalar ishlab chiqariyotgan raqobatbardosh mahsulotlarning sifati va turlari hozirgi zamон talablariga mosligi tufayli doimo rivojlanishga erishmoqdalar.

Jahon savdosи ham geografik xilma-xillikka ega. Bunda ikki yo'nalish ajralib turadi. Jahon bozorida qatnashadigan mintaqalar, davlatlar, ya'ni G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, ayrim Sharqiy

Osiyo mamlakatlari va boshqalar xalqaro savdoga, asosan yuqori texnologiya asosida ishlab chiqarilgan turli ishlab chiqarish vositalari va aholi iste'moli buyumlari yetkazib bersa, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqasi mamlakatlari turli yoqilg'i, ma'danli minerallar, xilma-xil qishloq xo'jalik mahsulotlaridan iborat xomashyo mahsulotlari chiqaradi. Ayniqsa, Fors qo'ltig'i mamlakatlari neft, Markaziy va Janubiy Amerika davlatlari tropik dehqonchilik mahsulotlari bilan jahon savdosida keng ishtirok etadilar.

Hozirgi kunda jahonda tashqi savdo hajmi yildan yilga ortib borishi ko'zatilmoqda. Lekin ayrim davlatlarda (Rossiya, Qozog'iston, Ukraina) iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli uning hajmi pasayib bormoqda.

56-jadval ma'lumotiga ko'ra jahondagi barcha davlatlarning jami tashqi savdo aylanmasi hajmi 35,8 trln. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning hajmi bo'yicha AQSh dunyoda yetakchi davlat hisoblanadi. AQShda bu ko'rsatgich 3,6 trln. dollarni tashkil yetgan. Ikkinci o'rinn Xitoy (3,4 trln. dollar) va uchunchi pog'onani Germaniya (2,2 trln. dollar) egallaydi. Tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha dunyoning yirik 30 ta davlatlari qatorida Meksika, Indoneziya, Vyetnam kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning borligi taqsinga loyiqidir.

57-jadval

Jahonda eksport hajmi bo'yicha yetakchi davlatlar.

№	Davlat, mintaqা	Hajmi (mlrd. AQSh dolları)
	Jahon	17 585
	Yevropa Ittifoqi	2 259
1	Xitoy	2 157
2	Germaniya	1 576
3	AQSH	1 401
4	Yaponiya	683
5	Koreya Respublikasi	552
6	Fransiya	541
7	Gonkong (XXR)	540
8	Niderlandiya	526
9	Italiya	499
10	Buyuk Britaniya	436

Tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksportning roli kattadir. 57-jadval ma'lumotiga ko'ra jahondagi barcha davlatlarning jami eksport aylanmasi hajmi 17,7 trln. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning hajmi bo'yicha Xitoy dunyoda yetakchi davlat hisoblanadi. Xitoya bu ko'rsatgich 2,1 trln. dollarni tashkil yetgan. Ikkinchisi o'rinni GFR (1,5 trln. dollar) va uchunchi pog'onani AQSh (1,4 trln. dollar) egallaydi.

58-jadval ma'lumotiga ko'ra jahondagi barcha davlatlarning jami import aylanmasi hajmi 18 trln. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning hajmi bo'yicha AQSh dunyoda yetakchi davlat hisoblanadi. AQShda bu ko'rsatgich 2,3 trln. dollarni tashkil yetgan. Ikkinchisi o'rinni Xitoy (1,7 trln. dollar) va uchunchi pog'onani GFR (1,1 trln. dollar) egallaydi.

58-jadval

Import hajmi bo'yicha yetakchi davlatlar.

Nº	Davlat, mintaqा	Hajmi (mlrd.AQSh dollar)
	Jahon	18 000
	Yevropa Ittifoqi	2 244
1	AQSH	2 352
2	Xitoy	1 731
3	Germaniya	1 104
4	Buyuk Britaniya	782
5	Fransiya	766
6	Gonkong (XXR)	524
7	Koreya Respublikasi	520
8	Niderlandiya	514
9	Kanada	477
10	Hindiston	471

Ma'lum davr oralig'ida biron davlatga olib kirilgan mahsulotlar qiymatidan olib chiqib ketilgan mahsulotlar qiymatining ayrimasi tashqi savdo balansi hisoblanadi(27-rasm).

59-jadval

Tashqi savdo balansiga ko'ra peshqadam davlatlar.

Nº	Davlatlar	Balans, mln \$	YaMMdagi salmog'i
1	GFR	217000	6,6
2	XXR	199000	3,5
3	Rossiya	139400	9,4
4	Saudiya Arabiston	136130	31,3
5	Yaponiya	128400	2,4

3. Valyuta – davlatning pul tizimiga asos qilib olingen pul birligi. XIX asrgacha ko'pchilik mamlakatlarda kumush valyuta yoki bimetallizm pul tizimi keng tarqagan edi. XIX asrдан boshlab, avvalo Angliyada, so'ng boshqa mamlakatlarda oltin valyuta qo'llanila boshladi. XX asrning 70-yillaridan boshlab, qog'oz valyuta, ya'ni oltin va kumushga almashtirilmaydigan banknot va qog'oz pullar xarakterlidir. Ular infliyatsiyaga uchrab turadi, qadrsizlanadi, natijada davlat tomonidan devalvatsiya tadbirleri o'tkaziladi.

Valyutalar erkin almashtiriladigan (har qanday chet el valyutasiga cheklanmagan miqdorda almashtiriladi, har qanday mamlakatga erkin o'tkaziladi), qisman almashtiriladigan, almashtirilmaydigan (bir mamlakat doirasida amal qiladigan) turlarga bo'linadi.

Xalqaro to'lov muomalasi erkin almashtiriladigan yoki xalqaro valyuta fondi belgilagan kurs bo'yicha erkin almashtiriladigan valyuta bilan bajariladi. Valyuta operatsiyalari o'tkazishda cheklovga ega bo'lmagan valyutalar. Ular quyidagilar:

AQSh dollar, Yevro, Britaniya funti, Yapon yenasi, Shveytsariya franki, Kanada dollar, Avstraliya dollar, Shved kronasi, Daniya kronasi, Norveg kronasi, Singapur dollar, Gonkong dollar, Janubiy Koreya wonasi, Yangi Zellandiya dollar, Janubiy Afrika randi, Meksika pesosi, Isroil shekeli.

Zahiradagi (rezerv) valyuta jahonda tan olingen milliy valyuta turlari bo'lib, ular turli davlatlar milliy banklari tomonidan valyuta zahiralari sifatida saqlanadi. Davlatlar oltin-valyuta zahirasining asosini tashkil qiladi.Har bir davlat g'aznasida saqlanuvchi jahon zahira valyutalari, oltin yombilari, qimmatli qog'ozlarning AQSh dollaridagi qiymati oltin-valyuta zahirasini tashkil etadi. AQSh

dolları, Yevro, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Yaponiya yenasi, Shveysariya franki, Xitoy yuani jahonning rezerv valyutalari hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda va xaiqaro savdoni tartibga solishda Jalon Savdo Tashkilotining ahamiyati kattadir.

Jalon Savdo Tashkiloti (ing. World Trade Organization, WTO) 1995-yilda a'zo davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoni liberallash-tirish, savdo va siyosiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan. JST 1947-yil tuzilgan xalqaro bitim –GATT (ing. General Agreement on Tariffs and Trade)ning davomchisi hisoblanadi. Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan hukumatlararo ko'p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. Tashkilot BMT tizimiga kiradi. Bosh idorasi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan.

JST faoliyati a'zo mamlakatlarning o'zaro manfaatlarini turli tadbirlar (asosan boj imtiyozlari, to'siqlari va b.)ni qo'llash bilan himoya qilishga qaratilgan. A'zo mamlakatlar JST talablarini bajarish bilan birga tashkilotning boshqa a'zolariga savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimini (birinchi navbatda boj tariflarini pasaytirish) qo'llaydi, o'z ichki bozorini chet el korporatsiyalari uchun ochiq qilish majburiyatlarini oladi. Tashkilotga hozirgi kunda 133 ta mamlakat to'la huquqli a'zo, 30 mamlakat, shu jumladan Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston JSTda kuzatuvchi maqomiga ega va 1992-93-yillarda tashkilotga a'zo bo'lish uchun ariza bergen.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mintaqaviy xususiyatlarini ko'rsating.
2. "Tashqi savdo" deganda nimani tushunasiz?
3. Davlatlar oltin-valyuta zahirasi bo'yicha qaysi davlatlar yetakchi?
4. Katta sakkizlik davlatlarida eksport hajmi qancha?
5. Erkinalmashtiriladigan valyutalarga qaysilar kiradi?
6. Tashqi savdo balansiga ko'ra peshqadam davlatlar qaysilar?
7. Kapital eksporti jihatidan peshqadam davlatlar qaysilar?

8. Mamlakatimizga qaysi davlatlardan investsiyalar ko'p jalb qilinmoqda?

9. Erkin iqtisodiy zonalar nima va ularning ahamiyati?

10. Import hajmi jihatidan qaysi davlatlar dunyoda yetakchi?

11. Tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha yetakchi davlatlar qaysilar?

12. Dunyodagi eng ko'p eksport qiluvchi davlat qaysi?

13. Dunyodagi eng ko'p import qiluvchi davlat qaysi?

14. Jalon Savdo Tashkiloti qachon tuzilgan?

15. Jalon Savdo Tashkilotining qarorgohi qaysi davlatda joylashgan?

16. Birja nima?

11. JAHON MAMLAKATLARINING REGIONAL TAHLILI

Tayanch tushunchalar: subregionlar, davlat, mamlakat, Yevropa subregionlari, Osiyo subregionlari, Amerika subregionlari, Afrika subregionlari, Avstraliya va Okeaniya subregionlari, xalqaro mehnat taqsimoti.

11.1. Dunyo davlatlarini guruhlashtirish.

Ma'lumki, davlatlar bir qator ko'rsatkichlariga ko'ra guruhlashtiriladi. Unda davatlarni geografik o'rniغا ko'ra guruhlashtirish alohida ahamiyatga ega. Chunki, geografik o'rinni iqtisodiy-iijtimoiy geografik muhim kategoriya sifatida davatlarning jahon hamjamiyati, iqtisodiyoti hamda xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnni belgilab berishda, ixtisoslashgan tarmoqlar shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Davatlarni geografik o'rinni holatini tahlil qilishda mintaqaviylik xususiyatiga ko'ra ham o'rganib chiqish kerak. Har bir davlatning mintaqaviylik holatini tadqiq qilinganda avvalo u qaysi qit'ada, keyin esa o'sha qit'aning qay tomonida joylashganligini aniqlash va u asosida kerakli xulosalar chiqarish zarur bo'ladi. Bundan kelib chiqib, davatlarni bиринчи navbatda qit'alilik nuqtai nazaridan Yevropa, Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya davatlariiga ajratish zarur. Geografik o'rinning bu ko'rinishiga hech qanday e'tiroz yoki shubha mavjud emas. Faqat, ikki qit'a oralig'ida joylashgan davlatlar bundan mustasno (Rossiya, Qozog'iston, Turkiya). Ularni qaysi mintaqaga tegishli ekanligi ko'p xollarda mazkur davatlarda shakllangan siyosiy, etno-konfessional xususiyatlar sababchi bo'lган. Shu bilan birga BMT tomonidan amalga oshirgan rayonlashtirish jarayoni asos qilib olinadi. Har bir mintqa ichida kichik mintaqalar (subregionlar) ajratish ham davatlarning geografik o'rinni xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Jahon davlatlarini subregionlarga ajratishda turli yondashuvlar mavjud. Har bir guruhlashtirish holatida turli olimlarning turli qarashlar mavjudligini ko'rish mumkin. Unda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, etno-konfessional kabi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi. Masalan, xalqaro strategik tadqiqotlar instituti jahonda oltita (NATO blogiga a'zo davlatlar va a'zo bo'Imagan Yevropa davlat-

lari, O'rta Sharq va Shimoliy Afrika, Markaziy va Janubiy Osiyo, Sharqi Osiyo va Avstraliya, Saxroi Kabirdan Janubdag'i Afrika, Karib xavzasasi va Lotin Amerikasi) mintaqa borligini e'tirof etadi. Turli guruhlashtirish ko'rinishlarini tahlil qilish asosida BMT quydagi subregionlarni ajratadi (Ilovadagi 28-rasmga qaralsin).

11.2. Yevrosiyo materigini subregionlarga ajratish.

Insoniyat tsivilizatsiyasining beshigi bo'lgan Eski Dunyo - Yevropa, Osiyo va Afrikaning shimoliy qismi davatlari hududida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi qator kichik mintaqalar ajratiladi. Ular orasida Yevropa o'z tarixida katta siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan, jahonning katta yettilik davlatlaridan to'rttasini o'zida birlashtirgan qit'a ekanligi bilan ajralib turadi. BMTning klassifikatsiyasiga ko'ra Yevropa to'rtta subregiondan tashkil topgan. Bular quydagilar:

1. Shimoliy Yevropa;
2. G'arbiy Yevropa;
3. Janubiy Yevropa;
4. Sharqi Yevropa.

Hozirgi kunda Yevropa qit'asida 43 ta davlat mayjud bo'lib, Shimoliy Yevropada 10ta, Sharqi Yevropada 10 ta, G'arbiy Yevropada 9 ta, Janubiy Yevropada esa 14 ta davlat joylashgan. Mazkur subregionlar orasida Shimoliy Yevropa katta miqdorda tabiiy resurs imkoniyatiga (neft, gaz, o'rmon va suv resurslari) egaligi bilan ajralib tursa, Janubiy Yevropa iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, ayniqsa, intensiv bog'dorchilik katta o'rinni tutadi. G'arbiy Yevropa qit'adagi yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishgan davatlarning asosiy qismini o'zida jamlagan bo'lsa, Sharqi Yevropa asosan XX asrning so'nggi o'n yilligida ko'p yillik taraqqiyot yo'lini o'zgartirgan va sobiq Ittifoq davlatlaridan tashkil topgan.(Ilovadagi 29-rasmga qaralsin).

Hozirgi kunda jahon siyosiy kartasining ko'p sonli "olovli nuqtalari" joylashgan, katta demografik sig'imga ega bo'lgan, shu bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotida juda tez sur'atlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'layotgan davlatlar Osiyo qit'asida joylashgan. Maydon kattaligi jihatidan jahonda peshqadamlik qiluvchi ushbu qit'a beshta subregionga ajraladi:

1. Markaziy Osiyo;
2. Sharqiy Osiyo;
3. Janubiy Osiyo;
4. Janubi-G'arbiy Osiyo;
5. Janubi-Sharqiy Osiyo.

Osiyo hududida bugungi kunda 47 ta BMT tomonidan tan olingan davlatlar mavjud. Markaziy va Sharqiy Osiyoda 5 tadan, Janubiy Osiyoda 8 ta, Janubi-Sharqiy Osiyoda 11 ta, Janubi-G'arbiy Osiyoda esa 18 ta davlat joylashgan. Osiyo subregionlari orasida iqtisodiy qudrati jihatdan Sharqiy Osiyoga teng keluvchi kichik mintaqasi mavjud emas. Janubi-Sharqiy Osiyo katta miqdorda yangi sanoatlashgan davlatlar to'plangan mintaqasi ekanligi bilan ajralib tursa, Janubiy Osiyo katta miqdordagi ijtimoiy-iqtisodiy muammlarga ega bo'lgan subregion ekanligi hammaga ma'lum. Janubi-G'arbiy Osiyo qit'aning davlatlar soni eng ko'p bo'lgan subregioni bo'lishi bilan birga jahoning yetakchi davlatlari geosiyosiy qiziqishlari to'qnash kelgan energetik resurslarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Markaziy Osiyo sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqib, o'z rivojlanish yo'lidan borayotgan davlatlarni o'zida birlashtiradi. Ona Vatanimiz – O'zbekiston ham ushbu kichik mintaqaning markaziy qismida, muhim xalqaro transport yo'llarining ustida joylashganligi barchamizga ma'lum (Illovadagi 30-31-32-rasmlarga qaralsin).

11.3. Afrika va Amerikani subregionlarga ajratish.

Afrikani ham Eski, ham Yangi Dunyo qit'alari qatoriga kiritish mumkin. Agar uning shimoli va shimoli-sharqiy qismlarida eng qadimgi inson ko'rinishlari tarqalgan manzilgohlar mavjud bo'lishi bilan bir qatorda, qolgan qismlari jahon hamjamiatiga asosan Buyuk geografik kashfiyotlar davrida ma'lum bo'ldi. Uzoq davrlar davomida Yevropa davlatlarining mustamlakasi bo'lgan, asosan Ikkinci Jahon urushidan so'ng o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan Afrika hududida hozirgi kunda 54 ta mustaqil davlat mavjud. Unda 5 ta subregion mavjud:

1. Shimoliy Afrika;
2. Janubiy Afrika;
3. Markaziy Afrika;
4. G'arbiy Afrika;

5. Sharqiy Afrika.

Qit'aning shimolida 7 ta, g'arbida 16 ta, sharqida 17 ta, markazida 9 ta, janubida esa 5 ta davlat mavjud. (Illovadagi 33-rasmga qaralsin).

3. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida jahon siyosiy kartasida Amerika, keyinchalik Avstraliya va Okeaniya mintaqalari paydo bo'ldi. Ushbu mintaqalar orasida Amerika alohida ajralib turadi. Uning hududida jahon taraqqiyotida muhim iz qoldirgan Mayyalar, Inklar, Atsteklar madaniyati shakllanganligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, u yerda jahon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida salmoqli o'rinn tutuvchi AQSh, ko'p yillar davomida sotsialistik taraqqiyot yo'lidan ketayotgan Kuba, BRIKS tashkiloti asoschilaridan hisoblangan Braziliya kabi davlatlar joylashgan. Amerika qit'asi to'rtta subregionga ajratiladi:

1. Shimoliy Amerika;
2. Markaziy Amerika;
3. Karib havzasini davlatlari;
4. Janubiy Amerika.

(Illovadagi 34-35-36-rasmlarga qaralsin).

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon siyosiy kartasida nechta davlat mavjud?
2. BMTning klassifikatsiyasiga ko'ra Yevropa nechta subregionga ajratiladi?
3. BMTning klassifikatsiyasiga ko'ra Afrika materigi nechta subregionga ajratiladi?
4. BMTning klassifikatsiyasiga ko'ra Osiyo qit'asi nechta subregionga ajratiladi?
5. Sharqiy Osiyo subregioniga qaysi davlatlar kiradi?
6. Janubiy Osiyo subregioniga qaysi davlatlar kiradi?
7. Sharqiy Afrika subregioniga qaysi davlatlar kiradi?
8. Janubiy-Sharqiy Osiyo subregionida nechta davlat bor?
9. Avstraliya va Okeaniya subregionida nechta davlat mavjud?
10. Markaziy Amerika subregioniga qaysi davlatlar kiradi?
11. BMTning klassifikatsiyasiga ko'ra jahon mamlakatlari nechta subregionga ajratiladi?

12. Afrika hududida hozirgi kunda nechta mustaqil davlat mavjud?
13. Osiyo hududida hozirgi kunda nechta mustaqil davlat mavjud?
14. Amerika hududida hozirgi kunda nechta mustaqil davlat mavjud?
15. Afrika hududida hozirgi kunda nechta mustamlaka davlat mavjud?
16. Shimoliy Afrikasubregioniga qaysi davlatlar kiradi?

12. JAHONNING GLOBAL MUAMMOLARI

Tayanch tusunchalar: BMT, YUNEP, ekologiya, demografik muammolar, ozon, florgazi, "Sovuq urush", yadro quroli, ekstensivyo'l, intensivyo'l, kkal, oqsillar, sug'oriladigan yerlar, geografik tadqiqotlar.

12.1. Global muammolar va ularning nazariy tahlili

Global muammolar deb jamiyat rivojlanishi bilan yuzaga kelgan, insoniyat uchun xavf tug'diruvchi hamda ularni hal etish uchun jahon hamjamiyatining birgalikdagi faoliyatini talab etuvchi muammolarga aytildi.

Global muammolarning asosiy xususiyatlari.



37-rasm.

Global muammolarning asosiy turlari:

- ❖ Tinchlikni saqlash muammosi
- ❖ Ekologik muammo
- ❖ Demografik muammo
- ❖ Energiya bilan ta'minlash muammosi
- ❖ Xom ashyo muammosi
- ❖ Oziq-ovqat muammosi
- ❖ Dunyo okeanidan foydalanish muammosi
- ❖ Kosmosni tinch maqsadlarda o'zlashtirish muammosi
- ❖ Qolqolikni bartaraf etish muammosi
- ❖ Qochoqlar muammosi va b.

Mazkur muammolarning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganish ko'pgina fanlarning tadqiqot doirasidagi masalalar bo'lib hisoblanadi. Sotsial fanlar bilan bir qatorda geografik fanlar ham global muammolarni tadqiq qilishga teng haqli bo'lib hisoblanadi. Xorijiy geografik tadqiqotlar tahlili global ekologik muammo, toza suv bilan ta'minlanish muammosi va uning yechimiga katta e'tibor qaratilishini ko'rish mumkin⁹.

Tinchlik va qurorsizlanish.

Taxminan hozirgi kungacha 14,5 ming marta urushlar bo'lganligi haqida tarixiy dalillar mayjud. Urushlar natijasida taxminan 3,5 mlrd odam o'lgan. Xususan XVII asrda urushlar 5,2 mln., XX asrda 5,5 mln., XX asrda deyarli 50 mln. kishining yostig'ini quritdi. 1980-yili jahon mamlakatlari qurollanishga 1 trln. AQSh dollaridan ortiq mablag' sarflagan.

Energetika va xom-ashyo muammolari.

Mazkur muammo kelib chiqishining birinchi sababi jahon xo'jaligini energetika va xom-ashyoga nisbatan "ishlatilishi" juda oshib borayotganligidir. Masalan: XX asrda qazib olingan butun ko'mirning 40%, temirning 55%, neft va tabiiy gazning, boksitning 80%si so'ngi 20 yillikka to'g'ri keladi. Ikkinci sababi tekshirilgan zaxiralarning cheklanganligi. 3-sababi dunyodagi ayrim regionlar va mamlakatlarning tabiiy resurslar bilan bir xil ta'minlanmaganligi. Masalan: Fors ko'rfazi bo'yi mamlakatlarida jahonda aniqlanilgan neft zaxirasining 2/3 qismi mayjud. Masalan: Saudiya Arabistonida YaIMning 95%ni neftdan keladi.

Oziq-ovqat muammosi.

Tibbiyot hodimlarining hisobiga ko'ra, inson iste'mol qiladigan taomning kaloriyalik meditsina normasi sutkasiga 2300-2600 kkal va 70-700g oqsildan kam bo'lmasligi kerak. Lekin BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining 1/3qismi (rivojlangan mamlakatlar) gina shunday oziq bilan ta'minlangan xolos.

Oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha aholi jon boshiga hisoblanganda Italiya 1-o'rinda, Afrikada esa Liviya oldinda turadi.

⁹ N.Castré, A.Rogers, D.Sherman. Questioning Geography:Fundamental Debates. USA 2005. P. 32

Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat muammosi anche murakkab. Dunyoda yetishtiriladigan g'alla hosilining 1/3qismi, go'sht, sut, tuxumning 15-20%i ana shu mamlakatlarga to'g'ri keladi. Masalan: Indoneziya, Pokistonda aholi jon boshiga go'sht iste'mol qilish 4kg (yiliga). Hindistonda 1,5-2 kgni tashkil etgani holda, AQSh, Fransiya, Avstraliyada bu ko'rsatkich 100 kg dan ortiq. Oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun 2 xil usuldan foydalanish mumkin:

- 1.Ekstensiv yo'l.
- 2.Intensiv yo'l.

XX asr mobaynida sug'oriladigan yerlar maydoni 4 mln. hektardan 350 mln. hektarga ko'paymoqda. Obikor dehqonchilik jahoning 135 mamlakatida tarqalgan bo'lib, uning yarmidan ortig'i Osiyoga to'g'ri keladi. Lekin ulardan samarali foydalanish barcha mamlakatlarda ham amalga oshmayapti. Shu sababli oziq-ovqat muammosi keskinligicha qolmoqda.

Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.

Dunyo okeanining har tomonlama tadqiq etilishi va o'zlash-tirilishi "Dunyo okeani muammosi"ni keltirib chiqardi.

Dunyo okeanining ifloslanishi daryolardan kelayotgan zararli suvlar, sohillardan tashlanayotgan chiqindilar, kemalar harakati va halokati sababli tushayotgan neft va boshqa qazilma mahsulotlari tufayli, sanoat korxonalaridan tashlanayotgan iflos suvlar tufayli sodir bo'lmoqda. Hozirgi vaqtida Karib, Oxota, O'rta, Shimoliy, Boltiq, Qora, Azov, Yapon, Yava dengizlari, Biskayya, Fors, Meksika, Adan, Bengalalya qo'ltiqlari eng ko'p ifloslangan.

Dunyo okeanining havzasi, ayniqla, neft va neft mahsulotlari chiqindilar tufayli intensiv ifloslanmoqda. Kosmik kuzatishlar hozirgi vaqtida Dunyo okeani yuzasining 1/3 qismi neft pardasi bilan qoplanganligini ko'rsatmoqda. Shuningdek so'nggi paytlarda milliardlab plastik idishlar tashlanishi okean organizmlari yashash sharoyitini salbiy tomonga o'zgartirib yubordi.

Oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik muammosini bartaraf etish uchun okean biologik resurslaridan samarala foydalanish lozim. Hozircha dunyo okeani insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyo-jini 2%ini ta'minasada, okeandan hayvon oqsilining 12-25%i olinmoqda.

XGMT tufayli jahonda xalqaro savdoning tezkorlik bilan o'sishi Dunyo okeanida yuk tashish ishlari hajmini tobora oshirmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish eng katta umumbashariy muammo hisoblanadi. Hozirda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining 40%ni qashshoq yashaydi. 70 dan ortiq davlat oziq-ovqat mahsulotini chetdan keltiradi. Qashshoqlik, ochlik sababli turli kasalliklar va bolalar o'limi yuqori. "XX asr o'lati" (SPID) tropik Afrikaning qashshoq mamlakatlarida keng tarqalgan.

Qochoqlar muammosi

Qochoqlar muammosi bugungi kunda barcha insoniyatni havotirga solayotgan muammolardan biriga aylandi.

BMTning qochoqlar muammosi bilan shug'ullanuvchi bo'limi 2016-yil davomida dunyo bo'yicha 65 million kishi qochqingga aylanganini ma'lum qildi. Bu esa rekord ko'rsatkich hisoblanadi. 2014-yilgi hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo bo'yicha o'z uyini tashlab ketishga majbur bo'lganlar soni misli ko'rilmagan darajada o'sgan. Ushbu miqdorning o'sishiga asosiy sabab sifatida Yaqin Sharq va Afrikadagi harbiy mojarolar keltirib o'tiladi.

Shuningdek, BMT ma'lumotida 2015-yilda bu qochoqlarga yordam uchun 16 milliard dollar talab qilinishi qayd etilgan.

Jahonda qochoqlar muammosi keskinligicha qolmoqda. Qochoqlar soni esa yildan yilga ortib bormoqda. Masalan 2007-yilda qochoqlar soni 11.45 mln.ga etgan bo'lsa, 2009-yilga kelib 42 mln.dan oshdi. 2016-yilda jami dunyoda 65 mln. qochoq o'z mamlakatidan olisda yashashga majbur bo'ldi. Bu 2015-yilga nisbatan 300 000 ga ko'paygan.

Bizga ma'lumki qochoqlar asosan Yevropa mintaqasi davlatlari ga keladi. Ularning soni jihatidan Germaniya birinchi o'rinni egalaydi (60-jadval).

60-jadval

Yevropadagi qochoqlar soni bo'yicha yetkchi davlatlar.

Nº	Davlat nomi	Qochoqlar soni	Jami aholiga nisbatan %
1	GFR	77650	0,0968
2	Fransiya	61455	0,0968
3	Shvedsiya	43945	0,4599

4	Shveysariya	28640	0,3600
5	Belgiya	28285	0,2563
6	Buyuk Britaniya	28260	0,0447
7	Avstriya	17450	0,2074
8	Italiya	17350	0,0291
9	Niderlandiya	13100	0,0780
10	Polsha	10755	0,0279

12.2. Iqlim o'zgarishi muammosi.

Iqlim atamasi grekcha kluma – qiyalik ya'ni quyosh nurlarining tush paytida yer yuzasiga "og'ishi" qiyaligini anglatadi. Bu atama grek astronomi, matematik geografiya asoschilaridan biri Gippark (mil. av.160-125 y.y.) tomonidan fanga kiritilgan.

Iqlim – Quyosh va uning atrofidan aylanib turadigan yo'ldoshi
– Yer o'rtasidagi munosabatlar natijasida yer betiga yaqin bo'lgan atmosfera qatlamida ro'y berib turadigan tabiiy jarayonlar natijasidir.

Yer yuzasining quyosh nurlariga nisbatan og'ishiga bog'liq ravishda ob-havoning muayyan joyga xos bo'lgan ko'p yillik marom'i, ya'ni biron joyda bo'ladigan ob-havo sharoitlarining majmui va mavsumiy geografik o'zgarishi; quyosh radiatsiyasi, yer to'shamasi xususiyatlari hamda ular bilan bog'liq atmosfera sirkulyatsiyasi ta'sirida vujudga keladi. Har bir joy iqlimi uning boshqa oylardagi iqlimga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'p yillik meteorologik ko'zatishlar natijasidagina to'la tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Iqlim atmosfera va faol qatlam (yer yuzasi)da beto'xtov davom etadigan tabiiy (Iqlim hosil qiluvchi) jarayonlar (issiqlik, kinetik va b. shakldagi energiyalarning o'zgarishlari, suvning bug'lanishi, suv bug'ining suyuklikka aylanishi, namning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi va b.) natijasidir. Yer sharining turli nuqtalarida iqlimning turlicha bo'lishi iqlim hosil qiluvchi omillarning har xil bo'lishiga, ya'ni bu jarayonlar sodir bo'ladigan o'sha geografik sharoitlarga bog'liq. Geografik omillardan eng muhimlari joyning kengligi va balandligi, dengiz sohiliga yaqin-uzoqligi, orografiya va o'simlik qoplamining xususiyatlari, qor va muzning bor-yo'qligi, atmosferaning ifloslanganlik darajasi hisoblanadi. Bu omillar kengliklar bo'ylab turli iqlimlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Yerning shakli, uning Quyosh atrofidagi harakati va ekliptika tekisligiga

qiyaligi, yer yuziga quyosh energiyasi turli kengliklarda turlichalishishi, Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi natijasida havo va suv harakatlari yo‘nalishini o‘zgartirishiga ta’siri va bu ta’sirning yuqori kengliklarda kuchli bo‘lishi iqlim hosil qiluvchi astronomik omillar hisoblanadi. Biroq bir kenglikning o‘zida ham iqlim hosil qiluvchi jarayonlar tabiiy geografik omillarga, ya’ni yer yuzasining quyidagi xususiyatlariga bog‘liq holda turlichalishishi bo‘ladi: a) quruqlik va suv issiqlikni yutish, saqlash va qaytarish, namni bug‘lantirish, havo oqimlariga ta’sir etish xususiyatiga ega; b) quruqlik relyefi havo oqimlarining tutilib qolishiga, keskinlashuviga va o‘zgarishiga, yerning turli tomonlariga quyosh nurining turli miqdorda tushishiga, yer yuzasidan suvning oqib ketish va ketmasligiga va boshqalarga ham ta’sir ko‘rsatadi; b) turli tog‘ jinslaridan tarkib topgan quruqlik mintaqalari har xil issiqlik o‘tkazish xususiyatiga ega. Yer yuzida iqlim sharoitlarining turlichalishishi asosiy sabab astronomik va tabiiy-geografik omillar hisoblanadi. Ular yer yuzidagi hodisa va jarayonlarga yo butunlay bog‘lanmagan yoki, asosan, endogen jarayonlar ta’siri ostida juda sekin o‘zgaradi. Bu omillarning eng katta tafovutlari (masalan: tropik va mo‘tadil kengliklar o‘rtasida, qit‘alar va okeanlar o‘rtasida) havo oqimlarining umumsayyoraviy tizimini – atmosferaning umumiyligini tsirkulyatsiyasini yuzaga keltiradi. Bu oqimlar issiqlik va namni yer sharining bir qismidan ikkinchi qismiga ko‘chiradi, atmosferaning turli vertikal qatlamlari bo‘ylab issiqlik va nam almashinuvini vujudga keltiradi, bulutlar va yog‘inlar hosil qiladi yoki ularning hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi, atmosfera bilan faol qatlam o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni jiddiy o‘zgartiradi. Har bir joyda havo oqimlariga bog‘liq holda havo salqin yoki issiqlik bo‘ladi, yuqoriga ko‘tariladigan yog‘inli havo oqimlari, yo bo‘lmasa, tepadan pastga tushadigan quruq va iliq havo oqimlari ko‘proq bo‘ladi. Issiqlikning dunyo okeanlarida turlichalishishi va atmosfera tsirkulyatsiyasi tufayli dengiz oqimlarining paydo bo‘lishi ham iqlimni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oqimlar okeanning turli qismlarida yo anomal issiqlik, yoki anomal sovuq faol qatlam hosil qilib, shu orqali atmosfera tsirkulyatsiyasiga va bevosita dengiz ustida iqlim shakllanishiga ta’sir etadi.

O‘rta Osiyo hududining atmosfera tsirkulyatsiyasida arktika, mo‘tadil va tropik havo oqimlari ishtiroy etadi. Bu yerlarda yilning

sovuq fasllarida mo‘tadil mintaqalarda kontinental havo massalari ustunlik qiladi va ayniqsa, tsiklon faoliyati jadallik bilan rivojlanadi. Bu esa qish faslining juda o‘zgaruvchan, odatda, seryomg‘ir va ko‘pincha, sovuq bo‘lishiga olib keladi. Yilning sovuq bo‘lmaydigan davrlarida Turon pastteklisligidagi cho‘lning juda qizib ketishi tufayli past bosimli havo qatlami vujudga keladi. Bu yerga kirib kelayotgan havo oqimlari yer sirtidagi issiqlik to‘shamaning kuchli ta’siriga duch keladi, ularda jadal o‘zgarishlar jarayoni yuz beradi. Natijada issiqlik va quruq Turon kontinental tropik havo oqimi vujudga keladi. Transformatsiya (havo oqimining o‘zgarishi) ta’sirida tsiklonli jarayonlar shu qadar sezilmaydigan darajada o‘tadiki, faqat harorat qisman o‘zgaradi va bulutlar paydo bo‘ladi, nisbatan barqaror issiqlik va quruq ob-havo vujudga keladi.

Iqlimni hosil qiluvchi ikkilamchi omillar ham bo‘lib, ular quydagilardan iborat: a) faol qatlamning albedosi va boshqa xususiyatlarini o‘zgartirib yuboradigan quruqlikdagi qor va muzliklar hamda dengizlardagi muzliklar; b) faol qatlamning suv o‘tkazuvchanligi, issiqlik sig‘imi, issiqlik o‘tkazuvchanligi, albedosi, g‘adir-budirligi, bug‘latish qobiliyatini va xususiyatlarini o‘zgartirib yuboradigan o‘simliklar (ayniqsa, o‘rmon) va tuproq qoplami.

Okeanlarda iqlimning har bir elementi geografik kenglikning o‘zgarishiga, bir dengiz oqimi ta’siridagi hududdan ikkinchi oqim ta’siridagi hududga o‘tishiga, joyning atmosfera umumiyligini tsirkulyatsiyasiga nisbatan tutgan o‘rniga qarab asta-sekin o‘zgarib boradi. Iqlim faqat okeanlardagina sof holda kuzatiladigan bunday astasekin o‘zgarishi makroiqlimiyligini o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Quruqlikdagi makroiqlimning asta-sekin o‘zgarishiga relyef, o‘simlik, suv havzalari ta’sir etadi. Yirik va o‘rtacha relyef shakllari, o‘rmonlar, ko‘llar, yirik shaharlar ta’sirida bir necha km yoki bir necha o‘n km masofada iqlim elementlarining uzluksiz o‘zgarib turishi mahalliy iqlimni vujudga keltiradi.

Oxirgi o‘n yilliklarda Orol bo‘yida gidrologik maromning haddan tashqari salbiy o‘zgarishlari, Orol dengizi tangligi, bu hududdagi sharoitning rivojlanish tendentsiyasi, havzadagi Amudaryo deltasining suv bilan ta’milanishi bug‘lanishning hozirgi vaqtida iqlimning o‘zgarishidagi maromini, uning chegarasida tabiat landshaftlari ekologik holatini batafsil o‘rganish lozimligini taqozo

qiladi. Ko'zatilgan isish barcha tog' muzliklar maydonining qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Aerofotokuzatuv ma'lumotlari qaraganda Pomir-Olay muzliklari 1957-80-yillarda davrida 19% suvni yo'qotdi. Keyingi yillarda ham tog' muzliklarining qisqarish jarayonlari davom etmoqda. Bu esa o'z navbatida tog'dagi daryo oqimlarining qisqarishiga va hududni yanada aridlanishi (quruqlanishi)ga olib keladi.

Yer yuzida hukm surayotgan hozirgi iqlim sharoiti asosan yaqin o'tmishda, to'rtlamchi davrning quyi, o'rta va yuqori qismida ro'y bergan muzlanishlar davridan so'ng yuzaga kelgan. Yerdagi hayotning asosiy manbai quyosh bo'lsa-da, atmosfera qobig'inining iqlim hosil qiluvchi ahamiyati alohida o'rinn tutadi. Atmosfera tarkibining shakllanishi va o'zgarishi esa organik dunyoning taraqqiyoti hosilasidir. Iqlimshunoslarning hisoblashlariga ko'ra, atmosfera karbonat angidrid gazi bo'lmaganda harorat 6°C ga, suv bug'lari bo'lmaganda esa yer sirtidagi harorat 25°C ga pasaygan bo'lar edi.

Yer yuzasida qaror topgan ushbu iqlimi sharoit XX asrning o'rtalariga kelib kuchli antropogen ta'sirga, kuchga duch keldi. Ya'ni aholi sonining ko'payishi, tabiiy resurslarga bo'lgan talabning beto'xtov ortib borishi va niroyat fan hamda texnika bilan quollangan insonning tabiatga ta'sir kuchining ortib borishi Yer shari iqlimning o'zgarishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlar quyidagi dalillar bilan asoslash mumkin:

- Atmosferaning kimyoviy, fizik tarkibiga antropogen faoliyat ta'sirining ortib borayotganligi, a'zon qatlamenti yemiruvchi freon gazlarini hamda karbonad angidrid va boshqa issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlarni va aerosollarni chiqarish, turli organik yoqilg'i-larni yoqish va energiya sarflash orqali atmosfera haroratiga ko'rsatilayotgan ta'sirning ortib borayotganligi;

- Tabiiy resurslarning jadal su'ratlar bilan o'zlashtirilishi (yer, suv, o'rmon, tog'-kon) tufayli Yer sirti albedosining o'zgarganligi;

- Dunyo okeani sathining ko'tarilishi va suvi tarkibining ifloslanishi tufayli atmosfera-oken-quruqlik tizimida kechadigan havo, suv almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatish;

➤ Yer yuzida sodir bo'layotgan etnik nizolar, davlatlararo kelishmovchilik, urushlar, xalqaro terrorizm, tabiiy va industrial halokatlarning jadal tus olayotganligi;

➤ Antropogen ta'sir tufayli yer yuzida modda, energiya almashinuvni tufayli tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar shiddatining ortayotganligi;

➤ Havo transporti va yaqin kosmosni o'zlashtirish tufayli atmosferaga antropogen ta'sir yukining ko'payib borayotganligi va b.

Iqlimshunoslarning ma'lumotiga ko'ra, yuqorida qayd qilingan jarayonlar tufayli global iqlim isishi ko'zatilmoqda. Buning asosiy sababi yer yuzasidan chiqadigan uzun to'lqinli radiatsiyani yutib, atmosferada "issiqxona effekti" hosil qilayotgan gazlardir. Issiqxona hosil qiladigan gazlarning atmosferada ortishi esa yuqorida qayd qilinganidek, insonning yer yuzidagi faoliyati bilan bog'liq. Bunday gazlar asosan oltita. Eng asosiysi karbonat angidrid gazidir (SO_2). Bundan tashqari metan (SN_4), azot oksidi (N_2O), perftoruglerod (PFC_s), gidroftoruglerodlar (HFC_s) va oltingugurt geksaftoridi (SF_6) kiradi.


Insoniyatning energetik qurallanish darajasi past bo'lgan tarixiy davrlarda uning global iqlim isishga ta'siri sezilarli bo'lmagan. Ammo XX asrning o'rtalariga kelib, tobora qudratli kuchga aylanib borayotgan antropogen faoliyatning dunyo iqlimiga ko'rsatilayotgan salbiy ta'siri sezilarli bo'lib qoldi. Ma'lumotlarga ko'ra keyingi 100 yil davomida Yer sharida havo harorati $0,6^{\circ}\text{C}$ ko'tarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Yevropa qit'asi bo'yicha $1,2^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. Hozirgi davrda Yer sirtida o'rtacha global harorat $+15^{\circ}\text{C}$ ga teng. Dunyo okeani va dengizlarida suv sathi 10-20 sm. ga ko'tarilgan.

Shu bilan birga atrof-muhitning inson faoliyatiga ta'sirini ham unutmaslik kerak. Mashur olimlar N.Castre, A.Rogers, D.Sherman fikricha, aynan atrof muhit insonlarni ma'lum bir faoliyat turini amalga oshirishda yo'naltiradi. Shu bilan birga mazkur jarayon o'ziga xos tarzda ekologik holatga ta'sir ko'rsatishini ham esdan chiqarmaslik zarur¹⁰.

¹⁰ N.Castre, A.Rogers, D.Sherman. Questioning Geography:Fundamental Debates. USA 2005. P. 134

Ushbu global salbiy jarayonlar 1960-yillar oxirida iqlimshunos va dunyo muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar e'tiboriga tushdi va ushbu muammolarni hal etish yo'lidagi harakatlarga rahbarlik qilishni BMT o'z zimmasiga olgan.

Yer yuzasi qismlarida azonqatlamining yemirilishi.



38-rasm.

Nazorat savollari:

1. Global muammolarning yuzaga kelish sabablarini aytib bering.
2. Global muammolarni hal qilish bo'yicha taklif etilayotgan loyihalar orasida eng optimali qaysi biri deb bilasiz?
3. O'zgaruvchan iqlim sharoiti yuzaga kelishiga sababchi holatlarni aniqlang.
4. Tabiatni ifloslovchi asosiy manbalarni aniqlang va ular natijasida vujudga kelayotgan o'zgarishlarni tahlil qiling.
5. Endogen kuchlar ta'sirida qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?
6. Ekzogen kuchlarning iqlimga ta'sirini tahlil qiling va ularning ijobiyligi va salbiy ta'sirini aniqlang.
7. Ozon tuynugi bilan bog'liq muammoning shakllanish sabablarini aniqlang.
8. Orol muammosi global muammo bo'la oladimi?
9. Global muammolar ichida qaysi birlari eng muhim va dolzarb hisoblanadi?

10. Qoloq davlatlarni rivojlantirish uchun qanday chora tadbirlar zarur?
11. Ocharchilik muammosi qaysi davlatlarga xavf solmoqda?
12. Qochoqlar muammosi qaysi davlatlarga xavf solmoqda?
13. OITS cassalligi va uning salbiy oqibatlari nimadan iborat?
14. "Issiqxona samarasi" va uning salbiy oqibatlari nimadan iborat?
15. Global muammolarni bartaraf etishda O'zbekistonning roli qanday?
16. Global muammolarni bartaraf etishda BMT roli qanday?

Test topshiriqlari.

1.Jami qazib chiqarilayotgan gazning necha foiziga yaqini dengiz savozliklaridan olinmoqda?

- A. 15% B. 25% C. 30% D. 20%

2. Xitoyda sanoatning tayanch tarmog'i qaysi?

- A. yoqilg'i-enrgetika B. metallurgiya
C. mashinasozlik D. kimyo va neft-kimyo

3.Ikkinci guruhgä mansub yangi sanoat tarmoqlari deb ataluvchi sanoat farmoqlarini belgilang?

- A. vagonsozlik, optika, mikrobiologiya
B. rangli metallurgiya, stanoksozlik, avtomobilsozlik,
samolyotsozlik
C. avtomobilsozlik, samolyotsozlik, organik sintez kimyosi
D. mikroelektronika, mikrobiologiya, organizmalar

4 Chezivaga chegaradosh mamlakatlarini belgilang?

- A. Germaniya, Polsha, Vengriya, Shveysariya
B. Polsha, Slovakiya, Italiya, Avstriya
C. Avstriya, Slovakiya, Polsha, Germaniya
D. Slovakija, Avstrija, Fransija, Polsha

5. Postindustrial mamlakatlarda noishlab chiqarish sohasiga jami band aholining necha foizi to‘g‘ri keladi?

- A. 60-70%j B. 50-60%j C. 70-80%j D. 40-50%j

6.Islom dinining sunniylik yo'nalishi asosiy o'rinni egallaydigan davlatlarni belgilang

- A) Eron, Ozarbayjon, Pokiston
B) Filippin, Iroq, Tojikiston
C) Malayziya, Bangladesh, Afg'oniston
D) Turkiya, Iroq, Yaman

7. Neft zahiralari hajmi bo'yica jahonning birinchi "beshligi" ni belgilang?

- A. Saudiya Arabistoni, Qatar, Eron, Iroq, Quvayt
 - B. Saudiya Arabistoni, Quvayt, Iroq, Eron, BAA
 - C. Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, Bahrayn
 - D. Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron, Oatar, Quvayt

8.Qaysi davlatlarda aholining oddiy tabiiy takror barpo etilishi ayrim yillarda ta'minlanmayapti, yani o'lganlar soni, tug'ilgan bolalar sonidan ko'n bo'lmoqda?

- A. Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Daniya, Avstriya
B. Germaniya, Belgiya, Italiya, Portugaliya, Shvetsiya
C. Avstriya, Belgiya, Ispaniya, Xorvatiya, Shveysariya
D. Germaniya, Avstriya, Daniya, Vengriya, Niderlandiyalar

9. Asosiy millati jami aholisining 95 % idan ortiq qismini tashkil etuychi Yevropa mamlakatlarini belgilang?

- A. Islandiya, Irlandiya, Italiya, Ispaniya, Fransiya
B. Norvegiya, Daniya, Polsha, Germaniya, Islandiya
C. Buyuk Britaniya, Finlandiya, Ruminiya, Polsha, Chexiya
D. Xorvatiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Ispaniya

10. Dunyo xo'jaligining rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, savdo-sotiqning rivojlanishiga nima sabab bo'lgan?

- A. erkin savdo aloqalar B. tashqi siyosat
C. ishlab chigарishning rivoilanishi D. dengiz transporti

11. Sug'oriladigan maydonlarning hajmiga ko'ra qaysi daylat ilkinchi o'rinda turadi?

- A Hindistondan B AQSh'dan C Rossiya'dan D Xitoy'dan

12. Jahonda toza(rafinad) misni ishlab chiqarishda yetakchilik qilayotgan davlatlarni belgilang?

- A. AQSh, Zambiya, KDR, Shvetsiya
 - B. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya
 - C. AQSh, Rossiya, Xitoy, Germaniya
 - D. AQSh, Germaniya, Avstraliya, JAR

13.Turizm rivojlangan Bagam orollari qaysi okeanda joylashgan?

- A. Tinch
B. Shimoliy Muz
C. Atlantika
D. Hind

14. Turizm rivojlangan Maldiv orollari qaysi okeanda joylashgan?

- A. Tinch B. Shimoliy Muz
C. Atlantika D. Hind

15.Turizm rivojlangan Fidji orollari qaysi okeanda joylashgan?

- A. Tinch
- B. Shimoliy Muz
- C. Atlantika
- D. Hind

16.Afina shahri qaysi davlatda joylashgan?

- A. Turkiya
- B. O'zbekiston
- C. Livan
- D.Gretsya

17.Kair shahri qaysi davlatda joylashgan?

- A. Turkiya
- B. Misr
- C. Livan
- D. Suriya

18.Buyuk Britaniya mustamlakasi Gonkong (Syangan) qachon XXR tarkibiga kiritildi?

- A. 1997-yil 1-martda
- B. 1996-yil 1-iyulda
- C. 1997-yil 1-iyulda
- D. 1998-yil 1-iyulda

19.Portugaliya mustamlakasi Makao (Aomin) qachon XXR tarkibiga kiritildi?

- A. 1999-yil dekabr oyida
- B. 1996-yil 1-iyulda
- C. 1997-yil 1-iyulda
- D. 1998-yil 1-iyulda

20.Sharqiy Timorga qachon BMT tomonidan alohida maqom berildi?

- A. 1997-yilda
- B. 1996-yilda
- C. 1999-yilda
- D.2000-yilda

21.Chernogoriya qachon Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasidan chiqib mustaqillik erishdi?

- A. 2009-yilda
- B. 2008-yilda
- C. 1999-yilda
- D.2000-yilda

22.Janubiy Sudan qachon Sudan tarkibidan ajralib chiqdi?

- A. 2009-yilda
- B. 2008-yilda
- C. 2011-yilda
- D.2010-yilda

23.“Sakkizlik davlatlari” to‘gri berilgan qatorni ko‘rsating.

- A. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Daniya, Rossiya
- B. AQSh, Koreya Respublikasi, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Rossiya
- C. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Kanada, Rossiya

D. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Rossiya

24.Rivojlangan davlatlar ichidagi “ko‘chirilgankapitalizm” mamlakatlarini belgilang.

- A. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya

- B. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Rossiya, Meksika
- C. Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR , Kanada, MAR, Ummon
- D. Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR , Kanada

25.Davlatni idora qilishning qanday shakllari mavjud?

- A. Respublika va monopoliya
- B. Respublika va monarxiya
- C. Unitar va federativ
- D. Respublika va mutloq monarxiya

26.Yevropa qit’asida konstitutsion monarxiyalar soni qancha?

- A. 9
- B. 11
- C. 10
- D.12

27. Afrika qit’asida konstitutsion monarxiyalar soni qancha?

- A. 3
- B. 1
- C. 10
- D.5

28. Osiyo qit’asida konstitutsion monarxiyalar soni qancha?

- A. 9
- B. 11
- C. 10
- D.12

29. Mutloq teokratik monarxiyalar soni qancha va ular qaysilar?

- A. 2 ta, Qatar, Vatikan
- B. 1 ta, Vatikan
- C. 3 ta, Qatar, Bruney, Vatikan
- D.2 ta, Saudiya Arabistoni , Vatikan

30.AQShning ma’muriy bo‘linishini belgilang.

- A. 50 ta shtat, 50 mingdan ortiq graflik
- B. 51 ta shtat, 30 mingdan ortiq graflik
- C. 50 ta shtat, 1 ta federal okrug, 30 mingdan ortiq graflik
- D.49 ta shtat, 1 ta federal okrug, 30 mingdan ortiq graflik

31.Unitar so‘zining ma’nosi nima?

- A. Lotincha birlik, yagona
- B. Grekcha birlik, yagona
- C. Lotincha ittifoq, birlashma
- D.Nemischa birlik, yagona

32.Oykumena so‘zining ma’nosini nima?

- A. Grekcha so‘z bo‘lib, yashayman, joylashaman ma’nosini bildirib, yer yuzining aholi yashaydigan qismi demakdir
 B. Grekcha so‘z bo‘lib, yashayman, joylashaman ma’nosini bildirib, yer yuzining aholi zichligi demakdir
 C. Forscha so‘z bo‘lib, yashayman, joylashaman ma’nosini bildirib, yer yuzining aholi yashaydigan qismi demakdir
 D. Lotinchacha so‘z bo‘lib, yashayman, joylashaman ma’nosini bildirib, yer yuzining aholi yashaydigan qismi demakdir

33.Stambul shahri qaysi davlatda joylashgan?

- A. Turkiya B. O‘zbekiston
 C. Livan D. Suriya

34.Mumbay shahri qaysi davlatda joylashgan?

- A. Turkiya B. Hindiston
 C. Livan D. Suriya

35.Jahon turizmining necha % rivojlanayotgan mamlakatlariga to‘g‘ri keladi?

- A. 57% B. 16% C. 8% D. 17%

36.Jahon turizmining necha % Osiyo mamlakatlariga to‘g‘ri keladi?

- A. 57% B. 16 % C. 8% D. 17%

37.Jahon turizmining necha % Shimoliy Amerika mamlakatlariga to‘g‘ri keladi?

- A. 25% B. 19% C. 8% D. 50%

38.Jahon turizmining necha % Yevropa mamlakatlariga to‘g‘ri keladi?

- A. 57% B. 16% C. 8% D. 17%

39.WTO nima?

- A. Butun jahon savdo tashkilotining inglizcha nomi
 B. Butun jahon turistik tashkilotining inglizcha nomi
 C. Butun jahon turistik tashkilotining nemischa nomi
 D. O‘zbekiston turistik tashkilotining inglizcha nomi

40.Turizm rivojlangan Seyshal orollari qaysi okeanda joylashgan?

- A. Tinch B. Shimoliy Muz
 C. Atlantika D. Hind

41.Turizm rivojlangan Kanar orollari qaysi okeanda joylashgan?

- A. Tinch B. Shimoliy Muz
 C. Atlantika D. Hind

42.Turizm rivojlangan Bermud orollari qaysi okeanda joylashgan?

- A. Tinch B. Shimoliy Muz
 C. Atlantika D. Hind

43.Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) qachon tuzilgan?

- A. 1945 B. 1946 C.1949 D. 1944

44.Gana poytaxti qaysi shahar?

- A. Akhra B. Sana C.Banjul D. Uagadugu

45.Burkino Faso poytaxti qaysi shahar?

- A. Akhra B. Sana C.Banjul D. Uagadugu

46.Tashqi savdo hajmi jihatidan dunyoda qaysi davlatlar yetakchi?

- A. AQSh, Yaponiya, Germaniya
 B. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Rossiya, Meksika
 C. Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh
 D. AQSh, Germaniya, Xitoy

47.Aholisi soni jihatidanqaysi davlat dunyoda 5 o‘rinda turadi?

- A. AQSh B. Braziliya
 C. Yaponiya D. Hindiston

48.Hududi jihatidanqaysi davlat dunyoda 5 o‘rinda turadi?

- A. AQSh B. Braziliya
 C. Yaponiya D. Hindiston

49.Paxta importijihatidanqaysi davlat dunyoda 1 o‘rinda turadi?

- A. AQSh B. Xitoy
 C. Yaponiya D. Hindiston

50.Paxta eksportijihatidanqaysi davlat dunyoda 1 o‘rinda turadi?

- A. AQSh B. Xitoy
 C. Yaponiya D. Hindiston

Glossariy

Aholining miqdoriy rivojlanishi – aholi soni o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi.

Aholining sifatiy rivojlanishi – aholining yashash sharoiti, o'rtacha umr ko'rish darajasining o'sishi kabilarda aks etadi.

Aholizichligi – bir km.kv. maydonga to'g'ri keladigan aholi soni.

Aralash Respublika – xukumatning katta ta'siri bo'lgan kuchli prezidentlik xokimiyati. Asosiy xususiyati – hukumatning ikki tomonlama javobgarlikka egaligi (prezident va parlament oldida).

Arzon bayroqlar – boshqa davlatlar bayrog'i ostida suzishga rozi bo'lgan xorijiy davlatlar kemalariga taklif qilinadigan xizmat turi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yilda tuzilgan. BMTning doimiy ish o'rni (shtab kvar-tirasi) - Nyu-York shahrida joylashgan. BMTning asosiy organlari: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS), Vasiylik kengashi, BMT huzuridagi Xalqaro sud va BMT Kotibiyati - Bosh kotib va boshqa xodimlardan iborat. Bosh kotibni Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga muvofiq Bosh Assambleya 5 yil muddatga tayinlaydi.

Budjet – davlat daromadlari va xarajatlarining ma'lum bir davrdagi nisbati.

Daryo – tabiiy o'zanda doimiy yoki mavsumiy oqadigan va daryo havzasidagi yer usti va yer osti suvlari hisobiga to'yinadigan suv oqimi.

Demografiya – (yunoncha demos – xalq va grafiya) – har yili turli sabablarga ko'ra vasfot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadigan fan. Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo'lishi jarayoni va omillarini o'rganish, muammolarni belgilab, echimlarni aniqlash.

Dominion (inglizcha dominion – xokimiyat, mulk) – britaniya imperiyasining sobiq mustamlaka davlatlari bo'lib, ular Buyuk

Britaniya monarxini o'z davlat boshliqlari sifatida tan olishadi (masalan: Kanada, Avstraliya Ittifoqi).

Donli ekinlar – Don uchun ekiladigan eng muhim qishloq xo'jalik ekinlari guruhi; Donli ekinlar doni insonning asosiy oziq-ovqat mahsuloti; sanoatning ko'pgina tarmoqlari uchun xom-ashyo, shuningdek, chorva mollari uchun em.

Diniy turizm – xaj safari, ziyorati va boshqa diniy marosimlarni nishonlash maqsadida gi tashriflar.

Dividend – aktsiyadorlik jamiyati daromadining bir qismi. U xar yili aktsiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Erkin assotsiatsiyalar – biron davlat nazoratida bo'lsa-da, o'zining ichki boshqaruvida mustaqil bo'lgan, tashqi siyosatida esabir qator mustaqillikka ega bo'lgan davlatlar (Masalan: Italiya va Vatikan, Fransiya va Monakko o'rtasidagi kelishuv davlatlar boshqaruvi yuzasidan kelishuvi).

Emmigrantlar – aholining biron davlatdan ko'chib ketgan guruhi

Elat – etnoslarning tarixiy evolyutsion shakllanishidagi alohida oralig' bosqich. Ular qabila va urug'lar hamda yetuk darajada ijtimoiy shakllangan millatlar orasidagi birlashtiruvchi xalqadir;

Ekoturizm – atrof muhitni saqlashda iqtisodiy rag'batlantirish uchun sharoit yaratadi. "Ekoturizm" tushunchasi sayohatlarni juda keng qirralarini qamrab oladi, ya'ni, o'quvchilar uchun uncha katta bo'Imagan tanishuv turlaridan tortib, to milliy 'arklar va qo'riqxonalarlarga uzlusiz turistik sayoxatlarni qamrab oladi.

Ekologiya – tabiiy muhitning tirik organizmlarga tasiri va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan. "Ekologiya" atamasini fanga XIX asrda nemis olimi E.Gekkel olib kirgan. "Ekologiya" so'zi yunoncha bo'lib, "oikos" - uy, yashash joyi, "logos" - fan degan ma'noni beradi.

Federativ davlatlar – davlatning umumiy konstitutsiyasi doira-sida mustaqil ichki boshqaruvgaga ega bo'lgan ma'muriy hududlarga ega davlatlar.

Geosiyosat – turli siyosiy jarayonlarning geografik sharoitga bog'liq holda rivojlanishini o'rganadigan fan. Geosiyosat tushunchasini fanga birinchi bo'lib, 1916-yilda shvetsiyalik olim Rudolf Chellen kiritgan.

Geografik muhit – Yer tabiatining kishilik jamiyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida o‘zining hayoti va ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita ta’sir ko‘rsatib turadigan qismi

Geografik makon – falsafiy kategoriya bo‘lib, geografik qobiq doirasida moddiy geografik obyektlarning obyektiv va bilish mumkin bo‘lgan shakli.

Geosiyosiy ekspansiya – biron-bir davlatning boshqa bir davlatni o‘ziga tobe qilish maqsadida bosib olishi.

Geosiyosiy o‘rin – hudud (davlat)ning siyosiy geografik o‘rni.

Geografik o‘rin – Yer yuzidagi biror bir obyektning o‘zi bilan aloqador boshqa obyektlarga nisbatan tutgan o‘rni.

Globallashuv – butun jahondagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiya jarayoni.

Geyzer – (*islandcha geyzir - otimoq*) – vaqtı-vaqtı bilan favvoraga o‘xshab otilib turadigan issiq buloqlar. Geyzerlar asosan harakatdagi vulqonlar bor o‘lkalarda ko‘p uchraydi.

Ilmiy turizm – O‘qish ta’lim olish maqsadida, malaka oshirish maqsadida safar qilish xalqaro turizmning nisbatan yangi turlari safiga kiradi.

Immigrantlar – aholining biron davlatga ko‘chib kelgan guruhi

Iqtisodiy omil – Investitsion iqlim, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va b.

Iqtisodiy geografiya – Iqtisodiy va geografik tadqiqotlarni birlashtiruvchi fan hisoblanib davatlarni, sanoat sohalarini va jahon iqtisodining barcha bo‘g‘inlariga tegishli jihatlarni o‘z ichiga qamrab oluvchi va o‘rganuvchi fan.

Iqtisodiy rayon – Iqtisodiy geografik rayon – tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil va xalq xo‘jaligi tarixan tarkib topgan, ixtisoslashgan ishlab chiqarishga ega bo‘lgan hudud.

Ishlab chiqarish jarayoni – jamiyat va odamlar ehtiyojini qondirish uchun moddiy ne’matlar yaratish va xizmatlar ko‘rsatishga aytiladi.

Jahon turistik tashkiloti – BMT qoshidagi jahon turistik tashkiloti.

Kredit - qaytarib berish sharti bilan ma’lum vaqtga va ma’lum foizga pul yoki tovar holatida berilgan ssuda (qarz).

Koloniya (lotincha colonia – aholi manzilgohi) – boshqa davlat nazoratida bo‘lgan (metropoliya), siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka ega bo‘lmagan hamda maxsus siyosiy tizim orqali boshqariladigan mamlakat yoki hudud (masalan: Gibraltarning O‘rta yer dengizi hududida joylashganligiga qaramay Buyuk Britaniya tomonidan nazorat qilinishi).

Konstitutsion monarxiya – parlament qonun chiqaruvchi, hokimiyat esa ijro etuvchi organ hisoblanuvchi, monarx xuquqlari konstitutsiya asosida tartibga solingen davlat tuzumi shakli.

Madaniy landshaft – jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, xususiyatlari inson tomonidan ilmiy asosda va oqilona o‘zgartirilgan geotizim.

Marjon orollari – marjon hayvonlari, suvo‘tlar va boshqa organizmlar qoldiqlari yig‘ilishidan vujudga kelgan orollar. Hozirgi zamон marjon orollari ekvatorial va tropik o‘lkalardan boshqa yerlarda uchramaydi. Faqat Golfstrim iliq oqimi o‘tadigan Bagama orollari yaqnidagina tropiklardan tashqarida uchraydi. Marjon orollari joylashgan o‘rni va shakliga qarab qirg‘oq rifl ari, to‘siq rifl ari, atollarga bo‘linadi.

Mal‘gash – mongoloid va negroidlar aralash nikohi natijasida shakllangan irqiy ko‘rinish.

Megalopolis – (grekcha megalu – “katta”, polis – “shahar”) deb yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo‘shilib ketishiga aytiladi. Megalopolislarni bir qancha shahar aglomeratsiyalarining yig‘indisi deb ham talqin qilish mumkin. Jahonda shakllangan 6 ta megalopolis mavjud. Ularning 3 tasi AQSh hududida, 1 tasi Buyuk Britaniya, 1 tasi Osiyo hududida joylashgan. Megalopolislarning bittasi xalqaro xususiyatga ega bo‘lib, Niderlandiya, Germaniya, Belgiya, Fransiya hududlarida shakllangan. Bular quydagilar:

Metis – yevropoid va mongoloid (hindu)lar aralash nikohi natijasida shakllangan irqiy ko‘rinish;

Mutloq monarxiya – monarx xaq-huquqlari cheklanmagan davlat tuzumi shakli.

Mulat – yevropoid va negroidlar aralash nikohi natijasida shakllangan irqiy ko‘rinish;

Millat – yagona tili, hududi, milliy iqtisodiyoti, madaniyat va san’ati, mentaliteti va milliy o‘zligini anglash xususiyatlari yuqori

darajada shakllangan bo'lib, ko'pchilik holatlarda tarixan o'ziyosiy davlatchilik an'analariga ega bo'ladi.

Migratsiya – (lot. migratio – ko'chaman, joyimni o'zgartiraman) aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi

Moddiy ishlab chiqarish – moddiy shakldagi mahsulotlarni, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish. Masalan, yuk tashish, yo'l xizmati ko'rsatish, ishlab chiqarish axborotini uzatish va hokazolar.

NATO – Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti. G'arbning harbiy xavfsizlik va hamkorligi maqsadida asos solingen ushbu tashkiloti ham harbiy, hamda siyosiy jamlanmadir.

Nomoddiy ishlab chiqarish – moddiy shaklga ega bo'lmagan, lekin aholi uchun zarur xizmatlar jismoniy tarbiya, sport, bilim berish, madaniy-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish

Ofshor zona – (inglizcha off shore – qirg'oqdan tashqarida) — davlat hududi yoki uning bir qismi bo'lib, unda norezident kompaniyalar uchun mazkur davlat hududidan tashqarida faoliyat yuritish sharti asosida alohida imtiyozli ro'yhatdan o'tkazish, litsenziya berish va soliqqa tortish holati mavjud.

OPEK – Tashqariga neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti Saudiya Arabiston, Quvayt, Qatar, BAA, Liviya, Bruney kabi jami 13 mamlakat kiradi.

Parlementar monarxiya – konstitutsion monarxiyaning bir ko'rinishi bo'lib, unda monarx hokimiyatni boshqarmaydi, asosan ramziy ifoda ko'rinishiga ega. Parlamentar monarxiyada hukumat barcha davlat boshqaruv organlaridan yuqori hisoblanuvchi parlament oldida javobgar hisoblanadi.

Parlamentar respublika – prezident vakolatlari nisbatan kam bo'lib, hukumat bosh vazir tomonidan boshqariluvchi davlat tuzumi shakli.

Prezidentlik respublikasi – hukumat prezident tomonidan boshqarilib, uning katta vakolatlarga ega bo'lgan davlat tuzumi shakli.

Qabila va urug'lar – inson avlodining eng qadimiy oddiy ijtimoiy uyushmalari.

Qishloq xo'jaligi – Moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarini xom-ashyo bilan ta'minlaydi.

Reimmigrantlar – biron davlatdan ko'chib ketib qaytib kelgan aholi guruhi.

Rurbanizatsiya – (inglizcha rural – "qishloq") – shahar hayot tarzining qishloqlarga kirib borishi.

Rekreatsiya – (lotincha Dam olish - Recovery) - salomatlik va normal sog'lom holatini tiklash uchun qabul qilingan chora-tadbirlar majmui.

Savdo va valyuta kursi – Davlatlar orasidagi valyutalar to'lov qobiliyati, davlatlarning tashqi savdo xususiyatlari, tarkibi, davlatlardagi savdo siyosativa b.

Sambo – negroid va mongoloid (hindu)lar aralash nikohi natijasida shakllangan irqiy ko'rinish;

Suv omborlar – suvni yig'ish va saqlash maqsadida tashkil qilingan sun'iy suv havzalari.

Shahar – aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqda band bo'lgan aholi manzilgohlariga aytildi.

Shahar aglomeratsiyalari – turli kattalikdagi shaharlarning ma'muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashushi hisoblanadi. Mavjud aglomeratsiyalar bir markazli (monotsentrik) va ko'p markazli (politsentrik) bo'lishi mumkin. Tokio-Iokogama (aholisi soni 37,8 mln kishi), Jakarta (30,5 mln kishi), Dehli (25 mln kishi), Manila (24,1 mln kishi), Seul-Inchxon (23,5 mln kishi) jahoning eng yirik aglomeratsiyalari hisoblanadi.

Siyosiy omil – Siyosiy jarayonlar va siyosiy barqarorlik, xalqaro kelishuvlari va harbiy-siyosiy ittifoqlarda a'zoligi va b.

Suverenitet – (frans. Souverainete – oliv hokimiyat) — hokimiyatning ustunligi va mustaqilligi. Suverenitetni hurmatlash — xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy printsipi. Davlat suverenitet Suverenitet — hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi.

Sug'orma dehqonchilik – sun'iy sug'orish asosida faoliyat ko'rsatadigan dehqonchilik.

Suburbanizatsiya – shahar atrofidagi manzilgohlar aholisi sonining shahar aholisi hisobiga ortib ketishi.

Siyosiy karta – davlatlarning joylashgan o'rni, chegaralari va poytaxtlarini ko'rsatib beruvchi karta bo'lib hisoblanadi. U jamiyatdagi siyosiy-geografik o'zgarishlarni: yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, mavjud davlatlarning bir-biri bilan qo'shilishi yoki ajralishi, poytaxt shahar maqomining o'zgarishi kabilarni ko'rsatib beradi.

Tabiiy sharoit omili: Jahan xom-ashyo bozorlaridagi narx ko'rsatkichlari, energiya manbaalariga egalik va ularning narx ko'rsatkichlari va b.

Tabiat kompleksi – Yer yuzining tabiat komponentlarining o'zaro murakkab ta'siri natijasida tarkib topgan hamda tabiatining xususiyatlariga ko'ra boshqa joylardan farq qiladigan qismlariga aytildi.

Teokratik monarxiya – monarx nafaqat davlat balki din boshlig'i ham bo'lib hisoblanadigan davlat tuzumi shakli.

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti – har ming kishiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni. % bilan belgilanadi.

Transport – (lot. transporto – tashiyman) - ijtimoiy moddiy ishlab chiqarish tarmog'i, yuklarni va yo'lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat viloyat va tumanlari, korxonalari, xalq xo'jalik tarmoqlari o'rtasida, shuningdek, mamlakat ichida ayirboshlash va aloqani ta'minlaydi.

Tranzit – (lot. transitus – o'tish joyi) – yo'lovchi va yuklarni bir punktdan boshqasiga oraliq punktlar orqali tashish.

Unitar davlatlar – yagona davlat tuzilmasi bo'lib, markaziy boshqaruvi organlariga bo'yinuvchi ma'muriy-hududiy bo'linmalaridan iborat bo'lgan davlatlar.

Urbanizatsiya – (lotinchcha urbus – "shahar") – aholi va ishlab chiqarishning katta miqdorda shaharlarda to'planishi.

Xalqaro mehnat taqsimoti-turli davlatlardagi ishlab chiqarish samaradorligi, mehnatga nisbatan xaq to'lanish holati va b.

Xalqaro turizm – vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to'lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish tushuniladi.


Xristofor Kolumb (1451, Genuya – 1506.20.5, Val'yadolid) — asli genuyalik dengizchi sayyoh. Yerning shar shaklida ekanligi to'g'risidagi qadimgi ta'limotga va XV asr olimlarining noto'g'ri hisoblariga asoslanib, Kolumb Yevropadan Hindistonga olib bora-digan, uning fikricha, eng qisqa dengiz yo'lining loyihasini tuzdi. 1492-yil birinchi marotaba Amerika qit'asining markaziy qismlariga yetib kelgan sayyoh bu yerni G'arbiy Hindiston (West Indiya) deb hisoblab, bu yerga to'rt marotaba ekspeditsiya uyushtirgan.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki(YTTB) (The European Bank for Reconstruction and Development) – Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek, MDHga a'zo mamlakatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga yordam ko'rsatuvchi xalqaro bank. 1990-yilda a'zo bo'lgan 42 mamlakat hukumatlari tomonidan 10 mlrd ekyu mablag' biian tashkil etilgan. 1991-yildan faoliyat olib boradi. Shtab-kvartirasi Londonda.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zokirov Sh.S., Toshev X. Landshaftshunoslik. – T., 2013.
2. Nizomov A., Alimqulov N.R., Tillyaxodjaeva Z. Tabiiy geografik jarayonlar. – T., 2015.
3. Maksakovskiy V.P. “Jahoning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” O‘rta maktablarning 10 – sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1995 y.
4. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarova I., O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1994.
5. Amanov M., Abduraxmonov A. O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari, Qoraqalpog‘iston. – T., 1995.
6. Алимов Р.М., Арифхонов Ш.Р. и др. Центральная Азия: геоэкономика, geopolитика, безопасность. – Т.: Sharq, 2002.
7. Baxritdinov B.A. va boshqalar. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. T., 2008.
8. To‘xliyev N. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
9. Strahler, Alan H. Introducing Physical Geography Wiley. USA, Boston University. 2013. ISBN: 9789-0470-13486-3, 978-0470-41811-6
10. Joseph Holden. Physical Geography and the Environment. UK, Pearson Education Limited 2005. ISBN: 0-13-121761-5, 978-0-13-121761-4
- 11.N.Castré, A.Rogers, D.Sherman. Questioning Geography: Fundamental Debates. USA 2005.
- 12.Vaxobov X., Abdunazarov O‘., Zaynudinov, Yusupov R., Umumiy yer bilimi. – T.: Sharq, 2005.

Ilovalar




**1-rasm. Ptolomey tomonidan ishlab chiqilgan karta
(er. av. II ming y.)**



3-rasm. Dunyo siyosiy kartasi.



A) Ispaniya mustamlaka hududlari



**B) Portugaliya mustamlaka
hududlari**




C) Angliya mustamlaka hududlari




**D) Fransiya mustamlaka
hududlari**


**2-rasm. Jahoning yirik kolonial imperiyalari
(XVI-XVIII asrlar)**




**4-rasm. Jahon mintaqalarida davlatlar sonining davriy
o'zgarishi.**




5-rasm. Tabiiy resurslarni zahiraviylik holatiga ko'ra guruhshtirish.




6-rasm. Temir rudasi va uning xududiy tarqalishi.




7-rasm. Neft qazib olishning xududiy jihatlari.




8-rasm. Haydaladigan va o'tloq yerlarning mintaqaviy xususiyatlari, %




9-rasm. Tabiiy o'sish ko'rsatkichining mintaqaviy xususiyatlari.




10-rasm. Jahon aholisining diniy tarkib xususiyatlari.




11-rasm. Jahon iqtisodiyoti sohalari dinamikasi.



17-rasm. Jahon gaz sanoatida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi.




18-rasm. Elektro energetika sanoatining tarmoq tarkibi.




19-rasm. Jahonda asosiy metallar ishlab chiqarish salmog'i, % hisobida.



20-rasm. Mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi eng yirik mamlakatlar.




21-rasm. Go'sht ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi.



Manbalar: BMT-Comtrade, Royal FloraHolland, Rabobank, 2016*, Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

22-rasm. Jahoning eng yirik gul eksport qiluvchi davlatlari (2005-2015y.)



Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service) <https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

23-rasm. Dengiz konteynerlarida gullar savdosi.



Manba: Xalqaro turistik tashkilot

25-rasm. Jahonda turistlar soni va ulishi bo'yicha mintaqalar ko'rsatkichi.



28- rasm. BMT tasnifiga ko'ra jahon mintaqalarini subregionlarga ajratish.



29-rasm. Yevropa siyosiy kartasi.

ASIA



30- rasm. Osiyo siyosiy kartasi.

SOUTHEAST ASIA



31-rasm. Janubiy-Sharqiy Osiyo siyosiy kartasi.

MIDDLE EAST



32-rasm. Janubiy-G'arbiy Osiyo siyosiy kartasi.

AFRICA



33- rasm. Afrika siyosiy kartasi.

NORTH AMERICA



34-rasm. Shimoliy Amerika siyosiy kartasi.

CENTRAL AMERICA AND THE CARIBBEAN



35-rasm. Markaziy Amerika va Karib havzasi subregioni siyosiy kartasi.

SOUTH AMERICA



36-rasm Janubiy Amerika siyosiy kartasi.

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
1. Kirish. Jahon siyosiy kartasi.....	5
2. Dunyo mamlakatlari klassifikatsiyasi.....	28
3. Jahon tabiiy resurslari.....	45
4. Jahon aholisi geografiyasi.....	63
5. Jahon iqtisodiyoti.....	81
6. Jahon sanoat geografiyasi.....	98
7. Jahon qishloq xo'jalik geografiyasi.....	138
8. Jahon transport tgeografiyasi.....	161
9. Jahon xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi.....	171
10. Tashqi iqtisodiy aloqlar.....	185
11. Jahon mamlakatlarining regional tahlili.....	194
12. Jahanoning global muammollari.....	199
Test topshiriqlari.....	210
Glossary.....	216
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	224
Hovalar.....	225

N.I. SAFAROVA, N.K. KOMILOVA, I.N. ISLOMOV,
N.M. KARAKULOV

JAHON MAMLAKATLARI IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI

(O'quv qo'llanma)



“Mahalla va Oila” nashriyoti
Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 26.01.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84^{1/16}

Nashriyot bosma tabog'i 12. Adadi 300 nusxa.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,

M.Ismoilov ko'chasi, 1G-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.





ISBN 978-9943-7730-2-8

A standard linear barcode is positioned above the ISBN number. It consists of vertical black lines of varying widths on a white background.

9 789943 773028